Ll-14

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

UVAYSIY
NODIRA

10

84(50')-5
U-14

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

UVAYSIY
NODIRA

10

JIZZAX DPU
INV № 149141
AXBOROT RESURS MARKAZI

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5
U 14

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Ibrohim Haqqul, Zulayho Rahmonova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8722-7-1

© "O'zbekiston" nashriyoti, 2022

QALB VA DARD MUSHTARAKLIGI

XIX asr Qo'qon adabiy muhiti uzoq asrlik o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida yuzaga chiqqan o'ziga xos bir ijodiy hodisadir. Badiiy ijod tarixida aynan unga o'xshash yoki shakl, mazmun va tasvir e'tibori bilan uni takrorlagan adabiy-ma'naviy jarayon bo'lmagan. O'tmishda adabiyotning hayotga yaqinlashuvi, biri ikkinchisidan faol va jur'atli iste'dodlarning maydonga chiqishi nisbatan keng miqyosda xuddi shu adabiy birlikka mansubdir. Adabiyot u yoki bu xalqning davlatchiligi, hokimiyat siyosati, mafkura va ma'naviyatidan ayri bir mavjudlik emas. Qaysi yurtdaki, erkinlik va haqiqat tuyg'usi jonlanib, to'g'rilik va jur'at mayli kuchaysa, o'sha yerda yolg'on va riyodan tiyilgan shoir va adiblar e'tibor qozona boshlaydi. Bu fikrning yorqin bir dalili XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida ayol ijodkorlarning xalq orasida shuhrat topganidir. Ayniqsa, Uvaysiy va Nodiraning Qo'qon adabiy muhitida alohida o'rni bor. Alloh ularga o'zgacha bir nafas, beqiyos bir shuur va ruhiyat in'om qilganki, buni shoiralarning so'zi, fikri, holat va istak-intilishlari aniq tasdiqlab turadi.

Jahon otin Uvaysiy (1779/80–1845/46) — iste'doli shoira. U Marg'ilonda Qaynar Devona yoxud Devona Qalandar shoir oilasida dunyoga keldi. Albatta, Jahon Otinning adabiy-estetik qarashlari oila ta'sirida juda erta shakllangan. Uning she'riyatisiz o'zbek adabiyotining muhim bir joyi bo'sh qolgan bo'lur edi. U she'rga o'tgan ko'ngil harorati, she'r harakati bilan o'sha bo'shliqni to'ldirdi. Uvaysiy — dard farzandi. U alamdiyda o'zbek ayolining g'am-hasratlaridan tug'ildi. Ularning zavq va hissiyotlarini favqulodda g'amkashlik bilan an'anaviy mavzu, obraz hamda ifoda yo'llarida tasvirlab berdi. Jahon otin Uvaysiyning hassos li-

rikasi — uning mangu haykali. Shoiraning Mohlaroyimning komila shoira bo'lib yetishidagi xizmatlari esa alohida e'tirofga loyiq.

Mohlaroyim (1792–1842) Andijonda Rahmonqulibiy oilasida tavallud topdi. Shoh va shoir Umarxon Amiriy bilan hayot rishtalarining bog'lanishi uning hayoti va ijodiga muhim ta'sirini o'tkazdi. Bu ta'sir o'z davrining murabbiy shoirasi Uvaysiyga ham bevosita tegishli. Nodiraning talabi bilan uning saroyga keltirilishi shoiralarning ijodiy yuksalishiga sabab bo'ldi. Hamfikr va hamdardlik ularda yanada mustahkam ma'naviy rishta hosil qildi. Nodira mahoratli shoira bo'lib yetishdi. Uning so'zga, hayotga, inson ma'naviyatiga o'z poetik qarashi bor. U she'rda insoniy azoblarning ildizini ocha boradi. San'at qonuniyatlariga binoan yurak tarixini yaratadi. U fikrga ehtiros berish yo'llarini g'oyatda nozik anglaydi. Nodira — malika, ammo u bir vujuddagi ikkita malika. Bulardan biri — saltanat malikasi. Ikkinchisi — she'riyat malikasi.

Shoiralarning yetuk san'atkor sifatida kamol topishida Sharq adabiyotidagi ilg'or adabiy an'analar, birinchi navbatda, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy serqirra ijodiyotining roli hamda ta'siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. She'riyatda bosh mavqeda mazmun bo'lishi kerak, degan estetik aqidani Navoiy qayta-qayta ilgari surganligi ma'lum. Har ikkala shoira ijodiy muvaffaqiyatlarining o'zagi ham xuddi shu nazariy-estetik tamoyilni qabul qilib, unga qat'iy amal qilish harakatidan boshlanadi. Jomiy, Bedil, Fuzuliy, Mashrab ijodi bilan ham yaxshi tanish bo'lishgan. Ular she'riyatidagi g'oya va badiiyat yuksakligi, albatta, mana shu asarlarga bog'liq.

Adabiyot ruhiyat tasviri bo'lsa-da, u o'z davrining farzandidir. Shu ma'noda adabiyot nafaqat inson qalbiga, balki xalq hayoti, ijtimoiy-siyosiy muhit, ma'naviy-axloqiy dunyoqarash, ona tabiat, xullas — butun borliqda namoyon bo'ladi. Tarixni g'oliblar yozadi. Adabiyot esa mana shu

"g'oliblar tarixi"ning saodat asrini, armonli yillarini so'z sehri, mushohada quvvati hamda ilhom ne'mati mushtarakligida bo'y-basti bilan gavdalantiradi. Insoniylik shon-sharafiga daxldor har bir maqsad va haqiqat tarixda saralanib boradi. Abadiyat talabi, boqiylik mezonlariga muvofiq kelmaydigan hech bir intilish, hech qanday zafar bu tarixdan o'rin topolmaydi. Tarixiy qismatning daxlsizligi, ibratli bir tomoni ham mana shunda. Buni anglash va baholashda tarix bilan adabiyot orasida jiddiy farqlanish yo'q. Lekin tarixga qaraganda adabiyotning imkoniyat va imtiyozi kengroq. Uvaysiy va Nodiraning ko'pgina she'rlari avtobiografik xarakterga egaligi ma'lum. Shoiralar ijodining g'oya va badiiyati bevosita din, tasavvuf ta'limoti hamda tariqatlarning o'ziga xosligi bilan ham belgilanadi. Qo'qon adabiy muhiti shoiralari ijodida ham mumtoz adabiyotga xos an'anaviylik zamirida, albatta, tasavvufning sezilarli ta'siri bor. Shoiralar she'riyatida oshiq, orif, zohid, rind, soqiy, faqr, darvesh kabi mumtoz adabiyotning asosiy obrazlari tasavvufiy mazmun-mohiyat kasb etadi. Zero, bu adabiy muhit ijodkorlarining, deyarli, barchasi irfoniy asarlardan xabardor bo'lgan. Ayniqsa, bu an'anaviylik Jahon Otin Uvaysiy ijodidan boshlangan, desak mubolag'a emas. Uning maslagi, dunyoqarashi, ifoda mahoratini belgilashda, albatta, tasavvufiy bilimlar talab qilinadi. Uvaysiyda hol va ma'no uyg'un. Shubhasiz, holdagi yuksaklik ifodadagi teranlikni yuzaga keltirgan. U, haqiqatan, o'zlukni anglash, o'zlukka yetish iztirobini his etgan va mahorat bilan ifodalay olgan:

Istasang yor ila o'zluk, zohido, ko'p yig'lag'il,
O'zlugung g'arq etmag'a Jayhun kerakmazmi senga.

Albatta, bashariy menlikni tarbiya etib, ilohiy menlikka erishish ranj-u mashaqqatini bilgan ahli riyozat sohibigina nafs o'zlugini g'arq etmoq uchun ko'z yoshidan paydo bo'ladigan Jayhun kerakligini anglay oladi. Uvaysiy she'ri-

yati mazmun-mohiyatida bir erlik jasorati, ifoda tarzida esa bir injalik bor. Mutolaa chog'ida Haq va haqiqat ovozining yuksakligini ta'minlagan ko'ngil torlarining uzilay-uzilay deb turgan bir tarangligini his etasiz. Quyidagi misralarga e'tibor beraylik:

Ko'rub Majnun tan uryonasin ta'n etma Layliga,
O'tub o'zlukni bobidin ki har devonadin kelmas.

Bunday o'zlukni tanish orzusi barcha shoiralarga xos. Hassos shoira Nodira ham yor vasli o'zlukdan kechish bilan bo'lishini anglab, bu yo'lda ishqqa tayanadi:

Ey ko'ngul, yor uchun jahondin kech,
Havas bog'-u bo'stondin kech.
Anga o'zluk bila yetib bo'lmas,
Istasang yor vasli, jondin kech.

Shoiralar ijodida tasavvufiy ohanglarning, tariqat g'oyalarining aks etishi tabiiydir. Zero, ular ilhomlangan, bevosita ta'sirlangan va e'tirof etgan manbalar madaniy ma'rifiy adabiyot namunalari sanaladi. Ushbu adabiy muhit shoiralarining ustozlaridan hisoblangan Uvaysiy bir g'azalida shunday deydi:

O'zni qutqarmoq uchun yeldim-yugurdim har sori,
Ohu vovayloki, bora-bora oshiq bo'lmisham.
Manzil-u ko'yu, aloyiq bandidin ozodman,
To tariqi Xojai Ahrora oshiq bo'lmisham.

Uning Haqqa oshiqlik silsilasida naqshbandiya tariqatining mashhur vakili Xoja Ahror valiyning e'tirof etilishi shoiraning ishqi va irfoni haqidagi tasavvurlarimizni oydinlashtiradi. San'atkorlikda ustozi kabi Nodira ham she'riyatining bosh mavzusi sifatida ishqni tanlaydi. Bu bandalariga mehr-muhabbatli, shafqatli bo'lishga, hamisha to'g'rilikni yoqlashga undagan Yaratganga bo'lgan ishqdir. Ular ishq va

irfonni taqdir, tafakkur, tiriklik hamda oxirat oftobi darajasiga ko'targan san'atkorlardir.

Shoiralar ijodiyoti ularning vafodor yor, mehribon ona, sadoqatli hamroh, hurlik qayg'usidagi millatparvar, eng asosiysi, Yaratganga chin banda siymosida gavdalantiradi. Ularning oh-u faryodi, giryayu nolasi qalblar Xojasi — Alloh taolaga bo'lgan. Mana shunday nuri rahmat, fayzi ma'rifat bilan dunyoga nazar solishgan. Bir so'z bilan aytganda "jahona kelish maqsadi"ni to'g'ri anglab, hayot tarzini belgilashga harakat qilishgan. Oshiqlik tarixi ham tasavvufiy adabiyotning bosh mavzusi sanalgan "Miysoq" — "Ahdlashuv" kuni bilan bog'lanadi:

Qay kuni ishqing havosi topdi ko'nglumda qaror,
Ul sababdindurki, ahli Marg'ilona tushdi o't.
Vaysiy, suyding ishq, kuymaslig' ilojin istama,
Avvalo, qolu baloda oshiqona tushdi o't.

Uvaysiyning ishqda kuyish va o'rtanish olovining sabr-toqat ila o'chirilishiga sabab bu ishqning "balo bazmi" bilan bog'liqligidandir. Ya'ni bu ishqning egasi butun olamlarning Robbisi — Robbul alamin ekanligida. Shu bois shoiralar boshidan kechirgan mash'um hodisotlarga mardlarcha qaray olishgan va sabr-toqat qilishgan. Ishqning ta'rif-tavsifi, oshiqlik ta'na-yu malomati har bir shoira ijodida o'ziga xos, rang-barang ifodaga ega. Ular g'azal, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, mustazod, tarkibband, tarje'band, ruboiy, tuyuq, chiston kabi janrlarda ijod qilgan hamda mukammal devonlar meros qoldirishgan. Va ular bizgacha yetib kelgan. Hatto Jahon Otin Uvaysiyning dostonlari ham yuraklarni zabt etgan. Mazkur devonlar nashrida Hoshimjon Razzoqov, Ulfat (Imoiddin Qosimov), G'anijon Abdullayev, Aziz Qayumov, E'tibor Ibrohimova, Mahbuba Qodirovalarning mehnati va tashabbusi katta. Ushbu kitobni tayyorlashda mavjud nashrlarga tayanildi.


Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodi ham badiiy, ham tarixiy jihati bilan qimmatli. Darhaqiqat, ushbu davr tom ma'noda ma'rifatparvarlik adabiyotidir. Hatto erksevar shoiralar ijodida baxt va iztirob, ma'sumlik va mahzunlik, himmat va jasoratning o'ziga xos, yangicha bir talqini mavjud. Bunda ayol ishqi, irfon va idroki va uning ifoda tarzi bugungi adabiyot uchun ham ibratdir.

Ibrohim Haqqul,
filologiya fanlari doktori, professor

Zulayho Rahmonova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

UVAYSIY





G‘AZALLAR

Arzi dilimni aytayin, bir nazar et, nigor, sango,
Zikri zabonim o‘lmasun hasratidin g‘ubor sango.

Hojat emas demang g‘amim tilga keturmak, hasratim,
Dil aro sham’i ravshanim sir oshkor sango.

Qilsa taraddud ul ajal olg‘ali jon azizimi,
Topshirura amonatin jon-u tan intizor sango.

Tinmadi andalibi gul, sayradi subhgohlar,
Ko‘ksini xora urdikim, to‘yg‘ali gul uzor, sango.

Bir necha kun mani g‘arib yotti yo‘lingda sarg‘ayib,
Oshiq elini so‘rmog‘ing bo‘ldi base op sango.

Ishq bu dam etib shahid yerlara to‘kdi qonimi,
Istar esang kushoyi dil bo‘ldiki lolazor sango.

Bo‘ldi Uvaysiy xoki roh, to o‘zni qilib zeri po,
Oxiri o‘tti dunyodin, bo‘lmadi e’tibor sango.

* * *

Chiqdi jon tan mulkidin hajringda jonon, alvido,
Ravshani ko‘z mardumim, ey mohi tobon, alvido.

Tan bilan jon ushbu kun qilsa judolig‘ga qabul,
Hech qilg‘aymu bular dil birla so‘zon, alvido.

Rashk jallodi mani o‘lturgusi mashshota chog‘,
Ko‘rgucha g‘ayr ilkida zulfi parishon, alvido.

Murg‘i dil parvoz etardi qo‘ng‘ali gul shoxiga,
Qo‘ymadi ul bog‘bon, ahli guliston, alvido.

Tarki ishq etti bukun, qilg‘on ulus g‘avg‘osidin,
Aylagan har kim bilan qildi pushaymon, alvido.

Yor g‘ayr aylab sani, vasl o‘lmamish, ey o‘zlugum,
Mastlik jomin yutay, qo‘yg‘il giribon, alvido.

Hajr bemori zaif jismimni to qildi halok,
Dardi yaksardur bukun, o‘lturma darmon, alvido.

Ey ko‘ngul, mayxonadin mahrum o‘lan dushvordur,
Rashk chog‘i noshukibolig‘da oson, alvido.

Yor doxil qilsa subhi vaslig‘a hijron tuni,
Vaysiy qilg‘ay erdikim, ko‘nglig‘a armon, alvido.

* * *

Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiymen,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshno Uvaysiymen.

Istadim bu olamni, topmadim vafo ahli,
Barchadin yumub ko‘zni muddao Uvaysiymen.

Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar.
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiymen.

To ko‘rib xarobotin ta’n etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli — iqtido Uvaysiymen,

Faqr borgohig‘a qo‘ysa gar qadam har kim,
Bosh anga kerak bo‘lsa, jon fido Uvaysiymen.

Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiymen.

* * *

Zamona kulfatidin bu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Jarohat bo‘ldi bag‘rim tig‘i bedodi raqiblardin,
Bu ko‘tohfam mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Bu gulzori fano ichra mahali bexalal yo‘qtur,
Hamesha zaxmi xorodin, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo‘q ogah,
Qabihguftor mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ko‘ngul qoni bu rohi diydadin bir lahza band o‘lmaz,
Vujudim iztirob aylab, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Turubdur bag‘rim ichra qon misoli g‘uncha naylarman,
Ochilmay gulsifat ushbu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

So‘zimdin xotiring uzra gumonli o‘zga yetkurma,
Ki izhor aylamay naylay, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Meni rasvoyi olamdin maboda il’tiroz etma,
Takallum birla shod ayla, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ko‘ngulni otashin bejo qilubdur nutqi guftori,
Qayu bog‘ andalibidin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Bu so‘zni ayladi barpo ajab gustohlik birla,
Maloli xotir o‘lg‘oymu, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ajab ash’ori mavzun bog‘ladi Vaysiy hasaddin kim,
Umarxon zufununekim, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

* * *

Rasvo bo‘lur gar o‘lsa kimi mubtalo senga,
Begonadur taalluqidin oshno senga.

Jondin kecharki, qo‘ysa kishi vaslinga qadam,
Hayratdadurki aylasa bir iqtido senga.

Gulzor hajridin xabaring bormu, gul uzor,
Jon bulbuliki doim etadur navo senga.

Maqbullig‘idin etti yiroq o‘zlugum meni,
Bulg‘aymukin qabul gar o‘lsam fano senga.

Kim yuz o‘gursa topqusi oxir jazosini,
Topqay yuz, onchi aylasakim bir vafo senga.

Mehr istamak xato-u xato olam ahlidin,
Ey mehribon nigor, qilay iltijo senga.

Qilmoq mahol Vaysini doxil visolig‘a,
Garchand mujrumu qilur ul jon fido senga.

* * *

Soqiyo, berki bukun vasl alida jom menga,
Sog‘aringda ko‘rinur chehrai gulfom menga.

Bo‘ldi bag‘rim to‘la qon o‘qlarining furqatidin,
Solmadi bir nazare ko‘zlari bodom menga.

Xalq, man’ etma meni, rahm etib ahvolima sen,
Ko‘yi sorig‘a boray, tufrog‘i orom menga.

Ajab ermas ko‘zima bo‘lsa siyah ushbu jahon,
Tengdurur furqatidin subh bila shom menga.

Shikva qilmay netayin vaxshiyi tarsobachadin,
Xoki rahi bo‘ldi tanim bo‘lmadi hech rom menga.

Sochib ermish yuzini mazra’ig‘a donai mehr,
Ikki sayyod etibon kokilini dom menga.

Ahdini o‘zgalara puxta etibdur ikkig‘a,
Na uchun doim etan va’dasidur xom menga.

Ey sabo, borg‘il o‘shal mehr-u vafosiz qoshig‘a,
Bersin ul bo‘yi nasimi bila payg‘om menga.

Yig‘lading, boqmadi hech, Vaysi, ul oyning yo‘lida,
Ayladi sarzanish ul xos ila om menga.

* * *

Eyki, xurshidi jamolingdin munavvardur menga,
Sensizin ermas ziyosi mehri anvardur menga.

Istamon ul nofai totorning badbo‘yini,
Shona urg‘on zulfungdin muattardur menga.

Orzui sayri bog‘ o‘lsam, ki men navmed o‘lay,
Gul yuzung, rayhon xating, qadding sanubardur menga.

Hech qilmassen meni dardimga darmon, ey tabib,
Vahki, kundin kun ziyoda dard badtardur menga.

Chehrai zardimdin izhor o‘lsa rashk, o‘lmang malol,
Har necha so‘z zohir etsang, bilki bovardur menga.

Qoshimi xam etmay ichtim kim, zahar ag‘yordin,
Na uchun no‘sh aylaram ul la’l shakkardur menga.

Aylanur bo‘lsam meni Vaysiyga tong yo‘q ne ajab,
To g‘animatdur biling ul charx dilbardur menga.

* * *

Gaming uns, darding vatandur menga,
Kiyan to'n seningsiz kafandur menga.

Qaro kokiling bo'ynuma, ey shahim,
Ki kufr etgali to rasandur menga.

Umid aylamon sayr bog'in bu dam
Ki, yuz turlu darding chamandur menga.

Dema, dahr bog'idin uzding gule,
Ilikimda vahkim, tikandur menga.

Qocholman firoqingdin, ey mug'bacha,
Visoling umidi shikandur menga.

Ulus ta'n etar aylading ro'zgor,
Bu kulbamki baytulhazandur menga.

Umidim to'la rahmatingdin, Iloh,
Ki hamnom Vaysiy Qarandur menga.

* * *

Gulshani dahr ichra barcha shod-u qayg'udur menga,
Kim nasib o'lg'on menga hijroni gulro'dur menga.

Elga bo'stoni karamdin marhamat joriy etar,
Bemuruvvat sangdil doim jafojo'dur menga.

Qayda bir begonani rom etgali shirin zabon,
Oshnoliq matrabida ko'rki badxo'dur menga.

Mast o'lub dorolig' ettim dayr aro toptim nasim,
Bergan ilkimga qadah zulfi sumanbo'dur menga.

Istadim men onchunon bedorlig' tog'ida deb,
Nechakim fahm ayladim me'roj uyqudur menga.

Sen jarohatlig‘ ko‘rub jismimni man’ etma, hakim,
Tufrog‘i bu tanlarim zaxmig‘a dorudur menga.

Ayshdin ilkin agar yuvsa Uvaysiy, ne ajab,
Ikki olam ayshikim bir kosai suvdur menga.

* * *

Istadim jononani jondin kechib hirmon aro,
Bo‘ldi paydo oxiri bu dardi bedarmon aro.

Ravshan o‘lmas ko‘zlarim dermen ani yaldo tuni,
Bo‘lmasang, ey ko‘zlari kavkab, mahi tobon aro.

Ishq o‘tin o‘ksitmagil, ey dil, xayoling xomdur,
Hech bo‘lg‘aymu visol ummidi kim hijron aro.

Tolib ersang kirpiging bir-birig‘a nomahram et,
Matlabing shoyad yetar Haq aylagan ehson aro.

Joriy bo‘ldi bag‘ri xunobim bog‘ir xunobidin,
Tashlagil, yo Rab, alar bo‘lsun halok ul qon aro.

Kim junun tumora berkittim muhabbatdin asar,
Nofa bo‘yi to qachon tamkin qilur pinhon aro.

Xonai dil buzg‘ali olsa malomatdin tabar,
Ko‘zga, ey Vaysiy, chiqar obodlig‘ vayron aro.

* * *

Bo‘ldi jon paydo ango har kim bo‘lur jondin judo,
Kimki mehri yordin to nuri iymondin judo.

Kechtim ul sir bahridin, kechtim jahon ra’nosidin,
Ushlasang domon, qil ilkingni domondin judo.

Orzu diydori sen g‘arq et taalluqotni,
Ko‘z demaslar bir nafas to bo‘lsa giryondin judo.

Til agar mazkurlig‘da o‘lsa nodonlig‘ bu dam,
Karvon yo‘ldin adashay mohi tobondin judo.

Laylivashlar furqatida bulhavaslar ko‘p erur,
Majnun ermas gar esa vasl ichra hijrondin judo.

Bu haqiqat gavharig‘a Vaysiy maxzandur ko‘ngul,
Sabr miftohini qilma kuhi dandondin judo.

* * *

Dedi bir kun menga ul mahvashim, ey sho‘x beparvo,
Men aydim sen dema, men dey ki solding boshima savdo.

Ato qildi Xudo menga seningdek dilbari barno,
Visoling qatraidir, mavj urar hajring bo‘lib daryo.

Qanoatda degil ko‘nglim qushin to ul qushi anqo.
Na chun kim sen erursen bahri dilda gavhari yakto.

Tabassum aylag‘il, nolam nasimig‘a guli ra’no,
Ki gulzori firoq ichra men erdim bulbuli go‘yo.

Banogah yetsa vasling, qilmagaysen nozu istig‘no,
Degaysen men gado mazmunig‘a, ey shoh, sallamno.

Zamoningda agar mavjud bo‘lsa Vomiq-u Uzro,
Muhabbatdin dam urmas erdi, ishqdin aylamas da’vo.

Ajab ma’shuqliq rasmin bilursen, ko‘zlari shahlo,
Topilmas ikki olamda seningdek sho‘x bazm aro.

JIZZAX DPU
INV No 119141
AXBOROT RESURS MARKAZI

* * *

Yor, bazm oroligingga dardi pinhonim fido,
Bazm aro ra'nolig'ingga oh-u afg'onim fido.

G'ayr sorig'a borib qilsang takallum dam-badam,
Laxchai rashk otashig'a bag'ri biryonim fido.

Manzur o'lsa jismi bemorim ki dardi yorg'a,
Aylayin jonim bila men anga darmonim fido.

Ko'z tikarlarkim falak toqig'a, ey mahvash, ulus,
Iydi ruxsoringga ul dam joni qurbonim fido.

Zulfi nassojing sabo tahriki alvoh aylamish,
Hech zamon jam o'lmagan xotir parishonim fido.

Shahsuvorim chiqsa sahro sayri gulzor etgali,
Lolazor aylay o'zim aylab qizil qonim fido.

Qayda borsam jabrina olibdurur kulfat o'qin,
Qochqali jo yo'qtur aslo chashmi hayronim fido.

Talx-u shirinlig' bila qilsang tabassum goh-goh,
Nuri iymonim anga, ey la'li xandonim fido.

Barqi beparvoliq ul ko'z manzarida marduming,
Ayladi, o't soldi, qildi sabri somonim fido.

Rashk tobing tan aro qilsa qadam ranjidae,
Ashki g'altonim nisoru joni mehmonim fido.

Zohido, yondurma Vaysiyni malomat norig'a,
Fashu dastoringni qilgay ohi so'zonim fido.

* * *

Kirmasam mayxona ahli ichra armondir menga,
Kirsam ag‘yor ilkidin bag‘rim to‘la qondir menga.

Bo‘lmasa vasling muyassar aylamon dildin darig‘,
Hajr shomida xayoling mohi tobondir menga.

Ishq o‘tida kuydim, o‘rtandim firoqing shomida,
Vasl chog‘ida nachunkim dog‘ hirmondir menga.

Buzdi nobun’yodlar ozor ila dil maskanin,
Ul sababdin olami obod vayrondir menga.

G‘ayr eli shod o‘lmag‘il bo‘ldim ko‘rub g‘am subhasin,
Yog‘duran boshim uza kajravli davrondir menga.

Soqiyo, may tut firoq ichra talab qilmish ajal,
Mastlig‘da jondin o‘tmaklikki osondir menga.

Orzuyi vasli jonon o‘lsa, Vaysiy, vah na ayb,
Bermadim jon oldida doim pushaymondir menga.

* * *

Aytayin lutf ayla, so‘r, do‘st, bu holimni senga,
Topshuray so‘rmasang ahvoli vubolimni senga.

Vasling ummidida nun bo‘ldi firoqing yukidin,
Bo‘lmadi ta’siri hech bu qaddi dolimni senga.

Yondur, ey sham’i visoling meni parvona uchun,
Sadqa aylay-ki bu oqshom parr-u bolimni senga.

Bu muhabbat harami ichra-ki hirmon ila men,
Demading ko‘rsatay, ey sho‘x, jamolimni senga.

Ko'yunga bormoqa xorijdur ilik bormoqidin,
Tuhfa aylay rangi zard ashk ila olimni senga.

Zohido, ma'lum etay uzrdurur toatinga,
Ishq aro dard chekan holi maholimni senga.

Topsa gar Vaysiy seni, ey hukamo, bo'lma malol,
Kima dey, senga demay dardi kasholimni senga.

* * *

Bir sho'xi zamon ko'rdim dilbarmu ekin oyo?
Boshig'a qo'yan egri afsarmu ekin oyo?

Yuz uzra parishondir nassoj siyah tori,
Mashshota agar ursa haydarmu ekin oyo?

Bir qatra zulolingdin bo'lg'ay ming o'luk ihyo,
Gar desa bo'lur kofur, shakkarmu ekin oyo?

Jonona xayolimdin azm aylasa har soat,
Boshimga tushan savdo, mahsharmu ekin oyo?

Ey yor, nigohingdin qonlar dil aro joriy,
Har bir mija bir xunrez xanjarmu ekin oyo?

Oshiq kishi ilhomin ushshoq eshit bul kun,
Dargohida ma'shuq ne safdarmu ekin oyo?

Onsiz bu jahon ichra ko'z ochmadug'im hargiz,
Fardo bu so'zum anga bovarmu ekin oyo?

Bechora Uvaysiyni bir kun demadi mahvash:
"Ko'yumda g'ulomi chun kamtarmu ekin oyo?"

* * *

Jonon soridin kelmish, vah, g‘ammu ekin oyo?
Arzimni eshitmakka hamdammu ekin oyo?

Daryoni buyon sori mirob ravon etmish,
Vaslini tilab chashmim purnammu ekin oyo?

Dermen ko‘tarib boshim jabri menga yaksar chun,
O‘zga qulig‘a jabri dam dammu ekin oyo?

Jonon sifatin derga ojiz bu zabon bilmon,
Jo topti bori ko‘nglum olammu ekin oyo?

Aydimki sitamkora: Mendin o‘z erur ag‘yor,
Aydi: Bu zamon ul sho‘x mahrammu ekin oyo?

Bir dog‘ solibdur kim lutf etmag‘anidinmu,
Yo vaqti judolig‘din motammu ekin oyo?

Behuda jafo chekma, Vaysiy, nega ag‘yora,
Yo ahd ila paymoni mahkammu ekin oyo?

* * *

Baxtim ko‘ziga uyqu mavzunmu ekin oyo?
Iqbolima qasd etgan gardunmu ekin oyo?

Ey laylivashi zolim, desang, na bo‘lur bir yo‘l,
Husningga zavol o‘lmas majnunmu ekin oyo?

Tushtumki biyobona bir yuzi bo‘lub lola,
Qonimg‘a o‘shal sahro gulgunmu ekin oyo?

Vah, mehr nihon o‘lsa, so‘rma jigarim qonin,
Shom o‘lsa shafaq bag‘ri purxunmu ekin oyo?

Ey soqiyi davronim, yetkuncha qadah qo‘lg‘a,
Telmurmag‘im ilkingga mazmunmu ekin oyo?

Mahrum ko‘zum bul kun ko‘p yig‘lag‘onidinmu,
Zohid, dema bu daryo Jayxunmu ekin oyo?

So‘rma bu Uvaysiydin yonmog‘ni savolini,
Gar bersa bashorat shoh turg‘unmu ekin oyo?

* * *

G‘amza mehrobinga mujgoning aylar iqtido,
Ul sababdin ham meni nodoning aylar iqtido.

Iqtido qilmay netay bo‘ynum sariga chulg‘anib,
Laylat ul-qadr ustida yaldoning aylar iqtido.

O‘ng qo‘l-u so‘ng qo‘l salom etmaqni Haq ko‘rsatmasun,
Umr boricha dili vayroning aylar iqtido.

Chashmi mastinga, nigoro, quvma ko‘yingdin meni,
Zohir-u botin aro giryoning aylar iqtido.

Demagil osondur, ey zohid, sanam savdosini,
Rohig‘a to giryai boroning aylar iqtido.

Ey dilo, bu kulbai ahzoning ichra sokin o‘l,
Qiblagohig‘a aziz mehmoning aylar iqtido.

Ko‘rgil ahvolimi sen dam urma nodon, ey tabib,
Ishq dardiga bu kun darmoning aylar iqtido.

Kir xarobot ahli ichra, mahvashi nozik badan,
Izlag‘an mendek necha hayroning aylar iqtido.

O‘zgalarga marhamat birla vafo oning uchun,
Bizlara jabr-u jafo farmoning aylar iqtido.

La'li nobingga iki olam bo'lur ham jon-u dil,
Din-u iymonim xati rayhoning aylar iqtido.

Ko'p umid aylab kelib erdimki, halli mushkilot,
Bir necha dushvorlar osoning aylar iqtido.

Ketti qo'ldan, Vaysiy, davring, vahki baxti vojgun.
Yo falak charxiki, yo davroning aylar iqtido.

* * *

Qildim duoyi har sahari iltijo senga,
Oh-u fig'on-u nola bila yuz navo senga.

Nedin muyassar o'lmadi barqi nufus kim,
Bir oh-u zorim o'lmadi hech mustajo senga.

Zohirdurur menga, senga maqbul emasligim,
Begonalig'da garchidurur oshino senga.

Bu diyda ko'zgusi hama mahfi liqodurur,
Andin ki cho'q hama jo'shi safo senga.

G'ayri senga muravvij emas xo'blig', vale,
Sobit erurki bu hama nash'-u namo senga.

Avji sipehr ustida go'yoki mohi badr,
Kim nola ichra tobishi mehri vafo senga.

Ko'rgach yuzingda donai zulfi siyohingi,
Sayd o'ldimu ...z[1] bas mubtalo senga.

Topmoq mahol dahri fano ichra vah seni,
Ey shohi husn, xo'blar o'lubdur gado senga.

[1] Qo'lyozmada bir so'z tushirib qoldirilgan.

Bu mojaroki qaydin o‘lubdur menga nasib,
Ro‘zi azalki ruhim o‘lub oshno senga.

Bilmamki dard avvali, bu ranj oxiri,
Ishq o‘ldi ibtidou yana intiho senga.

Vaysiy mudom oh-u fig‘on aylayub deyur,
Yo ayyuhal-habib fayut-aljazo[1] senga.

* * *

Ey mahliqoki, muncha tag‘ofil nadur senga?
Bir aylamay vafo-u sitamlar nadur menga?

Qildi shigof bag‘rimi, yuz oh, novaking,
Tuz qo‘ydikim jarohatima bu nadur menga.

Qildim senga ki turfa ajab ehtiyojlig‘,
Bermay zakot la’li labingdin nadur menga?

Ochgil yuzumga bir yo‘li abvobi lutfni,
Tokay ochar sababi g‘azabdin nadur menga?

Mumkin emaski rishtayi ummid hargizam,
Sendin uzarga garchi mashaqqatdurur menga.

* * *

Bul mashomim oldi ul zulfi muanbardin havo,
Go‘yo oldi parishon hol dilbardin havo.

Nutqi chandon o‘ldi o‘xshar yorni ag‘yorg‘a,
Rashkida dardim aqalli oldi aksardin havo.

Yo‘q umidim foniy dunyoda bu mehr-u mohdin,
Na uchunkim oldi ul xurshidi anvardin havo.

[1] Ey do‘st, senga jazo ato etilgan (*arabcha*).

Vasl aro hirmon o‘tiga tashlasam xokistarim,
Tong emas ummidim ilki noz paykardin havo.

Yodi Haq zikrin deyub qo‘ydi qadam masjid sari,
Aksi erdi zohida mehrob-u minbardin havo.

Lafzidin shirin takallum sochti sahroya shikor,
Ayladi oldi nayiston la’li shakkardin havo.

Zarrayi xurshida qone menki bildingmu sadaf,
Qatraga qildi qanoat topti gavhardin havo.

Qildi jodu ko‘zlaring afsun meningdek nechani,
Husn ganji ichra yotqon ikki ajdardin havo.

Soqiyo, jon topti lab la’lin mayidin va’da qil,
Oldilar ahli bihisht ummidi kavsardin havo.

Ramz ganjini to‘kar mendan dema, zohid, ko‘ngul,
Oldi maktubot ichinda ishqparvardin havo.

Vaysiy jismin kul emas deb, ishq o‘tig‘a qilma shak,
Yor oldida olibdur jismi muhmardin havo.

* * *

Qovdi ko‘yini iti, oldi bu ohimdin havo,
Xirqayi jo‘lida ahvoli tabohimdin havo.

Laxta-laxta bag‘rimi qonin yalog‘ig‘a qo‘yib,
O‘ttim andin tuhfa aylab rangi kohimdin havo.

Ko‘rdi soyamni raqiblar, surdi oldig‘a solib,
Men gadoni mahrum etti, topti shohimdin havo.

Necha kun to‘ktim tariqat yo‘lida ashkim suyin,
Ishq bo‘hton aylamoqlig‘ gardi rohimdin havo.

Doimo hajrin tunin torik bila olmas ko‘zin,
Na uchun matlai subhi goh-gohimdin havo.

Kecha yaldo kasb etar kunduz munavvarlig‘nikim,
Tun-u kun mehri ruxi zulfi siyohimdin havo.

Qatrayi may qiymatin sog‘arg‘a soqiy to‘ldurub,
Qo‘ydikim mug‘bachai ul dastgohimdin havo.

Xol-u xat yodida dildorim o‘lubdur sabzazor,
Ul sabab fasli bahoring borgohimdin havo.

Demagil, mahvash, yiturding fikrimi hijron tuni,
Nega yitsun tun aro, ummidi mohimdin havo.

Dil qushi parvoz etar gulrux makonig‘a bu kun,
Bolu par aylabdurur pushtipanohimdin havo.

Vaysiy, sulton o‘lsa bo‘l sog‘ar mayidin mast o‘lub,
Kim meni Yusuf Azizi Misr johimdin havo.

* * *

Xudovando, dilim quflini ochgil men bo‘lay go‘yo,
O‘shal nomehribong‘a mehribonidin qilay insho.

Kuyub kul bo‘ldi jismim dargahingda ko‘p tag‘ofildin,
Qilursen, ey sanam, na vajhdin ag‘yorg‘a parvo.

Balo savdogaridurmen xaridori so‘zung, chunkim,
Alam shahrida g‘am bozoridin so‘z dilbari ra’no.

Xaloyiq injimakdin daxl qilma gul uzorimdin,
Bugun voqe bo‘lubdur menga, vahkim, andalib oso.

Tarahhum ayla o‘z ahvolinga, ey mardumi nodon,
Tamosho qilg‘ali sahrog‘a chiqmish ul guli ra’no.

Yuzung guldin, soching sunbuldin ortiq, ey pari paykar,
Muanbardin xating sarvi sihidindur, qading bolo.

Anisimsen, nadimimsen, zamirimsen, nazirimsen,
Murod-u maqsadim sen, senu ham izhoru ham ixfo.

Yuzung rashki tilar jonimni na dersen, ayo qotil,
O‘zing ilkingda jon bersam menga ul jannatul-ma’vo.

Uvaysiy sa’b erdi muncha g‘am ichra tiriklikkim,
Nigoring bo‘lmasaydi muncha ko‘p mashhur bazmoro.

* * *

Kimdurur ishqini, jono, oshkor etmaz senga?!
Kimdurur ko‘zdin jigar qonin nisor etmaz senga?!

Kimdurur shavqing aro tarki nasihat etmagan,
Kimdurur nosihg‘a dushman, o‘zni yor etmaz senga?!

Kimdurur fahm-u farosatda Ayoz o‘lmak tilar,
Kimdurur doim umidi e’tibor etmaz senga?!

Ko‘rsa nogah bir xirom etmakda alvon ishvani,
Kimdurur eshikingda qullig‘ ixtiyor etmaz senga?!

Qilsa Majnun nechani ul Layliyi ko‘zgu safo,
Kimdurur ishqingda ko‘z yuzni g‘ubor etmaz senga?!

Ko‘z demasmen yo basiru yoki devori mag‘ok,
Kimdurur ey nuri ko‘zni intizor etmaz senga?!

Ostoningga boshim qo‘ydim ko‘tarmak yo‘q umid,
Vaysiy bechorang vuboli hech kor etmaz senga?!

* * *

Hajrida xushnudmen qonimni gulzor aylasa,
Vaslida mardud hirmona sazovor aylasa.

Kimki janondin yiroq o'lg'onda fikridin yiroq,
Mehri ortar yona husnig'a meni zor aylasa.

Uzgamen jondin umid ul dilbari nozik badan,
Surmani zo g'ul-basarg'a vasl har bor aylasa.

Choki siynamdin ravon o'lg'ay jigar xunobasi,
May ichib ag'yor birla chehra gulnor aylasa.

Yor jabr ila meni qilsa oyog' ostida xor,
Ortuq ermish menga ul bul xalq sardor aylasa.

Vasl gardini topolmam izlabon o'lmay ketay,
Hajr chohida ko'ngul ko'zgusi zangor aylasa.

Tashlamay o'zni netay Tengri taolog'a bukun,
Yor ag'yorimni yor-u bizni ag'yor aylasa.

Bir nazar solgaymu deb bo'ldi tanim oh-u turob,
Tufrog'im elting mabodo xos me'mor aylasa.

Vaysi, Haq sorig'a yon vahkim yonordin ilgari,
Anda ishi bo'lg'ay qiyin joying qizil nor aylasa.

* * *

Yor bir soat meni husnig'a mehmon aylasa,
Ko'nglimi zindona solg'um yona armon aylasa.

Ey dilo, ko'p chekmag'il mehnat ayog'ida alam,
Shoyad ul dushvorni Haq bizga oson aylasa.

Shona ursam g‘ayr zulfig‘a choqulsun qo‘llarim,
Qaysi bir mashshota ham zulfing parishon aylasa.

Yetmayin maqsadga o‘zga ishqqa o‘lsam suvor,
O‘ynatib ishqing samandin kimki tug‘yon aylasa.

Mahram o‘lsam xalq asrorig‘a men mahrum o‘lay,
Kim hariming sirrini ag‘yora a’yon aylasa.

G‘ayrg‘a o‘lsam g‘ulom o‘lsun boshim tandin judo,
Bandalig‘da kimki tavqingni giribon aylasa.

Tong emas la’ling masehidin Uvaysiy topsa jon,
Jonini abro‘ hiloling sori qurbon aylasa.

* * *

Bag‘rimi qoni labi la’li badaxshona fido,
Nuri imonim o‘shal sham’i shabistona fido.

Aql-u hushim bila idrok siyah xolig‘akim,
Tab, ham fahm-u farosat xati rayhona fido.

Husni ruxsoringga jonon ko‘zimi mardumaki,
Dini islomim o‘shal zulfi parishona fido.

Boshimi quyi etib muntazir ettim o‘zimi,
Ishq maydonida o‘ynar esa chavgona fido.

Yetmadim munchaki xurshidni mohiyatini,
Ikki yaldoni aro bir mahi tobona fido.

Sochti ko‘z gavhari bag‘rim aralab gavhari ashk,
Labi la’li orasinda durri dandona fido.

Vaysiy, o‘lganda tirilmakdin agar etsang umid,
Aylagil joni azizingni ki jonona fido.

* * *

Jismimi rishtasi, ey ishq, o‘shal toba fido,
Aylayin ashkimi ham ul guli seroba fido.

Boshimi sajdadin ar olmasam, ey xalq, na bok,
Aqlimi ayladim ul g‘amzayi mehroba fido.

Sokin o‘lsam g‘ami borincha aning hasratida,
Zarfi simin badan ul shevayi simoba fido.

Boqishing ko‘ngluma orom, g‘aming jonimg‘a,
Kulishing girya men kim bo‘lay ahboba fido.

Qilma nomus meni xirqayi jo‘lida ko‘rub,
Eyki nozik badan, ustungdagi sinjoba fido.

Barham aylab ko‘zum uyqusini bedorlig‘im,
Vaslida nargisini afsun etan xoba fido.

Vaysiy, ash’ori bukun nuktayi asroring aro,
Muxtasar ham mutaassir duri noyoba fido.

* * *

Yor, man’ etma meni, Majnun kerakmazmi senga?
Ol ashkim xirqayi gulgun kerakmazmi senga?

Xud namolig‘din agar nomus etar ahvolima,
Bizni xalq etgan o‘shal bechun kerakmazmi senga?

Sochma hasrat tuxmini ey majnuni sahronishin,
Shahr rasvoi esang, Homun kerakmazmi senga?

Istasang yor ila o‘zluk, zohido, ko‘p yig‘lag‘il,
O‘lugung g‘arq etmag‘a Jayhun kerakmazmi senga?

Solsa har nomard ko‘ngliga muhabbat nash’asin,
Vahki, haq asrorig‘a maknun kerakmazmi senga?

Xuni nohaq qildi ul ko‘z, ey jahongiri zamon,
Izlag‘il la’li-labini xun kerakmazmi senga?

Yod qilmassen duo vaqtida Vaysiyi hazin,
Iltifoti quvvati mahzun kerakmazmi senga?

* * *

Yozma tumoringni umr, ey gul kerakmazmi senga,
Berma ko‘p xoringga yo‘l, bulbul kerakmazmi senga.

Berma har mashshota ilkiga soching andishasin,
Ojiz o‘lgay shonasi kokul kerakmazmi senga?

G‘o‘ta ur bahri tavakkul ichra, ey g‘avvosi dil,
Ishq bahri ichra aqli kul kerakmazmi senga?

Quvlomoqlik ixtiyor etti, dedim men yalbarib:
Dargahing chopub etarg‘a qul kerakmazmi senga.

Soqiyo, qildur munodiy yetti jon labga yaqin,
Tashna o‘lsang kelki sog‘ar mul kerakmazmi senga.

Fasberu keldi nidosi qo‘ymag‘il sog‘arg‘a lab,
Muntazir bo‘lg‘on sochi sunbul kerakmazmi senga?

Vaysiy gul qon bag‘rini yozdi-yu, uzdi bog‘bon,
Yozma tumoringni umr, ey gul, kerakmazmi senga.

* * *

Yor kelding oshnolig‘ tarki afsardur sazo,
Qayda borsam xalq ramzidin muyassardur sazo.

Ey dilo, sen shikva kimdin aylading, kimdin gila,
Boshda ul qattig‘ ko‘ngul berahm dilbardur sazo.

Choraye tolmay sazo oshubidin dermen bukun,
Lazzati tajdid jon topti muqarrardur sazo.

Lovubol umring kechurdung bo tag‘oful dilbarim,
Mujda jabr etkanlara kim anda mahshardur sazo.

Yor ishqidin dam ursa g‘ayra dam urma ko‘ngul,
Bilmadingmu dilbaringdin ishqparvardur sazo.

Talxhar yondin yetib qildi quloq komini talx,
Talx go‘lig‘ jumladin ul la’l-shakkardur sazo.

Bir jafodin yuz o‘gursang, ming vafodin kech bu dam,
Bir vafo ko‘rsang, Uvaysiy, ming muqarrardur sazo.

* * *

Olsa ul gulchehrai bu kimga shevandur sazo,
Na uchunkim dil bo‘lubdur darda mahzundur sazo.

Sarf qilma bir zamon so‘z gavharin, ey xushmand,
Hajrida ko‘p so‘zlagan vaslida olqandur sazo.

Do‘st ko‘yida boshin pomol qilmaslarni bil,
Bu zamona ahlidin gar jumla dushmandur sazo.

Ishq kuydurdi meni, jismimni qildi kul, netay,
Ishq bo‘lmas har samandar anga gulxandur sazo.

Umrim ichra hech yorug‘lug‘ ko‘rmadim, toptim visol,
Haq sarig‘a bu muhabbat sham’i ravshandur sazo.

Barham ur o‘zlukni mahramlig‘ umid et, dedi Haq
Mahrum etgan mahramimdin ushbu kun tandur sazo.

Vaysiy xeshu aqrabodin kechti majnunlig‘da kim,
Berdi vahkim rahguzori Layli madfandur sazo.

* * *

Kelmagay Farhod-u Majnun olama ibrat menga,
Layli-yu Shirinki, sen ko‘p qilmag‘il minnat menga.

Ey salomat ahli, hamsuhbatlig‘ etma ixtiyor,
Hamdamim mehnat, ishim kulfat, g‘amim ulfat menga.

Qilmag‘il andisha dardimg‘a muolij, ey tabib,
Chiqti bir behbuddin bilgilki ming mehnat menga.

Forig‘ et dildin sahobi shirkni, Haqni g‘amin,
Yor dardidin sumurmaklik mayi vahdat menga.

Nosiho, bersang Samad ta’limini zikri zabon,
Yona yetsa ul sanamg‘a afv qil odat menga.

Rashk jallodi kelib har kunda jabr ayla degay,
Boshingi tandin judo etmakka qil ruxsat menga.

Man’ qasd et domani Vaysiy tutarg‘a, ey ajal,
Shoyad ul maqsud shah yetkursa bir muhlat menga.

* * *

Ey dil, umiding uzki, yetishmas karam menga,
Voqe, bo‘lubdu bu kecha hijron baham menga.

Qilg‘oncha justiju ani men bo‘lmisham yiroq,
Bu holimi azalda yozibdur qalam menga.

Nadin ibo qilay ani jabr-u jafosidin,
Topqanda el nadimim o‘lubdur sitam menga.

Man’ etma ohdin meni jononima xabar,
Kuymog‘lig‘img‘a boshima bo‘lmish alam menga.

Daryoyi ishqqa cho‘mdum-u ko‘rdum alim quruq,
Yo Rab, nasib o‘lmadi faryodi nam menga.

Ummid qaydin aylaram oni nigohidin,
Dedim deyurga qo‘ymadi jonon qadam menga.

Husnin maylig‘a ayladi sarmast Vaysini,
Zulfin solurda bo‘ynuma nozik sanam menga.

* * *

Ishqa kim tushti, o‘shal tushti g‘ami girdob apo,
Umr o‘tkarmakligi uldur xayoli xob aro.

Orzuyi husn bo‘lmakdin agar ko‘z to‘ksa yosh,
Go‘yo botmish halokatga qolib selob aro.

Ishq sirridin dam urma tangdil nomardg‘a,
On qadar ma’yuslig‘ zohir bo‘lur arbob aro.

Sol ko‘ngulga, somiro, xurshid tal’at shavqini,
Barham o‘lgay nuri kavkab mehri olamtob aro.

To xayolini yetursang hajr zulmotida kim,
Izlagil ul moh tal’at kokili qullob aro.

O‘lturubdur ishq xaylini tamoshosi uchun,
Afsarin egri qo‘yubdur nurdin sanjob aro.

Xorij o‘l ash’oridin, tutqil ko‘ngul bir go‘shaye,
Bo‘lg‘ucha ag‘yor sen, Vaysiy, bukun ahbob aro.

* * *

Yor shavqini chekarmen doimo maskan aro,
Qilmasun Tangri judo ul marqadu madfan aro.

Layli ko‘yinda ko‘rub Majnunni tahsin etmagil,
Ishtiyoqi birni muzmar aylamish ohan aro.

Bilmagil Farhod-u Shirindin, samandar qushni ko‘r,
Yostanibdur ishq savdosi uchun gulxan aro.

Tolib ersa har kishi matlubidin ermas yiroq,
Ko‘zga tanhodur valekin toki pirohan aro.

Rashk bodi ko‘nglum ichra qildi tanni ko‘p mag‘ok,
Zohido, mumkin namozing zaxmdin ravzan aro.

So‘rmag‘il ko‘nglumni har yondin menim-la ko‘rmasang,
Dilni jo etti Uvaysiy fikri siymin tan aro.

* * *

Yuz ganji uza kokili afsuni tamosho,
Jodu ko‘zung ul yondaki, mazmuni tamosho.

Vahdat mayi jomingda qilur jilva ajoyib,
Vasfin demakida dir purxuni tamosho.

Gar rahm qilib tashnalarin aylasa serob,
Jon labg‘a yetan qullari mamnuni tamosho.

Gul yuz bila sunbul sochi uzra qo‘yub afsar,
Bul yon qadam ursa qadi mavzuni tamosho.

Ko‘z safhasi bag‘rim qonini sochti, bu sahro,
Ashkimdin o‘lub lolai homuni tamosho.

Ag‘yor bilan boda ichib mast gar o‘lsa,
Oshiqlariga chehrai gulguni tamosho.

Ul laylivash afsonasidin Vaysiy dam ursa,
Sayd ichra bukun bo‘lg‘usi Majnuni tamosho.

* * *

Yorimni bukun ilkida shamshiri tamosho,
Ushshoqlarin bo‘ynida zanjiri tamosho.

Qasd aylasa har saydni yondirmog‘i mumkin,
Ham donau ham dom ila tasviri tamosho.

Taxt ustida sultonlig‘ etib shohlig‘ etgay,
Goh-goh biror tun aro shabgiri tamosho.

Gar rahm qilib ishq elig‘a solsa nazar ul,
Bir yonini to‘ldursa tuman tiri tamosho.

Sayyodimi bir ramzai tirida o‘lub qatl,
Bismil bo‘lubon domidan ahjiri tamosho.

Ummidi visolini etib kecha-u kunduz,
Mendek necha hijronida dilgiri tamosho.

Ko‘rdum bu kecha uyquda bir necha rumuze,
Ko‘rgan tushuma yorimi ta’biri tamosho.

Kel zohidu kir so‘zg‘a savodi ishq chiqarg‘il,
Yuz mus’hafin avroqida tahriri tamosho.

Durdi may ichib ko‘nglimi ma’yuslig‘idin,
May loyi bila soqiy bu tamiri tamosho.

Ayb etma namozim aro aqlimni yitursam,
Nechunki dilim sam’ida takbiri tamosho.

Vaysiy sanam afsonasidin kim talab etsa,
Qahr etma alarga neki taqriri tamosho.

* * *

Kir bazmiga jononimi may no‘shi tamosho,
Sol bo‘ynunga zulfini bonogo‘shi tamosho.

Ber joningi, bir qatrayi may olg‘il o‘shal dam,
Ilkingda turub sog‘ari behushi tamosho.

Madhush so‘zi birla yana aqlinga yonsang,
Olamni xususan ki faromo‘shi tamosho.

Ishq ahli suchuk bildi sanam tig‘ini jondin,
Qatl etganida jabr ila xomo‘shi tamosho.

Ilkiga g‘azab tig‘ini gar olsa nigorim,
Olmakligiga mingni dilin jo‘shi tamosho.

Soqiy ki sabuhig‘a Haq asrorini qo‘ymish,
Ul piri mug‘on oldida sarpo‘shi tamosho.

Vaysiy, seni ul mug‘bacha lo ya’qil edarsa,
G‘am sog‘arida doruyi madhushi tamosho.

* * *

O‘gur jabra qo‘shub, ey charx, purtobingga sallamno,
O‘zungni kam esa ozor ahbobingga sallamno.

Ko‘zum yoshin nug‘ul ettim topay deb qatrayi vasling,
Ki afsun aylagan chashmingni ul xobingga sallamno.

Umidim yordin bir jur’a ichsam, g‘ayr ilkidin,
Bukun bu kosayi zahringdagi obingga sallamno.

G‘azab daryosi jo‘sh ursa, haqorat aylasang, ey sho‘x,
Degaymen, ey sanam, ul durri noyobingga sallamno.

Ruhung uzra ikki gisuyi shabrangingni zunnor et,
Demasmu orif-u zohid ki qullobingga sallamno.

Musannif shahlari toj etsa tong yo‘q gavhari nazming,
Deding Vaysiy dil-u jon birla alqobingga sallamno.

* * *

Ko‘rub ul donai xoling, dedim domingga sallamno,
Nigohing qatl etar ul chashmi hangomingga sallamno.

Masiho iktisob aylab ekan la’li labingdin kim,
So‘zing ming jon berur bir damda ul komingga sallamno.

O‘shal abru hiloling iydi ruxsoringda ko‘rsam men,
Ki qurbon aylaram jonimni ayyomingga sallamno.

Vujudim ichra jonim o‘rtanur fonus sham’idek,
Chirog‘ing etmagil darkor ul shomingga sallamno.

Ko‘zum xilm bo‘ldi ko‘z tutmog‘da to yo‘lungga, ey qosid,
Deram har kun muyassar yo‘qdu payg‘omingga sallamno.

Tag‘oful qilma, ey soqiy, bu kun xuni jigar sog‘ar,
Yutarmen tashnalig‘din har nadur jomingga sallamno.

Uvaysiy, qofiya tang o‘lsa ham mazmuni mahvashdin,
Xayolin mahkam et, ayg‘ilki, ehromingga sallamno.

* * *

Vaslini jononadin so‘rding bukun, ey dil charo.
Vasl bazmi ichra ul ag‘yorg‘a moyil charo.

Ey ulus, chiqma tamoshoga agar chiqsa sanam,
Joninga jabr o‘lmasin kim rahmsiz qotil charo.

Tong emas fitrokin ostida yugursa nechalar,
Qatl o'lan jam'i ki bir tig'i bila bismil charo.

Izlagil ma'shuq jononing izin sen, ey ko'ngul,
Oshiqi sargashtadursen kim bu dam manzil charo.

Dard eli ko'p nola bun'yod etma soqiy ilkidin,
Sohibi mayxona piyri dayrdur komil charo.

Mug'bacha jabringni yig', begonadin zulm o'lmasun,
Aylabon tafriqa bergil bizlara qoyil charo.

Tiyra ta'bimdin yozarmen tiyra tunda vasfini,
Yor shavqidin chiqon ohim bu tun mahfil charo.

Tolib ersang, zohido, bo'lgil fanoi fil vujud,
Men fanoi filadamdurmen bo'lib soyil charo.

Vaysiy nazmidin charo tahsin chiqarma, ey ulus,
Ushbu baytim orzuyi payravi Bedil charo.

* * *

Jon tasadduq boshing uzra chirmag'an dastoringa,
Bosh tasadduq so'zlagan shahd-u shakar guftoringa.

Ko'z tasadduqdur seni xurshid tal'at husnunga,
Qaddi dolim ham tasadduq chun alif raftoringa.

Qo'l tasadduqdur seni ul yaddi abyozinga ham,
Jon tasadduq etmagan kim ko'zlari xummoringa.

Kim giriftoring erur mumkin emas topmoq xalos,
Ankabut yanglig' etibsen qayd mushkin toringa.

Onqadar so'rdum tabiblardin bu dardimga davo,
Vaslidin o'zga davo yo'q dedi ul bemoringa.

Kimki sendin yuz o‘gursa, ermas ul tolibi din,
Topshur ul kufr ahlini sen qodiri Jabboringa.

Demading ash’ori choshimni ko‘rub mahbubi men,
Borakalloh, ey Uvaysiy, aylagan guftoringa.

* * *

Ey dil, bukun ilkingga ol shah etkan, ehsondur adab,
Tuhfa bo‘lur ko‘rsang oni, loyiqi jonondur adab.

Vaslinda bo‘lsang beadab fahm aylagil, nodon ko‘ngul,
Ko‘rsang yuzin ul shohni sham’i shabistondur adab.

Ma’zur tut, ey pokdin, berding adab ta’limini,
Jo ayladim ko‘nglum aro bilsam qizil qondur adab.

Kufr etti ishqing, ey sanam, zunnor soldi bo‘ynuma,
Oshiqlarig‘a ul ko‘cha yonmoslig‘ imondur adab.

Ko‘z manzarig‘a qo‘y qadam, nazzora qilsun jon senga,
Boqmoqda ko‘z mahrumlig‘i bul tiri mujgondur adab.

Qo‘ysang boshing dargohig‘a, tutsang talab domonini,
Qilsang murodingdin umid, Vaysiy, farovondur adab.

* * *

So‘rmadim ahvolingi, dardi farovon andalib,
Xor zaxmidin ajab choki giribon andalib.

Doxil o‘ldim men banogah ushbu gulzoring aro,
Injimaktin man’ qil bu kecha mehmon andalib.

Ko‘zga g‘aflat surmasin torttim, sahar vaqtida sen,
Subhdin shomma yetib bo‘ldi parishon andalib.

Kechalar shevan bila gul chehrasin ko'rmak uchun,
Ko'rmayin gul xandasin bo'ldi pushaymon andalib.

Ko'rdi vaslini g'animat ul zamon jononani,
Xoli yo'q gul xordin bo'ldiki hayron andalib.

Xor jabrin ol o'zungga, tashla o'zni gul sari,
Xor nishidin ravon o'lsun qizil qon, andalib.

Vaysiy ul gulchehrasin humro emas o'lg'an na kim,
Kecha tong otquncha bag'rin qoni rezon andalib.

* * *

Qildi ul mashriq saridin o'zni izhor oftob,
Na uchun kim izlagay har ro'z diydor oftob.

Charx zarfig'a qo'yib og'zin yutar har kunda qon,
Shom vaqtida shafaq bilgurdi xunbor oftob.

Kecha izlar, kunduz izlar, vahki, bir dam tinmayin,
Charx vodisida Majnuni jigar xor oftob.

Benasibing deb edim bir mendumen har ro'z-u shab,
Men kibi, jono, yuzung ko'rmakkadur zor oftob.

Men nuchuk Majnun kibi rasvoyi olam bo'lmayin,
Charx uza ruxsori mohingga giriftor oftob.

Do'st deb tuttum etokin ul falak g'addorni,
Shatta urdi, ketti mag'rib, topti ozor oftob.

Vaysiy, boshing uzra qo'y xurshidi tal'at yorni,
Bilmadingmu zarralar boshinda dastor oftob.

* * *

Oy yuzingga qilmag'il zulfi parishoning hijob,
Menga boqqil, qilmag'il chashmingga mujgoning hijob.

Qon yutub toptim seni qilding nechukdin e'tiroz,
Aylama, ey sho'x, bulkun la'li xandoning hijob.

O'tsa gar mendin xato aygil menga, qilma nihon,
Bo'lmasun o'truda zohir lutfi pinhoning hijob.

Yoki bir ag'yor ilkidin ichibon bodani,
Bilmadim ul birla qilg'on ahd-u paymoning hijob.

Maqsading nedur? Ayo jondin azizroq hamdamim,
E'tirozing ayladi chohi zanaxdoning hijob.

Ochti ko'zni, sochti so'zni noz paykar jabrkor,
Deb emish ag'yor senga chashmu giryoning hijob.

Yordin maqsudi dil hosil qilur erdim bukun,
Ey falak, bo'ldi menga kajravli davroning hijob.

Zohido, qilma tamasxur bu fano ahlini sen,
Bo'lmasun bu dudi ohim birla imoning hijob.

Fosh qiling ishq sirrini Uvaysiy tangi dil,
Ushbu kun bo'lg'ay anga dardi farovoning hijob.

* * *

Aylasam ko'tohlig' sen ayla pinhon, qilma ayb,
Dard pinhondur chiqar ohimla afg'on, qilma ayb.

Topmadim izlab bu olam ahlidin bir dardmand,
Yig'lasam men senga didamdin to'kub qon, qilma ayb.

Ayladi noaql bedil ko'ngli majruhim mariz,
Ayladim sendin talab dardimga darmon, qilma ayb.

Ey rafiqo, kulfati olamdin arz etgan zamon,
Nutqi beta'sirimi qildim farovon, qilma ayb.

Necha mendek mustahiq lutfung gadosidur sening,
Ne ajabdurkim menga sohibi ehson, qilma ayb.

Orzui vasli didoring agar o'lsam bukun,
G'am zimistonida men xurshidi tobon, qilma ayb.

Bo'lmasa manzur Uvaysiy mashqi, ey Sayyid nasab,
Mada'ni ma'ni erursen, menki nodon, qilma ayb.

* * *

Jumlai ushshoqa, ey dilbar, jamoling oftob,
To nihon etmoqqa ul shabrang toringdur hijob.

Qilmamish tafriqa kasbidinki lutfi g'ayradur,
O'zgalar shodobdurkim, o'z gadosidur xarob.

Jon mayxona ichra rahm dildur piri dayr,
Tengri ko'rsatma banogah muhtasiblardin azob.

Soqiyo, labtashnalardin qilma sog'arni darig',
Lahjai rashk otashig'a doimo bag'rim kabob.

Murda jon topqon edi nutqi Masihodin maseh,
Nega qilmas bag'rimi qon furqati ul la'linob.

Nutqi pokingni shakarrez etma ko'p qil mu'tadil,
Shahd kim begonaya, talx oshnolarg'a azob.

Chun tavakkul fo'tasin bog'la, Uvaysiy, yo'lida,
Teksa ming kulfat boshingga, ayla jismingni turob.

* * *

Murg‘i jon dam ura olmaski guliston sog‘inib,
Mardumi ko‘z ko‘ra olmas mahi tobon sog‘inib.

Yurmadi nazm hurufig‘a zabonim tarog‘i,
Anbarafshonlig‘ ila zulfi parishon sog‘inib.

Soqiyo, tashnalab o‘lmishdu Masiho mayini,
Qadahi dil, xabar ol bo‘ldi to‘la qon sog‘inib.

Tarki bazm etti xarobot eli may o‘ksukidin,
Soqiy, ol qo‘lg‘a qadah bo‘ldi pushaymon sog‘inib.

Chekti tasviringi naqqoshi azal jannat aro,
Qilsa toat na ajab zuhd eli g‘ilmon sog‘inib.

Jona jabr aylab, Uvaysiy, rahig‘a qo‘yma qadam,
Ki aziz boshini go‘y ayladi chavgon sog‘inib.

* * *

Ko‘ngul toqida bir mehrob abro‘ ko‘zdadur g‘oyib,
Aningchun mastlig‘da ishq eliga sajdadur vojib.

Nafas tolibda bordursen talab darvozasin yoston,
Turob et jismingi dildori matluba esang tolib.

Agar bir tora zulfing vasfidin bir nukta sharh etsa,
Tuganmas kim agar ming yil falak kog‘az bilik kotib.

Ajab taryok men tark et nasihat zahrin, ey voiz,
Boshim ming pora bo‘lsa zulmidin ko‘ngul anga rog‘ib.

Yuzungni mehridin gar mahliqolar qilsalar da’vo,
Quruq qolmas agar manzurdur ul diydayi noib.

Yeturdim gavhari dil maxzani aqlimdin andog‘ kim,
Hushum husnungni sarxush chog‘ olan ul g‘amzayi kozib.

Uvaysiy, ahli dil bo‘l, istar ersang xalqdin kulfat,
Malomatdur menga olat ki nolon ahlidur zorib.

* * *

Qolmadim yuz kulfata, dildor, ozoring sabab,
Tushmadim domi malomatga ki ozoring sabab.

Lab aro nomahram ettim har qayu hasratni men,
Dil aro ihfosining bu sirru asroring sabab.

Etmadim ... tiriklik, bo‘lmadim dafni fano,
Rahmsiz ham bemuruvvat chashmi xunxoring sabab.

Sayri bog‘ etting banogah ko‘rdi gul ruxsoringni,
Bo‘lmadi pajmurda, ey ra’no, guli noring sabab.

Bazm aro ishq ahli o‘ldi demagil beboda mast,
Masti mustag‘riq o‘lur ul la’li guftoring sabab.

Tushmadi boshimg‘a savdoyi muhabbat ul zamon,
Qilgali husning tamoshosini bozoring sabab.

Bo‘lmadi tabdil Vaysiyni namozi kufrig‘a,
Sajda vaqtida tushan shabrang zunnoring sabab.

* * *

Tushmu yo bedorlig‘ keldi pariro‘ tebranib,
Ko‘ngluma fahm o‘ldi sar to po jafojo‘ tebranib.

Ishq dardin man’ qilmoqliqqa dam urma, hakim,
Kelmish ul jonona dardi birla doru tebranib.

Shukrilillah bog‘bon ochti dari iqbolimi,
Xatti rayhoni chaman zulfi sumanbo‘ tebranib.

Shodlig‘ mardud mendin umrimi to boricha,
Ne uchunkim mehribon hamroh qayg‘u tebranib.

Soqiyo, qilma qadah labrez nozimdur ko‘ngul,
Dam-badam sog‘ar tutib mug‘bacha badxo‘ tebranib.

Zohido, ko‘p iddao qilma xarobot ahlig‘a,
Vasl chog‘ida kelur diydangga uyqu tebranib.

Vaysiy afsun aylasa aql-u hushingni ul zamon,
Kuldi mujgonin tuzab ul chashmi jodu tebranib.

* * *

Ko‘zumga dard arusin munda zebo aylagil, yo Rab,
Qiyomat kunda mahbubim huvaydo aylagil, yo Rab.

Bukun men no‘sh etay g‘am zahrini aflok zarfinda,
Mayi vahdatni sen anda muhayyo aylagil, yo Rab.

Muqarrar dunyoni la’l-u javohir gavhari pokin,
Umidim bu ko‘zumga sangu xoro aylagil, yo Rab.

Agar ming til bila qilsa malomat zohidi dono,
Salomat qil o‘zin yuz onchi dono aylagil, yo Rab.

Ki kundin kun fuzun gar bo‘lsa dardi yuz o‘gurmasmen,
Yuz onchi dardi mag‘mun o‘lsa barpo aylagil, yo Rab.

Yuzumga ta’nai ta’zirni kox ursa sog‘ ahli,
Dog‘i ham bo‘lsa majnunlig‘da rasvo aylag‘il, yo Rab.

Terib hasrat gulin ketti Uvaysiy dahr bog‘idin,
Xazondin asrabon ul gulni ra’no aylagil, yo Rab.

* * *

Shukrilillah husni ruxsoring menga bo'ldi nasib,
Marhamat bobin yuzumga aylagil vo, ey habib.

Bir pari ko'nglumda hozir, yuzda g'oyibdur netay,
Ul sababdin ostoningga kelibmen oxtarib.

O'qlaring zaxmi vujudimda jarohat doimo,
Malham etgil jism ur'yonim ko'rubon, ey tabib.

Poymoli xokirah bo'lsa vujudim, maqsadim,
Jon bahaq taslim etsam gardi poying yastanib.

Ey ulus, yumg'ul ko'zing ahvolima rahm aylabon,
Ko'z ochay husnig'a mahbubim kelurmish tebranib,

Shum raqiblar bo'lsa, vaslingdin yiroq etkil meni,
Men g'arib holim deyin, didoringa qilg'il qarib.

Bosh kerak bo'lsa bukun to'kkil Uvaysiy qonini,
Zulfi tarroring tarab ochg'il samanding o'ynatib.

* * *

Ey gul, jigarim qoni uzoringga munosib,
Yuz porali ko'nglum dog'i xoringga munosib.

Sarf etmagil har bexabara la'ling hadisin,
To qahru g'azab ham meni zoringga munosib.

Tun sog'arida sharbati bedorlig' ichsang,
Mastonalig' ul chashmi xumoringga munosib.

To qildi muattar xati rayhon sahargoh,
Xushhollig'im husni bahoringga munosib.

Man' etma tarahhum etibon yor yo'lingdin,
Ashkim yo'l aro man'i g'uboringga munosib.

Dil manzarini pok etibon muntazir o‘ldim,
Bo‘lg‘aymu ekin tab’ guzoringga munosib.

Rashk otashini, Vaysiy, bukun ayla mukarrar
Yur, sen kibi devona nigoringga munosib.

* * *

Tushti judolig‘ ushbu kun devona bo‘ldum charx urub,
Hijron tunining sham’iga parvona bo‘ldum charx urub.

Himmat qo‘rin belga tong‘ib kirdim muhabbat yo‘lig‘a,
Qildim tavakkul Tangrig‘a mardona bo‘ldum charx urub.

To‘kti mayimni muhtasib bul piri komil oldida,
Bo‘lsa gunah afv etmadi xirmona bo‘ldum charx urub.

Mehrini tobi tandadur sabr aylamas dilda qaror,
Faryod aylab xalq aro afsona bo‘ldum charx urub.

Ey soqiyo, tutqil qadah, mavj urdi daryoi g‘aming,
Dard ilkidin g‘am no‘sh etib, mastona bo‘ldum charx urub.

Boshim uza har xor-u xas yig‘di malomat qushlari,
Majnun sifat, ey laylivash, koshona bo‘ldum charx urub.

Miskin Uvaysiyda alam, dilbar, darig‘ etma karam,
Bilsam judolig‘dur baham, pinhona bo‘ldum charx urub.

* * *

Tangrim dedi dard ahlini darmon qanoat,
Oshiqlariga tu’ma farovon qanoat.

Kim da’viyi ishq etsa urub lofi muhabbat,
Hijron tuni ichra mahi tobon qanoat.

Soqiy, sen o‘zung sung‘il o‘shal mug‘bachasiz may,
Xummoringa yo‘q kelguncha davron qanoat.

Zohid, bu fano ahlig‘a sen qilma taassuf,
Xoki rahi ichra dema oson qanoat.

Yotti necha yil chohda na erdi gunohi,
Qildi ani to Misrg‘a sulton qanoat.

O‘lmak ajab ermas menga berahm qo‘lida,
Jon berdi o‘shal sayyid qurbon qanoat.

Men deb edim obod etayin sabr makonin,
Nodon elikim, ayladi vayron qanoat.

Nafs ilkini, ey Vaysiy, judo ayla yoqangdin,
Tutqil sen o‘zung o‘lg‘ucha domon qanoat.

* * *

Dilimni istasang, dilbar, xayoling birla har soat,
Xayolim istasang subhi visoling birla har soat.

Kishiga ishq tegsa noshiko ibolig‘ni kasb etgay,
Bale xomushlig‘ rasmi fioling birla har soat.

Yuzingdin gul, labingdin Xizr, nutqingdin shakarlarkim,
Ki bir hindu bacha ul yuzda xoling birla har soat.

Seni topsa kishi qadri tunin topsa tong ermaskim,
Savodi kokiling nuri jamoling birla har soat.

Yozibdur harfi nomim avvalin fahm ayla, ey mahbub,
Azalni kotibi abro‘ hiloling birla har soat.

Uvaysiy yodi-yu, fikr-u xayoli kecha-u kunduz,
Dudog‘ing ichrakim hayvon ziloling birla har soat.

* * *

Qachon ko‘rsamki mahbubim alinda jom har soat,
Ko‘zingdin mastlig‘ zohir, yuzing gulfom har soat.

Muhabbat shavqidin simob yanglig‘ jismi ur’yonim,
Bilurmen ostoning tufrog‘i orom har soat.

Yuzing gul, qoshlaring yo, kirpiking ko‘z o‘qlaring,
Parishon kokiling ushshoq eliga dom har soat.

Ko‘ngulni ishva tori birla yona bog‘lamoq nedur,
Azalda donai mehring totibdur rom har soat.

Ko‘ngul zarfiga ishqing sharbatini soqi qo‘ygan chun,
Menga mafhum o‘lur sing‘on sofoling jom har soat.

Ki bir dam man’ bo‘lsa mohi paykarni xayoli kim,
Barobardir menga chun subh birla shom har soat.

Boshimga har balo-u, kulfat-u, mehnatni solmoqchun,
Menga to qo‘ydi xesh nomim Uvaysiy nom har soat.

* * *

Dunyoni bugun davr ila davroni g‘animat,
Kelturdi xaloyiqni ki mehmoni g‘animat.

To bulbuli mastona suxanrezni bul dam,
Ayvoni jahon bog‘i gulistoni g‘animat.

Bu shavkat-u sha’ningni Xudoyim nasib etsun,
Davlatingni taxti Sulaymoni g‘animat.

Umringni bahorida muhabbatni sug‘org‘il,
Ko‘z mardumini giryai boroni g‘animat.

Ochg‘il ko‘zing, ey dil, qilako‘r vaqti tomosho,
Ayyomi jahoni mahi toboni g‘animat.

Fazliy bila ul g‘unchai nashgufta ochilmish,
Sayri chamani ham guli xandoni g‘animat.

Vaysiyi gado, sen bukun o‘ksutma sadoni,
Lutfila tarahhum yana ehsoni g‘animat.

* * *

Tag‘ofil birla qon to‘kmakli mujgoninggadur odat,
Zabihing chustu cholok o‘ldi farmoninggadur odat.

Meni gumrahni mardud aylama kuyingdin, ey dilbar,
Xaliloso tama’ qilmog‘li mehmoningadur odat.

Ko‘zumga gardi poying to‘tiyo qilsam ajab ermas,
Ko‘ngul qayd aylamak chohi zanaxdoninggadur odat.

Tushub tashvish ko‘nglumga pari tal’at, malak siymo,
Bo‘lub jismim o‘tun ishqingda so‘zoninggadur odat.

Ko‘zum devorsiz xoringni asra hajr o‘tidinkim,
Suv sepgandek bo‘lur ul xori giryoninggadur odat.

Ulus, ozoringi yig‘ma, meni holimg‘a rahm aylab,
Bu dil me’morikim har damda vayroninggadur odat.

Ko‘zumga oy-u kun bo‘lmish falak uzra iki kavkab,
Nachun Vaysiy ko‘zi xurshidi toboninggadur odat.

* * *

Sen, ey xalq, qahqaha birla kulganing menga kulfat,
Yo Rab, ko‘rsang ichimni, tab’i mavzunimda ming illat.

Chiqar bir dudi ohim subh nopaydo bo‘lur ul dam,
Ham ul ko‘z yoshima g‘arq o‘lmag‘ingga bormudur ruxsat.

Ayo ey olimon, sen vorisi faxri jahondirsen,
Yibordim muhtamil so‘z bulkun ustodingni qil hurmat.

Tilaydurmen seningdin birsi jomid, birsidir muztar,
Bo‘lib har qofiya misra boshiga harf chun davlat.

Uvaysiy berkitibdur matlabin ismin hurufini,
Topib bu ruq’ani har kim yuborsa angadur rahmat.

* * *

Falak, charxingni kajravlig‘idin etma rostg‘a ruxsat,
Nuchukkim qolg‘usi sendin ushal ag‘yorg‘a bid’at.

Bo‘lubdur Xizr paydo gulshani husningni davrinda
Ki, go‘yo sabz o‘lubdur obi hayvondin olib ibrat.

Qo‘yub afsar qoshin ustig‘a to zebi jamol aylab,
Yaroshibdur xususan ustiga kiygan o‘shal kisvat.

Dam ursam rashkdin nechun araq zohir bo‘lur yuzdin,
Beribsen yo magar husningga shabnamdin bukun ziynat.

Dema, ey sho‘x, sen ranging tag‘ayir topti bul damda,
Ajabmu bu judolig‘ vaqti ko‘rsam hajridin vahshat.

Bukun qiymatfurush, ey soqiy, olma ilkingga sog‘ar,
Tegibdur bu zamonda ul ko‘zi xunxordin shafqat.

Kelibdur dargahingga ushbu kun devonalig‘ birla,
Ketolmas Vaysiy bul kun bo‘lmasa to shohdin ruxsat.

* * *

Zulfung xayoli bul kun ko‘nglumdadur halovat,
Mehring tajallisidin jismimdadur farog‘at.

Shoyad tusharmu kin deb jononiming guzori,
Vayrona ko‘nglum ichra qildim ajab imorat.

Yo‘q menda aqli komil, yo‘q menda fahm-u donish,
Yo‘q menda xayr-u ihson, yo‘q menda hech ibodat.

Tengri tajallisidur qilg‘on yuzungda jilva,
Qilsam sifat yuzungni ayni menga sharofat.

Zulfung misoli sunbul, la’l labing erur mul,
Qilsang xirom, ey gul, qadding nechuk latofat.

Oshiqlaringni ko‘ngli qayd o‘lmasun nuchukdin,
Bir nukta nutqi poking ul ma’dani malohat.

Har kunda shukri zikrin bajo qilolmadim men,
Sendek nigor bizga Haq aylamish karomat.

Olamg‘a fitna solding yuz ming jahon-u jomin,
Sahroda koza qilding, ey yori xush fatonat.

Qildi murod da’vo sultonig‘a gadosi,
Da’vogari Uvaysiy, Tengri anga himoyat.

* * *

Bilsang meni jononimi dehqoni muhabbat,
Muflislarig‘a aylag‘an ehsoni muhabbat.

Mashshota olib ilkiga gar aylasa haydar,
Majnun bo‘lur ul zulfi parishoni muhabbat.

Nogoh nazar solsa g‘ariblar sari yorim,
Shahlo ko‘zining davrida mujgoni muhabbat.

Bo‘lsa kishi ul husni bihishti aro doxil,
Kavsar labida sabzayi rayhoni muhabbat.

Ko‘nglum qushi parvoz qilur bo‘lsa ajab yo‘q,
Nechunki o‘shal chohi zanaxdoni muhabbat.

Ilkimni bu olam elidin yuvmagim uldur,
Ul pok zamirimni ki domoni muhabbat.

Bir mash'ali bazm ichra tabassumdin o'lubdur,
La'li labi ichra duri dandoni muhabbat.

Bir nukta takallumdin agar tashlasa ma'shuq,
Oshiq eliga ul labi xandoni muhabbat.

* * *

Ko'ngulni mosivodin pok qildim, yor maskan tut,
Kuyub ishqingda kul bo'ldum va yo dildor gulxan tut.

Agar ishq ahli isyon peshadur chun qatlin istarsen,
Ayo qotilki qatl aylab kelib qonimni gulshan tut.

Chiqor rashkdin bul kun bo'libsen to pushaymoni,
Borib kim do'stning rayig'a ag'yoringni dushman tut.

Giriftori ki shirin so'zidursen yorni, ey dil,
Agar Farhoddursen doimo g'am tog'ini kan tut.

Vayo ul laylivash husnini mir, otida Haq nurin,
Ko'rubsen eyki Majnun xoki poyi uzra madfan tut.

Fanoi faqr malbusin taningga aylasang kisvat,
O'shal atfol toshi birla sen jismingni ravzan tut.

Uvaysiy senga bul kun andaliboso maqol o'ldi,
Ani vasfini takror ayla gulzor ichra shevan tut.

* * *

Dilo, majnunlig' etma, ishqing sirrini pinhon tut,
Yuraking ichra doim yor jabridin qizil qon tut.

Agar sen istasang dardingga darmon yordin anda,
Bukun oz ayla darmoningni dardingni farovon tut.

Demishlar sayyidi kavnayn: "Dunyo sahni mo'mindur",
Agar oqil esang dunyoni ko'ngling ichra zindon tut.

Kel, ey soqiy, bukun mayxona eshikini vo qilg'il,
Berib mug'bachani ilkingga sog'ar bazmi davron tut.

Meni matlubum uldur, o'z qo'lingdin jur'aye ichsam,
Nazokat dastgohim, sen bukun bu qulni mehmon tut.

Ko'ngul mulkiga shoh erdi xayoling necha soatdur,
O'zing dil taxtida birdam turib mulki Sulaymon tut.

Uvaysin orzu qilsang o'tub o'zlukdin, ey zohid,
Ki istab darbadar bo'lg'il topib bir pokdomon tut.

* * *

Intizor ushshoqlar o'ldi nigor uyg'ondimu?
Yozilib mujgonlari chashmi xumor uyg'ondimu?

Ey harim ahli, o'xu joyiga doxil qil meni.
Tortibon xamyozasin ul yori g'or uyg'ondimu?

Uyquni mahram etib bizlarni mahrum ayladi,
Uyqu dastidan ko'nguldur beqaror uyg'ondimu?

Men nechuk biryonu so'zon o'lmayin sham o'tida,
G'ayr bazmi ichra sham'i barqaror uyg'ondimu?

Andalibosolig'imdin har jonivor,
G'unchalar qon bog'ladi ul guluzor uyg'ondimu?

Va'da qildi necha lutfidin Uvaysiy zorg'a,
Va'daga qilsa vafo, ul nomdor uyg'ondimu?

* * *

Tanim zaxmig‘a do‘stlar novaki nozikbadan bois,
Bo‘lubmen xirqayi jo‘lida ul gulpirahan bois.

Ajabmu kulbayi me’morima vayronalig‘ yetsa,
Murassa g‘am bilan bo‘lg‘on ki bul baytulhazan bois.

Raqibim oldida rashk ila qatl o‘lsam ajab ermas,
Nechunkim la’ldin zohir o‘lan durri adan bois.

Agar tolib esang ixroj jam’i mosivodin bo‘l,
Ki matlubingga yetmaslikka ul go‘r-u kafan bois.

Dedilar ushbu mazmun doimo Vaysiy qarandek shoh,
Bu so‘z izhorig‘a Vaysiy g‘aribi bevatan bois.

* * *

Bu hijron zulmati ichra kechalar mohg‘a muhtoj,
Ajab ermas meni gumrohlar ogohg‘a muhtoj.

Chiqarmay hojatimni xatm qilma Tengridin qo‘rqub,
Bilurmusenki har vaqti gadolar shohg‘a muhtoj.

Yuzungdin man’ qilma ko‘zlarimni nuri diydamsen,
Nechunkim ko‘z qadam yo‘lig‘a qo‘ysa rohg‘a muhtoj.

Tag‘ofil birla ko‘rsang yorni, ey dil, umid uzma,
Mudom ul qahrabo saqlar o‘zini kohng‘a muhtoj.

Ki aslo, zohido, ko‘p bo‘lmag‘il sen toatingga qul,
Mabodo bo‘lmag‘aysen anda shahanshohg‘a muhtoj.

Tong ermas qatrayi may ichsa soqiy ilkidin bul dam,
Uvaysiy o‘zni aylab vosili dargohg‘a muhtoj.

* * *

Kuyib kul qildi jismim ishq o‘ti, men kimga aylay dod?
Kulum ko‘kka sovurdi hajr bodi, dod ila bedod.

Gul ishqidin emas bulbulg‘a shevan qilmog‘i tun-kun,
Kelib rahmi, ko‘rub ahvolimi doim etar faryod.

Labing avroqida zohir o‘lan husning kamolidin,
Ki oshiq ahlig‘a Tengri beran uldur xati irshod.

Agar zinda ahli man’ bul manzuridin bo‘ldum,
Niqobin oldi yuzdin ushbu kun ul ko‘zlari jallod.

Xayolin bog‘ladim ehromdek har ro‘z har soat,
Tag‘ofil dilbarim men xasta qulni hech qilmas yod.

Ko‘ngulni do‘st ko‘yi sori eltmoq istama, men,
Ki, ul zulfi parishon domidin ko‘nglum emas ozod.

Tahammul, sabr tirnog‘ida qozdim ishq tog‘ini,
Ki bu shirin so‘ziga ojiz erdi ko‘hkan Farhod.

Raqibi ro‘siyahlar bermadi yo‘l yor bazmiga,
Meni mahrum etmaklikka ul jononadin imdod.

Jafo-u jabr ila obod o‘lmish anda me’moring,
Uvaysiy, sabr qilg‘il, ushbu dunyo oxiri barbod.

* * *

Tilarlar ahli olam doimo dildordin xushnud,
Bo‘lurmu hech odam men kabi ozordin xushnud?

Ajab yoreki ahyolar ko‘zin qatlida jon bergay,
Necha mavt ahli bo‘lg‘aylar labi guftoridin xushnud.

Taraddud qilma, ey jonon labi, sen so‘zga kirmakka,
Tugatti so‘zni bo‘ldum men ko‘zi xummordin xushnud.

Sanam xushnudidin g‘ayr ahlig‘a jonim tasadduqdur,
Kishi bo‘lg‘aymukin hech vaqt ag‘yordin xushnud.

Demang Majnunni shavqi Laylining oyinasidandur,
Yuzi mir’otini taxtida ul didordin xushnud.

Kalomin muzmar etti bo‘ldi andin ko‘hkan Farhod,
Demak, Shirin labining nutqi shakkarbordin xushnud.

Uvaysiy, ko‘r ravon o‘lg‘anda oni yo‘qti mushtoqi,
Sabab uldur, menim jononimi raftoridin xushnud.

* * *

Bilmadim qaysi pari qildi bu guftorimni band,
Nazm bozori bila ham tab’i bozorimni band.

E’tiroz etma banogoh qilsa noma’qul bu so‘z,
Husni ruxsoring etibdur aqli purkorimni band.

Septi tuxmi xorni ag‘yor dushmanlik qilib,
Bo‘ldi xoriston, qilibdur rohi gulzorimni band.

Yor ko‘yiga bukun borg‘um tavahhum g‘ayrdin,
Bo‘lsa ming jonim fidokim, qilsa ag‘yorimni band.

Bilmadim voqe’ nadur vasl ichra ko‘pdur e’tiroz,
Urmadi bir nukta so‘z etmish shakarborimni band.

So‘zga kirdi bazm aro yuz bahs paydo aylabon,
Kim aning donoligi qildi yo‘q-u borimni band.

O‘zga yuzdin rashk tob etma, Uvaysiy, zordin,
Nargisi masting etibdur chashmi bemorimni band.

* * *

Qolg‘onda menga o‘zni chunon ayladi jallod,
Lutfini raqiblarga ayon ayladi jallod.

Qurboni qoshing bo‘lg‘ali ilkingdin umidim,
Furqat o‘ti ko‘ksumni nishon ayladi jallod.

Dil qonini to‘kmakka zabonimni buyurdi,
Oshiqlig‘imi elga bayon ayladi jallod.

Mafhum ko‘zung ul edi, ey mardumi chashmim,
Qon ila sirishkimni ravon ayladi jallod.

Jononima jon bo‘lsa garav deb necha kundur,
Ishq ahlini chashmin nigaron ayladi jallod.

Zulfim bila band ayladi poyim bila dastim,
Qabl anta mamotig‘a kamon ayladi jallod.

Ul teshai rashkim boshima tashladim oxir,
O‘zni menga qolg‘onda chunon ayladi jallod.

* * *

Qaysi quldur qilmagay sarvi xiromoningni yod,
Qaysi sunbul qilmadi zulfi parishoningni yod.

Iktisob aylabdu husnung sabzasidin butmagan,
Qaysi faslining bahori xatti rayhoningni yod.

Qoshlaring savdosini boshimg‘a rif’at ayladim,
Qilmag‘an kim iydi ruxsoringda qurboningni yod.

O‘zgalarga lutf-u ehsoningni yetkurganda kim,
Hech qilmassen meningdek zor-u hayroningni yod.

Rashkdin jonim taraddud ayladi uqbog‘a azm,
Aylag‘il, ey sho‘x, mendin o‘zga armoningni yod.

O‘tgamen g‘am chohidin shavqing samandin o‘ynatib,
Ko‘nglum aylab dam-badam chohi zanaxdoningni yod.

Kirsa xudro‘ yo‘lg‘a ta’limsiz adashqay rohdin,
Vaysiy, Haq yodida bo‘l aylabki jononingni yod.

* * *

Qayu aql erdi istar doimo jononadin behbud,
Qayu hush erdi istar Majnuni devonadin behbud.

Qachon ishq ahlini dardiga darmondur tabiblardin,
Bu hijron shomig‘a yo‘qtur mohi tobonadin behbud.

Salomat ahli, mendin istama rasm-i rusumungni,
Qachon chiqqayki obod ahlig‘a vayronadin behbud.

Kel, ey soqiy, qadahni mayg‘a to‘ldur, bergil ilkimga,
Bukun voqe’ bo‘lubdur nargisi mastonadin behbud.

Dilo, xub asrag‘il xurshid tal’at zarra mehridin,
Sadaf batni bo‘lubdur qatrayi durdonadin behbud.

Tut ey ma’zur tan sham’i muhabbat birla kuydirdim,
Mavosil tun qachan topqay tani parvonadin behbud.

Uvaysiy, yuz o‘gurma xalq guftugo‘yidin bul kun,
Ki shoyad bo‘lmag‘aysen ul kuni afsonadin behbud.

* * *

Yozmagimda vasfini qildi nechuk toqat xirad.
Na uchun jonona mehriga erur ulfat xirad.

Bog‘ladi mahkam belin qoshini yod aylab qalam,
Yozdi jon-u dil bila, sen qilma ko‘p minnat xirad.

So‘rmag‘il mendin sanam vaslida in-u onini,
Aql-u fahm-u xush-u idrokimki dur hayrat xirad.

Gul yuzin, rayhon xatin, Kavsar labin yod aylayub,
Erdi xoristonu bo‘ldi ul zamon jannat xirad.

Ey dilo, tutqil xirad yondur muhabbat o‘tig‘a,
Ayladi ishq ahlini shohidig‘a bid’at xirad.

Ko‘zi qahr etsa banogah vasf etarda so‘zini,
Necha so‘z birla nigohin ayladi bid’at xirad.

Vaysidin ishq-u muhabbatni rusumin istama,
Ushbu ash’or ila berdi zeb ila ziynat xirad.

* * *

Meni, miskinni bilmon xalq doim imtihon aylar,
Ko‘ngulni beqaroridin tavahhumli gumon aylar.

Qilib yuz bahs barpo, damda sa’b o‘lg‘on tiriklik kim,
Ki to borguncha olamdin yurak bag‘rimla qon aylar.

Azal dehqoni husnung sabzasin kim xizr etmakka,
Tazallum birla didam jo‘yidin ashkim ravon aylar.

Ki g‘ayr oldida bag‘rim qonini so‘rma tabassumdin,
Labi la’ling tishingning gavharin vahkim ayon aylar.

Dilo, ta’lim bul bir Laylini amrida bo‘lsang kim,
Agar tur desa, ul boshingda qushlar oshyon aylar.

Ko‘rub islomi husnin, zohido, din berma ilkingdin,
Solib zunnor damda kufri zulfi zarfishon aylar.

Muhabbat bodasin ichma umiding bo‘lsa o‘zluktin,
Ki oxir muhtasibi ishq rasvoyi jahon aylar.

* * *

Seningdek shohg‘a mendek g‘aribi bevatan yig‘lar,
Sabab uldur, ko‘rub ahvolimi baytul-hazan yig‘lar.

Guliston ichra kirsam suvrati bulbul etib o‘zni,
Fig‘on-u nola qilsam o‘rtanib, vahkim chaman yig‘lar.

Agar dardi dilim izhor qilsam bazm arosinda,
Qaroru sabr etolmay ulfatu ham anjuman yig‘lar.

Tegibdur novakingdin necha o‘q jismim aro pinhon,
Tanimni beadad zaxmin ko‘rub bul pirahan yig‘lar.

Niqobi yuzlaring zulfungni tebratsa tong otmas gar,
Muqarrar bo‘lmag‘aymen deb ki ohuyi xo‘tan yig‘lar.

Kel, ey soqiy, bukun rahm aylag‘il maxmur ahlig‘a,
Ki may xummori birla o‘lsam ul go‘r-u kafan yig‘lar.

Uvaysiy, yig‘lamakdin man’ bo‘lmog‘lig‘ na boisdur,
Jafou javringi tortib o‘shal Vaysi Qaran yig‘lar.

* * *

Ruxing uzra iki gisuyi shabranging tutoshibdur,
Ki bir ganj ustida go‘yo iki ajdar taloshibdur.

Gul ermas gulshan ahlin ko‘zlari qon ila to‘ldurmush,
Tegib g‘amzang o‘qi nechunki haryondin qaroshibdur.

Shafaq ermas yuzung hijronida xurshidi xovardur,
Ani o‘tlug‘ tanidin charxni o‘ngir tutoshibdur.

Qoshing savdosi men devonani boshiga tushguncha,
Sirishkim seli tug‘yoni falak toqidin oshibdur.

Tanimg‘a o‘qlaring muhlik emas, balki mador istab,
Bu to‘rt devorg‘a har yondin cho‘plar qaloshibdur.

Tarahhum birla Vaysiyg‘a nigoro manziling ko‘rguz,
Bu muhlik vodida ushbu musofir yo‘l adoshibdur.

* * *

Jamoling ofitobi vazzuhodur,
O‘zung bir gavhari qimmatbahodur.

Seni xalq aylagan chun fazlidin Haq,
Bag‘oyat onchunin lutf-u atodur.

Ki men har yerda bo‘lsam nofai ishq,
Dimog‘imga labingdin mushksodur.

Na hojat so‘rmag‘ing marg‘ubi dilni,
Visoling menga doim muddaodur.

Tanaqqus aylading da’voi ishqim,
Qasamyod etmagim emdi ravodur.

Tugandi ismi harfi, ey dilorom,
Ki bu matlub qof ilan adodur.

Topay deb aylasang kim ixtiyori,
Hurufi qofiyag‘a muqtadodur.

Ki bu abyot barpo etmagimdin,
Erursen shoh, Vaysiy bir gadodur.

* * *

Vahm qil, jonon, junun toshi bu afg'onimdadur,
Ham yana ishqim sharori ohi so'zonimdadur.

Yorni bun'yod qosid qilma beparvolig'in,
Garchi yuz ming kim jafou-javr jononimdadur.

Istama tarjehi istig'noni sen har kimsadin,
Noz-u istig'no o'shal kokil parishonimdadur.

Aylasam fosid xayoli bo'lg'ali sahronishin,
Dard ila mehnat, alam, g'am baytul ahzonimdadur.

Ey dilo, sen shukr zikrini tilingdin qo'ymag'il,
Bul adolatlik g'aribparvarli sultonimdadur.

Burda-burda bag'rimi shishlab xayoli novaking,
Ishq o'ti, hijron qilichi bag'ri biryonimdadur.

Ishq bo'rkin kiydimu kirdim yana mayxonag'a,
Ko'rdum ul barg afsorin umri pushaymonimdadur.

Chayqama og'zing malomat shahdida nodiyda xalq,
Yuz tuman to'fon suyi bu chashmi giryonimdadur.

Vaysiy, vayron o'lsa el obod, munda sabr qil,
Anda ta'miringni tufrog'i bu vayronimdadur.

* * *

Jonso'z ajoyib sanami g'ayri mukarrar,
Yor oldida g'ayra karami g'ayri mukarrar.

Sharh aylasa vasfini ki devon chiday olmas,
O'rtandi davot-u qalami g'ayri mukarrar.

Shaydolig'imi so'rma bukun, dilbari zebo,
Kulbama yetib to qadami g'ayri mukarrar.

Bilmon na ajab sho‘xi sitamkora yo‘luqtim,
Bir damda yuz alvoni sitami g‘ayri mukarrar.

Novaklaridin siynam aro zaxm yetibdur,
Marham topa olmay alami g‘ayri mukarrar.

Istab tun-u kun tashna lab o‘lsam ajab ermas,
Soqiy elida jomu jami g‘ayri mukarrar.

Muflis ko‘rub Vaysig‘a qilmas nega savdo,
Dil maxzani ichra dirami g‘ayri mukarrar.

* * *

Naylayin bilmonki, band o‘ldi yuzumga boblar,
Vah nasib o‘lmish, netay, baxtim ko‘ziga xoblar.

Munqatedur obi nayson Qulzumi mazmundin,
She’r aro bo‘ldi mamot ul gavhari noyoblar.

Kasb etardi sendin, ey xurshid, yuz sori niqob,
Furqatingda tun va kun xurshid ila mahtoblar.

Kokulung har tori yuz butxonaga zunnor edi,
To masojid ahliga qoshing edi mehroblar.

Mehr tobin, hajr tobin jon-u dil birla qo‘shub,
Kim falak charxida bu davron ajuzi toblar.

Har so‘zi yuz marta jon bergan edi, ey hushmand,
Berdilar bir necha jon hajrinda la’li noblar.

Ey dilo, man’ aylag‘il ko‘zdin bag‘ir xunobini,
Sirni fosh etti bukun ko‘zdin to‘kulgan oblar.

Vaysiy, sen andisha qilma xalq iyn-u onidin,
Ko‘z yoshing tark etsa, tong yo‘q ma’dani odoblar.

* * *

Yuz sazo jon bermadim oldida vosil chog‘lar,
Furqatida hamnishinimdur xabarsiz sog‘lar.

Chashmi boroning bilan tun kun sug‘ar dil mazrain,
Bemuhabbat yerga bitmas sho‘ra-u yantog‘lar.

Ishq sirridin to‘la fosh ayla, ey dil, negakim,
Yo‘l aro toyrulmasun nor o‘lmag‘an taylog‘lar.

Gavhari umring g‘animatdur Xudo yodida bo‘l,
Kelgusi bir kun samandi xo‘bdin yaydog‘lar.

Soqiyo, tutqil payopay sog‘aring zuhd ahlig‘a,
So‘rmasin ahvolimi bu zohidi bedog‘lar.

Laxta-laxta qon erur ko‘nglum judolig‘ dashtida,
Misli homun uzra yozmish lola gul yafrog‘lar.

Kim xayoli yordin man’ etsa bo‘lmas go‘yo,
Ko‘zga torikdur jahon, boshimga tushmish tog‘lar.

Har kishi olmas muhabbat ahlidin zarra ramuz,
Kirsa ul rohi haqiqatda tegar to‘qmog‘lar.

Charx kajraftorligidur yo‘qsa baxti vojgun,
Go‘yo bulbul qafas bog‘ ichra sayron zog‘lar.

Vahki qozmish necha soatdurki hijron tog‘ini.
Qolmadi sabr-u tahammul ilkida tirnog‘lar.

* * *

Ey Sayyidi oliy, to‘ti guftor,
Berma meni bul g‘ariba ozor.

Gar borsam o‘shal ko‘yingga yig‘lab,
Sen qilma bu yanglig‘ telbadin or.

Bormoqqa alimda tuhfa yo‘qdin,
Yozdim necha ming nazm nochor.

Bildim seni dard elidin ogoh,
Sensen necha men kibiga g‘amxor.

Dil ichra ne yangli jilvai nur,
Mafhum o‘lan senga bu asror.

Men bulbuli gung-u benavomen,
Topmay qilib orzuyi gulzor.

Dar’yoi muhabbata tushubmen,
Qa’rida ko‘rub guhar bayakbor.

Cho‘mdum tahina qilib tavakkul,
Kirgay qo‘la bo‘lsa gar Xudo yor.

Bir nuktasin ayladimki tafsir,
Had yo‘q to‘la so‘z qilurg‘a izhor.

Hasrat kuli birla sayqal urdum,
Oyinai ko‘nglum erdi zangor.

Ayb etma bu so‘zni, ey shahi shar’,
Men mazlumu, osiyu, gunohkor.

Vaysiyg‘a jahon erur qarong‘u,
Chohi bu jahondin et xabardor.

* * *

Xayoling birla ishqing bu vujudim xona tutmishlar,
Hush-u aqlimni quvlab, telbai devona tutmishlar.

Ko‘ngulkim bir qushi vahshi ani rom etgali go‘yo,
Muhabbatdin qafas aylab, visolin dona tutmishlar.

Kel, ey dard ahli, bo‘lsang ishq sirrig‘a qulog‘ing tut,
Labim birla zabonim ushbu dam afsona tutmishlar.

Firoqing shomi vasling sham’ini yondurdi, andinkim,
Yuzingni sham’i misli jonimi parvona tutmishlar.

Tabibo, sen shifo etmakni taklifin xayol etma,
Tani bemorim ishqi dardini jonona tutmishlar.

Sirishkim donasin ko‘rdi yuzum tufrog‘ida andog‘,
Malomat qushlari boshim uza koshona tutmishlar.

Uvaysiy, muncha behushlig‘ bila sayr orzu qilma,
Xabar topgan kishilar doimo pinhona tutmishlar.

* * *

Bu ushshoq ahlini qasdina kim saf chekti mujgonlar,
Tutubon aql-u hush idrokini band etti mujgonlar.

Na sahro-u, na shahr-u, na vatan ichra qaror etgum,
Analhaqdek o‘ziga mast etib mahv etti mujgonlar.

Tasadduq aylayin dermenki g‘ayr ahliga jonimni,
G‘araz bul yorni ko‘ngli uchun rashk etti mujgonlar.

Falakdin rashk yetgach boshima yetti jafo-u javr,
Bu o‘ksuklik parishon holima rahm etti mujgonlar.

Gahi dardi bila qon yig‘latib gohi qilib bexud,
Gahi bo xud etib lutf ila xursand etti mujgonlar.

Sivo aylab dili mahzunni bu dunyo havosidin,
Uzub Haq yo‘lig‘a bilsam ki payvand etti mujgonlar.

Ko‘ngul bir dasht-u sahro erdi gulzori chaman bo‘lmish,
Murassa saltanat taxtida to sayr etti mujgonlar.

Aling ochg‘il duoyi xayr qilmoqqa gadosenkim,
Necha afvojg‘a bir boqmog‘in xayr etti mujgonlar.

Uvaysiy, lof urarsen, men muhabbat, yor kelturdum,
Vayo sendinmu, mendin debon bahs etti mujgonlar.

* * *

Ko‘zlaring firoqida tanda lolagun qonlar,
Qilg‘ali tamoshosin saf chekibdu mujgonlar.

Ey g‘ani, karam aylab husnungi zakotidin,
Faqr aro gadolarg‘a aylagaysen ehsonlar.

O‘lmayinmu o‘ksukdin menga qilmading parvo,
G‘ayr ahlig‘a na deb, marhamat farovonlar.

Zohido, hazar qilg‘il xo‘blarni domidin,
Halqa-halqa yuz uzra zulfidur parishonlar.

Sabr onchunon ettim, bo‘lmadi murod hosil,
Tishladim adab toshin toki sindi dandonlar.

Bo‘l sharorai otash sahl tutma, ey mahbub,
To chiqardi ohimni ko‘nglum ichra suzonlar.

Sabr qil bukun, Vaysiy, qilma noshakebolig‘,
Tongla Haq bo‘lur qozi dasti ul giribonlar.

* * *

Ko‘ngul sayd etgali bir qotili jononavor o‘ynar,
Aning oldidakim ko‘nglum qushi devonavor o‘ynar.

Ichibdur to mayi vahdat azal soqisidin ul kun,
Aningchun ilkin og‘zina tutub mastonavor o‘ynar.

Ajoyib hola soldikim nafas dur o'lsa mardumlar,
Ki to tushkuncha ashkim yuz uza durdonavor o'ynar.

Malakdur yo bashardur, yo pari na zotaindur ul,
Qilib ushshoqlig' kasbini ham shohonavor o'ynar.

Uvaysiy, senki yor oldida o'zlik ixtiyor etma,
Degan mehmon adab batnida ham mehmonavor o'ynar.

* * *

Eshitgil arzi ahvolimni, ey shohi jahon, taqsir,
Ki izhor aylay olman dilda ko'p dardi nihon, taqsir.

Jununum xayli aqlim maskanin toroj etgan vaqt,
Tutung ma'zur bunyod aylasam oh-u fig'on, taqsir.

Parishon hol zohir menda kuygay xushmand ahli,
Nechuk kim kuymasin doim yoshim obi ravon, taqsir.

Taajjub etmagil, shoho, ko'rub holi digargunim,
Kecha-kunduz ki men rasvo-u, ul sohibqiron, taqsir.

Nazokatlig' so'zungga qand-u shakkar ham masof o'lmas,
Qo'ya olmas alingga suvni Bilqisi zamon, taqsir.

Munosibliqqa iybordim senga Yusuf Zulayxosin,
Ki aslo tushmasin o'trug'a bir g'ayri garon, taqsir.

Zabarg'a xat urub zer aylamish ul kotibi iqbol,
Ani chun aqli ko'tahlar o'qurlar in-u on, taqsir.

Sirishkim donasin ko'rdi yuzum tufrog'ida andin,
Malomat qushlari boshimg'a qilmish oshyon, taqsir.

Vujuding sabr tog'idur, dilingkim aql bog'idur,
Dedi kim, bilganicha Vaysiyi bir notavon, taqsir.

* * *

Qo'y qadamni ko'zga, ey jonona, diydam muntazir,
Sen kabi nozikbadan mehmona diydam muntazir.

Men na qildim, bilmadim, qildi meningdin e'tiroz,
Necha soatdur labi xandona diydam muntazir.

Bir zamon ayrilg'anim yo'q erdi men andin netay,
Tez kelgil turma, ey hamxona diydam muntazir.

O'zgalar bir-birga o'lsa muntazirliq oshkor,
Haq nasibi menga kim pinhona diydam muntazir.

Bazm qur mayxonada, qo'y, soqiyo, kir, mug'bacha,
Jon-u dil birlan o'shal paymona diydam muntazir.

Xo'blar amr ayladi nozimlig'ing izhor et,
Nazm uldur tafsiri yorona diydam muntazir.

Vaysiydin kim muntazirlig'ni demang siz sahldur,
Bag'ri qon oludai giryona diydam muntazir.

* * *

Qayu mayxona sori yuz qo'yanlar shohlardurlar,
Muhabbat sirridin fahm aylagan ogohlardurlar.

Yo'ling oyinadin ravshan bilolmas ul erur johil,
Ki ham badbaxt, ham torik ko'ngul gumrohlardurlar.

Ko'ngul, ag'yor aro yor, sen kim rashkdin o'lma,
Ki harjo kahrabo manzuri bilsang kohlardurlar.

Ko'ngulni g'am balosinda tuzab jon intizor o'ldi,
Qaror aylar esang, dil taxtida xirgohlardurlar.

Ayo sultoni olam, men gadoyi xokirohingmen,
Alimda zard chehram birla uzrxohlardurlar.

Chunon miftohi tilni ko‘hi dandonimda bosturdum,
Muhabbat sirrini fosh etgan ushbu ohlardurlar.

Malomat mo‘zasin kiymay, qadam tebratma, ey zohid,
Ki xoliy xordin yo‘q turfa qattig‘ rohlardurlar.

Deding, ey mahvashim, tut baxt-u izzat domanin mahkam,
Xayoli dargahing Vaysiyg‘a izzu johlardurlar.

* * *

Na oshiqlarki jonon yo‘lida pomollardurlar,
Rangi zard-u bag‘ir xunob ashki ollardurlar.

Ko‘rub may jilvasin jomingda jon bersam ajab ermas,
Magas maqsudi bilsang kecha-kunduz bollardurlar.

Mudom asrarmen ozor aylamakdin xotiri pokin,
Nechun yori azizim noziku behollardurlar.

Dilo, yo‘l berma har fosid xayola, sof tut o‘zni,
Ki oshiq ko‘nglini bilmakka ul rammollardurlar.

Jamoling sori parvoz aylamas ko‘nglum qushi nechun,
Yuzung sahnida har bir dona yanglig‘ xollardurlar.

Shikor aylab ko‘ngul sayd etti ul sayyodi berahme,
Nechuk jondur qutulgay, na ajab changollardurlar.

Uvaysiy, sabr qilgil shikva qilma yor mehridin,
Ki purtob aylagan olamni charxi zollardurlar.

* * *

Ko‘zum oyinasi xurshidi ruxsoringgadur ojiz,
Zabonim shonasi ul zulfi tarroringgadur ojiz.

Bag‘ir qon o‘lganimcha yuzlaring to bo‘ldi gulnori,
Qo‘nay shoxingga, gul, ko‘ksum netay xoringgadur ojiz.

Yuzungga jannati gul kokilingga jannati sunbul,
Ki tobi bemalohatlikda raftoringgadur ojiz.

Muruvvat aylagil dard ahliga javr uzra javr etma,
Jarohatdur vale hajringda ozoringgadur ojiz.

Ko'ronda xo'blar zohid, qabul etgay balolarni,
Ayo, ey ishq, ammo kufr zunnoringgadur ojiz.

Dema har nechaga ishq sirridin xabar, ey dil,
Necha oinai dil sirri asroringgadur ojiz.

Avval may no'sh etay mug'bachadin sabr et, ajali shoho,
Uvaysiy tashnalig'din ushbu kun doringgadur ojiz.

* * *

Tush aro jonona zohir bo'ldi jonon ichra boz,
O'rtadi bag'rimni boz ul la'li xandon ichra boz.

Deb edim furqat tuni tokay chekay subhi visol,
Ravshan etgay shomi hijron shomi hijron ichra boz.

Jon-u dil birla quloq tuttim mengadur muxtasar,
Na uchun g'ayr ahlig'a nutqi farovon ichra boz.

Tarki ishq ettim chiday olmay malomat toshig'a,
Mehr joridur bukun etgan pushaymon ichra boz.

Zohido, ko'p iddao qilma xarobot ahlig'a,
Solmag'ay nomus ila oringni bo'hton ichra boz.

Faqr eli bisyor umidi o'kushu navmedlig',
Bu siyah tole'lara to lutf ehson ichra boz.

Qulzumi ishq ichra, ey Vaysiy, ko'rub ilkin quruq,
Gavhari maqsadga tashla durri g'alton ichra boz.

* * *

Biz g‘ariblar xonasig‘a nogahon, xush keldingiz,
Orifi billoh ham qutbi zamon, xush keldingiz.

Narm ruhim mushk bo‘ Iso bilan ham hamnafas,
To malohat bobida sarvi ravon, xush keldingiz.

To jafo-u javr, kulfat birla tan ranjur edi,
Dardlig‘ ko‘nglumg‘a, ey oromijon, xush keldingiz.

Topmadim obodlig‘ ne istadim harchandkim,
Bu dili vayronim ichra onchunon, xush keldingiz.

Lavhi dildin zoil o‘lmoqlig‘ni qilma ixtiyor,
Mehmonimsen meni sohibqiron, xush keldingiz.

Jonimi parvona qildim jismimi fonusi ham,
Tole’yim shomig‘a, ey sham’i jahon, xush keldingiz.

Mehribonlig‘ni to‘la izhor etarsen g‘ayrga,
Kulbai Vaysiyg‘a, ey nomehribon, xush keldingiz.

* * *

Ishq ahlig‘a yaroshur doimo so‘z-u gudoz,
Sho‘x ahlig‘a ki istig‘no bilan yuz oncha noz.

Boshda savdo, ko‘zda ashku, dilda dor-u, jonda o‘t,
Men kibi hech kimsa qilg‘on yo‘q muhabbat sarfaroz.

Ey mug‘anniy mug‘bacha, oldingda jon bersam bukun,
Chang-u, qonun-u, rubob-u, nag‘ma kim sen ayla soz.

Bexabarlikni zimistonida bo‘lsa kim halok,
Ishq o‘ti ko‘nglum aro doim etar kim bozboz.

Yor vaslidin meni mahrum deb ta’n etmakim,
Sabr tog‘ida turubon ayturam jononga roz.

Qilmog‘il bu dahri dun fosid xayolingdin tama’,
Bebahodur, ey dilo, qilmoq jahonga imtiyoz.

Vaysiy sha’nig‘a munosib ko‘rsa kim har qancha so‘z,
Ming zabon paydo bo‘lub, aytsa yana to bo‘lsa oz.

* * *

Gul yuzung, ey g‘uncha, ul kun oshkori bir nafas,
Demagil, devonalarni intizori bir nafas.

Ochma ko‘z har norasolarni ko‘rub rasvolig‘in,
Bu zamona ahlini majnun shiori bir nafas.

Aylading navmedlig‘ daryosina g‘arq, ey karim,
Ilkimi qil gavharing ummidvori bir nafas.

Qaysi soat erdi no‘sh ettim qadah labrezidin,
Boz tut, mug‘bachcha, o‘lturdi xumori bir nafas.

Ey dilo, sen sayqal ur sabr ila maqsad girdida,
Dahri fonida bo‘lan ko‘zgung g‘ubori bir nafas.

Ko‘rdi Mansur shah yuzin berdi analhaqdin xabar
Bu majozi shohlarni zulmu dori bir nafas.

Jo‘ybori ko‘zdin o‘ksutma muhabbat sabzasin,
Bu baqosiz umring, ey Vaysiy, bahori bir nafas.

* * *

Muhabbat rasmini bilmaklik har jononadin kelmas,
Visoli yorni ko‘rmaklik har mastonadin kelmas.

Bo‘lurmu har kecha tokim chirog‘i sham’ bedudi,
Urubon shamg‘a jismini har parvonadin kelmas.

Ko‘rub Majnun tan uryonasin ta’n etma Laylig‘a,
O‘tub o‘zlukni bobidinki har devonadin kelmas.

Unutqay do‘st ko‘rgan chog‘da tolib so‘zlamaklikni,
Yana arz aylamak mahbu-bu har afsonadin kelmas.

Dilo, sen xuni dil qilma muhabbat oshnosi deb,
Muruvvat ham, tarahhum, bilki, har begonadin kelmas.

Keley zohid, topib bir yorni oldida jon bergil,
Ki qurbon aylamaklik har mahi tobonadin kelmas.

Dilidur ma’dani mazmun barham bermagil, ey sho‘x,
Kelon tab’iki nomavzuni Vaysiy yonadin kelmas.

* * *

Ko‘zuma may jilvasikim, ilkima sog‘ar havas,
Jismima shavq otashi kim ko‘ngluma dilbar havas.

Alatash deb hajr hashrida yurubdur nechalar,
Doimo shahzodavashlar oldida kavsar havas.

Qulzumi ishq ichra cho‘mdum kim umid aylab umid,
Dast ko‘tahdur agarchi to qilur gavhar havas.

Biz gadolar kecha-kunduz faqr malbusin tilar,
Shoh simintan qilurlar ul zar-u zevar havas.

Voizo taklif man’ etma muhabbat yo‘lidin,
Bizga ul mehrobi abru sengadur minbar havas.

Tong emas Vaysiy muhabbatda gadodek bersa jon,
Ishq kasbin aylagaylar mir-u sultonlar havas.

* * *

Meni faryod-u zorim hayf ul dildorima yetmas,
Eram bog‘i aro ul sarvi xush raftorima yetmas.

Quloq komim aningsiz talxdur el guftgo‘yidin,
Necha faryod-u zorim ul shakar guftorima yetmas.

Erur bir Layli yo Shirin-u yo Uzrodurur ko‘nglum,
Muhabbat vodisida yori Majnunvorima yetmas.

Judolig‘ dardidin bemordurmen kecha-u kunduz,
Falak uzra Masihodek Xizr minqorima yetmas.

Firoqig‘a meni o‘rgatmayin kim bir yo‘li ketti,
Visolin topmayin zor o‘lg‘onim ag‘yorima yetmas.

Agarchi shohdurman, yor, didoring gadosimen,
Tamomi shohlarni shohi ul sardorima yetmas.

Muhabbat bahri ichra gavhari maknun men, ey do‘stlar,
Meni faryodu zorim, hayf, ul dildorima yetmas.

* * *

Bukun voqe aval nedur sho‘x jononim achchig‘lanmish,
Bag‘ir qon etgali ham no‘gi mujgonim achchig‘lanmish.

Tavahhum ayla, ey mashshota, gar vasl o‘lsang ilkina,
Kamandi oshiqon zulfi parishonim achchig‘lanmish.

Bukun sabr aylayub ishq sirrini fosh etmagil, ey dil,
Tila mazkurlug‘din sho‘x jononim achchig‘lanmish.

Mubaddal bo‘ldi subhim shoma torikdur jahon bori,
Bu oqshom vasl aro ul mohi tobonim achchig‘lanmish.

Rafiqo, so‘rmag‘aysen nega ashk o‘rnig‘a qon to‘kting,
Bo‘lub navmid vahkim chashmi giryonim achchig‘lanmish.

Kiribon botiyat ul-vasl ichra ul tob etti gardunni,
Tabassumlig‘ bila ul la’li xandonim achchig‘lanmish.

Qadah tut, soqiyo, sog‘arda ko‘rguz yor aksini,
Necha kundurki Vaysig‘a nigahbonim achchig‘lanmish.

* * *

Meni mahbubim, ey dilbar, o‘shal nom ichra yastanmish,
Tafakkur qilmag‘il mazmuni payg‘om ichra yastanmish.

Nechunkim orzu qilmay qo‘lungdin boda ichmakni,
Mayi vahdat sening ilkingdagi jonm ichra yastanmish.

G‘azab qilmangki piri dayr, ul yuz sori telmursam,
Tajalliyi Xudo ul husni gulfom ichra yastanmish.

Kel, ey soqiy, oyog‘ing murda dillardin darig‘ etma,
Maseh anfosikim ul boda oshom ichra yastanmish.

Tavakkul o‘tina sol ahd-u paymoning ramod o‘lsun,
Ki, ey dil, bevafolig‘ vadai xom ichra yastanmish.

Ko‘rubon donai vaslin ki parvoz etma, ey zohid,
Yuz oncha dard-u kulfat donasi dom ichra yastanmish.

Ko‘rub furqat tunin, ey Vaysiy, navmid o‘lma vaslidin,
Bilurmusen ki doim subh har shom ichra yastanmish.

* * *

Ko‘ngul pirohanin Yusuf kibi g‘am ilki chok etmish,
Malomat Dajlai to‘foni tab’imni halok etmish.

Tabibo, nega so‘rmay men shifo rasmin seningdinkim,
Dili majruhimi bedard ahli dardnok etmish.

Xaloyiq, shikva qilma ko‘rmasam sud-u ziyoningni,
Muhabbat oncha madfun aylabonkim bemaqol etmish.

Ko‘ngul, sen istama tandin tiriklik sho‘x beparvo,
Ki oxir jismi uryonimni kim yo‘lida xok etmish.

Ki shoyad tushsa nozik tab’i manzuri guzori deb,
Fubori mosivollodin Uvaysiy dilni pok etmish.

* * *

Rahm qil, yo Rab, falak mohimni pinhon aylamish,
Mehr obodini sultonimki vayron aylamish.

Oy yuzini nuridin olam munavvar bo‘ldikim,
Maskanimni bilmadim, bir yo‘li zindon aylamish.

Yig‘lamaymu qon yutub, bo‘ldimki jonondin judo,
Furqati ul shahsuvor ashkimni to‘fon aylamish.

Bazmgohini iti erdim ki vasli ichra men,
Hajr jallodi yalog‘imni qaro qon aylamish.

Shukr tasbehini tilimdin man’ qildimmu ekin,
Har jazog‘a qadr o‘tmaklikni chandon aylamish.

Izlabon qon yig‘lasang ham, o‘tti vaqti fursati,
Foniy olamda gado-u shahni mehmon aylamish.

Vaysiyo, xatm o‘ldi o‘xshar vasli bu olam aro,
Tengri mahshargohida mushkulni oson aylamish.

* * *

Yor ko‘yini iti bo‘lsam meni kim zor, kosh,
Burdai nonini, vahkim, tashlasa dildor, kosh.

Lutf-u ehson ila mamnun aylasang faqr ahlini,
Aylasang mendek g‘aribingga baham ozor, kosh.

Ey falak, pomol qilsa mo‘rdek zulming meni,
Dard ahlig‘a gar o‘lsam, ushbu kun sardor, kosh.

Sayqal aylarkim mavosil gardidin ko‘rmakka yuz,
Yetsa dil oyinasiga hajridin zangor, kosh.

Bemuruvvat sangdil desa jafochi jabrkor,
Derki dil navmidlig‘din rozimen ag‘yor, kosh.

So‘rmayin ahvolimi fahm etti jismi nolimi,
Gar desa ul sho‘x ishqimda bo‘lan bemor, kosh.

Yo‘qturur Vaysiyda kim Vaysiy maqomidin umid,
Yor ko‘yini iti bo‘lsam meni afgor, kosh.

* * *

Aylading izhor bazm orolig‘ing, ey bag‘ri tosh,
Bo tag‘ofil dilbarim, rashking etib sirrimni fosh.

Ishq aro ko‘p yig‘ladim tushtum bu hijron dashtig‘a,
Tengri, albatta, berur ko‘p yig‘lag‘on ko‘zlarga yosh.

Qoshig‘a rog‘ib esa dil ko‘zi rashk ila boqar,
Bir ko‘ngul, yo Rab, na bois ikki mahbuba talosh?

Yig‘latur ul ko‘z firoqida haqiqatmu emas,
Bu shariatmu emas sajda qilurda egma qosh.

Ul majozu bu haqiqat hu emas, ey piri dayr,
Ul namozu bu muhabbatmu emas ey xurdi yosh.

Tong emas zuhd ahlig‘a shirin so‘zum bersa ulus,
Aylamish takror tinmay tun-u kun ilmi maosh.

Yor ko‘yida aziz etmang meni dilxastani,
Izzati Vaysiy budur: qo‘y o‘lsa chavgonig‘a kosh.

* * *

Hayo paykiga payg‘om aylamoqlig‘ ixtiyor o‘lmish,
Bukun mahrumlig‘idan ko‘zda bag‘rim oshkor o‘lmish.

Qilib yuz savodim noma yozdim bo tag‘ofil yor,
Ochib payg‘om ko‘rsat yuz-ko‘zum ko‘p intizor o‘lmish.

Asar ul nofai asrordin topti qayu sangdil,
Muhabbat bo‘yidin olam barisi mushkbor o‘lmish.

Ko‘rubon za’flig‘ jismimni sen man’ etma paykoning,
Tanimda o‘qlaringdin har taraf bilkim mador o‘lmish.

Ayo, ey soqiyi davron, yetibdur og‘zima to jon,
Meningdek tashnalar chandon may ichmakka xumor o‘lmish.

Ko‘ngul qoni uza bir so‘zni deb dog‘ etti ul mahvash,
Ki go‘yo yozdi bargin lola dog‘i oshkor o‘lmish.

Qadini sarvg‘a bengzatmog‘ing, Vaysiy, adabdinmu,
O‘shal gulchehrai xushraftorni qaddig‘a or o‘lmish.

* * *

Nigoro, orazi husningga ko‘nglum dilfigor ermish,
Bu joniy andalibig‘a nachunkim guluzor ermish.

Bu tun do‘koni bazmorolig‘ining sham’vash qurg‘il,
Necha mendek jamoling sham’iga beixtiyor ermish.

Meni mahrum deb jonon yuzidin qilmagil ta’na,
Yuzi bahridin ichgan suv ko‘zi abri bahor ermish.

Dilo, bu ruq’a nazming xalqqa bovar bo‘lmasa, ne g‘am,
Ani bir nukta vaz’i dard ahlig‘a tumor ermish.

Sanam, rashking bila taslimi jon o‘lsam ajab ermas,
Aziz mehmona mezbonini xo‘bi jonnisor ermish.

Kel, ey zohid, azizi xalqdursen, qilma kasbi ishq,
Ki husn ahlini dargohida oshiq xor-u zor ermish.

Uvaysiy, yor istig'nosi ko'pdur istama vaslin,
Ko'ngul majruhini zaxmi hamisha beshumor ermish.

* * *

Ul jilva malohat qadi raftoringa maxsus,
Ham nuri sharofat ruxi gulnoringa maxsus.

To aql-u farosat dili pokingga erur xos,
Ham shahdu shakar lab aro guftoringa maxsus.

Ishq ramzini kim so'zladi lof urdi zaboni,
Savdoyi muhabbat seni bozoringa maxsus.

Shabro'z mudom aylag'an afg'onimi, ey gul,
Haryon demagil didai gulzoringa maxsus.

To rashk g'uborig'a sen, ey dil, yuz o'gurma,
Gar bo'lsaki oinai zangoringa maxsus.

Sayqal urubon pok qilur ko'zguyi dilni,
To bo'lg'usidur ul siri asroringa maxsus.

Yumg'il ko'zing, ey Vaysiy, gar bo'lsa parivash,
To nuri tajalliy seni dildoringa maxsus.

* * *

Rahm etib, yo Rab, meni sen ayla jonondin xalos,
Bag'rimi qon etti ul la'li Badaxshondin xalos,
Jonni tandin qutqarib, ko'nglimni armondin xalos.

Lutfinga rog'ib elidin men kabi termulmagay,
Hayrati xobu xayoli ichra hayron o'lmag'ay,
Hech g'uncha sen kabi holimni anglab kulmag'ay.

Dema, ey mahvash, tanim tuprog‘ aro ko‘rsang, bu kim,
Yetkonim tuproq aro boshimg‘a tushti qayg‘ukim,
Mahrumi janona bo‘lg‘ay chun bo‘lib afg‘on bu kim.

Zarra erdim mehrig‘a men mohi shab gardi ne tong,
Yor ilkida kabob, hajr ilkida fardi netong,
Yutquzub erdim ko‘z-u ko‘nglimni berdi netong.

Ishtiyoqida yonardin xolimen na tun-u kun,
Joni dildin kim adashdim izladim dunyoi dun,
Hajridin o‘zni yiturdim kirdim ul dashti junun.

Na uchun majnunlig‘ izhor etmay, ey Laylinamo,
Ko‘zlari qatl etguchi xunrez nutqi jonfizo,
Sen o‘zing chohi zanaxdonidan aylarsan ibo.

Jon qabul etmas tanimdin darmahal ketgil desam,
Yop bovar qilmag‘ay jon so‘zig‘a bitgil desam,
Rahm etibon Vaysini dodig‘a sen yetgil desam.

* * *

Vah na shevandurki la’li nob etibdur ehtiroz,
Ul sababdin ashkimi xunob etibdur ehtiroz.

Kesgali kelturdi toba ul g‘azab fulodini,
Rishtam payvandg‘a asbob etibdur ehtiroz.

Ishq bahridin etibdur obi naysonni darig‘,
Kim sadafga gavhari noyob etibdur ehtiroz.

Ayladi mahrum mahram qulni naylay, ey nadim,
Vahki, shahlo ko‘zlarini xob etibdur ehtiroz.

Afv qil harchand isyonim agar bo‘lsa fuzun,
Yorni g‘am, g‘ayrini shodon etibdur ehtiroz.

Hasratimni nuktasin ta'vil etar senga mahol,
Vasli chog'i gardaningni tob etibdur ehtiroz.

Ayladi masdud Vaysig'a dari gulzorini,
Na uchunkim ul guli serob etibdur ehtiroz.

* * *

Aylayin men andalibi zor gulzorimg'a arz,
G'am bilan bo'ldi qadim xam, sarvi raftorimg'a arz.

Talxkom ayladim xaloyiq gufti-go'yidin bu kun,
Qosido, sen aylag'il nutqi shakarborimg'a arz.

Hajrida kullohdurmen, vasliga yetmasduram,
Bitmadi savdoyi ishq ul husn bozorig'a arz.

Do'st domonig'a yetmas ilkim, ey payki sabo,
To anga pomoldur davlatli ag'yorimg'a arz.

Hushi islomi ko'tardi qumridin gulzorida,
Bandalig' tavqi erur ul kufri zunnorimg'a arz.

Jon topar la'lin Masihidin ulus, vah, men bu kun,
Lekin ul anfosidin kim chashmi xunxorimg'a arz.

El toparlar chora arz etmakka sulton davrida,
Na munosibdur mening bu ko'ngil nochorimg'a arz.

* * *

Jondin o'tgum nafasi yorimi jonimg'a ivaz,
Balki barham o'lan ul ruhi ravonimg'a ivaz.

Vasli xomush esa nola firoqi na ajab,
Alkanu lol erur zikri zabonimg'a ivaz.

Ko‘nglim ul la’li labi sori agar borsa, ne tong,
Yor hijroni aro dildagi qonimga ivaz.

Zarrai vasl muyassar esa bu g‘amzadaga,
Bok emas kun-u tun ul dardi nihonimg‘a ivaz.

Dayr asrorig‘a doxil o‘laram, zohid eshit,
Ming kasofat ila hamroh gumonimg‘a ivaz.

Ishq sargashta etibdur, qani manzil bu zamon,
Yor ko‘yini g‘uborida makonimg‘a ivaz.

Yo‘qatib o‘zni fano martabasig‘a yetako‘r,
Vaysiy nomim mening ul nomi jahonimg‘a ivaz.

* * *

Dardim afzun bo‘ldi, ishqimni gumon ettim g‘alat,
Jonimi qurboni ul abro‘ hilol ettim g‘alat.

Zuhd elig‘a bir nafas, vahkim, aziz o‘lmak uchun,
Dunlara o‘zni hamisha poymol ettim g‘alat.

Ishq maktubida hol ilmin o‘qumoq chun sabaq,
Ushbu qabziyat bila oshiftahol ettim g‘alat.

Maqrun o‘ldum xonai aslimg‘a izlab yorni,
Justijo‘yi kecha-kunduz, moh-u sol ettim g‘alat.

La’li hijronida ashkim yuzlara afshon etib,
Bag‘rimi ko‘z mardumidin infiol ettim g‘alat.

Tashladim mahvash ayog‘in ostig‘a o‘zni bukun,
Qaddima xurshidni yozmishda dol ettim g‘alat.

Tushti dil chohi zanaxdona bayakbor, ey rafiq,
Pashshadek oludan ul shahd bol ettim g‘alat.

Xalq notiqlikda nutqiga gumon o‘lmish g‘ubor,
Bu muhabbat jo‘yidin obi zilol ettim g‘alat.

Ibtidoi ishq qildim intihodin bexabar,
Intihosizlig‘da korimni mahol ettim g‘alat.

Xorij o‘ldim xalq o‘trusidin ettim vasfini,
To xayoli fikrini, vahkim, xayol ettim g‘alat.

Asradim farqi sarimda doimo savdoi hol,
Go‘yo bir nuktada dolimni zol ettim g‘alat.

Soqiyo, iqbol jomida nasib et may bukun,
Bilmayin dil zarfini singan safol ettim g‘alat.

Pechutob etmish muhabbat vahki jismimni chunon,
Qoshini yod aylayub, jismimni dol ettim g‘alat.

Xo‘blarni mehr tobidin yiroq bo‘l, zohido,
To mabodo dema, o‘zni bemajol ettim g‘alat.

Besabab ermas, Uvaysiy, mehring ul Haq nuridur,
Demagil ko‘nglumni mag‘ruri jamol ettim g‘alat.

* * *

Sig‘madim olamg‘a bilmon ko‘yi dilbardur vase’,
Dil ko‘tarmog‘lig‘da ul garchi sitamgardur vase’.

Sham’ o‘zluk o‘zlugin ravshan etar torik apo,
Kecha xosu omga bir mohi anvardur vase’.

Ko‘nglimi gar olam etsang, ey quyosh yuzluk pari,
Tong emas olamg‘a ul xurshidi xovardur vase.

Tangdil bo‘lma, ayo zohid, meni dilxastaga,
Kim farah bo‘lsa bu olam anga mahshardur vase’.

Ishq o‘ti mashq o‘lsa jismimg‘a bo‘lub maskan ne tong,
Gulxan aylabdur samandar qushga axgardur vase’.

Orzuyi ko‘yi jonon o‘lsa, Vaysiy tangdil,
Bilmadingmu dilbaring elga barobardur vase’.

* * *

Qayu tole’da erdim, ey sanam, vaslingga yetgan chog‘,
Qaro baxtim oqarmish erdi didoringg‘a to‘yg‘on chog‘.

Dema, ey sho‘x, ne deb iztirobe birla so‘zlarsen,
Adab naxlini kestim ko‘ksima rashk o‘ti yetgan chog‘.

Sabab hirmon o‘tig‘a taklif etmog‘lig‘ nadin dilbar,
Muhabbat o‘ti hajring dudi rashkingda kul o‘lg‘on chog‘.

Midod o‘lsa tamomiy bahri hasratlar tuganmaskim,
Malaklar jam o‘lub bu charx avroqig‘a yozgon chog‘.

Tarahhum birla ahvolimg‘a rahm etsang, ajab ermas,
Ko‘zumdin ashki xunolud ruxsorimg‘a tomg‘on chog‘.

Ayo, ey telba ko‘nglum, shikva qilma yor mehridin,
Ololmay matrabingga dil qushin dilbar qochurg‘an chog‘.

Uvaysiy, sabr qilg‘il, garchi o‘lsang tashnalig‘dinkim,
Tirilg‘ung ul Masihing obihayvondin sug‘org‘on chog‘.

* * *

Ayo, dilbari la’li nobim mening,
To‘kuldi qadahdin sharobim mening.

Tanim ichra yoqding judoliq o‘tin,
Ki o‘rtandi bag‘ri kabobim mening.

Qolon intizoringda chun beshumor,
Oqardi bu chashmi pur obim mening.

Fuzundurki kundin kunga mehnatim,
Nag'u muncha ko'pdur azobim mening.

Ki sendinmu yo tol'iimdinmudur,
Ki mengdin du bergil javobim mening.

Muyassar emish anda mahbub yuzi,
Ki tokay to'la iztirobim mening.

Tavahhum qiling g'arq o'lardin, ulus,
Bukun joriy bag'ri xunobim mening.

* * *

Jafosin chekmayin bo'lmas muyassar senga jononing,
Yurakka dardi tegmay, ta'sir etmas oh-u afg'oning.

Ko'ngul sabr aylag'il, betoqat o'lma hajr shomina,
Zulumot ichra kirmay, topmog'aysen obi hayvoning.

Nadin dod aylamay ummidi subhim shoma aylanmish,
Firib-u makr ila vaslingni afsun etti hijroning.

Qoshing bir g'amzasi to to'kti yuz ushshoq qonini,
Ko'zing maydonida saf-saf tamosho qildi mujgoning.

Vujudim poymolin xokirohidin ki man' etti,
Ayo xokiy vatan ko'yinda tutting bormu armoning?

Uvaysiy, yada ko'rsatmay hijo bo'lg'on taalluqot,
Alarni g'arq etar to'fon o'lub bu chashmi giryoning.

* * *

Bu jahon bog‘ida yo‘qdur guluzorimdin bo‘lak,
Yo xayoli foside yo‘q sen nigorimdin bo‘lak.

Istagil dastur agar bo‘lsa dili mahzunnikim,
Topmag‘aysen sarv qad chashmi xumorimdin bo‘lak.

Novakingdin kecha o‘q zohir qilurda qahr etib,
Otma har nomardga jismi figorimdin bo‘lak.

Ul kuni ko‘rdim seni, ketti qo‘limdin ixtiyor,
Menda yo‘qdur senga bergan ixtiyorimdin bo‘lak.

Lablaringga necha termuldimki, hargiz demading,
Yo‘qki dilga xush kelan sen, dil fig‘orimdin bo‘lak.

Bu Uvaysiy boqmag‘ay to Xizr-u Ilyos o‘lsakim,
Zohirin mahbub, botin tojdorimdin bo‘lak.

* * *

Ma’shuq ermas bo‘lmasa vasl ichra nozi ko‘ndalang,
Oshiq ermas bo‘lmasa so‘zi gudozi ko‘ndalang.

Necha kun bedor o‘lub hech topmadim andin asar,
Tush aro bo‘ldi muyassar e’tirozi ko‘ndalang.

Toatingdur rost o‘z rohingga sen aylab havas,
Ul muhabbat birla zohid qilma bozi ko‘ndalang.

Gar muhabbat istasang qilma malomatdin hazar,
Har kishi qo‘ysa qadam avval majozi ko‘ndalang.

Har kishi qilsa ibodat tong-la mahshargohda,
Tushqay o‘trusig‘a ul qilgan niyozi ko‘ndalang.

Vaysiy, so‘z ko‘toh qil, garchand hasrat bo‘lsa ko‘p,
Kelmasin ko‘ngliga har birsi darozi ko‘ndalang.

* * *

Meni rasvo qilan kimdurki, bir simin badan nozik,
Solan boshima savdo kimdur ul gul pirahan nozik.

Xayoli kirsa ko‘nglumga chiqar dunyo-u dun mehri,
Qilibdur oqibat, ey do‘stlar, ham bevatan nozik.

Ki sabrim tirnog‘ida har kuni yuz ko‘hi g‘am qozdim,
Meni oldimdadur Farhod ojiz, ko‘hkan nozik.

Qading nozik, qoshing nozik, ko‘zung nozik, labing nozik,
Tiling nozik, so‘zung nozik, tishing durri adan nozik.

Xatingdur sabzayi rayhon, labingdur Kavsar andomi,
Mijang bo‘ston, yuzing gul, misli gulzori chaman nozik.

Boshingdin to ayog‘ingga qarabtur siymbar borik,
Xususan, g‘abg‘abing ostida ul zeri zaqan nozik.

Iki nargis, iki ko‘ngul, iki tan, iki jon birla,
Birin birni hamal aylab qiloli anjuman nozik.

Uvaysiy, o‘z-o‘zingcha so‘zlama, tiyg‘il zaboningni,
Mabodo kelmasun nozik diliga so‘zlagan nozik.

* * *

Gul emas to bo‘lmasa oldida xori ko‘ndalang,
Yor kuyi ermas ul yo‘q dilfigori ko‘ndalang.

Ul sanam ko‘yiga yetkaymen debon qilma bino,
Yo‘l aro necha seningdek intizori ko‘ndalang.

Sho‘xlik birla muno qildurub qon to‘kkali,
Kirsa maydon ichra ul dam shahsuvori ko‘ndalang.

Har kishi Mansurdek bersa Analhaqdin xabar,
Ul zamon bo'lg'ay ani oldida dori ko'ndalang.

Vaysiy so'z ko'toh qil, dam urma nodonlar aro,
So'zni sof etkancha to chiqqay g'ubori ko'ndalang.

* * *

Bo'lmasaydi to parishonlig'da zebo kokiling,
Qilmag'aydim shona chog'ida tamosho kokiling.

Urmasam erdim olib ilkimga ul mashshotani,
Qilmagay erdi meni olamg'a rasvo kokiling.

Yo xaridor o'lmasam erdim junun bozorida,
Solmog'aydi boshima yuz rangli savdo kokiling.

Husni ruxsoring to'ya ko'rgay edim qadri tuni,
Qilmasaydi yuzlaring ustida g'avg'o kokiling.

Qolmag'aydim norasolar ta'nai pinhonig'a,
Etmasaydi sirrimi elga huvaydo kokiling.

Qo'nmasaydi moh ruxsoringg'a ko'nglumni qushi,
Tushmag'aydi tori to bo'ynumg'a yaldo kokiling.

Osmasayding jon olur vaqtingda zulfing dor etib,
Bo'lmag'aydi muncha Vaysig'a mujallo kokiling.

* * *

To'bidin ahsan erur dilbar qadi zebolig'ing,
To'tidin afsah erur shirin shakar go'yolig'ing.

Ta'n qilma noshikebolig'ni izhor aylasam,
Tushti boshimga ajoyib sho'rishu g'avg'olig'ing.

Sayri gulshan birla tab'im kim kushod o'lmas netay,
Dil hadiki ichra etkan g'unchai ra'nolig'ing.

G'ayrdin qon erdi bag'rim ham, mushavvash xotirim,
Hasratimni barham urdi sohibi ma'nolig'ing.

Mavj uran daryoi rahmingkim salomatlargadur,
Dard ahlig'a na deb, ey sho'x beparvolig'ing.

Orzu birla havas idborakim dafn ayladi,
Faqr rohidin xabar berdi sening a'lolig'ing.

Misli bir parvonadek Vaysiy tilar vasling mudom,
To yorutqay ko'nglini, ey sham', bazm orolig'ing.

* * *

Ko'zi xummor yorim joni qurbonimdadur mayling,
Xayoling kecha-kunduz to'kkali qonimdadur mayling.

Bu kun xizmatda bo'lg'on tashnani may bermay o'lturma,
Agarchi tashnalig' birla mening jonimdadur mayling,

Tabibo, so'rmag'il-so'rg'il vujudim ranji izhorin,
Ko'nguldin dam urarsen dardi-pinhonimdadur mayling.

Qadam mayxonag'a qo'ymoqqa fikr etma, ayo zohid,
Ki qo'ymas mangu nomus garchi jononimdadur mayling.

Degay ishq husn eli ahlin mudom ashkini boron et,
Muhabbat Xizr etarg'a xatti rayhonimdadur mayling.

Sanam dermu ekin, yo Rab, bizingdek mustahiqlarg'a,
Beray husnim zakotidin, ki ehsonimdadur mayling.

Uvaysiy, ayla hamdamlarni taklifi haqiqatga,
Degil bor ersa bu dardi farovonimdadur mayling.

* * *

Bo‘ldi olam garchi ul shabrangi dilbar kokiling,
Ganji husning asragan mor ikki haydar kokiling.

Sarvqad, g‘uncha dahon, gulrux, ayo gulzori husn,
Qomating har soridan bitmishki sarvar kokiling.

Ko‘z-u ko‘nglim, aql-u hushim tasxir etti onchunon,
Zohir-u botin hama qildi musaxxar kokiling.

Kokiling savdosi tushti boshiga ishq ahlini,
Qildilar oning uchun g‘avg‘oyi mahshar kokiling.

Uchradi nogoh pari paykar qayu soat edi,
Qildi hush-u, aql-u idrokimni darbar kokiling.

Istadim tashbihi qadding turfa lutf omizsen,
Hech mavzun kelmagay vahkim barobar kokiling.

Oldi Vaysiy bo‘yi xush to xatt-u xolindin, nigor,
Ro‘zu shab ketmas mashomidin muanbar kokiling.

* * *

Junun toshi bu tun afg‘on aro jonon tavahhum qil,
Banogah jori bo‘ldi diydadin to‘fon tavahhum qil.

Berib ilkimg‘a tig‘i rashk ul g‘ayr ahli, ey qotil,
To‘karda qonimi Tengridin, ey nodon, tavahhum qil.

Bukun sayr aylamish gulshanni gulruxsorlar shohi,
Muqarrar bulmag‘aysen ey guli xandon tavahhum qil.

Nigohing furqatidin ko‘zlarimga chunki qon to‘ldi,
Ani chun o‘zga yuzdin ko‘zlari cho‘lpon tavahhum qil.

Ayo, ey bexabarlar, ishq bozoriga yuzlanma,
Tushar dushvor savdolar dema oson, tavahhum qil.

Judolig‘ o‘ti kuydirdi vujudim och dari diydor,
Kuyarsan shu’lai hijronida darbon tavahhum qil.

Zamoning tun qadam bosqon yeringcha bo‘lmasin armon,
Mabodo topmag‘aysen, Vaysiy, bearmon tavahhum qil.

* * *

Band o‘lg‘aliki zulfi parishonadir ko‘ngul,
To sham’i ruxi husnig‘a parvonadir ko‘ngul.

Ichti xayol jomida vaslingni bodasin,
Mayxonai firoq aro mastonadir ko‘ngul.

G‘ayr ahli chaqti senga meni necha til bila,
To borg‘aliki ko‘yina jurmonadir ko‘ngul.

Bo‘lma malol zikri zabonimg‘a, ey rafiq,
Avvalda hasrating bila afsonadir ko‘ngul.

Zohid, takallum etma xarobot elig‘a sen,
G‘am sharbatini quyg‘oli g‘amxonadir ko‘ngul.

Majnun, tanimni rishtasini ta’na etmagil,
Bir laylivash g‘ami bila afsonadir ko‘ngul.

Ey zohir ahli, istama dil maskanin bu dam,
Ozorlig‘ni kunjida pinhonadir ko‘ngul.

Gullojliq maqomig‘a solsang bukun meni,
Faqronai tanim esa, shohonadir ko‘ngul.

Vaysiy, tafakkur etma xaloyiq izosig‘a,
Bildimki ta’na qushlarig‘a donadir ko‘ngul.

* * *

Dilrabo yuzing uzra kokiling parishon qil,
Husninga niqob o'lsun, maqsadimni pinhon qil.

Na deb e'tiroz etting mustamand zoringga,
Jurm ko'p esa afv et, lablaringni xandon qil.

Tashnalig'dadur miskin gushnalig'dadur g'amgin,
Faqr ahlini doxil xotami Sulaymon qil.

Qatra may gadolardin, soqiyo, darig' etma,
Aqldin qilib forig' mastlig'da sulton qil.

Jonni mojarosig'a sabr aylag'il, ey tan,
Rashkdin yaqindur bo'l chiqmag'ig'a mehmon qil.

Tun-u kun meni holim ta'n etarmish ul zohid,
Yo Rab, ul samandardek ishq o'tig'a so'zon qil.

Munda yetmadi Vaysiy vaslingi bahosig'a,
Yumdi ko'z bu olamdin rahm aylab arzon qil.

* * *

Boshimda misli gardundek sanam savdosidur nozil,
G'arib holimg'a yuz oncha ulus g'avg'osidur nozil.

Yuzin ham ko'rmasam jon bulbuli tun-kun fig'on qilmoq,
Ko'ngul bog'i aro doim guli ra'nosidur nozil.

Rafiqo, sahl tutma besaru-polar xayolini,
O'zicha so'z demas bir sohibi ma'nosidur nozil.

Na ko'zkim bil ani seroblig' da'vosin aylabdur,
Ki andog' chashmaig'a sirri haq ifshosidur nozil.

Yo'lingda intizor o'lg'an g'ariblar holini so'rg'il,
Nechunkim har so'zingdin bir Masih anfosidur nozil.

Menga, ul sho‘x beparvolig‘ etsa ta’na etmangkim,
Ki ishq ahlig‘a bir damda tuman parvosidur nozil.

Uvaysiy, dil shikasting birla vaslin orzu qilma,
Bilursenmu ki mahbubingni istig‘nosidur nozil.

* * *

G‘aming ohim o‘tidin boshima toj etkali moyil,
Sirishkim Qulzumin qon ila amvoj etkali moyil.

Umidim shomi hijron vaslinga tabdil bo‘lg‘aymu,
Firoqing lashkari ummidi toroj etgali moyil.

Tiling so‘zda, labing kulkudayu, ko‘ngling dil olmoqda,
Ko‘zung mulki dilimdin sabrimi boj etgali moyil.

G‘ami dunyoi dundin xorij o‘lsam, tong emas, zohid,
Xayoli mahvashim ko‘nglumdin ixroj etgali moyil.

Ko‘ngul, sen istama husn ahlidin maxsuslik rasmin,
Necha ushshoqni eshikida afvoj etgali moyil.

Ko‘ngul bog‘landi zulfung torina taskin emas mumkin,
Sabo tahrikidin har lahza alvoj etgali moyil.

Sabo javloni zulfing torini jam’ etmadi hargiz,
No‘la qilsang kunun yasini nassoj etgali moyil.

Qadah tut, soqiyo, labtashna ketmay dahri foniydin,
Boshimda dorlar Mansuri Halloj etgali moyil.

Uvaysiy, matlabing Haq maxzanida lutf etar sabr et,
O‘zin bildurmaku bizlarni muhtoj etgali moyil.

* * *

Suchuklikdin deyinmu la'li nobingga shakar doxil,
Lab ichra so'zlaringga to bo'libdur muxtasar doxil.

Firoqing o'qlaridin bu vujudim ravzan-u ravzan,
Xususan, har tarafdin boshima tig'-u tabar doxil.

Netay kim zoyil o'ldim lavhi mahbubim xayolidin,
Kecha uyquda tushdin ko'nglima bo'ldi xabar doxil.

Agar dam o'tsa boshdin g'ayra hamdam bo'lmag'il, ey gul,
Mabodo kuymag'aysen ohim o'tig'a sharar doxil.

Labing sirrin kecha-kunduz ko'ngulda andog' asrarmen,
Ki go'yo qa'ri daryoda sadaf ichra guhar doxil.

Eshitsang be ta'assur so'zni ozor o'lmag'il, ey dil,
Malomatdin muhabbat naxlig'a bo'lg'ay samar doxil.

Uvaysiy, istasangkim, ko'zga mahram etma g'aflatni,
Kecha uyquni tark et, yora bo'lg'aysen sahar doxil.

* * *

Tiriklik rasmini olamda ko'ngli shoddin so'rgil,
Fido jon aylaganlarni ko'zi jalloddin so'rg'il.

Umidi vasli yor aylab o'lon asboblar rasmin,
Muhabbat tog'ida ul teshayi Farhoddin so'rg'il.

Muhabbat mijmari ichra kuyib kul bo'lg'on erlarni,
Biyobonlarda majnun jismi nobunyoddin so'rg'il.

Yurogi risha-risha zaxm bo'lgon notavon ajrin,
G'azablig' rahmsiz ul xanjari fo'loddin so'rg'il.

Tihi devora qolg'on kim g'ubor oludalar rangin,
Murassa' g'am bila bu xonayi barboddin so'rg'il.

Judolig‘ zahri birla hajrini noish aylamog‘lig‘ni,
Visol ilkida tutqon jomi xayr-u boddin so‘rg‘il.

Hush-u aqling bila qilg‘il dema, Vaysiy, namozingni,
Ki andog‘ rasmini zohidi dili ozordin so‘rg‘il.

* * *

Kelibmen dargahingga shohi xubonim qabul etgil,
Bag‘ir qonim bila bu chashmi giryonim qabul etgil.

Umid aylab olmoqqa kirdim rohi pokingg‘a,
Yo‘lingda aylag‘an faryod-u afg‘onim qabul etgil.

Ko‘nguldin xorij o‘lmish vasl ummidi naylaykim,
Muhabbat shavqi ichra dog‘i hijronim qabul etgil.

Tushibdur boshima savdoi ishqing, ey shahan shohim,
Alam bozorida bu dardi pinhonim qabul etgil.

O‘tibdur gavhari noyobi umrim toki g‘aflatda,
Tazarru’ zor ila qilgan pushaymonim qabul etgil.

Tegibdur novakingdin necha o‘q jismim aro pinhon,
Shahidi ishq o‘lmoqqa oqqon qonim qabul etgil.

Uvaysiy, garchi noqobil kelibdur ostoningga,
Fig‘on-u oh-u so‘zonini sultonim qabul etgil.

* * *

Firoqing qildi afsun, dilbarim, maqsadg‘a yetkurgil,
O‘chirdi g‘am vujudi axgarim, maqsadg‘a yetkurgil.

Adab sarrishtasin rasmi vafodin uzdilar, ag‘yor,
Ki shahlo ko‘zli zulfi haydarim, maqsadga yetkurgil.

Chiqarmay bol-u par koshonami buzdi falak bodi,
Ayo Jabrail amini shahparim, maqsadga yetkurgil.

Ichib g'am zahrini, ey talxkomim, men nuchuk aylay,
Labi toqinda shahd-u shakkarim, maqsadg'a yetkurgil.

Muhabbat bahri bepoyong'a g'arq ayladi mehring,
Qanoat batni ichra gavharim, maqsadg'a yetkurgil.

Junun tumorini bo'ynig'a toqti aqlim na ummid,
Yetarlar hush mendin, ey parim, maqsadg'a yetkurgil.

Agarchi past iqboli bila Vaysi degay shabro'z,
Falak toqida mehri anvarim, maqsadg'a yeturgil.

* * *

Uftodalara muncha tag'ofilki nadindur,
Berahm ajab dilbari beboka yo'luqtim.

Xummor edim bodai soqiy qadahidin,
Alminnatu lillahki xarobota yo'luqtim.

Band o'ldi netay ushbu mahal rohi takallum,
Bir nutq fizo to'ti shakarxora yo'luqtim.

Koshonai g'am erdi ko'ngul, ma'dani kulfat,
Go'yoki bukun chehrai xandona yo'luqtim

Manzilgahi ko'nglum edi vayronai abtar,
Koshona bino qilg'uchi me'mora yo'luqtim.

Gulzori visolini tilab nola qilurdi,
Chun bulbuli sho'rida gulistona yo'luqtim.

Soz etdi bu kun andalibi bog'i Uvaysi,
Yuz ohu navo sarvi xiromona yo'luqtim.

* * *

Ko‘rindi dil aro bir dilkashe jonona bengzattim,
Nechunkim vasl sham’ig‘a o‘zim parvona bengzattim.

Durafshon ayladi yuz ming hukumat birla nurangiz,
Yorutti bir tabassum la’l aro durdona bengzattim.

Ajab badxulq, bad andesh, ajab bo ishva, bo xirmon,
Visolin dog‘ini yuz tebratan hijrona bengzattim.

Tabibo, so‘rma ahvolim nechuk ranj o‘ldi Ayyuba,
Muhabbat zaxmini jismim aro kirmona bengzattim.

Kel, ey soqiy, darig‘ etma meningdek mustahiqlardin,
Haqiqat shavqidin ilkida bir paymona bengzattim.

Kelib ul dayr piri jismini yuzlab chirog‘ ichra,
Bu kun tobonadin yonsa tanim so‘zona bengzattim.

Vujudim misli bir sham’ malomat anga parvona,
Tuganmas ishq o‘ti bilman menga hamxona bengzattim.

Umidi vasl etib zohid xabarsiz o‘lma hajridin,
Firoqin domiga sepgan visolin dona bengzattim.

Ajab ermas siyah dillar tiriklik da’visin qilsa,
Tabassumda dahonin chashmai hayvona bengzattim.

Aningdek kimsani Haq yo‘lidin begona bengzattim,
Kishi ishq oshinasi yoqturur yo‘q oni mushtoqi.

Uvaysiy bir parivash yodini fikri xayolida,
Aning husnini masti doimo devona bengzattim.

* * *

Durofshonlig‘da la’li lbini guftora bengzattim,
Xirom etmakda tovusi chaman raftora bengzattim.

Xijolatdin shafaq burjida mastur o‘ldi o‘xshaydur,
Quyosh ul orazi mehri ruxi anvora bengzattim.

Dumog'im kokilingni nakhatidin doimo otir,
Shamidi zulfini ul nofai totora bengzattim.

Pariro'lar yuz oncha rangi bo'yi bodaki go'yo,
Hama timsollarni orazi gulnora bengzattim.

Verurmish har kalomi lazzati tajdid bu jona,
Labida chashmai hayvon suyin sarshora bengzattim.

Jahona fitna solmish ul iki maftun xummori,
Bu sho'r angizlikni nargisi bemora bengzattim.

Tamannoi qadi birla qilurmish tubi ovaxlar,
Niholi sarvnin bog' ichra bir ozora bengzattim.

Sahar vaqtida bulbuldek navo soz aylamish Vaysiy,
Sabo chog'ida ochilgan guli gulzora bengzattim.

* * *

Ne tongdurkim junun sahrosida charxi samo' ursam,
Sochibon har tarafga o't yana charxi samo' ursam.

Yaqindur o'rtagay asmo sharori dudi ohimdin
Fig'on-u nola birla dam-badam charxi samo' ursam.

Samo'i raqsdur devonatek tasbihu tahlili,
Muhabbat ahlini qonunida charxi samo' ursam.

Hama mastonalarni ishq maydonida to ko'rdum,
Havas birla alarni oldida charxi samo' ursam.

Damo-dam hayo-hay aylab ajoyib sho'rishi birla,
Ravodur tinmayin shavqi bila charxi samo' ursam.

Azaldin poyi ko'yikim meni zora nasibimdur,
Rusumi ishq eli birla hama charxi samo' ursam.

Uvaysiy, emdi bu dayri fanoda beg'am o'ltirma,
O'tubon muddaolardin ajab charxi samo' ursam.

* * *

Tavallud o‘ldimu ul dam g‘ami sho‘xi zamon ko‘rdum,
Bihamdillah, ki ul sho‘xi zamon sohibqiron ko‘rdum.

Munavvar ayladi dil maskanin xurshid savdosi,
Jahon zindoni ichra ul sababdin nur fishon ko‘rdum.

Ko‘tardi bosh muhabbat xizri ul jonbaxsh davrida,
Ko‘zim sarchashmasidin ul sari ashkim ravon ko‘rdum.

Zamona ahlig‘a o‘zni ko‘ram ulfat na dushvori,
Javobi baxshiga topmay yurak bag‘rimda qon ko‘rdum.

Qayu mayxona sori dayrig‘a dil o‘ldi sami’kim,
Hami vahdatdin olg‘on tashna jam’in orifon ko‘rdum.

Yotibdurlar xarobot ichra soqiy mug‘bacha piri,
Mug‘on asrori sirrin ishq qa’rida nihon ko‘rdum.

O‘shal soqiyki serobi o‘shal mug‘bachcha mahtobi,
O‘shal piriki noyobi ajoyib begumon ko‘rdum.

Nazar soldim, ko‘ngulga qosh ila ko‘z kim taloshibdur,
Xayolimda qadi raftori chun sarvi ravon ko‘rdum.

Ne tong, parvoz etsa murg‘i dil ul donai vasling,
Malomat bozig‘a, Vaysiy, dilin to oshiyon ko‘rdum.

* * *

Fusuni xush o‘lubmenkim parizodimni sog‘indim,
Tiriklik daf’ig‘a xunrez jallodimni sog‘indim.

Kirib g‘am xayli toroj ayladi dil maskanin bu dam,
Borib dargohiga ul sohibi dodimni sog‘indim.

Qadim dol o‘ldi chun bori muhabbatdin na aylaykim,
Guli navrastau yo naxli shamshodimni sog‘indim.

Munodi aylasam tinmay jahon bozorida tun-kun,
Nigorim vasfini aytur es-u yodimni sog'indim.

Jafo tegdi boshimg'a Layli-yu Shirin-u Uzrodin,
Bukun Vomiq ila Majnun-u Farhodimni sog'indim.

Nigohi furqatidin yig'laram qon hech bir mahrum,
Topa olmam xolisi nutqi bunyodimni sog'indim.

Meni mahrum etonlar hush-u idrokimdur, ey soqiy,
Bukun mast aylagil ul aqli barbodimni sog'indim.

Taassuf qilma, ey zohid, bukun vayronalar birla,
Demakim to mabodo ko'ngli obodimni sog'indim.

Bu tun piri mug'on oldida muztar o'lding, ey Vaysiy,
Fusunihush o'lubmen bir parizodimni sog'indim.

* * *

Jurm bo'lg'aymu ivaz nazmi zabon kelturmisham,
Tuhfaye o'lg'aymu bag'rimda ki qon kelturmisham.

Ro'siyahlig' birla sharmisorlig' dargohiga
Bargi sabz o'rnig'a, ey, sarvi ravon kelturmisham.

Ey karambaxsh, o'tmasang bu jurmu isyondin bukun,
Lozimi qatl aylasangkim bosh-u jon kelturmisham.

Dargahingdin men yiroqu garchi bu nolam yaqin,
Har sahar ey gul, firoqingdin fig'on kelturmisham.

Justijo' qilg'uncha jonon vaslidin bo'ldim yiroq,
Sog'inib g'aflatni diydamg'a jinon kelturmisham.

Soqiyo, zarfingcha may quy mug'bacha ilkiga sar,
Tashnalarni emdi o'lmakka gumon kelturmisham.

Kokiling ko‘nglumni andoqkim etibdur pechutob,
Ko‘z-u qoshingg‘a muhabbatni nihon kelturmisham.

Har xatoye o‘tsa Vaysidin bu dam afv aylagil,
Uzr taqsirin bukun, ey mehribon, kelturmisham.

* * *

Yo Rab, ul paymonshikan dildora oshiq bo‘lmisham,
Go‘yo g‘addor bir ayyora oshiq bo‘lmisham.

Zulm ko‘rgancha ani mehri ziyod o‘lg‘ay ajab,
Turfa badmehr o‘zi makkora oshiq bo‘lmisham.

Hajr sobit mulki tan ichra, visoli be sabot,
Misli vodida sarobi yora oshiq bo‘lmisham.

Layli deb berdim ko‘ngul, sa’b o‘ldi ahvolim, netay,
Ishq sahrosida majnunvora oshiq bo‘lmisham.

Tushti zulfini xayoli gardanimg‘a qumridek,
Ul buti shirin uchun zunnora oshiq bo‘lmisham.

Tong emas yo‘lida yuz jonim nisor etsam bukun,
La’li jonparvar shakar guftora oshiq bo‘lmisham.

* * *

Bir pari paykar sumanbar yora oshiq bo‘lmisham,
La’li dilkash so‘zi xush dildora oshiq bo‘lmisham.

Maddi ohim ko‘kdadur sorig‘ yuzimda ashki ol,
Ul qadi ra’no yuzi gulnora oshiq bo‘lmisham.

Qilma gulqanding ila za’fim ilojin, ey hakim,
Menki gulbargi shakarguftora oshiq bo‘lmisham.

Nolau afg‘on etarmen qumridek, bulbul kibi,
Na uchun kim sarvi gul ruxsora oshiq bo‘lmisham.

Lablaringdin to ko‘runmush xush inju tishlaring,
La’li birla ul duri shahvora oshiq bo‘lmisham.

Do‘stlar, ko‘nglum olan zulfi musulmonkush erur,
Kofiredur kokili zunnora oshiq bo‘lmisham.

O‘zni qutqormoq uchun yeldim, yugurdum har sori,
Ohu vovayloki bora-bora oshiq bo‘lmisham.

Manzuli ko‘yi aloyiq bandidin ozodmen,
To tariqi Xo‘jai Ahrora oshiq bo‘lmisham.

Baski sargardon quyun yanglig‘ yugurmoqdur ishim,
Ishq vodisig‘a men ovora oshiq bo‘lmisham.

Vaysidin xush istamaklik yo‘q munosib, ne uchun,
Bir pari paykar sumanbar yora oshiq bo‘lmisham.

* * *

Yo‘q men kabi ishq ichraki xuni jigar o‘lg‘on,
Kundin kuna faryod-u fig‘oni batar o‘lg‘on.

Majnun tani uryonig‘a ta’n etma, xaloyiq,
Dard-u alami Laylini kim bolu par o‘lg‘on.

Gah qolipig‘a Tengri kalomini yoshurdi,
Shirini ul erdi sababi lab shakar o‘lg‘on.

Izlab tun-u kun shavqida mahv aylab o‘zimni,
Men xastani ko‘rg‘il na uchun darbadar o‘lg‘on.

Xoki rah agar o‘lsa boshim shikva na aylay,
Yo‘q erdi muhabbat yo‘lida mo‘tabar o‘lg‘on.

Ma'zuri ibodat o'zingi aylama, ey dil,
Shaytoni laindin xabar ol, xayri shar o'lg'on.

Jonon sorig'a borsang agar payk bayakbor,
Vaysiyni degil hajrida holi digar o'lg'on.

* * *

Naylay bu hazin ko'ngluma ishqing xabar o'lg'on,
Sinamki malomat o'qig'a vah sipar o'lg'on.

Ziynat beran ul manzari afloklar uzra,
Kavkab emas ul ohi sahardin sharar o'lg'on.

Shirin dedi Farhod haqiqatga ulandi,
Mansur kibi jonidin oxir guzar o'lg'on.

Tegdi asari Layli pari chehrasidan kim,
Qays erdi na uchun o'zidin bexabar o'lg'on.

Dard ahli meni toji sar etsa ajab ermas,
Jismim necha kun erdiki, to xoki dar o'lg'on.

Solma nazari sudu ziyonimg'a, xaloyiq,
Ishq ahlini kori kecha kunduz zarar o'lg'on.

Ey dil, nega ummid etay rahmi sanamdin,
Avvalda sitamgar dilikim kalhajar o'lg'on.

Ul rutbai Vaysiyg'a jahon po'ya urubdur,
Kimyo nazarim manzurida xoki zar o'lg'on.

* * *

Yor ruxsoring ko'rib gulzor ra'nolanmasin,
Ushbu ag'yorim qoshinda xor ra'nolanmasin.

Ko'zlarim anjumsifat ochildi husningdin nigor,
Kavkabi sayyorayi bedor ra'nolanmasin.

Lablaring zarfig‘a nozildur haqiqatdin ramuz,
Emdi ul to‘ti shakar guftor ra’nolanmasin.

May ichib mast-u alast o‘ldim ki, ey soqiy, bukun,
Lekin idrokim chunon hushyor ra’nolanmasin.

Ko‘zlaring qatl etmakin oldida, ey qon to‘kkuchi,
Bir necha jallod ham xunxor ra’nolanmasin.

Topti jon bir damda yuz mavt ahli nutqidin bukun,
Bergali jon, ey Masih, minqor ra’nolanmasin.

Vasl aro hijron chahina tashladi Vaysiy dilin,
Xiyra etmak chun ko‘ngul zangor ra’nolanmasin.

* * *

O‘zga so‘z zikr aylasam guftor ra’nolanmasin,
Bo‘lsa savdo xayr ila bozor ra’nolanmasin.

Tushti zulfing bo‘ynima din ketti ilkimdin, netay,
Otqoli to kirpikim zunnor ra’nolanmasin.

Dilrabodursen sanam oldirdi dil ishq ahlikim,
Dahr aro boshtin oyog‘ dildor ra’nolanmasin.

Ne ajab taryokdurmen zahr to kor etmagay,
Qasd etarga ushbu kun ag‘yor ra’nolanmasin.

Ishq afsun aylasa, etma, xaloyiqdin umid,
Ishq bir chug‘ze erur me’mor ra’nolanmasin.

Turrayi zulfig‘a ostim naylayin men xastadil,
Chiqti jon rashkida ko‘p tumor ra’nolanmasin.

Vaysiy, nazmi vasfing, ey jonon qasam, billohkim,
O‘zga so‘z zikr aylasam guftor ra’nolanmasin.

* * *

Orazing zeb ayla to gulzor ra'nolanmasin,
La'lidin so'z ayt duri shahvor ra'nolanmasin.

Qatrayti suv komima quyg'il labing serobidin,
To qiyomat bo'lg'ucha xummor ra'nolanmasin.

Zarra sargardon etib tashla visolingdin shifo,
Jismima hajring aro bemor ra'nolanmasin.

Har ishe xovar elidin o'lsa sensiz yo'q erur,
Senga darkor o'lmag'ay har kor ra'nolanmasin.

Dilbaro, boshing uchun g'ayrig'a ra'no etma so'z,
Dedi ra'nolanmasa nochor ra'nolanmasin.

Ta'nadin o'ldum bukun ishqingg'a mendin so'ngg'i el,
Vaysiydin bir panddur iqror ra'nolanmasin.

* * *

Qay kuni uchradi bir sho'x sumanbar mavzun,
Ko'zi birla qoshi o'ynar o'zi dilbar mavzun.

Na ajab ushbu dumog'imni muattar etti,
Tarqatibdurmu ekin zulfi muanbar mavzun.

Ikki yaldoki bir oy soridi nendi qadinga,
Bilmadim men ani qad birla barobar mavzun.

Va'da qilding menga sen bo'sa beray deb, ey gul,
Unutibsen ani kim, ey mohi anvar mavzun.

Rashking ila meni jonimg'a solibsen otash,
Ne uchun aylading olamni musaxxar mavzun.

Soqiyo, daf mening tashnalig'im ayla xumor,
Ayladi mug'bachai ul labi shakkar mavzun.

Vaysiy, shabro‘z senga bo‘lsa muyassar na ajab,
Qaddingi ishvasidur g‘ayri mukarrar mavzun.

Labing ermish seni jonbaxsh masiho mavzun,
Bosh ko‘tardi xating ul sorida xazro mavzun.

Ne uchun men demayin ushbu xarobing sorig‘a,
Paykaringdin necha ming nozu huvaydo mavzun.

Meni jonimg‘a solib otashi ishqingni bukun,
Ruhingi maskan etar nuri mujallo mavzun.

O‘lmayin (mu) muncha o‘ksuklik aro qolsam men,
Bazm aro g‘ayr elig‘a lutfi bar a’lo mavzun.

Kima aytib, kima dey ushbu xaloyiq so‘zini,
Naylayin tashladi sulton muammo mavzun.

Topaolmon necha oxtarsam ani mazmunin,
Tab’i nomavzunima tushti bu savdo mavzun.

Vaysiy, rasvoyi qadingdur kecha-kunduz, ey sarv,
Zeb erur qomatig‘a zulfi savido mavzun.

* * *

Muncha bo‘ldi sanamim ul qadi qomat mavzun,
Muncha bo‘ldi meni jonima kim ofat mavzun.

Zulfi sunbul, yuzi gul, ko‘zlari bodom sanam,
Boshidin to oyog‘i jilva malohat mavzun.

Shukr zikrin tilima joriy etarmen, naylay,
Seni aylabdu menga Tengri karomat mavzun.

Haq tajalliysini ko‘rguzdi sening husningda,
Bo‘ldi ruxsoringa kim muncha sharofat mavzun.

Ishq o‘ti birla sazovordurmen yo‘q xabaring,
Bu tag‘ofil bila, yor, senda farog‘at mavzun.

Tab’i mavzun, qadi mavzun, so‘zi mavzun, na ajab,
Yig‘ilib kim senga to bo‘ldi jamoat mavzun.

Ajab ermas meni, Vaysiy, dili qayd o‘lsa senga,
Gar xirom aylasang, ey sarv, latofat mavzun.

* * *

Boshim ko‘kka yetibdur, ey shahim, bu iltifotingdin,
Umidim ko‘p erur men zarrag‘a mehri sabotingdin.

Taraddud teshasi birla qozarmen husnini tog‘in,
Muyassar bo‘lmadi altoflik qand-u nabotingdin.

Ki Luqmoni hakim o‘tmish tiriklikni ko‘rib chandon,
Ilohi kasb etgan bo‘lsun ul umri hayotingdin.

Yalab tufrog‘ bu baytulhazan ichra yotibdurmen,
Bu g‘am shomida ummid ila men ruxsori otingdin.

Chiqarmay bol-u par koshonami buzdi falak bodi,
Ayo Semrug‘, topti nechalar bahra qanotingdin.

Sifoting toptilar bir nechalar tuli amal birla,
Bu kim kutohlig‘ birla umidim ismi zotingdin.

Hayo-u hilm maskan aylamish boshdin ayog‘ingni,
Bo‘lolmay hamnishin Vaysiy uyotlig‘dur uyotingdin.

* * *

Fig‘oni ayb, oh-u ta’na bir bechora mahzunmen,
Ki bir Layli parivash shohg‘a ovora Majnunmen.

Dili motam, qadi xam, tab’i nomavzunu, beidrok,
Labida kulkiyu bag‘rida qon, ko‘z yoshi jayhunmen.

Sanam jomi muhabbat berdi zohidlig‘ni tark ettim,
Futumda ishq zanjiri, malomat ichra turg‘unmen.

G‘amidin nozil o‘lmish har kuni yuz shod-u, yuz motam,
Ulus, ayb etmagil, dardidin ahvoli digargunmen.

Namozing fosid ermish, zohido, do‘zaxni vahmidin,
Qaribi lo makondur ul muhabbat birla mamnunmen.

Jim-u, xoy-u, alif kim, men kimu darding yuki birla,
Dilida nuqtasi bag‘rimda dog‘im loyiqi nunmen.

Hadiso, lablaring izhor qilmoqliqqa mahram yo‘q,
Kecha-kunduz jigar xunabasidan diyda purxunmen.

Uvaysing nutqi beta’siriga sol uni pokingni,
Bag‘ir qon o‘lg‘animcha ayladim bir necha mazmun men.

* * *

Vasl o‘lsa jahon xo‘bi firog‘ing sog‘inurmen,
Gar anjumane ichra surog‘ing sog‘inurmen.

Jamshidni jomi menga gar bo‘lsa muyassar,
Ko‘ying itidurmenki yaloving sog‘inurmen.

Payk etti ko‘ngul ushbu zabonimni, nigoro,
Sir mujdasidin derga qulog‘ing sog‘inurmen.

Dil manzarini pok qilur erdi nigohing,
Ne tong, ne ajab desa qarog‘ing sog‘inurmen.

Hijron tuni hamroh xayolingni iturdim,
To topqucha kim vasl charog‘ing sog‘inurmen.

Ko‘yingga muqarrab qil-u yo olki jonimni,
Qonlig‘ yuragim derki pichog‘ing sog‘inurmen.

Ishq dardi fuzunroqmu yo hajr davomi,
Ey o‘t, chidamay dudg‘a dog‘ing sog‘inurmen.

Ey soqiyi behush, netay, o‘zga qadahni,
La’li mayidin quyg‘on oyog‘ing sog‘inurmen.

Ag‘yor elidin xotiri jam o‘lma, Uvaysiy,
Jam etgali zulfingni tarog‘ing sog‘inurmen.

* * *

Dilbaro, husn ichra sendek yo‘q jahonda nozanin,
Xizmatingda yo‘qtu mendek bir g‘ulomi kamtarin.

G‘am yemon bu dahri foniyda yorug‘lik ko‘rmasam,
Rahm etib goh, goh holim so‘rsa gar ul mahjabin.

Jon taraddud qildi tandin ketgali man’ etma, aql,
O‘lmayinmu dilbarim ag‘yora bo‘lmish hamnishin.

Hasratimdin zarra izhor aylamakka qo‘rqaram,
Topmag‘ay orom hargiz osmon-u ham zamin.

Kecha tong otkuncha faryodim senga manzur emas,
Toki nolamga maloiklar qilurlar ofarin.

Ey falak, kajravli davroning menga bo‘ldi nasib,
Na uchunkim do‘st ahlini ko‘rarmen kulfatin.

Yor vasli jon-u aqling, Vaysiy, tandur, negakim,
Chiqti jon tan mulkidin ko‘rgach bu hijron vahshatin.

* * *

Xayol etmakda aqlim senga hayrondur, nuchuk qilsun?
Ko'zim yo'lingga telmurmakda giryondur, nuchuk qilsun?

Sipehr uzra kavokib dema ohimni sharoridur,
Ich-u toshim firoq o'tida so'zondur, nuchuk qilsun.

Urar yuz xora ko'ksini gulin to orzusidin,
Ishi bechora bulbul doim afg'ondur, nuchuk qilsun?

Ko'rubon iydi ruxsoringda ul abr-u hilolingni,
Agar yuz jonim o'lsa, damda qurbondur, nuchuk qilsun?

Urarlar bazm ichra ko'ngluma yuz nish har yondin,
Dili ozurdama ul hukmi jonondur, nuchuk qilsun?

Bilurmen dargahingdin hech kim bebahra ketmaslar,
Meningdek bekasig'a bahra armondur, nuchuk qilsun?

Uvaysiy mashqi noma'zurini ayb etma, sultonim,
Ki beidrok-u ham mazlum-u, nodondur nuchuk qilsun?

* * *

Qatl etmaklikka gulgun kiydi ul simin badan,
Zulfi shabrangini ushshoq ahlig'a aylab rasan.

Chiqsa tig' uryon etib chiqmang tamoshasiga kim,
Qon to'kub qurbon etarkim yoki aylar bevatan.

Jon fido qilg'onlara la'li labi ermish Maseh,
Bevatanlarga nasib etgayki dayri anjuman.

Ko'z yo'lidin oqti bag'rim ayla bovar, ey rafiq,
Shomdin to subhg'a xumro erur bu piyrahan.

Ko'zlaring bodom, qadding to'bi, zulfing anbari,
Yuzlaring gul, xatlaring rayhon, ruxsoringa chaman.

Yor ilkidin qadah ichsam, tavaqquf qil, ajal,
Ushbu so‘zonlig‘ bila o‘lsam, kuyar go‘r-u kafan.

So‘zni vahm etmay degil hozir bilib sohibqiron,
Tarbiyat qilsa yetim nomig‘a Vays ul-Qaran.

* * *

Muhabbat o‘tini jismimga yoq, bag‘rim kabob o‘lsin,
Ko‘zim husningda serob ayla andog‘kim pur ob o‘lsin.

Tuzotqil bazmingi orost, ey xo‘blar shohi,
Tarona-u may-u tanbur ham chang-u rubob o‘lsin.

Senga bir nuqta izhor aylayin dardimdin, ey kotib,
Qilib hal ko‘zlarim yozg‘in mijam birla kitob o‘lsin.

Nasib et jomi maydin zuhd elig‘a qatra, ey soqiy,
Nazora qilmay ahvolimg‘a doim masti xob o‘lsin.

Xush ul kim to dari maqsuddin gar anda vo bo‘lsa,
Yuzimga har tarafdin munda gar masdud bob o‘lsin.

Agar sen orzu diydori, ey ko‘z mardumi tinmay,
Ki andog‘ yig‘la ashking misli boroni sahob o‘lsin.

Uvaysiy, gar qadam qo‘ysang muhabbat borgohig‘a,
Sagi ahli safo bo‘lg‘il, ki to jisming turob o‘lsin.

* * *

Tengrim meni ne aylasa, bechora tururmen,
Bechoralig‘imdin ela afsona tururmen.

Nomus etarlar ko‘rub ul xor-u xasimni,
To murg‘i malomatlara koshona tururmen.

O‘rtansa vujudim bori tokim ajab ermas,
Bir sham’i ruhim husnig‘a parvona tururmen.

Hech kim meni obod eta olmas bu jahonda,
Ul nahnu qasamnodag‘i vayrona tururmen.

G‘aflatda erur xalqu xaloyiq bari, bildim,
Yuz shukr kavokib kibi sayyora tururmen.

Daryoi muhabbat aro ishq ahli urar mavj,
Qa’rida sadaf, batnida durdona tururmen.

Vaysiy, dema Haq menga berur javr-u jafoni,
Sabr aylag‘uchi javrig‘a mardona tururmen.

* * *

Boshimg‘a ohni toj etti hijron,
Ko‘zim yoshini amvoj etti hijron.

O‘shal lashkari hajringga yetsa,
Visolingni ki toroj etti hijron.

Damodam kelsa jilvang xotirimg‘a,
Ko‘nguldin sabrimi boj etti hijron.

Tong ermas orzudin xorij o‘lsam,
Ko‘nguldin vahki ixroj etti hijron.

Seni zikringni etmakchun, nigorim,
Ki dard ahlini afvoj etti hijron.

So‘zingni jilvasin dil ichra, ey sho‘x,
Sabodek har su alvoj etti hijron.

Ki bul bedorlig‘da ketti qo‘ldin,
Uvaysiy tushga muhtoj etti hijron.

* * *

G‘am tunin ravshan qilan sham’i shabistonimmukin,
So‘rg‘an ahvolimni kim lutf ila sultonimmukin?!

Ko‘nglim ichra yuz tuman dardimni izhor aylagan,
Tig‘i nodon ilkidin choki giribonimmukin?!

Bilmadim yuz men kabi devonani qildi halok,
Go‘y etib boshimni maydon ichra chavgonimmukin?!

Keldi kuyingg‘a falaklardin malak arz etgani,
To ani tinchitmagan faryod-u afg‘onimmukin?!

Hasratimdin zarra izhor aylagan vaqtimda kim,
To tabassum ayladi ul la’li xandonimmukin?!

Dayr aro bir necha donolarni guftorini band,
Ayladi ul to‘tiyi shirin suxandonimmukin?!

Ayladi afg‘on Uvaysiy bul judolig‘ hajridin,
Demadingkim bir yo‘li ul xonavayronimmukin?!

* * *

Dayri beisbot bu nomuddaodin dog‘men,
Charxi kajraftori buni bevafodin dog‘men.

Topmadim men mubtalo hargiz mahalli bexalal,
Bu fazoi bo‘stoni tangnodin dog‘men.

Barchag‘a bog‘i tamosho menga xorodur hama,
Bulbuli sho‘ridadek bodi sabodin dog‘men.

Vah yana fasli bahor o‘ldi dimog‘im toza qil,
Soqiyo, o‘lturma bu dori fanodin dog‘men.

Ey fatonat mardumi, ahli fanodin so‘rmag‘il,
Rostliq qaysi erur deb bu navodin dog‘men.

O‘zgadur, ey ahli dil, go‘yo sharorim olami,
Purfishon aylarki bu avji havodin dog‘men.

Ibtidoyi hajr bildim intihodin bexabar,
Bu masalni bilg‘oli fahmi adodin dog‘men.

Yor hajridin bo‘lubdur, ey Uvaysiy, zaxm dil,
Bu jarohat birla dardi bedavodin dog‘men.

* * *

Hajr aro bulbuldayin qilg‘on navodin dog‘men,
Gul saridur xor bu ko‘ksi yarodin dog‘men.

Hajr aro dermenki dardimdin necha izhor etay,
Vasl aro holim so‘ran chog‘da ibodin dog‘men.

Ishq sho‘rishi bilan bu nuktayi asrorni,
Zikr qilsam senga yaxshi mojarodin dog‘men.

Yor so‘yidin ki bir nokasga muhtojim mening,
Tushgan ekan, vah, tuganmas iddaodin dog‘men.

Ishq matnidin senga bir nuktayi sharh aylasam,
Ibtido javr-u jafo beintihodin dog‘men.

Shodmen jononadin, payg‘om yetkurdi menga,
Rashk bobida olib kelgan sabodin dog‘men.

Yor ko‘yig‘a borib tamkin qilurni ixtiyor,
Ayladim, Vaysiy, bukun baxti qarodin dog‘men.

* * *

Qon yutarmen dam-badam jabr ila dono ilkidin,
Menga pinhon ayb faryodim huvaydo ilkidin.

Nega xalq etting gunah oludali jismimni sen,
Kun ko‘rolmam zohir-u botin musaffo ilkidin.

G‘ayrdin bir xas xayoling ichra tamkin bermag‘il,
Pok qil dildorini manzuri dilbar bo‘lg‘ucha.

Orzuyi vasli jonon o‘lma, Vaysiy, negakim,
Mubtaloyi dog‘i hirmon noz paykar bo‘lg‘ucha.

* * *

Visoling yodida bag‘rim to‘la qon etmadim bilmay,
Oquzub ashki xun humroni domon etmadim bilmay.

Tirik yurmaklig‘imdin ta’ni el bisyorlar ko‘rdum,
Fido jonimni ul zulfi parishon etmadim bilmay.

Magar bildim eski dahrning to mol-u dunyosin,
Fano yo‘lida dard ahlig‘a ehson etmadim bilmay.

Darig‘o, ishq sirridin xabar topmas kishilardin,
Fig‘on-u oh-u so‘zonimni pinhon etmadim bilmay.

Salomat xonasi obod o‘lmishkim malomatdin,
Talab aylab ko‘ngul mulkini vayron etmadim bilmay.

Chiqib sahrolara arzimni aytib sangi xorog‘a,
G‘amimdin qon etib bag‘rimni marjon etmadim bilmay.

Yetar har kunda yuz mahzun ko‘ngulga kulfati ag‘yor,
Uvaysiy, nega avval tarki jonon etmadim bilmay.

* * *

Dilbaro, o‘ltir, boshingdin misli gardun, o‘rgulay,
Aqlimi barbod etibon misli majnun, o‘rgulay.

Itlaring bag‘rimni burda qildi, tanni resh-resh,
Jori aylab qonlarimni joma gulgun, o‘rgulay.

To ko‘rib rasvolig‘im or etma, ey hush ma’dani,
Bovar etkil kecha-kunduzlarda maknun, o‘rgulay.

Lablaring hajrinda bag‘rim laxta-laxta qon erur,
Oqizib ko‘z chashmasidin ashki nurxun, o‘rgulay.

Soqiyo, jon yetti labga, va’da qil la’ling mayin,
Garchi men lab tashnai xummor mamnun, o‘rgulay.

Tangri xalq etmish meni muflis gadolardin, netay,
Yo‘q diram, yo‘q toatim ko‘z yoshi Jayhun, o‘rgulay.

Demag‘il Vaysiyni sen ul Vaysiyi bexonumon,
Fahm qilg‘il hasratim, holi digartun, o‘rgulay.

* * *

Visoli yodida do‘stlarga men zor o‘ldim o‘xshaydi,
Firoq anduhidin dushmanlara xor o‘ldim o‘xshaydi.

Qattiq savdo tushib boshimg‘a men bo‘ldim xaridori,
Olalmay matlabim rasvoyi bozor o‘ldim o‘xshaydi.

Solibdur zulfi torin bo‘ynima yo bandalik tovqi,
Va yo islomi chinda bandi zunnor o‘ldim o‘xshaydi.

Ko‘ngul sirrin tila mazkur qildim, kimga dod aylay,
Gulah kimdin qilay o‘zimga ag‘yor o‘ldim o‘xshaydi.

Azalda ruhi nodonim suyubdur yor ishqini,
Aningchun dard-u g‘am birla giriftor o‘ldim o‘xshaydi.

Parivash sayri bog‘ etmish tutib ag‘yor ilkini,
Ki g‘ayr ahli hama gul shoxida xor o‘ldim o‘xshaydi.

Nigoro, ne bo‘lurkin, men g‘arib vaslingda jon bersam,
Necha kundur firoq ilkinda ozor o‘ldim o‘xshaydi.

Uvaysiy orzu qilmish sening oldingda o‘lmakni,
Tushubon mastlig‘din emdi hushyor o‘ldim o‘xshaydi.

* * *

G‘amza tig‘i birla qabz et, yor qurboning bo‘lay,
Qahri mujgoningda dil afgor pinhoning bo‘lay.

Ishq o‘tin bag‘rimg‘a qilma yoqg‘il, ammo rahm kim,
Itlaringg‘a to‘mag‘a dildor biryoning bo‘lay.

To ko‘rib qalloj bizlarg‘a sanam qilmas xarid,
Umrimi boricha, ey bozor, hayroning bo‘lay.

Ushbu oqshom gul yuzin vaslin tilar jon bulbuli,
Urma xoring ko‘ksima, gulzor mehmoning bo‘lay.

Qovma ko‘yingdin meni, lutfingga manzur o‘lmasam,
To menga qilgil baham ozor giryoning bo‘lay.

Ishq o‘ti mashq o‘ldi, tanga kufr etib tush bo‘ynima,
Otashi do‘zaxda ey zunnor so‘zoning bo‘lay.

G‘ayrdin dam urmag‘il Vaysig‘a to, ey labshakar,
Sadqa o‘l ozorlik guftori nodoning bo‘lay.

* * *

Ko‘ngul oinasini ko‘rmadim zangordin g‘ayri,
Anga sayqal berolmas rashki ul dildordin g‘ayri.

Nechunkim rashk botin, lutf muzmardur xusho, ey dil,
Topa olmon bazohir doimo ozordin g‘ayri.

Haqiqat ramzidin savdo agar qilsa xaridori,
Muhabbat rasmida yo‘qtur kuni bozordin g‘ayri.

Nechuk dod aylamay, dayr ichra ul mug‘bachcha davrinda,
Borarga tob etolmay, ko‘rmadim ag‘yordin g‘ayri.

Kel, ey soqiy, muhabbat jomini pur ayla husniga,
Necha kundur ko‘z-u, ko‘nglim emas xummordin g‘ayri.

Mabodo ul sanam vaslig'a maqrun aylasa bir kun,
Demon kim, zohido, bo'ynimg'a sol zunnordin g'ayri.

Uvaysini fig'onin yonmog'i oncha mahol ermas,
Sochi sunbul, yuzi gul, bo'yi mul gulzordin g'ayri.

* * *

Mendin so'rasang, sho'xi zamondin gapiray,
Izhor etibon dardi nihondin gapiray.

Husniga niqob aylali ul dilbari zebo,
Mahrum ko'zum ashki ravondin gapiray.

Ko'p yig'ladim-u, bo'ldi muqarrar yig'i mendin,
Bag'rim guli qat-qat kibi qondin gapiray.

Bejon bo'lubon yetti bu shikasta dil ila,
Ey tan, senga bu ruhi ravondin gapiray.

Gulzora yetib gah falak rashk nasimi,
Umid gulin bodi xazondin gapiray.

Yuz shukrki, shomi saharim subhi yovuqdur,
Xurram bo'la ko'r, g'uncha dahondin gapiray.

Vaysiyi gado bir necha kun yeldi, yugurdi,
Hargiz demadi shohi jahondin gapiray.

* * *

Nechuk jonona istig'no bila kuydurdi af'oli,
Ucholmas dil qushi har yona so'zondur par-u boli.

Tarahhum aylag'ay shoyad ketar vaqtimda ul dilbar,
Ajab ermas, agar qilsam tanim yo'lida pomoli.

Ko‘zi jallodi berahmi ajoyib sho‘xi beparvo,
Solur din mulkig‘a g‘orat o‘shal hindu bacha xoli.

Visoli orzusida berurmen kecha-kunduz jon,
Agar bo‘lsa muyassar to o‘zum hayron, tilim loli.

Ko‘ngul sen istama husn ahlidin maxsuslig‘, vahkim,
Farovondur seningdek necha ko‘yida qadi doli.

Nechukkim e’tiroz etmay, senga, ey soqiyi davron,
Tavaqqufdur menga qolg‘onda sog‘ar g‘ayradur xoli.

Qadam fikr etmayin qo‘yma fano yo‘lig‘a, ey zohid,
Yutar qon kosayi g‘amdin bo‘lur Vaysiyni ahvoli.

* * *

Bu olamg‘a kelib har odamikim surdi davroni,
Bo‘lubdur ushbu dunyo, bu jahong‘a turfa zindoni.

Bila olman yorurmu subhi iqbolim visolidin,
Ado qildi meni bir dilraboni shomi hijroni.

Iboroti g‘amimda gar xatoye bo‘lsa, afv etgil,
Senga bir zarra izhor aylayin, ey ma’niyi koni.

Kel, ey hamdam, bukun sen hamnafaslig‘ istama, lekin
Tiriklik menda yo‘q jonong‘a jonim bo‘ldi qurboni.

Tabibo, sen davo topmakni qilma ixtiyori kim,
Muhabbat dardig‘a hech kimsa topgan yo‘qtu darmoni.

Niqobi sunbulung ichra yuzing timsoli andoqkim,
Qarong‘u kechani ravshan etibdur mahi toboni.

Uvaysiy, e’tiqod olamg‘a qo‘ymoqlig‘ xatoyedur,
Kelib sen ushbu dunyo ichra bilsang misli mehmoni.

MUXAMMASLAR

Sahrog‘a chiqib qilgali, ey yor, tamosho,
Bilmon may ichib, sen ruxi gulnor tamosho,
Jonbaxsh labing nutqi shakarbori tamosho,
Ey, ko‘rguzubon hayrati osor tamosho,
Nazzorayi husning guli bexor tamosho.

Bir qatra mayin qaysi zamon erdi etib no‘sh,
Bilmon na qaya ketti bu aqlim boshidin hush,
O‘t qo‘ydi muhabbat elig‘a urdi dilim jo‘sh,
Ko‘nglum tepishi ayladi savdo elini xush,
Devona erur ravnaqi bozor tamosho.

Xam qildi qadimni seni bu qaddi kamoling,
Jon berdi necha mavtg‘a hayvoni ziloling,
Og‘zimda seni zikring-u, ko‘nglumda xayoling,
Muft o‘ldi havas ahlig‘a savdoyi visoling,
Paymona topar sudi xaridor tamosho.

Bir nuktayi vasfingdin agar topsa muzayyan,
Ey kotibi donoyi jahon so‘za mukarran,
Yozg‘on raqamidin necha jabr bo‘ldi muayyan,
Ko‘nglum qushini dog‘larin qildi muzayyan,
Shavq etti bu tovusni gulzori tamosho.

Yig‘ zulmingni Tengri uchun afgorki bordur,
Bo‘lg‘ilki xabardor necha zorki bordur,
Jonon nori turg‘ul bukun ag‘yorki bordur,
Noz aylama, ko‘rguz menga diydor ki bordur,
Dil muztaribu diyda talabkori tamosho.

Bul nor yukini bu shuturi yosh na bilsun,
Bu rahm dili narm bag‘ir tosh na bilsun,
Dil dardini dahr ichra ko‘ring bosh na bilsun,

Mohiyyati xurshidni xaffosh na bilsun,
Har diyda emas mahrami asrori tamosho.

Topmog'li mahol o'ldi, emas mumkin o'zungni,
Ham g'amzayi masti bila ham qosh-u ko'zungni,
Ham shahdi shakarrez ila og'zingda so'zungni,
Dil diydasi birla ko'ramen yor yuzungni,
To o'lmiya ag'yor xabardori tamosho.

AMIR G'AZALIGA MUXAMMAS

Shifo rasmin tuzubon, ey tabib, ishqingda bemor et,
Shiorim yod etib jon rishtasin tanburinga tor et,
Maseh anfosdursen kim mamot ahlig'a guftor et,
Labingdin kom olurda chini zulfingni namudor et,
Qadah tut, mast qil, andin keyin taklifi zunnor et.

Yetibdur senga, ey jonon, maqomi sayr ofoqi,
Sumi raxshingda pomol o'ldi ul afloklar toqi,
So'zungni nash'asidin bo'ldilar bir nechalar boqi,
Senga bexudlig' ila yorlig' istarmen, ey soqiy,
Qadah tutqil menga ul bodani afyun bila yor et.

Niqobingni ko'tarmay gulruxim sayri guliston qil,
Kulib, har sori boqib, zeb ila har sori javlon qil,
Qilib hayratdakim husnungga bulbul bag'rini qon qil,
Yuzingni rashkidin gul xotiri jam'in parishon qil,
Tabassum ayla g'amdin g'unchalarni ko'nglini tor et.

Ajal xummoriga jon sharbatin paymonada sundum,
Ko'rub may sofin ag'yor ilkida g'amzarfiga quydum,
Bo'lub o'ksuklik ul mug'bachchani ilkiga termuldum,
Ichib durdi may, ey piri mug'on, mayxonada o'ldum,
Tanim tufrog'i birla dayr ta'mirini devor et.

Qadam ishqig'a qo'ydim doimo ashki ravon o'lsam,
Tuzab rashking makonin, ey pari, bexonumon o'lsam,

Labingni furqatida kecha-kunduz bag‘ri qon o‘lsam,
Tilar ko‘nglumki oshiqlig‘da rasvoyi jahon o‘lsam,
Ul oyni husniga, yo Rab, meni mundin batar zor et.

Topa olmam so‘rog‘ solib jahon ko‘nglingdek armonlig‘,
Ul oyning orzusida bu jon har kunda qurbonlig‘,
Menga qolg‘onda dilbar tark qildi rasmi jononlig‘,
Ko‘ngul, ovora bo‘lkim, moneyi vasl o‘ldi nodonlig‘,
Senga kim aydi ag‘yor oldida ishqingni izhor et.

Munavvar qildi go‘yo ul qorong‘u kechani mohi,
Falakni ustidin dod aylagandek urdi bir ohi,
Dedi lutf aylakim Vaysiga bul bo‘l so‘zni ogohi,
Yomon ko‘z tegmasin husningga, ey mahbublar shohi,
Amir ash’oridin bu ruq’ani bo‘ynungga tumor et.

NAVOIY G‘AZALIGA MUSADDAS

Jon olurda nargisi ul tiri mujgon birla bahs,
Go‘yo Hajjoji zolim qildi jonon birla bahs,
Nur bermak mahjabin chohi zanaxdon birla bahs,
Mohtobidek qilan xurshidi tobon birla bahs,
Naqdi jon bermak qilur ul la’l xandon birla bahs,
Rost Isodekki qilg‘ay obi hayvon birla bahs.

Xushdur ul ma’rufga tasbihi tahlili samo’,
Bo‘lsa savdo haq bilan qallojmen, ey pur mato,
Sendin o‘zga yo‘q, ey jon-u jahon birla vido,
Gar umiding bo‘lsa ur dunyoga tig‘i inqito,
Faqr kuyida musallam tut na qilsang istimo,
Orif ermas ul kishikim, qilsa nodon birla bahs.

Hamdamim hushyordur bexudmen, ey dashti junun,
Ul guli ra’no, yuzi gulnor, bag‘rim lolagun,
Dam-badam bilmon nedin ko‘zdin to‘kar may ashki xun,

Chiqqali jon labga yetti deb nido qildim bukun,
Yor der bir bahs qil irnim bila kim ne uchun,
Ko‘nglum olib qasdi jon etti, qilay jon birla bahs.

Jam dunyolig‘ desa damliq xayolig‘a badal,
Yozg‘oli vasfi ruhin qildim ko‘zum nurini jal,
Orzui hech olam yo‘qturur lekin ajal,
Vaslidin shamma mashomimg‘a yetar yo‘qtur mahal,
Ey ko‘ngul, gar aql etar man’i junun qilma jadal,
Ayb erurkim, ahli donish qilsa nodon birla bahs.

Rashkdin tushmush vujudimg‘a taajjub iztirob,
Ul sabab gul yuzidin tomdi hayo tobi gulob,
Tushti bir so‘z birla o‘t, bo‘ldi yurak-bag‘rim kabob,
Rahm aylab man’ qildurdung ko‘rub holi xarob,
Man’i ishq etting, faqih, etma eshitib bir javob,
Dars emaskim qilg‘asen faryod-u afg‘on birla bahs.

Tob etolmay bo‘ldum ul xurshid vaslida nihon,
Go‘yo mahtob oldida o‘zin topmas kiton,
Tong emas gar Layli o‘lsa hazrati sohibqiron,
Ul junun dashtida mendurmen ki majnuni zamon,
Nosiho, qilma jadal, ayril kiyiklardin debon,
Olimi shahr etmagay guli biyobon birla bahs.

Istasang, kezgil viloyat ko‘pku o‘lturmag‘il,
Topsang ul oy shomi hijronida bir dam turmagil,
Ursa tosh birlan sagi vak-vak kibi ko‘p hurmagil,
Tex tur, ey Vaysiy, adab birla topib so‘z turmag‘il,
Ey Navoiy, har necha zulm etsa chek, dam urmag‘il,
Hech gado haddi emas har ishda sulton birla bahs.

NAVOIY G'AZALIGA MUXAMMASLAR

Jon ila vasfin kitobig'a bo'lur sheroza ruh,
Ham yana kim sabr tog'inda turubdur roza ruh,
Intizor o'ldi va ham tikti yo'lig'a koza ruh,
Ey menga jonbaxshlig' gulbargi tardin toza ruh,
Toza-toza bir pari shavqin solib ovoza ruh.

Onsiz o'lsa toza ruh bul tanni bordur na hadi,
Shukri xalq etti jahon ichraki har ne kubadi,
Yuzlari gul, ko'zlari bodomdur bayzo yadi,
Ruhi mahz ul tozayi tar sarvi ra'nodek qadi,
Na ajab bo'lsa ravon o'lg'anda elga toza ruh.

Bu fano ahlini jono bilsa tong yo'q neg kim,
Yer bila tenglar qoshig'a kelsa tong yo'q negakim,
Nargisi shahlosi bizni yila tong yo'q nega kim,
Kuyi gardidin o'luk jon topsa tong yo'q negakim,
Tufrog' o'ldi ko'yida behadd-u beandoza ruh.

Ko'rsakim jononani bo'lg'usi andog' hayrati,
Bo'lsam erdim kosh ul zeboni ko'yining iti,
Barham etgil jismingni ko'rgilki zeb-u ziynati,
Bo'lg'usi jonon kabi bo'lsa mujassam suvrati,
Hulla kiysa surtibon jannat gulidin g'oza ruh.

Qildi o'zni chun nihon bizni o'ziga zor etib,
To'ksa qonin deb ki ishq ahli o'zin tayyor etib,
Qo'ysa diydamga qadam shirin labi guftor etib,
Chiqti jondek paykar aylab nozi husn izhor etib,
Zolr ul paykarg'a jon, vola bu husni toza ruh.

Jonni ber jonona yo'lida, vujuding ayla xok,
Hosil o'lsa jona jon jismingga ruh o'lsa na bok,

Ishqni afzun etib qilg‘il o‘zingni tiyra xok,
Shavq tig‘i birla solik aylasang ko‘ksungni chok,
Fayz shahristoni sorig‘a topar darvoza ruh.

Kecha-kunduz muntazir davron ul oyni yo‘lig‘a,
Zulfini yozg‘och dimog‘imdur muattar bo‘yig‘a,
Shavqdin seroblig‘dur Vaysiy dilini cho‘lig‘a,
Ey Navoiy, shukrkim, yo‘l topti jonon ko‘yig‘a,
Hajr shomi zulmatida yo‘lni oza-oza ruh.

* * *

Men xastayi zoringni biror aylamading yod,
Sulton sen-u, hokim sen-u, bas men kima dey dod,
Umrimni kamolini g‘aming ayladi barbod,
Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nola-u faryod.

Dil o‘lmasa ilkimda sharobim to‘kulurmu,
Afsus mengakim to‘kulan kosa to‘lurmu,
Sayyod eli qayd aylamay ozod bo‘lurmu,
Sayd o‘ldi ko‘ngul ko‘zlaringa, vah qutulurmu,
Bir qushki aning qasdida bo‘lg‘ay iki sayyod.

El bilmadi men majnuni mumtoz ramuzin,
Ko‘rsa kishi vahm etkusi darboz ramuzin,
Sarf aylamading men bila damsoz ramuzin,
Ul maktab arokim o‘qudung noz ramuzun,
Go‘yoki vafo ilmin uqutmish edi ustod.

Muhtoj erurmen tun-u kun ahli safog‘a,
Shoyad yadi pokin ko‘tarur bo‘lsa duog‘a,
Rahm etmadi men bulbuli sho‘rida navog‘a,

Ashkimni ko‘rub tez bo‘lur mayli jafog‘a,
Ori itimas chunki suyi bo‘lmasa fo‘lod.

Topti bu ko‘ngul zarrayi Layli xabaridin,
Qon bo‘ldi xo‘rokim meni Majnun hunaridin,
Farhod qutuldi o‘lubon dardi saridin,
Mingdin bir emas o‘z yuragi zaxmlaridin,
Har nechaki tog‘ bag‘rini zaxm ayladi Farhod.

Otashga sazovor ekankim senga maqrun,
Ozoringa ojiz kelibon holi digargun,
Bir boqmog‘a mavquf necha qoni do‘kulgun,
O‘lukni kishi dafn eta olmas vale har kun,
Yuz tig‘qilur dafn ko‘zung bo‘lg‘oli jallod.

Zaxmim meni izhor emasdur badan ichra,
Izhor agar o‘lsa, erur pirahan ichra,
Bulbul na fig‘on aylamasun bu tikon ichra,
Gul yofrog‘i tirnog‘lar erur bu chaman ichra,
Bulbul pary bolini yulib bergali barbod.

Kim jur’ai may ichmasa, mastonalig‘ etsa,
Bir chug‘zdek obod ar, vayronlig‘ etsa,
Vays egri qo‘yib bagrini mardonalig‘ etsa,
Na ayb Navoiy kibi devonalig‘ etsa,
Har odamikim bo‘lsa, uning yori parizod.

* * *

Ishq irshodi erur avroqi dilbar topsa xat,
Maqsading hosil o‘lur Xizri payambar topsa xat,
Bok yo‘q ko‘nglum sharorin birla kavsar topsa xat,
Tong emas kim tobi ishqingdin ko‘ngul gar topsa xat,
Ne ajab o‘t shu’lasi birla samandar topsa xat.

Demagil, ey sho‘x, ko‘nglungda xayoling besabot,
Nutqingi yod etmakimdindur muqarrar ul nabot,
Xasta ko‘nglum bir labing qandidin ar obihayot,
Rahm aylabon meni maxmura qilsang iltifot,
Topti xat sharbat ichib netti muqarrar topsa xat.

O‘lgusi suvdin chiqar bo‘lsa agar chandi nahang,
Bizlara sensen tiriklik qilmagil nomus-u nang,
Bermagil ozor, ozoring ko‘rub, ey sho‘x shang,
Jomi la’lingdin ko‘ngul maxzuz bo‘ldi, vah netong,
Tushsa maxmur ilking bu nav sog‘ar topsa xat.

Bu na holat beg‘arazlik ichra men bokin esam,
Ko‘rmagim bo‘lsa mahol-u o‘lmag‘a mumkin esam,
Vasl ichra noshakibo, hajrida tamkin esam,
Tun-u kun ul sho‘x may ichganda gar g‘amgin esam,
Bok yuk mendin kerak kim ul sitamgar topsa xat.

Soqiyo, xummorlig‘din, vohki, paymonim to‘lar,
Bazm qurg‘il, jon toparlar yor ag‘yori o‘lar,
Ba’zilar mardudi vasling, ba’zilar mahram bo‘lar,
Men yutub qon yig‘laram la’ling ichib sog‘ar kular,
Teng qadah ichgan kerak erdi barobar topsa xat.

Doimo mayxona ichra jon-u tan uftodadin,
Layli deb Majnunlig‘ etgan bexalal jondodadin,
Xonaqoh-u masjid-u ham xirqa-u sajjodadin,
Aqli komillar ko‘rar yuz zuhd bir lab bodadin,
Go‘yo men xat toparmen ul sumanbar topsa xat.

Aylamish ko‘nglum solib zunnor bilman azmidin,
Fahm qildim aql-u xush idrok jam’in jazmidin,
Vaysig‘a tab’i xirad ortarki jonon bazmidin,
Ne ajab ahli xirad xushdil Navoiy nazmidin,
Javhari topkanda tong yo‘q yaxshi gavhar topsa xat.

* * *

Yig‘lamay ko‘z abri doim o‘tti xandonlig‘da hayf,
Hech bo‘lmas olamini umri giryonlig‘da hayf,
Sud yo‘q so‘z birla ketti jon so‘zonlig‘da hayf,
Kechti umrim naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,
Qolg‘oni sarf o‘ldi anduhi pushaymonlig‘da hayf.

Berdi o‘zga zeb ila ziynat muhabbat ranjidin,
Ayladi ushnig‘a kisvat vahki furqat ranjidin,
Qolmadi ul ko‘rmagan har qancha mehnat ranjidin,
Jong‘a har dushvorlig‘qo‘ymay riyozat ranjidin,
Sarf bo‘ldi naqd avqotim tan osonlig‘da hayf.

Qolmasun ish ichra to nom-u nishonkim aqldin,
Chiqqusi to fitnayi oxir zamonkim aqldin,
Dayr aro bo‘ldum ki rasvoi jahonkim aqldin,
Bog‘ladim paymona paymon kim fig‘on aqldin,
Bo‘ldi bu paymonada ul sust paymonlig‘da hayf.

Ey dilo, o‘zluk balosig‘a bo‘lursen moyili,
Desa bo‘lmas mo‘min ahli kim, deganlar johili,
Yo‘qtu menda ushbu so‘z birla ki aqli komili,
Ey musulmonlar, biling kim, bo‘ldi umrim hosili,
Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonlig‘da hayf.

Hayf o‘z ilking, ayo jonon, chunon ushlar ilik,
Shavq o‘tig‘a tutmag‘a oshiq,
Bilmadim nedin labing sori ko‘rinmishlar ilik,
Rahmkim ul aylamas har nechakim tishlar ilik,
Desam o‘z ahvolima bu nav’ hayronlig‘da hayf.

Xuni nohaq menga jonon bo‘lmagaysen kim erur,
To pushaymon iyla giryon bo‘lmag‘aysen kim erur,
Yor javr etmakdin armon o‘lmag‘aysen kim erur,

Andog‘ ish qil kim, pushaymon qilmag‘aysen kim erur,
Hech osig‘ chun ish xato bo‘ldi pushaymonlig‘da hayf.

Ey sanam, ishqing tan-u jonim aro pinhon erur,
Ul sababdur menda har obod bor vayron erur,
Jonim ul abru hilolin sadqasi qurbon erur,
Harna o‘tgan so‘zlarimni chin desam, yolg‘on erur,
Chin budurkim: degamen umr o‘tti nodonlig‘da hayf.

Xo‘blar mazmunidin kelgay qulog‘imga nido,
Faqrdin yuz ursa ul kibro sari vovaylato,
Dedilar qutbi zamonlar ushbu so‘zni moado,
Yaxshiroqdurkim hisob o‘lg‘onda sultondin gado,
Hayfkim bulg‘ay gado avqoti sultonlig‘da hayf.

Do‘st kuyidinki quvlab erdi ag‘yori meni,
Sabr qilmoqdinki oxir o‘tti ozori meni,
Xalqa rasvo ayladi, ey Vaysiy, guftori meni,
Ey Navoiy, voqif o‘lmon xalqdin bori meni,
Kechdi umrim naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf.

AMIR G‘AZALIGA MUXAMMASLAR

Osiydururki desa u chang-u rubob talx,
Ayn din ul ki yo‘q sifating gar kitob talx,
Shukr gar o‘lsa hajrida kim la’l nob talx,
Nutqing firoqida menga bo‘ldi sharob talx,
Har dam ko‘zum to‘kar labing istab gulob talx.

Har dam raqibdin alame jonima yetar,
Nechunki yor g‘ayr degan so‘ziga yetar,
Ko‘z yo‘lidin bag‘ir qoni kim jo‘ydek ketar,
Go‘yo yurakni sho‘rini ashkim fuzun etar,
Andog‘ki tuz suyi bila bo‘lg‘ay kitob talx.

Tushmu xayol bo‘ldi dil afgor bazmida,
Qo‘lda qadah tilda so‘zi yor bazmida,
Ko‘rdum raqibni bu kecha yor bazmida,
So‘rdum na may edi kecha ag‘yor bazmida,
Shirin labing g‘azab bilan berdi javob talx.

Zulm aylading menga seni kim maqsading nadur,
Hech demading firoqim ichinda g‘aming nadur,
Qoshingga bandamen ko‘zi afsungaring nadur,
Chok o‘ldi jon yaqosi desam, achchig‘ing nadur,
Hargiz demas kiton so‘zini mohitob talx.

Do‘stumni dushman ayladi bu g‘am yetib menga,
Yuz og‘uni ichurdi qoshimdin ketib menga,
Dil lavhida xayolini qoshi bitib menga,
Ag‘yor birla boda ichib zulm etib menga,
Ayshimni ayladi kecha ul oftob talx.

Gah sog‘ o‘lur menu gahi devona o‘lmisham,
Gah guldek ochilur menu gah goh so‘lmisham,
G‘am zarfidin to‘kuldim ki goh to‘lmisham,
Gah zahri g‘am yutar menu gah behud o‘lmisham,
Ey gul, g‘amingda bo‘ldi menga xo‘rd-u xob talx.

Qon to‘kti ko‘zki furqati abr-u hilolidin,
Yo Rab nasib o‘lurmiki, hayvon zilolidin,
Damurg‘aliki qolmadi zarra majoldin,
Ey gul, na bo‘ldi parda ko‘tarsang jamoldin,
Oshiqlaringni ayshini qildi niqob talx.

Bo‘ldi kima fano xati irshodi dayr pir,
Xo‘jam iki jahonda Uvaysiyg‘a dastgir,
Bo‘lg‘aymukin agarchi men ul mo‘rdek sag‘ir,
Ishq-u vafo tariqida shod o‘lmisham Amir,
To yorni raqibiga bo‘ldi azob talx.

* * *

Oshkor o‘lur bul kun tab’i she’ri pinhonlar,
Go‘yoki daryoda necha durri g‘altonlar,
Tong emas firoqida gulgun o‘lsa domonlar,
Shahsuvori olamgir nuktasini unvonlar,
Boshin uzra toj etmas bitmas erdi devonlar.

Xush ajab yaroshubdur ustiga kigan kisvat,
Ishq elini mavtig‘a ko‘zlari etib odat,
Haq anga nasib etmish toki sha’n ila shavkat,
Bazm ramzig‘a da’vi aylag‘an bo‘lur mahvat,
Ojiz o‘lg‘usi mo‘rdek Jamshidu Sulaymonlar.

Go‘yo falak uzra qoshidur mahi gardish,
Bilmadim na erkin ul qoshi ustiga qo‘ymish,
Zeb uchun jamolig‘a bo‘rkini qilibdurkish,
Husni ma’dani donish xulqi manbai binish,
Tab’idur karam andish shahsuvoru xoqonlar.

Vahki, rishtayi jonim zulfig‘a erur payvand,
Jabra poymol o‘ldim bo‘ldi dardmand harchand,
Bog‘ aro ochilg‘oy gul gulruxim qilur toxand,
Yumnidin bo‘lur Xo‘qand koni shakar-u gulqand,
Andin el hama xursand, qo‘l ochib musulmonlar.

Oftob o‘lub soqiy yetti charx jom o‘lsun,
Mug‘bacha tutub sog‘ar dard elig‘a rom o‘lsun,
Chun ochib karam eshikin sayri xos-u om o‘lsun,
Derki shodkom o‘lsun, badr yangli tom o‘lsun,
Oftobi adlidin toza bo‘lsun imonlar.

Ko‘zlari firoqida ko‘zlar to‘lub ashkim,
Xalq g‘arq o‘lur to‘ksam yer yuzin tutub ashkim,
La’li tushti yodimg‘a sachradi kulub ashkim,
Bag‘rim o‘ldi yoqutiy qirmizi bo‘lub ashkim,
La’lini xayolida yuttum onchunon qonlar.

Gar eshitsa dard ahli, xush bo'lur dilim sam'i,
Dahr bo'stonida, Vaysiy, nazmi erdi bir sham'i,
Istamang bu gulshandin emdi xotiri jam'i,
Ko'nglini asir etmish kokili parishonlar.

* * *

Naylayinkim telbalikdin bizni dildorim demas,
Yorlig' ummidi qaydindurki ag'yorim demas,
Hajr chohida ko'ngul ko'zgusi zangorim demas,
Oh ulkim bemuruvvat oshiqi zorim demas,
Rahm etib tarki jafo aylab dilafgorim demas.

Bu aziz boshim ul oy yo'lida xoridur valek,
Yuzlarim xalqa aningchun sharmsoridur valek,
Lablarimni zikri bu nazmi shioridur valek,
Ko'zlarim oyina yanglig' intizoridur valek,
Rahm etib bir yo'l meni mushtoqi didorim demas.

Ishqdin kuydi ko'ngul, chiqti so'ngakdin turfa dud,
Yor hajridur samandar anga manzildur vujud,
Ko'zlarimdur band go'yo torin eshmish ankabud,
Yorlig' ummid etarmen yorlig', ammo na sud,
Noz-u istig'nodin ul badxo' meni yorim demas.

So'rmading, ey sho'x jononim, bu ahvoli zabun,
Intizor o'lmakligimdin kim qadim bo'ldi nigun,
Ul sababdurkim ki ko'pdin kun erur dardim fuzun,
Dilda hijron-u jafoi ishq ila o'ldum bukun,
La'li jonparvar bila bir yo'li bemorim demas.

Rohi faqr ichra chunon termuldum-u, ammo hanuz,
Boshidin gardunsifat o'rguldim-u, ammo hanuz,
Xalq ta'ni tig'i birla o'ldim-u, ammo hanuz,
Ishqidin rasvoyi olam bo'ldim-u, ammo hanuz,
Oshiq-u devona-u rasvoyi bozorim demas.

Chiqsa ul sayyod, zohir qilsa ikki domini,
Nutqi angishtida qo‘r xotamsifatlig‘ jomini,
Uchrasa gar puxta qilg‘ay to xayoli xomini,
Ko‘rsa gar Rizvon nigorimni yuzi gulfomini,
Noz etib, Firdavsni umricha gulzorim demas.

Shay’i Alloh deb xarobot eshikida qildi sado,
Qatrayi may ishtiyoqida bo‘lubdurmen gado,
Nedin aylar zohidi dono banimla mojaro,
Halqayi zulfini ko‘rgan chog‘da, ey but, dayr aro,
Qaysi tarsodurki o‘z dininda zunnorim demas.

Tole’yim shomig‘a hech bo‘lmas muyassar mahjabin,
Bo‘lmasam rayi falak ko‘rguzg‘ay andog‘ shiddatin,
Ayladim dil birla savdo yetti jon labga yaqin,
Naqdy jon-u dil berib vaslingni istarmen nedin,
Ishq bozorida ul kofir xaridorim demas.

Ko‘nglida ishq-u muhabbat doimo devonadur,
Ul junun dashtida yurgan kimt aniur yonadur,
Izlabon mayxonalarni tashnayi mastonadur,
Garchi Majnun olam ichra ishqida afsonadur,
Ko‘rsa guldek orazin Laylini dildorim demas.

Raf’at ettim she’r iqbolig‘a zeri husnini,
Doxil ettim mazmun aflokiga tiri husnini,
Zulm ko‘rgancha degay Vaysiy faqiri husnini,
Har nechakim javr etar zohir Amiri husnini,
Ishq aro sohib vafo ko‘nglum jafokorim demas.

* * *

Bu kun bu tab’i nomavzun vasfingni xayol etmish,
Netaykim hamdami ag‘yor xotirni malol etmish,
Muhabbat dog‘ini jonon ko‘ngul husniga xol etmish,
Sharobi noz to bazm ichra ruxsoringni ol etmish,
Xijolat bargi gulni poymoli infiol etmish.

Agar solsa nazar jurm ahlig'a chiqqay zalolatdin,
Ko'ror xob ichrakim, xol-u xatin chiqmas xayolatdin,
Eshitsa nutqingi to'tiki, dam urmas hikoyatdin,
Ko'tapmas boshini sarv-u sihi bori xijolatdin,
Xiromi noz to gulshanda ul zebo nihol etmish.

Ajab ermas bu kun devonalig'ni oshkor etsam,
Urib bahri muhabbat mavj o'zni beqaror etsam,
Sochib tuprog' boshimg'a ko'z-u yuzni g'ubor etsam,
Bo'lub Majnun kiyiklar suhbatini ixtiyor etsam,
Meni devonayi to volayi vaxshi g'izol etmish.

Payom etmakda jononimg'a dod etgan qalam yanglig',
Necha ash'or aro qoshini yod etgan qalam yanglig',
So'zicha necha mushkillar kushod etgan qalam yanglig',
Muanbar xattini sharhin savod etgan qalam yanglig',
Muhabbat pechtobi rishtayi jonimni nol etmish.

Meni ul shahsuvorim qovdi, or etdi gadosidin,
Eshitsa nolami bulbul adashqaykim navosidin,
Bu kun o'tmak kerak bu xalqi olam mojarosidin,
Hazin ko'nglim qushi parvoz etar ko'ying havosidin,
O'qingdin par chiqorib har taraf jismimga bol etmish.

Netay afloklar zarfig'a dunyo ishrati to'lsa,
Netaykim gar falak ahdin tuzub boshimdan o'rgulsa,
Netay gar dahr bo'stonida jam'i g'unchalar kulsa,
Netay gar jom-u Jam birla Skandar ko'zgusi bo'lsa,
Bu kun dayr ichra soqi qismatim singan safol etmish.

Berib ziynat o'ziga yulduzin doim qator aylar,
Ki betoqatlig'din shamsni gah yo'q-u bor aylar,
Ko'zumdek goh-goh ko'zdin to'kib ashkin bahor aylar,
Falak har oy boshida bir hilolin oshkor aylar,
Magar ko'nglim kibi yuz uzra qoshingni xayol etmish.

Qanoatda sadafsen gavhari noyob erur ko‘ngling,
Musaffosen bu hijron shomida mahtob erur ko‘ngling,
Agar zohid eli kirsa jinona bob erur ko‘ngling,
Dema holim ko‘rub ne vajhidin betob erur ko‘ngling,
Muhabbat dardi oni notavon-u bemajol etmish.

Meni so‘rsang adashgan ko‘yidin bir xonavayronmen,
Yuzingni orzusida hamisha didagiryonmen,
Labingni hasratida dam uraolmay bag‘ir qonmen,
Tamannoyi sari zulfing tushub boshimg‘a hayronmen,
Junun ko‘yida bu savdo meni oshiftahol etmish.

Takallum vaqtida asra ko‘ngulni aqli komildin,
Munosib gardaningni egmagil xam zulfi shomildin,
Bu saf mujgonli ko‘z ishq ahlini qatliga moyildin,
Hazar ko‘p ayla, ey ushshoq, ul berahm qotildin,
Bu kun kesh barkini egri qo‘yib zebi jamol etmish.

Falak soqiy bo‘lib zarfida may tutti, qilib izzat,
Ani bir nash’asi dunyo-u dundin qovladi mehnat,
Tuni me’rojdurkim aylag‘an no‘shim mayi vahdat,
Meni jonim olurg‘a, ey ajal, ko‘p chekmagil zahmat,
Ki bir so‘z birla la’li menga o‘lmakni mahol etmish.

Ko‘ngul o‘rgandi ul oyni visoli ichra mehrig‘a,
Anichun o‘rgana olmas firoqi ichra javrig‘a,
Kelibdur sen kabi chandon parivash eski dahrig‘a,
Vafo oshiqqa qil, mag‘rur bo‘lma husn davriga,
Falakni gardishi ko‘p sabzayi xatni saqol etmish.

Libosi faqrni bu kisvati sultona bermaskim,
Ichib jomi muhabbatdin ajalni ko‘zga ilmaskim,
Tavajjuh gavharidin topsa, Vaysiy nega termaskim,
Amir olamg‘a bersa ishq irshodin tong ermaskim,
Muhabbat pirig‘a xizmat qilib kasbi kamol etmish.

FUZULIY G‘AZALIGA MUXAMMMAS

Istasang ishq etma, ey dil, sabr-u somondin tama’,
Ol bu pandim, qilmagil zinhor jonondin tama’,
Jondin ummidin gar o‘lsa, ayla hijrondin tama’,
Yor vaslin istabon kechmak kerak jondin tama’,
Har kishikim vasli yor etsa, kesing ondin tama’.

Avvalo ishq-u muhabbatdin malomatdur ko‘ngul,
Oxiri hijron qilich ichra shahodatdur ko‘ngul,
Yonmagil jonon xayolidin zalolatdur ko‘ngul,
Orzusi vasli jonon jona ofatdur ko‘ngul,
Yo taalluq jondin uz yo vasli jonondin tama’.

Rashk tig‘ila to‘kubdur qonim ul abro‘ hilol,
Ul sabab yetti umidimning kamolina zavol,
Vaslidin man’ etsam o‘z rahm etguchi bo‘lma malol,
Chun bango bir darda yo‘q tobi tamoshayi jamol,
Ban kim-u vasl istamak xurshidi tobondin tama’.

Aylaram har kun jaras yanglig‘ sadoye hajrida,
Har baloye kelsa bo‘lmasdur rizoye hajrida,
Oshiq uldurkim tamannoyi baloye hajrida,
Bulhavas bo‘lma mubassardur ravoye hajrida,
Yo‘xsa cho‘xdur mehr edan ul mohi tobondin tama’.

Mehr oraz mahjabin kim oshinodur, naylayam,
Qayda bir begonaga jonfizodur, naylayam,
Tole’yim idborai sar to po jafodur, naylayam,
Rishtai tuli amal domi balodur, naylayam,
Uzmak o‘lmoz ul sari zulfi parishondin tama’.

Xatting aksin lavhi dil sheroza aylarda na ayb,
El meningdin dard-u so‘z andoza aylarda na ayb,
Hajring o‘lturmakligin ovoza aylarda na ayb,
Orazing ko‘rmak hayotim toza aylarda na ayb,
Gar gado vajhi maoshi qilsa sultondin tama’.

Izzidin xorij tama' kin ichra tamkin ahli hirs,
Shodlig' ixroj doim umr g'amgin ahli hirs,
Vahki hirmona sazovor etti jam'in ahli hirs,
Muttasil hosil qilur xirmon tama'din ahli hirs,
Turfadur ortar tama' qilduqcha xirmondin tama'.

Jondin o'tti garmi qobil bo'ldi himmatdin etak,
Boqma o'ng-u so'lg'a band etg'il baloyi mardumak,
Yor nutqin vasf etib qil so'zni Vaysiy bo namak,
Istar ersang hasrati hirmona hardam chekmamak,
Uz Fuzuliy, dahrdin ummed, xirmondin tama'.

FUZULIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Dilo, makrubi jonon o'lma uldur kori so'zonlig',
Qaribi ul harim o'lmog'lig'ing ermasdur osonlig',
Fanoyi faqr tuprog'ida qilgil o'zin pinhonlig',
Kel, ey rohat sonin asbob jam'in qilma nodonlig',
Tariqi faqr tutkim faqr emish olamda sultonlig'.

Quloq tut ushbu panda jon-u dil birlaki some'sen,
Havou, orzu, yuz ming havasdin balki mone'sen,
Bo'lub gah mone', gah ra'yi nafsdin garchand qonesen,
Murod ar saltanatdin komi dildur nafsa tobesen,
Na hosil saltanat ot ila qilmoq banda farmonlig'.

Tazallum birla qatl etti diyn ahlin ko'zlari kofir,
Deb erdim man' bul manzuridin hech bo'lmadi chokar,
Umid obi hayot aylab ki zulmotida bul sobir,
Parishonlig'din, ey xalqi jahon, siz xalq etan xotir,
Ki men jam' ayladim har xonda vordur tibri parishonlig'.

Menga Tengri nasib etmab ekandur fahm ila donish,
Farosat, hush ham idrok ila ham aql, ham binish,
Bu kim ko'tohlig' iqbolimi hech qilmadim andish,
Na tole'dur bukim olamda og'oz etmadim bir ish,
Kim ul ishdin saranjom etmadim oxir pushaymonlig'.

Meni mahrum etib chashmim tar aylar, kimsa man' etmaz,
Yurakim resh ashkim qonlar aylar kimsa man etmaz,
Uvaysiy, sabr qil, javrin ar aylar kimsa man' etmaz,
Menga zulmni sarih ul kofir kimsa man' etmaz.
Fuzuliy kufr o'lurmu gar desam yo'qtur musulmonlig'.

AMIR G'AZALIGA MUXAMMAS

Shoh ahlig'a yaroshur doim ehson o'ynamoq,
Dard ahlig'a yarashmas garchi darmon o'ynamoq,
Chug'zlarni mansabi uldurki vayron o'ynamoq,
Elga odatdur nechuk kim go'yi chavgon o'ynamoq,
Ishq maydonida go'yo rasmdur jon o'ynamoq.

Sho'xlar, holi tabohimni ko'rubon kulmagil,
Zulmingi yig', rahm qil bizlarga mundog' bo'lmag'il,
Sen havo toqida xurshid sog'arig'a to'ymagil,
Charx la'b ila sarafroz etsa, mag'rur o'lmagil,
Kim quyundek aylamish yer birla yakson o'ynamoq.

Zarra sargardoningi o'zga quyosh olmoq kerak,
El malomat ilkiga qasd ila tosh olmoq kerak,
Vasldin mahrum o'lonlar ko'zga yosh olmoq kerak,
Sham' yanglig' bosh berib har lahza bosh olmoq kerak,
Ishq o'ti birla yo'qdur baski oson o'ynamoq.

Ey Masihim xoki rohingda ado holini so‘r,
Och ko‘zingni intizoringda ado bo‘lg‘onni ko‘r,
Tashnadur ul yaddi pokingda necha sog‘arkidur,
Tufldek yuz ming havas birla ko‘ngul oshuftadur,
Ayladi jamiyatim oxir parishon o‘ynamoq.

Demagil, ey porso, olam nedin ahbob erur,
Ishq bahri dilda chun so‘zkim ul noyob erur,
Kirpikim bir-birina vasl o‘lsa edma xob erur,
Ko‘ksim ichra ishq tobidin ko‘ngul betob erur.
Qilmag‘il bu xastag‘a, ey sho‘x, bo‘hton o‘ynamoq,

Ishqni afsunlig‘idin jon-u tan erdi asir,
Tarki ul jonona qilg‘aydim muhabbat barzamir,
Xushtur, ey Vaysiy, o‘zingni yo‘lida sen ayla zir,
Mumkin o‘lsaydi agar o‘t birla yondashmoq amir,
Bor edi dunyo arusi birla imkon o‘ynamoq.

VAZIR G‘AZALIGA MUXAMMASLAR

Ishq kufr etti meni bo‘ynumda zunnorin ko‘rung,
Ul sababdin din elini bergan ozorin ko‘rung,
Husn davrinda yozan xatti muanborin ko‘rung,
Ul sanamni turrai purtobi tarrorin ko‘rung,
Rishtayi jonim anga chirmashti har torin ko‘rung.

Laylivash husnin xayolida meni Majnun biling,
Subhi sodiqdek oqarsun shom ko‘ksumni tiling,
Zohir o‘lg‘ay andin ul mehri, bo‘lur ravshan diling,
Gar desam ul yuzni ganji chin ani bovar qiling,
Yo‘qki ul ganj uzra ikki ajdaho morin ko‘rung.

Zohir etti ishqini hayronlig‘ ashkimdin ko‘zim,
Qong‘a to‘ldi dardidin nolondir ashkimdin ko‘zim,
Bo‘lg‘usi xushnudkim pinhondir ashkimdin ko‘zim,
Gullar ochti qatra-qatra qonlig‘ ashkimdin ko‘zim,
Zulfi torina osibkim o‘lduran dorin ko‘rung.

Qilsa gar sarvi xiromon chamanlar bo‘ldi kul,
Na uchunkim jo‘ybori xizridin ul la’li mul,
Ko‘zlari bodami tardur somio bo‘lma malul,
Qomati sarvi sihidur, xatti rayhon yuzi gul,
Jilva chog‘i ul bahori noz gulzorin ko‘rung.

Rashkdin dermen etar o‘q elga qosh-u ko‘z ila,
Farq qilmassen nadin begonani to o‘z ila,
Tushmasinmu elga o‘t ul yuzdagi yulduz ila,
Lablaridin komi dil maqsur edi bir so‘z ila,
La’lidin dur sochti yoquti guharborin ko‘rung.

Shikva kimdin aylayin men o‘zima qildim o‘zim,
Ul guli ra’no firoqi ichra sarg‘ardi yuzim,
Olmading ey ko‘z, qulog‘inga ki bu pandi so‘zim,
Fosh etar pinhon g‘amimni qonlu ashkimdin ko‘zim,
Asragan rozimni bu g‘ammoz izhorin ko‘rung.

Donadek ko‘mdi o‘zin tufrog‘aro bo‘ldi nihon,
Ojiz-u zor-u hazin garchi zaif-u notavon,
Barham urdi to jahon bo‘ldi Uvaysiyi zamon,
Shukr kim shah oldida bo‘ldi vaziri komron,
Ostoni dargohida qadru miqdorin ko‘rung.

* * *

Umringi bahorida yodi xatti rayhon qil,
Ishq ziynati ermish dardni farovon qil,
Mehri ikki olamni bir nafasda vayron qil,
Ey ko'ngul, demon hargiz yodi hur-u g'ilmon qil.
Yor ila tiriklikda gashti bog'-u bo'ston qil.

Menda qolmadi toqat, ey gul, intizoringda,
Mayfurush, ey soqiy, jom e'tiboringda,
Berdilar bahog'a jon o'ldilar xumoringda,
Yozdi kotibi qudrat safhayi uzoringda,
Chun xati g'ubor ila narxi bo'sa arzon qil.

Odat o'ldi hajringda xalq holimu kuymak,
Ko'zima nasib o'lmish bag'ri qonima to'ymak,
Menga jon bahaq taslim xush ko'rundi kim o'lmak,
Sensiz, ey kamon abro', sa'bdir tirik (b)o'lmak,
Bir yo'li to'kub qonim, mushkilimin oson qil.

Jam' qilmading hargiz xotiri parishoning,
Bo'lmadi meningdek hech xonavayroning,
Ishq dardidin o'ldum hech bormu darmoning,
Yo'qtur, ey pari paykar mendin o'zga hayroning,
Zohir ayla mardumliq, diydom ichra javlon qil.

G'amzangi qarosida qoshlaring urar jufta,
Qosh-u ko'z arosida ikki ohudur xufta,
O'xshag'oy qachon, ey gul, naxli sarvi bu rufta,
Xatt-u, zulf-u, mujgoning qildi ko'nglum oshufta,
Orazing edib mushkin sayri sunbuliston qil.

Ey dilo, bu dam vosil chog'ni g'animat tut,
Ishq dashtida butgan tog'ni g'animat tut,
Husni davrida javlon bog'ni g'animat tut,
Yor hajrida topqon dog'ni g'animat tut.
Ko'zga surtubon oni ko'ksing ichra pinhon qil.

Vasl gardida sayqal, ey dil, ayla ko'zgungni,
Charx o'l, Masiho tut, ey Uvaysiy, xulqingni,
Bir kuyi o'lukka jon zikr qildi .....,
O'zga so'z takallufdir, ey Vazir, ko'nglungni,
La'lini xayolida ma'dani Badaxshon qil.

* * *

Mehring o'lsa soqi bir daf'i xumor etmazmidim,
Chehrai zardimni men gulgun uzor etmazmidim,
Bo'lmasaydi ko'nglim, or etmakdin or etmazmidim,
Aql yor o'lsaydi rohat ixtiyor etmazmidim,
Ixtiyor o'lsaydi banda ixtiyor etmazmidim?

Vahki yetkurdi halokat furqati ul mahjabin,
Jomi jamshidi labi yo kim Sulaymoni nigin,
Yoki qand-u shahd-u shakkar yo naboti ankabin,
Lahza-lahza suvratin ko'rsaydim ul shirin labin,
Sen kabi, ey bestun ban ham qaror etmazmidim?

Maqrun etting vaslinga jon so'zimi ma'jum edub,
Yuz o'gurding, ey sanam, begonalig' ma'lum edub,
Nesha mahram aylading sham'i bizi mahrum edub,
Qovlab erding sen bani parvonani ma'lum edub,
Ban sening bazmingda jon naqdin nisor etmazmidim?

Ishq ranjurini daft lutfi ul dildordur,
Ishq afsun qildi kim, ne boshida sangsordur,
Dilg'a asrorin yashurmoqdin tanim bemordur,
Dardimi olamda pinhon dutdug'um nochordur,
Og'risaydim bir tabiba oshkor etmazmidim?

Ey dilo, yuz ming havas birla bukun qilma jabr,
Fapq etarmen olaming bo'ldim ko'zimdur misli abr,
Yordur islomi nozik, kufrdur ag'yori tabr,

Yor ila ag‘yori ko‘rmakka agar bo‘lsaydi sabr,
Tarki g‘urbat aylayub azmi diyor etmazmidim?

Ishq savdosini tuttum menki dil jon birla pos,
Sarfaroz etgan yo‘q erdi to banimtek hech nos,
Sidqima kiydurdim andog‘ dardi so‘zondin libos,
Voizing kufrin banim rasvolig‘imdin qil qiyos,
Anda sidq o‘lsaydi ban taqvo shior etmazmidim?

Holimi anglab o‘shal gulg‘uncha kulsaydi bango,
Rostg‘a afloklar charxi urulsaydi bango,
Kosh ul paymonayi hijron to‘lsaydi bango,
Ul guli xandoni ko‘rmak mumkin o‘lsaydi bango,
Sentek, ey bulbul, gulistona guzor etmazmidim?

NAVOIY G‘AZALIGA MUSADDAS

TARJE’BANDLAR

Qil amon, yo Rab, adular mojarosidin meni,
Saqlag‘il osiy bu mardumning izosidin meni,
Ser ayla lutfi sultonlar atosidin meni,
Qil judo bul baxt-u tole’lar qarosidin meni,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Koshg‘ar yurti buzuldi — keldi, berdim xonumon,
Bosh suqarg‘a joy topolmay yurg‘an erkan bemakon,
Yaxshiliq qildim, uyimg‘a, etmadim dod-u fig‘on,
Chiqmayin joyi imomdin, ayladi bag‘rimni qon,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.
Ul mudarris sotti deb, soldi bu ko‘nglumg‘a g‘ubor,

Oxiri bo‘ldi alar kori qoshingda oshkor,
Rahm etib, arzimg‘a yetting sen, deding: “Ey Tunqator,
Yo‘q zamonimda mening zo‘rliq!” — deding, ey shahriyor,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Qozilar oldida berdim o‘n iki tillosini,
Yona besh tilloni berdim, men pulin foydosini,
Rozi qildi qozilar, man’ ayladi ig‘vosini,
Yona chiqmas joyidin yalg‘on qilur da’vosini,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

“Chiq!”, desam, albatta, oldimg‘a bolosin tashlag‘ay,
So‘rasam, og‘zin ochib, albatta, ilkim tishlag‘ay,
Qo‘rqaram: tuhmat qilib, bir menga g‘avg‘o boshlag‘ay,
Qildi savdoyi meni, shab-ro‘z ko‘nglim g‘ashlag‘ay,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Bir necha mendek g‘ariblarning atosi sendusan,
Mushkul ish oson qilurda muddaosi sendusan,
Vaysiyi bechoraning dardin davosi sendusan,
Yet mening faryodima, el podshosi sendusan,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

* * *

May berib, mast qil, ey mug‘bacha, sulton o‘lay,
Bu gadolig‘ unutay, men Jamshidi davron o‘lay,
Rahm qil holima, maqrubayi jonon o‘lay,
Yo tirik dafn qiling, xalqqa pinhon o‘lay,
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

To bugun jonima jonon sitam bilgurdi,
Furqatidin dili mahzunima g‘am bilgurdi,
Jismi uryonimi zaxmig‘a alam bilgurdi,
Bu g‘arib holimakim, ta’n Ajam bilgurdi,
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

Yo Rab, ul yori sitamgarg‘a giriftor etting,
Muncha berahm, jafojo‘yi dilozor etting,
Kufr etib zulfini to bo‘ynima zunnor etting,
Misli parvonadek o‘tig‘a sazovor etting,
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

Sangdil, berma zarar dilg‘a, xayoling chog‘i,
Hajrdin berma xabar toki visoling chog‘i,
Talx kom etma bugun obi zuloling chog‘i,
Ayshima berma xazon qaddi niholing chog‘i,
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

Mastlig‘din xabar etti, meni Majnun aylab,
Meni rasvo ko‘ziming yoshini Jayhun aylab,
Mavj urdurdi hamon Qulzumi purxun aylab,
Dod etay shohima, domonimi gulgun aylab,
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

Yo Rab, o‘z holi parishonima tokay yig‘lay?
To‘kub oldimg‘a bag‘ir qonima tokay yig‘lay?
Tinmayin tundag‘i afg‘onima tokay yig‘lay?
So‘rmag‘on holimi sultonima tokay yig‘lay?
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

Soqiyo, tashnayi xummorini bilg‘an yaxshi,
Davr ayog‘i bila ahvolini so‘rg‘an yaxshi,
Sag o‘lub, Vaysiy, bu mayxonada turg‘an yaxshi,
Bermasa, tashnasi dargohida o‘lg‘an yaxshi,
Toki ishq o‘ti aro qil kabi so‘zon o‘lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o‘lay.

* * *

Avvalo, men ushbu dunyoning vafosin bilmadim,
Vojgun zoli falakning muddaosin bilmadim,
Do‘stlig‘ning necha g‘amg‘a ibtilosin bilmadim,
Vahki, behuda ulusning mojarosin bilmadim,
Bu dili shikastadin o‘tg‘an xatosin bilmadim,
Bu judoliqg‘a ne bois intihosin bilmadim.

Bul yiroqli, vahki, noqobillig‘imdinmu ekin,
Yo magar Haq amrig‘a kohillig‘imdinmu ekin,
Mosivolarg‘a yana moyillig‘imdinmu ekin,
Men g‘arib bechorayi soyillig‘imdinmu ekin,
Bu dili shikastadin o‘tg‘an xatosin bilmadim,
Bu judoliqg‘a ne bois intihosin bilmadim.

Bu zamona ahlining korig‘a hayronman base,
Chun sahobida niqobig‘a bafarmonman base,
Ofati behudadin choki giribonman base,
O‘z g‘ulomingman sening, xotir parishonman base,
Bu dili shikastadin o‘tg‘an xatosin bilmadim,
Bu judoliqg‘a ne bois intihosin bilmadim.

O‘lg‘an erdim, hamdamimdin shammayi topdim hayot,
Bilmanam, bormu ekin topg‘an hayotimda sabot,
Xotirin bir go‘shasidin qildi shohim iltifot,
Ul sabab tab’im qushi parvozg‘a topdi qanot,
Bu dili shikastadin o‘tg‘an xatosin bilmadim,
Bu judoliqg‘a ne bois intihosin bilmadim.

Ey dilo, be amri Haq bir dona qum bejo ermas,
Banda g‘ofildur, muqaddam ahli beparvo ermas,
Tog‘dag‘i ko‘k maysalarg‘a hojati daryo ermas,
Vaysiy, bir zarra farosatdin senga ifsho ermas,
Bu dili shikastadin o‘tg‘an xatosin bilmadim,
Bu judoliqg‘a ne bois intihosin bilmadim.

* * *

Bag‘rimi so‘rsang, misoli lola gul yaprog‘idur,
Vahki, yaprog‘i na o‘lsun, bag‘rin ichra dog‘idur,
Ko‘hkandek qozg‘onim homun aro g‘am tog‘idur,
Qo‘ldag‘i teshamni so‘rsang, sabrning tirnog‘idur,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog‘idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog‘idur.

Bo‘lg‘on ul “Qolu balo”da ruhi Majnunvorman,
Oning uchun bu jahonda tolibi diydorman,
Vasfini etmakda doim sohibi ash’orman,
Orzusi husnung aylab, ro‘z-u shab bemorman,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog‘idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog‘idur.

Avvalo, javri falak birla buzuldi xonumon,
Bilmadim, mehnat qushi boshimg‘a qilmish oshyon,
Lutfing istab doimo yurdum jahonda bag‘ri qon,
Qil madad men zora, ey shahanshohi sohibqiron,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog‘idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog‘idur.

Muhtasibi ishq aylabdur jahon avvorasi,
Ul sababdur ro‘zgorim birla baxtim qorasi,
Ko‘ying ichra itlaringning manduman bechorasi,
Sen erursan doimo bechora ko‘nglum chorasi,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog‘idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog‘idur.

Arzi dildin bir necha ash'or men qildim raqam,
Ko'z savodin hal qilib, shoyad yuzi bo'lsa baham,
Tilg'a mazkur aylasa, bo'lg'aymu dilning dardi kam,
Bo'lma, dil, navmid, shoyad qilsa sultoning karam,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog'idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.

Hasrati olam bila ko'nglum xasu xoshoklik,
Ya'slig' tig'ida ko'ksumdur hamisha choklik,
Ishq o'tig'a, naylayin, bismil tanam fitroklik,
Orzusi husnung uchun ko'zlarim namnoklik,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog'idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.

Korvon yo'ldin adashsa, kecha mohini tilar,
Kimki a'modur, ko'rarg'a nur rohini tilar,
Bo'lsa hojatmand kim, buzruk panohini tilar,
Vaysiyi bechora Majnun qul nigohini tilar,
Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog'idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.

TARKIBBAND

Bir kecha soldi soyasini, raxshidur samand,
Kim, sarv — qaddi, so'zi — asal, la'li no'shxand,
Ul tilg'a keldi og'zin ochib, shohi arjumand,
Bir ajdarini ko'rdim aning, girdidur kamand,
So'rdim: "Magar bu mor — af'idur", — dedim, dedi:
"Yo'qkim yilon, bilki, azobingdurur saning!"

Sarvi qadini deymu va yo kaj kulohini,
Xunxor novakinimu, chashmi siyohini,
Yokim tavil zulfini, yo vajhi mohini,
Yo Rab, qabul qilki g'aribingning ohini,

"Kavsar boshidakim na shafaqdur?" — dedim, dedi:
"Yo'x-yo'x, shafaqki, bag'ri xunobingdurur saning!"

Yuz shukr aylaramki, visoli farog'ina,
Yuz bo'sa aylaramki, toponda oyog'ina,
Yuz oncha shukr, chorladikim vasli bog'ina,
Yo Rab, bu so'zni desa bo'lurmu qulog'ina:
"Kun yuzina yozan na sabaqdur?" — dedim, dedi:
"Qilg'on azal nasib kitobingdurur saning!"

Gul yuzli, shahd so'zli, qaro ko'zli ul nigor,
Nargislari uzori aro misli navbahor,
Yuz mingta jon bir nigahig'adur nisor,
Yo Rab, qachonda yor bilan aylag'ung duchor?
"Hajri rahini turfa uzoqdur!" — dedim, dedi:
"Sabr aylayolmag'anki, shitobingdurur saning!"

CHISTONLAR

Ul na gunbazdur, eshigu tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunpo‘sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindirib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig‘a parda tortilg‘an, yoturlar bag‘ri qon!

(Anor)

* * *

Ul na: boshi to‘rt, bo‘yni oltidur sohibsuxan,
Beli to‘rt yuz, poyi bir, joni ikki yuz rohzan?
Tong ermas, dil muddaosi bo‘lsa hosil, ey gado,
Bul Azizi Misrdurkim, Yusufi gulpirahan.

(Dutor)

* * *

Ul na shahredur: yigirma bob, bir bozori bor,
Bulbuli mingdur, ajoyib yetti yuz gulzori bor?
Yona vasfi shahri Rumdur, hindular tutmish vatan,
Tashna so‘rsa, bog‘i abjaddin chiqar anhori bor!

(Qog‘oz)

* * *

Ul nadurkim, sabz to‘nliq, yoz yog‘ochning boshida,
Qish yalang‘och aylag‘ay barcha xaloyiq qoshida?
Barcha qushlarning so‘ngoki ichida,
Ul na qushdurkim so‘ngoki toshida.

(Yong‘oq)

* * *

Ul nadurkim, ikki daryoyi ajab xunxordur,
El halokin qasdig‘a mavj urmishin ko‘rdim bukun.
Ul na qushdurkim: uyosida bolalar tashqari,
Don berur vaqtidag‘i tolpinmishin ko‘rdum bukun.

(Ko‘z)

* * *

Ul nadurkim, bir kelin o‘zi cho‘tir,
Yetti qat parda ichida misli hur?

(Makkajo‘xori)

* * *

Ikki mahbubini ko‘rdum, bir-birisin ko‘rmag‘an,
Ikkisining o‘rtasig‘a, do‘stlar, qil sig‘mag‘an.

(Kun va tun)

* * *

Ikki mahbubini ko‘rdum, ikkisin kindigi bir,
Ikkisin orasig‘a tushsang topadursan kasir.


(Qaychi)

* * *

Ul nadurkim, poyi yo‘q, yursa boshi birla yurar,
Yurg‘anida xok surmay, oncha ustolik qilar.

(Suv)

NODIRA



DEBOCHA

Bismillahir rohmanir rohim

Hamdi behad-u sanoi beadad ul son'i behamtoyakim, odam payvastasi tazminig'a robita va nizom andin.

Ofarin bar hikmati Yazdoni pok,
Kard inson xalq az yak mushti xok.
Zad raqam chun kilki sun'ash kofu nun,
Az samak orost to favqul samok.

Shukr va siposi beqiyos ul qodiri loyazolakim, jahon devoning debochasig'a isloh va intizom andin.

Nazm:

Ul xudovandeki qudrat oshkoro ayladi,
Yetti tufroq uzra to'qquz qubba barpo ayladi.
Olam-u odamni xalq aylab kamoli hikmati,
Xalq aro turluk alomatlar huvaydo ayladi.
Zarrai xurshidi tobon qatra to bahri amiq,
Har biri asrori hikmat erdi insho ayladi.
Qildi Ahmadni nubuvvat osmonida quyosh,
Ul quyosh anvoridin olamni paydo ayladi.

Qodiri durri yakto va ma'budi durri behamto.

Bayt:

Qodiri bechunki olam tahti ehsonidadur,
Zarra to xurshidi tobon barcha farmonidadur,
Til aning zikriga zokir, shukriga jon mustaid,
Ushbu ma'ni har ko'ngul avroqi devonidadur.

Zoti sifatidin xayol ojiz-u qosir, vujudi ma'rifatidin fikr-u andisha ojizligi zohir. Jalla jalolahu va amma navolahu va durudi noma'dud va durudi salavotuhu ul habibi Dovudg'akim, "Vamo arsalnoka illo rahmatan lil olamin" aning sifati va "Lavloka lamo xalakat ul afloka"aning ma'rifati meroji haq va hadisi siddiqa.

Nazm:

Ahmadki habibi Haq taolost,
Kavnayn zi nuri o' huvaydost.
Az zulmati ma'siyat chi bok ast,
Xurshidi jamoli o' mujallost.

Muhammadkim nabilar xotamidur,
Bisoti lam'i Alloh mahramidur.
Anga har kimsakim tab'iyat aylar.
Saodatning savodi a'zamidur.

Nazm:

Shohiki erdi lavhi vali maxzanul ulum,
Inkor etsa har kishi uldur la'in-u shum.
Xurshidi mohi tal'ati ki ash-shamsi val qamar,
Yoronlaridur avji hidoyatda kan-nujum.

Nazm:

Erdi Bubakr yori gor anga,
Umar adl etti ustuvor anga,
Qildi Usmon charog'idin ravshan,
Murtazo erdi do'stvor anga.

Salavotullohi alayhi va alo olihi va as'hobihi at-tayyibina at-tohirina ajma'in ilal-yavmiddin. Ammo ba'd bu qoilai mahjuba va tolibai mahjura ishq-u muhabbat zumrasig'a shomila va shariat ahkomida omila al-mulakqab bil Komila andog' bayoni hol va izhori mofilbol etarkim, muddati madid va ahdi ba'iddurkim, firoq oshubidin oshuftaxotir va hijron alamidin ko'ngulda xavotirdur, andog'ki asolat gulistonining shajarasi va najobat bo'stonining samarasi, murabbiy ul-masokin va umdatus-salotin sayyid Muhammad Umar Bahodirxon (navarallohu marqadahu) visol masnadida ko'makdoshim va ittihod saririda hamfiroshim erdi va ul hazrat musohabatidin muddate muraffahul-hol va havodis ishtig'olidin forig'ul-bol erdim. Visol qasrida shodkom va musohabat masnadida aysh-u nashot birla mutamakkin erdim va ul sultonning davlati diydorig'a masrur va liqosig'a mag'rur erdim.

Bayt:

Ey *xush ul kunlarki vasl bazmida masrur edim,*
Shod-u xurram davlati diydoriga mag'rur edim.

Na ko'nglumda firoq anduhidin g'am va na jonimda hijron dardidin alam erdi va jamoli sham'idin ko'zlarim ravshan va ko'ngul bahramand-u xursand erdi. Qadr-u manzalatim oftobi rif'at va makramat mashriqidin toleyi iqbol va davlatim xurshidi saltanat ayvonida lomi', amorat va siyodatim elga ravshan, asolat va najobatim ulusga mubarhan, balki siyodatimiz amorat xonadonig'a ittisol va payvand topib, balki ul jihatdin bu xonadong'a siyodat saodati intiqol qilib, amoratlari siyodat tashrifig'a musharraf bo'lmish erdi. Va ul sultoni oliy nishonki, nazm:

Adolat sipehrida erdi quyosh,
Erur yaxshi avsofi olamg'a fosh.
Bo'lub adlidin elni osoyishi.
Aning davlati erdi el xohishi.
Amiri jahonkim, menga yor edi,
Aning birla xush davlatim bor edi.
Skandar jalobu uluvshon edi.
Karampesha Jamshidi davron edi.

Ammo ul hazratning latoyif shoir tabiatlari komig'a she'r mazoqi g'olib va ash'or rag'batig'a ko'ngullari rog'ib erdi va bir lahza zamiri muhabbat taxmirlari latoyifomiz za masarratangiz abyotlar mazmunlari xayolidin xoli ermas erdi. Bovujudi shug'li umuri sipoh va mamlakat, ash'or san'atidin bir zamon yirog' va fikr-u andishadin bir lahza farog' topmay hamvora kalomlari nazm piroyasi birla pirosta va payvasta, takallumlari gavhari vazn hulali birla orasta erdi va aksari avqot mavzun xayollar birla g'azal va muxammas va tarji' va murassa' qilur erdilar va andin oshiqlarg'a surur va husn ahlig'a g'urur paydo bo'lur erdi va men ham alar mutobaatida nazm uslubidin bahra topib "Assuhbatu muassiratun" natijasi birla kam-kam she'r qonunidin xabardor bo'lub, goho biror misra' va goho biror bayt taqlid birla aytur erdim. Hazrat

ba'zi nuqsonlariga isloh berib mavzun va murassa qilur erdilar. To andak fursatda ash'or qoidalariga muvonasat paydo qildim, to nazm fununig'a mohir va mazmun sehrida sohir bo'ldim. Ersa goho ul hazrat ba'zi toza mazmunlardin bir misra' birla savol tariqasida so'rar erdilar, filfavr oxiri misra' birla javob aytur erdim va tabiatlarini xush qilur erdim. Biri budurkim, bir kun savol qildilarki, misra':

— *Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?*

Javob aydimki, misra':

— *Kim bular uryon, alarning jubbau dastori bor.*

Bu tariqa mazmunlar birla ko'ngullarig'a farah yetko'rur erdim, mundog' latoyif va nazokatlar birla ro'zg'ori davlat va saltanat xush kechar erdi.

Bayt:

Ey xush ul yorki, yori bila har shom-u sahar,
Qilsalar bir-birini husni jamolig'a nazar.
No'sh etib sog'ari may bazmi visol ichra mudom,
Bo'lmasa davri falak gardishidin zarra xabar.

Bir necha kunlar visol saririda va musohabat masnadida shodkom va firo'zbaxt komron va xurramdil, nashot va inbisot qilur erduk. Banogoh qazo-u qadar taqozosidin hush qulog'iga "Irji valiya rabbika" nidosi yetti. Ul damki bu nidoni eshitti, ruh to'tisi qurbat shakkaristoni fazosig'a tayron qildi. Va ravon shohbozi bu tiyra xokdondin adam shohsorini nuzlatgohiga parvoz qildi. Taxtu davlat va toj-u saltanat va nigini hukumatni o'z qurrat ul-aynig'a taslim qilib, fano doridin baqo diyoriga azm qildi. *"Inna lillahi va inna ilayhi rojiun"*.

Bayt:

Ey falak qaysi quyosh yuzlukni har kun charx uza
Jilvagar qildingki, oxshom yerga pinhon etmading?!

Ittihod payvandidin muvosalat rishtasi uzuldi, aysh-u tarab qonunining pardasi buzuldi. Bazm-u ishrat surudi motam nav-

hasig'a badal bo'ldi va visol sozini halovatlig' nag'masi firoq shevanig'a qo'shuldi.

Nazm:

Chun bo'ldi dahr shohi ayyomdin ramida,
Yuz dog' birla qoldi ahbob motamida.
Sabr-u qaror ketdi man zor-u benavodin,
Anduh birla qoldim sayyid Umar g'amida.

Kundin kun firoq dardi va ishtiyoq alami tug'yon qila boshladi. Har nechakim sabr-u tahammul etagin ushladim, oxir beqarorlikdin junun ilgi birla toqatim giribonini chok-chok ettim. Goho xayoli birla ko'ngul iztirobig'a tasalli berdim va gohi yodin qilib dil ahvolini inqilobig'a orom va taskin yetkurdim. Sayyid-u saodot, mashoyix-u ulamolardin tuhaf va hidoya birla duolar oldim. Barchasin ruhi pokiga bag'ishladim. Masokin va benavolarg'a xayr-u ehsonlar birla bahra yetkurdim. Karam ila ato xonidin fuqaro xalqini mamnun va mustag'niy aylab, marhamat va shafqatlar ko'rguzdim. Duolarin ul hazrat janoblarig'a vasila qildim. Va har duoki hosil qildim, marqadi shariflarig'a tuhfa yubordim va ul ravzada ihtimom birla toqi oliy va ravoqi mutaoliy mustahkam bino qildim. Ahboblarga qiblagohi duo bo'ldi. Va javorida madrasai fayz-osor ulum diniy talabalarig'a bino qildim. Va tijorat ahli va savdo xayli uchun saroyi oliy barpo qildim. Jiddi jahd birla sipohiylarg'a anjom va fuqarog'a orom yetkurdim. Mamlakatlarni obod va mustamandlar ko'nglini shod qildim. Ulamoyi din rivojlariga imdod yetkurdim to shar'i sharif rivoj topti, zuhd ahlig'a ixlos va aqidatan zohir qildim to din va millat kamol topti. Fazl-u donish qabilasig'a shafqat va marhamatdin oncha inoyatlar ko'rguzdumkim, e'tibor darajasiga taraqqiy qildilar. Soyil va gadolarni talablarig'a yetkurub, karam va ehson eshikidin noumid yubormadim. Mus'hafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko'p yozdurdim. Barchasin xoli sanlillah vaqf qildim. Savob va ajrini ul hazratning ruhi ravonlarig'a iysor ayladim. Va har gohki firoq shiddati g'alaba qilur erdi marsiya va firoqnoma xayol qilib, mazmunida dilxarosh g'azallar insho qilur erdim. Va ko'ngul ishtiyoqig'a aning birla taskin berur erdim. Nechukkim, ul hazrat mutobaatlari birla ash'or qoidasidin andakki

boxabar bo'lib erdim, furqat ayyomida ham xayoli bazmida visolin mahfilini tasavvur qilib, yodi birla hasbi hol aytishur erdim. Va bu vasila birla g'azal va muxammas va ruboiy mashqig'a kog'az poralar to'ldi. Va har kimki, ul poralarni mutolaa qildi maqbuli tabiati bo'ldi.

Oxirulamr xizmatimda hamnishin olimai afifalar va mulozamatimda fozilai hamsuhbat sharifalar bir kun tazarru'lar bila iltimos qildilarkim, bu tabiatzodalarining parishon qolg'oni oshuftalig'din o'zga natija bermas va bu jaridalar havodis tundbodidin parishon bo'lmag'onda devon taqlidida jam' qilib, bahr-bahr tartib birla yozilsa, zebo va mustahsan bo'lg'usidur va hazrati amiri jannatsarir marhum devonlarining barobarida muxtasar devon bo'lub, sababi duo va boisi mag'firatdur va do'stlarig'a manshai surur va nashoti yodgorliq bo'lur. Yo'q ersa ayturlarki, misra: "Kullu harfin laysa filqirtosi zoye'an" Olam bevafo va besabot. Dunyo bebaqo va nopoydor. Odam avlodidin solih birla yaxshi ot va neku sifot va saodat nishoni va komkorlig' iqtironidur. Nochor ul nodiratab' ma'sumalar va ul afifai muhtaramalarning savob rabiylarin ma'qul va maqbul bilib, jam' etmog'iga iqdom ko'rguzub, ehtimom va sa'yi tomom birla har bahrini o'z mahallida sabt qildim. Tartib birla har qaysisi o'z yerida marbut bo'lundi. Shoyadki, ahboblar va sohibdil ulul-alboblarg'a manzuri nazar bo'lub, duoi xayr birla yod qilg'aylar. Ishqu hol zumrasi shavqangiz g'azallardin halovat topib, umiddurki, Xudo karamidin mag'firat va omurzish tilagaylar. Mundog' umidlar bila o'z holimga yarashur so'zlar aytub, avroq yuzlarin savodga kelturdum. Va musavvadalar birla sahifalarni to'ldurdum.

Ruboiy:

Alvon g'azal yig'ildi devon o'ldi,
Devon demakim, rashki guliston o'ldi.
Hijronida so'zlarim parishon erdi,
Har kim o'qidi, tab'i parishon o'ldi.

Ruboiy:

Yo Rab, bu savod ishqda sodiq bo'lg'ay,
Iqbol bayozig'a muvofiq bo'lg'ay.

Ishq ahlini xotiri bo'lub xush andin,
Maqbuli tabiati xaloyiq bo'lg'ay.

Iltimos muddaqiq rasolardin va muhaqqiq fuzalolardin uldurki, har sahv-u xato va xalalekim zohir bo'lsa va har nuqsoneki voqe' bo'lg'on ersa, insof va muruvvat kazlaki birla mahv qilib, lutf va marhamat qalami birla isloh berib, barcha nuqsonlarin kamol kisvatida ko'rguzsalar, ayni shafqat va marhamat bo'lg'usidur. Va bu amaldin ajri azim va savobi jazil topg'aylar. Va bu parishon so'zlardin irod olmog'i va nuqsonin elga zohir qilib ta'n etmog'i insof diyoridin tashqari va muruvvat shahridin naridur.

Bayt:

Elni aybini zohir etmog'lig'
Yo'qtur insof ila muruvvatdin.
Ulki, el aybini qilur pinhon,
Tangri saqlar ani har ofatdin.

Sahvu xatolarin ma'zur bilib, insof kelturgaylarkim, ko'prog'i shavq g'alabasi va junun tug'yonida aytilg'on va ba'zi bexudluq va ba'zisi behushluq ifrotida yozilg'ondur.

Bayt:

O'shalkim hushmandu nuktadondur,
Xatosi xatlarin ma'zur tutqay.
Berib isloh ani nuqsonlarig'a,
Muxolif ta'nasldin durr tutqay.
O'shalkim elni aybini yoshursa,
Xudo ul bandani mag'fur tutkay.

Oqil nodon so'zidin irod olib bahs qilmas, balki islohiga ko'shish qilur. Ayozanbillah nodoni xudpisand va johili noxiradmand o'z qosir xayoliga mag'rur va noraso zehnig'a masrur bo'lub, ma'nidin bexabar, tabiati so'z rumuzidin beasar, behuda taarro'zlar bila daxli bejo qilib, bahsi bemavqi' og'oz etar. Va o'z egri fahmiga ishonib va botil xayoliga e'timod qilib, harza so'zlar bila bemavrid taarro'zlar ko'rguzur.

Nazm:

Alarki muddai-yu noraso-u dundurlar.
Mudom ahli xirad olida zabundurlar,
Muddaqiq el qoshida so'zlari xijolatdin
Misoli xomai naqqosh sarnigundurlar.
Hamisha fahmlari egri, so'zlari botil
Ki, o'z aqidalari birla zufunundurlar.
Kamol ahlig'a badxoh norasoliqdin
Inod-u buxl-u hasad birla g'arqi xundurlar.

Ilohiy, andog' bexirad muddailardin va bu sifat beshuur johil xudpisandlarning botil da'volaridin va bema'ni bahsu g'avg'olaridin afgor abkorlarin o'z hifzu himoyatingda ma'sun va ismat hijlasida ma'mun tutqaysen. Ko'ngullarg'a mahbub va marg'ub qilib iffat va salohiyat hulali birla orasta va pirosta qilgaysen.

Donoyi munassiflar, abrumand va badxoh maonidlar elg'a nopisand bo'lg'aylar. Behudago' — xor-u harza maqol — noe'tibordur. Va alarning qavli noshoyista va bekordur. E'tibor nuktasanj donolar so'zi va zufunun rasolar rumuzidur. Va bu bayti mashhur mazmuni anga dalolat qilurkim, bayt:

Dono ba har diyor azizu mukarram ast.
La'nat bar on diyor, ki nodon buvad aziz.

Ilohi dono-u fozil azizlarg'a rahmat va nodonlarg'a ibodatda tavfiq karomat qilg'aysan. Omin yo rabbil-olamin. Tammat al debocha *"bi avnihi va karamihi va nastag'firulloha min shururi anfusino va min sayyioti a'molino"*.

Omin.

G‘AZALLAR

Ey hamding o‘lub boisi hangomai ashyo,
Isboti vujudungga shaqoyiq tili go‘yo.

Na toqi muqarnas o‘la sun’ing bila qoyim,
Kavnayn vujudi sening amring bila barpo.

Muhtoj sening dargahingga mo‘min-u muflis,
Iqror sening birligingga johil-u dono.

Kayfiyati jomi karaming ruhi fizodur,
Kim zindai jovid erur Xizr-u Masiho.

Gar bo‘lmasa Yusufda jamolingni nishoni,
Husniga nedin vola-u zor o‘ldi Zulayxo?!

Gulshanga yuzung shu’lasi gar solmasa partav.
Gul ishqida bulbul na uchun vola-u shaydo?!

Gar sham’da yo‘qtur sharari shu’lai husnung,
Parvona nedin kuymakidin qilmadi parvo?!

Oshiq o‘zi, ma’shuq o‘zidur, lek afsona
Layli bila Majnun ila Vomiq va Uzro.

Hajr ichra erur Komila mushtoqi visoling,
Shoyadki ko‘zum qilsa jamolingni tamosho.

* * *

Avvali nomamni hamding birla aylay ibtido,
Zoti pokingga erur na ibtido, na intiho.

Men kimu vasfingni zikr etmak va lekin ko‘ngluma
Yuz tuman shavqi muhabbat shu’lasi bermish ziyo.

Ey ko‘ngul, shavqingni izhor etma daftar kuymasun,
Hamdidin so‘ngra deyin na’ti rasuli mujtabo.

Hamd birla na’tdin so‘ngra so‘zumni boshlayin,
Qilsalar menga madad gar choryori bosafo.

Yo Iloho, ber mening xomam tilig‘a quvvate,
Kim Muhammad oli as’hobig‘a aylay yuz duo.

Yo Rab, emdi aytayin dardimni ul gul shavqidin,
Sham’ yanglig‘ shu’lalar ko‘nglumni kuydirdi yano.

Ikki olamda umidim sendin ermish, Komila,
Qilmagil, yo Rab, o‘zungdin o‘zgalarga oshno.

* * *

Xudovandeki bo‘ldi sun’idin arzu samo paydo,
Qilur bir qatra suvdin gavhari qimmatbaho paydo.

Aning mulkiga yo‘q tavfir bu olam vujudidin,
Na nuqsondur anga gar mulki olam bo‘lsa nopaydo.

Vujudi ganji pinhon erdi olam korgohida,
Aning izhoriga xalq ichra bo‘ldi anbiyo paydo.

Kamoli qudratidin olam ijod aro bo‘lmish,
Gulu xor-u ganju muflisu shoh-u gado paydo.

Yorutdung oshiq-u ma’shuqa husn-u ishq mire’otin,
Ki bo‘ldi gul bila bulbul aro bargu navo paydo.

Sening mehringni olam ahliga izhor etar har kun,
Ki bo‘lmish subhi sodiq jaybidin nuri safo paydo.

Bihamdillah, guli mehr-u muhabbat oshkor o‘ldi,
Ki bo‘ldi Komila ko‘z yoshidin naxli vafo paydo.

* * *

Yuzung farrux, jamoling ruh afzo,
Xating Xizru labi la'ling Masiho.

Meni devona qildi ishtiyoqing,
Soching zanjiridin boshimda savdo.

Jamoling mus'hafin qildim tilovat,
Qoshing bismillahidur anda tug'ro.

Dami tig'ing menga vaqti shahodat,
Erur, albatta, sharbatdin guvoro.

Malohatlig' yuzung mohi munavvar,
Jamoling oftobi olamoro.

Jamoli bemisoling jilvasidur,
Sharobu sham'u shohid, jomu miyno.

Ko'ngul kim hajr elidin benavodur,
Qilur payvasta vaslingni tamanno.

Jahon ayshi g'animatdur necha kun,
Vafo qilmas kishiga mulki dunyo.

Na Shirin qoldi olamda, na Farhod,
Qani Yusuf, qayon ketti Zulayxo?

Ko'ngul, ishq ichra bo'lma betahammul,
Ki vaslu hajr aro qilgil madoro.

Menga, ey Komila, qismat bu erkan,
Azal kundin bo'lubdur ishqi paydo.

* * *

Bahor keldi ko'zum gulga boqmadi aslo,
Nedinki, gulshan aro gulruhum emas paydo.

Yuzumga bo'ldi yuzung muqtarin, bihamdillah,
Ochildi mehru vafo bog'ida guli ra'no.

Sarig' yuzumda qizil ashkimi tarovati bor,
Nechukki sog'ari zarrin aro mayi xumro.

Labidin ayru menga boda tutma, ey soqiy,
Xumor kulfatiga nofe' o'lmadi sahbo.

Bu joni xastaki, vaslingni orzu aylar,
Xayol turrasidin boshida uzun savdo.

Firoq lashkari tug'yonidin maozallah,
Ki, qildi sabr-u tahammul diyorini yag'mo.

Yuzung nazzorasi ushshoqlarni Firdavsi,
Harimi dargahing ahboba jannat ul-ma'vo.

Sening salosili zulfunga mubtalodurman,
Ki bo'ldi aql-u xirad qushlariga domi balo.

Falakdin o'tti fig'onim, quyoshga yetti unum,
Hanuz, Komila, kam bo'lmadi bu ohu navo.

* * *

Har necha ko'z solur ul dilbari gulfom manga,
Dog'lar punbasi ermish guli bodom manga.

Qonlu ko'z yoshi ila oh-u junun bazmida,
Sarvi mavzun iladur tifli gulandom manga.

Davri jomi tarab uyrulmog'i basdur, soqiy,
Garchi uyrulmadi bu gardishi ayyom manga.

Nechakim zulm etar oshiqa gardun, etsun,
Davr nokomlig'idin chu erur kom manga.

Bir ayog' may karamin ayladi soqiy og'oz,
Ayladi baxt bu maqsadni saranjom manga.

Sarhushi dashti junun ichraki bo'lmish hosil,
Lolalar uzra sirishkim may ila jom manga.

Gulshan ichra ani gesusig'a monand ko'rub,
Tyrrai sunbul erur halqa bo'lan dom manga.

Kimsa topmas asarim istamoqu so'rmoqdin,
Na nishon qoldi fano mulkida, ne nom manga.

Komila, ko'yida bosh qo'ymog'im ermas noyob,
Itlari xayli erur maqsadi ikrom manga.

* * *

Ey sarvi sihi bo'ylug'um, ey qomati zebo,
Kelkim ko'zum oyinasi mushtoqi tamosho.

Ul kunki visoling chamanin sayr etar erdim,
Manzuri nazar erdi menga ul qadi bolo.

Aydimki, qachon bo'lgusi ko'yingda makonim,
Oshiqqa, dedi, hojat emas manzilu ma'vo.

Kuydurdi chaman gullarini rashk o'ti birla,
Ul g'unchai xandon ila ul nargisi shahlo.

Ul zulfi dilovez muanbar girihidin,
Har kimni tushub boshig'a bir o'zgacha savdo.

Har sabzau sunbulki bu gulshanda chekar bosh,
Mo'yi sari Majnunduru yo turrai Laylo.

Vayronada oqilg‘a iqomat na munosib,
Sarmanzili osoyish emas arsai dunyo.

Hijron g‘amidin tashna labu xasta jigarmen,
Soqiy, karam aylab, menga tut sog‘ari sahbo.

Ko‘zgu kabi hayronlaringa arzi jamol et,
Diydoring uchun Komiladur volau shaydo.

* * *

Jilva ko‘rsatti chu ul sarvi diloro bog‘ aro,
Chashmi qumri bo‘ldi bir chashmi tamosho bog‘ aro.

Surmagun chashmi nazar soldi guliston ahlina,
Hasratidin qoldi nargislar ko‘zi vo bog‘ aro.

Orazi gulgun ila qildi chaman sori xirom.
Gul yaqosin chok aylab bo‘ldi rasvo bog‘ aro.

Sarvi gulruxsorim bu bazmi ishrat deb bahor,
Sarv birla guldin etti jomi miyno bog‘ aro.

Lola yanglig‘ dog‘ bo‘ldi gul jamoli rashkidin,
Dog‘lig‘ gullardin o‘ldi sayri sahro bog‘ aro.

Naxli qaddi xijlatidin bo‘ldi suv sarvi ravon,
Ayladi favvoralar joriy saropo bog‘ aro.

Sayr uchun qo‘yg‘ay qadam deb sabzayi xobidadin,
Har taraf bir farshi mahmaldur muhayyo bog‘ aro.

Ko‘rdi ul sarvi diloro qomati mavzunini,
Sarv qaddin qildi qumrilar tamanno bog‘ aro.

Cen bukun xandonsen, ey gul, Komila dildorsiz,
Yig‘lamoqdindur bulutlardek muhayyo bog‘ aro.

* * *

Ey mehri jamoling olamoro,
Zarrot yuzungga mast-u shaydo.

Ey husn riyozida qading sarv,
Ul sarv uza sunbulung sumanso.

Kelkim nazarimga, ey pariro‘,
Devonaga bir dam et tamosho.

Sen uyquda mast-u nozdursen,
Men dard bila g‘aribu tanho.

Tun kecha fig‘onu nolishimdin,
Ko‘ying iti ichra tushti g‘avg‘o.

Sen qaysi diyor azmin etding,
Kelmas xabaring bu yerga aslo.

Ohim o‘qig‘a qadim kamondur,
Bu o‘qni nishonidur Surayyo.

Majnun nega Layli tarkin etsun,
Yusufni unutmadi Zulayxo.

Qaydin seni Komila unutsun,
Bu so‘z na munosib, ey diloro.

* * *

Ey yuzung qiblai arbobi safo,
Sari kuyingda ko‘ngul qiblanamo.

Ka’bayi ko‘ying erur takyagahim,
Ko‘z yoshim Zamzam o‘shal Ka’ba aro.

Bo‘lmasa mehri ko‘ngulda ne osig‘,
Manziling Yasrib o‘la yo Batho.

Surmaoso qadaming tufrog‘i,
Xira bo‘lg‘on ko‘zuma berdi ziyo.

To‘tiyodur menga naqshi qadaming,
Ki ko‘zum oyinasi topti jilo.

Bo‘lsa to umru hayotim boqiy,
Meni ilgimdur-u domoni vafo.

Do‘stlar aysh-u farog‘at bila xush,
Bo‘ldi dushman hadafi tiyri balo.

Har kim o‘z rutbasida lof urar,
Bu marotibda maqoming a’lo.

Domani yor ilikdin ketti,
Komila, pirahanim bo‘ldi qabo.

* * *

Marhabo, ey payki sulton, marhabo,
Hudhudi mulki Sulaymon, marhabo.

Tal’ating garrux, muborak maqdaming
Qildi kulbamni guliston, marhabo.

Xo‘b kelding, yaxshi kelturding xabar,
Aylading dardimg‘a darmon, marhabo.

Bo‘ldi mavzun qomatingdin munfail,
Sarvinozi bog‘i Rizvon, marhabo.

Qilg‘osen ul moh mehrin oshkor,
Subh yanglig‘ pokdomon, marhabo.

Mujda kelturding visoli yordin,
Topti taskin dardi hijron, marhabo.

Kel beri, to xoki poyingni qilay
To‘tiyoi chashmi giryon, marhabo

Ravshan aylarman charog‘i ohni,
Ko‘zlarimdur gavharafshon, marhabo.

Bu kecha hijron shabistonidadur,
Anjumi ashkim charog‘on, marhabo.

Qo‘y kafi poyingni diydam ustina,
Bir dam, ey sarvi xiromon, marhabo.

Komila, har so‘zki insho ayladim,
Aydi anga ahli davron, marhabo.

* * *

Ey xusho, shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim aning har kishi no‘sh etsa bo‘lur Xizrnamo.

Hukamo ishq marizig‘a buyurmish mayi nob,
Hajr dardig‘a demishlar bu mufarrihni davo.

Bodadin aylama parhez, damo-dam qadah ich,
Keldi mazmum muhabbat yo‘lida zuhdu riyo.

Bo‘ldi gul mavsumi-yu maykadalar jonibidin,
Mujdai aysh-u tarab yetko‘rodur bodi sabo.

Ey xush ul rindi may oshomu siyahmasti mudom,
Jomi may ilgida, olida sabuvu miyno.

G‘ussa paymonasida xuni dil oshom aylar,
Bodadin har kishikim, aylar esa istig‘no.

Zohido, gar desang ishq ahliga rasvo bo‘lmay,
Demag‘il maykada avboshig‘a ko‘p chun-u charo.

Boda mushtoqig‘a lutf ila qadah tut, soqiy,
Yo‘qsa Jamshidg‘a ham aylamadi jom vafo.

Komila, jomi muhabbatni labo-lab ichibon,
Mastlig‘ birla qilay ishq namozini ado.

* * *

Ro‘za oyi keldi-yu men ojiz-u bedast-u po,
Ro‘za oyining hilolidek qadim bo‘lmish duto.

Kunduzi bir go‘shada oshuftahol-u sargaron,
Kechalar to subhidam bedoru mashg‘uli duo.

Ro‘za oyi topmadim piyri mug‘on irshodini,
Lojaram masjid aro zohidga qildim iqtido.

Ihtisob ahli tag‘allub ayladi mayxonag‘a,
Qolmadi mayda harorat, nayda ta’siri sado.

Ro‘za zulmatgohida sabr etki ishrat hajriga,
Bo‘lg‘usi bir kun hiloli iyd faxri rahnamo.

Shomlar iftor vaqti zohir aylab iztirob,
Za’fdin qilmas qabuli charbu shirin ishtiho.

Ey ko‘ngul, dam urma izhori shikoyat aylama,
Bordur omi bandalarg‘a ro‘za in’omi Xudo.

Ro‘zani mardona tut, xulqi tavoze’ pesha qil,
Gar erursan tongla mushtoqi jamoli Kibriyo.

Ro‘za zaf’idin ajab hayratdadurman, Komila,
Aylamasman lek bu ahvol ila tarki duo.

* * *

Yuzung oftobi mahi olamoro,
Jamolingni ko‘zgusi mehri mujallo.

Labing yodi ko‘nglumda pinhon emastur,
Erur shishada mavji sahbo huvaydo.

Erur ikki ajdar xamu pech birlan,
Qading sarvida ikki zulfi sumanso.

Magar husn bog‘ini nargislaridur,
Iki chashmi jodui bodom-u shahlo.

Nega oshiq afg‘onidin vahm etarsen,
Bo‘lurmu kishi muncha berahmu tarso?

Xush ul kunki azmi roh etting, yo‘lungda
Charog‘on yorutti to‘qquz charxi xazro.

Rafoqat bila bordi ruhul-amin ham
Inoningda to Sidrat ul-muntaho.

Risolat sipehrini xurshididursen,
Jamoling mujallo, janobing muallo.

Qilib Komila sa’y payravlig‘ingda,
Talab qildi sarmoyai dinu dunyo.

* * *

Sunma may, ey soqiyi davron, manga,
Kim nasib o‘lmish azaldin qon manga.

Yor javridin shikoyat qilmazam,
Kim erur ul barcha istehson manga.

Nola bir dilso‘z yorimdur mening,
Hamnishinimdur diydai giryon manga.

Mushkil ishdur dardi hijron kulfati,
Yo Rab, ul mushkilni qil oson manga.

Dasht-u sahrolarni qildim ixtiyor,
Bo'ldi Majnun qissasi burhon manga.

Oh, naylay, o'tti davroni visol,
Bevafolig' ayladi davron manga.

Muntazirdurman hamisha, Komila,
Bir qiyo boqqaymu deb jonon manga.

* * *

Labing shahdi nobig'a jonim fido,
Xiromon qadingg'a ravonim fido.

Firoqing visol ahlidin jon olur,
Visolingga jon-u jahonim fido.

Bel-u og'zida qoldi vahm-u gumon,
Ne tong o'lsa vahm-u gumonim fido.

Agar filmasal mehr ila mohdur,
Qilay senga, ey mehribonim fido.

Iki la'li nobingni yoqutig'a,
Iki chashmi gavharfishonim fido.

Qading sarvinoziga, ey gulbadan,
Tani log'ari notavonim fido.

Ne g'amdur menga ishq aro, Komila,
Agar bo'lsa jononga jonim fido.

* * *

Yuzung yodida qildim bu kecha ohi sahar paydo,
Kavokib xirmanig'a bo'ldi ul o'tdin sharar paydo.

Niholi sabrima la'ling xayoli birla suv berdim,
Ajab yo'q, bo'lsa gar bu naxldin shirin samar paydo.

Sharaf topti mamolik shohi daryodil vujudidin,
Asolat maxzanidin bo'ldi ul oliy guhar paydo.

Zihi shohiki davlat fayzidin ogoh o'lib qilmish,
Javohir surmai tavfiqdin nuri nazar paydo.

Tahammul o'ylakim besabrlig' talx etti komingni,
Bo'lur sabr etsang achchig' g'o'radin shahd-u shakar paydo.

Mening yorim ajab nozikmijoz-u bemuruvvatdur,
Belin qatlimg'a bog'labdur vale ermas kamar paydo.

Nujum ermas falakda shu'layi ohim sharoridur,
Ki bu koshona ichra bo'ldi andin zeb-u far paydo.

Ko'ngul majnunini zulfungni zanjirig'a band ettim,
Suruk atfol ichinda bo'lmag'ay deb sho'r-u sharr paydo.

Ajab yo'q, Komila parvoz qilsa yor ko'yig'a,
Ki bo'lmish tanda furqat o'qlaridin bol-u par paydo.

* * *

Nazar ahli savdolarini xating qildi lavhi jamola paydo,
Ne tong aylasa dudi ohim qamar davrida hola paydo.

Soching sunbulidin adadsiz girihlar tushubdur ko'ngul rishtasig'a,
Ki, yuzdin birin zohir etsam qilur jahdi mushkin kulola paydo.

Mening qissai ro‘zg‘orim farovon g‘ami hijroning fasonasidek,
Ki, bir nuktasin sharh qilsam bo‘lur necha daftar risola paydo.

Yuzung oyini hayratidin erur badri tobon qaro dog‘liq,
Qoshing nunidin voqif erdiki, ojizlig‘ o‘ldi hilola paydo.

Karam dastgohiki xon atosi mudom omoda mehmon yuziga,
Aning izzai bazmi baxshoy ishidin bo‘lur
har gadog‘a navola paydo.

Sirishkim sahobini imdodidin dilkushodur muhabbatni dashti,
Ko‘ngul dog‘ini etsam namoyon bo‘lur ul biyobonda lola paydo.

Solib hajr tan mulkina zilzila, dedi qilma davri falakdin gila,
Nedur chorai dardim, ey Komila, firoq o‘ldi nogah, visola paydo.

* * *

Ey shahi mulki karam sultoni iqlimi ato,
Chekmagan hargiz misoling kilki naqqoshi qazo.

Dahr mulkiga seningdek davlat-u toj-u sarir,
Na Skandar ko‘rdi, na Sultoni Husayn Boyqaro.

Rashki adl-u himmatingdin Hotam-u No‘shiravon,
O‘ldilar yuz hasrat ila ozimi mulki fano.

Ko‘rmadi sendek shahi nek-u najod olamda charx,
Kim kelan sulton anga yetti ato birla ano.

Bazmi ehsoningda dasti zarfishoning rashkidin,
Shomlar tuprog‘ arodur panjai mehri samo.

Razm maydonida gar raxsh uzra javlon aylasang,
Zoli charx etkay hazimat qomatin aylab duto.

Dahr aro gar shohlar yo‘l topsalar dargohinga,
Xoki poyingni qilurlar ko‘zlariga to‘tiyo.

Barqaror o'lg'ay ilohi to binoi mulki dahr,
Bo'ldi taxt-u tojdin sarmoyai davlat bino.

To qiyomat etma, yo Rab, lutf-u altofingni kam,
Xoni oliyjohkim ehson-u jud aylar ato.

Ey shaho, lutf ila ahvolimdin emdi voqif o'l,
Chektim asru charx davri javridin ranj-u ano.

Hech jurm ahlini ahvolig'a, yo Rab, tushmasun,
Umrlardur charxdin men chekdugum javr-u jafo.

Dahr ayvonida gardun gardishi bedodidin,
Yo'qturur g'am qaydi ichra kimsa mendek mubtalo.

Chekti g'am idbor xattin nomayi iqbolima,
Daftari charxa qazo kilki chu xatti istivo.

Lutf ila sen qaydi g'amdin chekmasang to ro'zi hashr.
Yo'q xalos o'lmoq menga, ey xisrav-i izzu ulo.

Necha istab uchti rohat oshyonin murg'i dil,
Topmadi oromgoh, juz halqayi domi balo.

Yig'di to xoshok selobi sirishkim boshima,
Tutti har yondin kelib g'am qushlari anda yuvo.

Necha har yon boqtim aylab davlatim subhin talab,
Ko'rmadim az g'ayri shomi nakbat-i be intiho.

Teshayi Farhodi g'amdin pora bag'rim dog'ini,
Lutf xishtidin qil, ey shirin suxan xisrav, bino.

Budur umidimki lutfungdin ko'ngul oyinasi,
Zangi g'amdin mehr ko'zgusi kabi topqay jilo.

Rohi madhing shomi g'amda tutti qilki Komila,
Mash'ali lutfung anga chun subh o'lg'ay rahnamo.

* * *

Kel, senga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido,
Diydalarimga qo'y qadam, har qadamingga jon fido.

La'li labing firoqida xuni jigar g'izo menga,
Sarv qading havasida jon etaram ravon fido.

Ayshu nashotu ofiyat dard-u g'amingni sadqasi,
Bir nafas ishtiyoqinga ishrati jovidon fido.

Vaqti xirom, ey sanam, diydalarimga qo'y qadam,
Xoki rahingga aylaram chashmi guharfishon fido.

Garchi mening alimdadur hosili mulku mamlakat,
Yetsa visoling, aylaram barchani roygon fido.

Yig'lama emdi, ey ko'zum, to'kma yurakni qonini,
Dog'ni toza ayladim, qonig'a bo'ldi qon fido.

Komilai g'azalsaro, nazmini ko'rsa nogahon,
Durru javohirin qilur fikriga bahr-u kon fido.

* * *

Ko'ngulni xobi g'aflatdin dame bedor qil, yo Rab,
Oqorg'on ko'zlarimni mahrami diydor qil, yo Rab.

Ko'zumni ravshan etgach partavi mehri jamolidin,
Muhabbat nash'asidin voqifi asror qil, yo Rab.

Ul oy hajrida chandon yig'ladim, har qatra ashkimni,
Vafo bozorida bir gavhari shahvor qil, yo Rab.

Yuzi hajri meni ko'p dardmand etti, ilojim yo'q,
Yana bir ko'rsatib yorimni barxurdor qil, yo Rab.

Kamandi zulfidin ayru tushub derman duo vaqti
Ki bul tuli amalni bo'ynuma zunnor qil, yo Rab.

Tamoshoi jamoliga agar shukr etmagan bo‘lsam,
Ko‘zum paymonasini ashk ila sarshor qil, yo Rab.

Jahonda xisravi jannatmakon adl ixtiyor etti,
Qiyomat kun shafei Ahmadi Muxtor qil, yo Rab.

Azizim subh yanglig‘ pokdomon o‘tti olamdin,
Sharofat birla tuprog‘ini fayzosor qil, yo Rab.

Mazori fayzosori ziyoratgohi olamdur,
Riyozi Ka’ba yanglig‘ foyiz ul-anvor qil, yo Rab.

Qarilig‘ davlatig‘a yetko‘rub Xoni dilovarni,
Baqoyi umrini el umridin bisyor qil, yo Rab.

Amiri odilu Vanna’mi Mahmad Aminxon ham,
Jahon boricha manga bu uchavni yor qil, yo Rab.

Qayu gumrahki, gardankashlik etsa Xon janobidin,
Sitam toshi bila boshdin ayog‘ afgor qil, yo Rab.

O‘shalkim anga badxoh-u hasad-u kiynaparvardur,
Humoyun dargahida mustamandu zor qil, yo Rab.

Nechukkim har biri ko‘z nuri-yu ko‘ngul sururidur,
Alarg‘a baxt-u davlatni hamisha yor qil, yo Rab.

G‘azal bunyod qildi, Komila yoriga arz aylab,
Ko‘ngulda bog‘lagan mazmunini izhor qil, yo Rab.

* * *

Keldi shahzodai humoyun fisar,
Qadamini muborak et, yo Rab.

Bildurub ma’niyi kalomi masjid,
Rozdin taborak et, yo Rab.

Maymanatlig‘ amirzoda erur,
Davlatin toji torak et, yo Rab.

Naqdi jon garchi sahldur ko‘zuma,
Maqsadimg‘a nisorak et, yo Rab.

* * *

G‘unchadek og‘zi aro ul lutfi guftori ajab,
Sun’ ilgi yo‘qdin izhor aylagan bori ajab.

Oldi ko‘ngul qushlarin har lahza mushkin turrasi,
Boli shohindurki, sayd aylarda tarrori ajab.

Baski Majnundur aning husniga gulshan gullari,
G‘unchalardindur chaman bo‘ynida tumori ajab.

Ayladi oshufta tab’imni parishon turrasi,
Qildi baxtimni qaro xoli sitamkori ajab.

Ko‘zidin ozurda dilman, qoshidin ozurdaroq,
Zor ahvolimg‘a ozor uzra ozori ajab.

Har qachonkim noz etib chiqsa mayi gulfom ichib,
Qon to‘kar maydek damo-dam chashmi xumori ajab.

Yor vasli birla odat aylab erdim, Komila,
Andin ayru menga bir dam sabr izhori ajab.

* * *

Tiyradur subhi nashotim, soqiyo, keltur sharob,
Shomi hijron zulmatida jomi maydur oftob.

Mohi tobon yuzlugum, har lahza yod etsam seni,
Dud bag‘rimdin chiqar o‘t ichra tushgandek kabob.

Band etib zulfung aro ko‘nglumni ozod etganing,
Qush uchurgandek erur bog‘lab ayog‘iga tanob.

Koshki, ohim nasimidin taharruk aylasa,
Yorkim ruxsorig‘a gul bargidin solmish niqob.

Hajr oshubi balodurkim, aning tashvishidin,
Qatrai siymob yanglig‘ ko‘nglum aylar iztirob.

Shod edi ul shohi davron vasli birla xotirim,
Aysh davroniga soldi davri gardun inqilob.

Bevafolardek seni hargiz faromush aylamas,
Komila yodingni aylar to dami yavmul-hisob.

* * *

Gulga desam yo‘q kafi poyingda tob,
Diydama qo‘y, ey buti zarrin rikob.

Tashqari chiqma kechalar, hashr o‘lur,
Chiqsa yarim kechada gar oftob.

G‘arqai xuni jigar o‘ldi tanim,
Qon yosh ila mo‘yi sar ettim huzob.

Turfa savole labidin so‘rdi yor,
Jon berayin bo‘lmasa shirin javob.

Surati devor kabi bo‘lmisham,
Hasrati diydor ila bexo‘rdu xob.

Jonima qasd aylar ersang qil, valek
Tishlama la’lingni qilursan itob.

Moyili zulm etma ko‘zung turkini,
Yo‘qsa qilur mardum uyini xarob.

Bu kecha mayxonani dargohida,
Piri mug‘ondin tilaram fathi bob.

Aylamading, ey buti paymonshikan,
Komilani vasling ila komyob.

* * *

G‘azab birla nigorim o‘tti yonimdin shitob aylab,
Yuzin ko‘rg‘uncha o‘ldurdi meni hajri azob aylab.

Pari yanglig‘ nazardin chehra pinhon etti ul mahvash,
Firoqu hajr shomidin meni mast-u xarob aylab.

Ko‘ngul shodon erdi jur’ai jomi visolidin,
Solib hijron o‘tig‘a ketti bag‘rimni kabob aylab.

Muruvvat ayla, jono, sendin ayru tiyradur shomim,
Yorut kulbamni bir tun orazingni oftob aylab.

Icharmen may damo-dam yor la’lini humoridin,
Meni mayxonadin man’ etma zohid, ehtisob aylab.

Hisob etmoqqa charx anjumanlarin bor ehtimol anda,
Mening dog‘i dilimni lek bo‘lmaydur hisob aylab.

Labidin ayru qon yutmoq ishimdur borgil, ey soqiy,
Menga behuda kulfat berma taklifi sharob aylab.

Darig‘o, ketti oxir gavhari maqsud ilgimdin,
Topib erdim seni mahbublardin intixob aylab.

Vafo sarlavhi uzra, Komila, mavzun kalomini
Yozar, tahsini she’ri xisravi oliyjanob aylab.

* * *

Yor la'lin yod etarmen g'unchayi xandon ko'rub,
Sabzai xat sog'inurmen bog' aro rayhon ko'rub.

Sabzai xat la'l nobing uzra ma'vo ayladi,
Xizr qilg'ondek vatan sarchashmai hayvon ko'rub.

Dard jonkohu damo-dam oh-u ahvolim taboh,
Rahmi kelgaymu menga bu hol ila sulton ko'rub.

Sovrulurman hajr vodiysi aro, Majnun meni
Girdbod aylar gumon, dasht uzra sargardon ko'rub.

Kecha la'li hajridin o'lmoq menga dushvor edi,
Yuz tahayyur birla ilgin tishladi jonon ko'rub.

Rashkdin yuz fitna barpo ayladi davri falak,
Ko'zlarim oinasin yor oldida hayron ko'rub.

Tong emastur bo'lsa oz muddatda ustodi suxan,
Komila ash'origa tahsin etar, Salmon ko'rub.

* * *

Beray jon visol ichra, ey no'shlab,
Firoqingda tokay qilay tob-u tab.

Jamoling menga muddao subh-u shom,
Visoling menga orzu ro'z-u shab.

Agar kelsa boshimga tig'i ajal,
Qilurmanmu yo'lingda tarki talab.

Qading misrai sho'xi barjastadur,
Bo'lub husn devonidin muntaxab.

Meni zor Farhod-u Majnunnajod,
Erur yor Shirin-u Laylinasab.

Ne mahfilda shahd-u shakar yolading,
Ki bir-birga chaspondurur ikki lab.

Firoqida sham'i shabi hajrmen,
Emas Komila kuymakim besabab.

* * *

Ketmadi mendin qadah birla xumori oftob,
Subh yanglig' tortadurman intizori oftob.

Sarf qilgumdur aning jomi visoli naqdina,
Gar muyassar bo'lsa la'li obdori oftob.

Mohro'larni yuzung oyi musaxxar ayladi,
Muncha bo'lmas anjum ichra iqtidori oftob.

Orazing may tobidin bo'ldi nazokat dastgoh,
Turfa gullar zohir etdi navbahori oftob.

To yuzung oyi namoyon o'ldi husn aflokida,
Rashk o'tidin tiyra bo'ldi ro'zgori oftob.

Gar ko'zim husnung charog'idin munavvar bo'lmasa,
Ravshan etmas partavi nuri sharori oftob.

Komila, ohim sinonidin tavahhum tortibon,
Charx maydonidadur chobuksuvori oftob.

* * *

Sayd etti meni ul iki qullob,
Bo'ynimda kamandi zulfi purtob.

Qoshimni qilichiga bo'yin sun,
Oshiqqa budur tariqi odob.

Gulxan kulida farog‘at etgan,
Qilmas havasi samuru sinjob.

Girdob erur ko‘zumni yoshi,
Oshiqni halok etar bu girdob.

Orom toparmu charx davri,
Doim harakat etar bu dulob.

Olam elida vafo topilmas,
Bu gavhar erur jahonda noyob.

Qondur jigarim labidin ayru,
Keltur menga, soqiyo, mayi nob.

Ushshoq misoli korvondur.
Ul qofilada erur vafo bob.

Yosh o‘rniga, Komila, ko‘zimdin,
Hajrida oqar mudom xunob.

* * *

Agar gulshang‘a kirsa sarvi gulro‘yim xirom aylab,
Yugurgay sarv-u gul yuz marhabo birla salom aylab.

Xiromon keldi yor-u qomati ta’zimiga bexud
Yiqildim soyadek, yerdin turarga iltizom aylab.

Qilurg‘a kunduzumni kecha xurshidi jamol uzra,
Parishon ayladi gisularin, subhimni shom aylab.

Sihi qadlar panohi, guljabinlar podshohisen,
Chamanda sarvni ozod etar qadding g‘ulom aylab.

Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,
O‘tar bu dayri fanodin o‘zini neknom aylab.

Masih azmi sipehr aylab quyoshqa bo'ldi hamsoya,
Bo'lur himmat bila aflok ustida maqom aylab.

G'izoli umrkim vahshatdur, payvasta ram birla
Bo'lurmu yuz ming afsun birla bu vahshiyni rom aylab.

Ko'ngul sayd etgoni omoda qilmish ishq sayyodi,
Pariruxlar kamandi halqayi zulfini dom aylab.

Qalam tahrir etarda nayshakardin bo'lsa tong ermas,
Labing vasfini aylar Komila shirin kalom aylab.

* * *

Soqiyo, hajr davosini demishlar mayi nob,
Tutako'r maykadada qayg'uluq oshiqqa sharob.

Ishq dardig'a giriftor bo'lubman, na qilay,
Zohido, menga nasihat bila yetkurma azob.

Yor la'lini firoqida xumorim g'olib,
Bo'lmadi nash'ai sahbo bila ko'nglum shodob.

Bo'lg'ay erdi qadaming tuprog'i birla ravshan,
Gar ko'zum halqalari bo'lsa samandinga rikob.

Egma qoshini xami bo'lgali el sajdagohi,
Ka'ba devorida hayrat ila qolmish mehrob.

Sarxush o'lgon kabi xunobi jigardin oshiq,
Nash'ai boda qilur husn elidin raf'i hijob.

Ashki gulgunim erur bodai la'ling asari,
Ruhparvardur aning royihasi misli gulob.

Bukun ul mohliqo sho'xi dilorom qani,
Yuzidin ravshan edi diydai joni ahbob.

Mastlig' birla g'ami yor faromush o'lmas,
Komila bo'lmadi dardimni davosi mayi nob.

* * *

Soqiy, menga qadah tut, bu dayr aro labo-lab,
Zuhd ahlidin o'sondim, ulfat sening-la aylab.

Husnung tajallisidin betob mohro'lar,
Andog'ki zohir o'lmas xurshid chiqsa kavkab.

Yorimni vasli birla olam munavvar erdi,
Bor erdi mohi tobon xurshidga muqarrab.

Majnuni benavoni taklifi joh qilma,
Kim telbalar boshida yo'qtur havoi mansab.

Muhtoji dargahingmen yuz ming umid birla,
Men qulni bu eshikdin navmid qilma, yo Rab.

Tig'i zaboning o'ldi miftohi ganji donish,
Allomai zamondur olingda tifli maktab.

Qil, Komila, muyassar sho'ri junun jahonda,
Ishqu muhabbat o'ldi oshiqqa dinu mazhab.

* * *

Chiqti ul gulgun qabo maydon aro javlon etib,
G'amza tig'i birla oshiqni yurokin qon etib.

Mahvashim maydon aro beparda javlon ayladi,
El ko'zini oynadek diydorig'a hayron etib.

Novaki mijgonlari qatlimga tirkish bog'lamish,
Choklik ko'nglumni qoshi yosiga qurbon etib.

Ul Xudovandeki qildi yer-u ko'kni oshkor,
Shukrkim, bizni gado qildi, seni sulton etib.

Bo'ylakim mumtoz erursen barcha sultonlar aro,
Shod qilg'il bandalarni ko'nglini ehson etib.

Mubtalomen to asiri zulfi purtobing o‘lam,
Qil meni ozod boshing uzra sargardon etib.

Boqmading bir lutf ila, ey bemuruvvat sangdil,
Komila hajringda yig‘lar nola-u afg‘on etib.

* * *

Menki qoldim hajr vayronida besomon bo‘lub,
Yor kelmas kulbai vayronima mehmon bo‘lub.

Dasht-u sahrodin so‘rog‘ingni topolmay dard ila,
Aylanib keldim yana g‘am uyig‘a hayron bo‘lub.

Sharbati la’ling xumori birla chandon yig‘ladim,
Qatra-qatra ko‘zlarimdin oqdi bag‘rim qon bo‘lub.

Vasl aro mag‘rur edim diydoriga shomi firoq,
O‘rtadi jismimni oxir, otashi hijron bo‘lub.

Aylasam devonalig‘ ayb etmangizkim, ul pari,
G‘oyib o‘lmishdur nazardin jilvasi pinhon bo‘lub.

Komila, ul mehri tobon shavqida qildim junun,
Oshkoro bo‘ldi ishqim shuhrai davron bo‘lub.

* * *

Chaman riyozida gulgashti marg‘zor qilib,
Ko‘ngulni sayd etar sarvqad shikor qilib.

G‘izolalarni ko‘zi sayd qildi sahroda,
Qoshi uqobini shohin xatiga yor qilib.

Kelurmukin yana ul shahsuvor maydong‘a,
Ki bordi ul kecha ko‘zlarni intizor qilib.

Qilurman ishq-u junun karvonig‘a imdod,
Sirishk noqalarin ashki shashqator qilib.

Tanamda hajr o‘qining zaxmi benihoya erur,
Ki, bo‘lmagay ani yuzdin birin shumor qilib.

Netayki, dahr guzargohida bu telba ko‘ngul,
Yo‘luqti hajriga vaslini ixtiyor qilib.

Jahonda Komila yoring pari misol erdi,
Bo‘lurmu husnini oyinaga duchor qilib.

* * *

Yuzungdur qiblai ahli munojot,
Jamoling sham’idin ravshan xarobot.

Bukun mayxonada sahbo qilur jo‘sh,
Erur piri mug‘ondin bu karomot.

Chu Haq mavjud erur, olam odam bil,
Suluk ahliga budur naf’i isbot.

Ko‘tarmoq tog‘ni oson emastur,
Menu hijron g‘ami hayhot-hayhot.

Mening holimg‘a yig‘lar oshnolar,
Erur hayron menga begonadin yot.

Jahonda, Komila, ishq ixtiyor et,
Muhabbatsiz kechurg‘on hayf avqot.

* * *

Rafiqo, menga bir dam do‘stlig‘ rasmini izhor et,
Ki men bordim o‘zumdin, yor agar kelsa xabardor et.

Qachon ishq ahlini o'lturmog'ini ixtiyor etsang,
Jafo tig'i bila avval mening bag'rimni afgor et.

Haqorat birla, ey soqiy, boqar mayxona ahlig'a,
Sunub bir jomi may zohidni anda naqshi devor et.

Mening holimga yig'lar dasht-u sahrolarda vahshilar,
Agar ko'yig'a borsang, ey sabo, yorimga izhor et.

Erur piri mug'ondin bu bashorat, turg'il, ey soqiy,
Labo-lab jom ila zohidni da'vosini bekor et.

Qading ra'no niholi sarvdur, jono, xirom aylab,
Chaman gulgashtida tovusqa ta'limi raftor et.

Yumulmas ko'zlarim, ey mohi tobon, ishtiyoqingdin,
Chiqib yer ostidin mushtoqlarga arzi diydor et.

Zulayxo mushtaridur ganju gavhar birla vaslinga,
Jahon ahlini Yusufdek jamolingga xaridor et.

Guli savsan ochildi, benavolik qilma, ey bulbul,
Chamanda Komila ash'ori birla nola-u zor et.

* * *

Gar ahli vafo istasa koshona salomat,
Bo'lsun meni maxmurg'a mayxona salomat.

Ul husn shuo'ida ko'ngul kuysa ajab yo'q,
Qolgaymu charog' o'tida parvona salomat.

Devona muhabbat yo'lida bevatan ermas,
Obod agar bo'lmasa, vayrona salomat.

Gar sinsa surohiyu sabu zohid alinda,
Bo'lsun menga sog'ar bila paymona salomat.

O‘lmak zararidin meni bir zarra g‘amim yo‘q,
Gar bor esa jon bergali jonona salomat.

Yaxshi-yu yomon bir-biriga mo‘g‘tanam ermish,
Farzona tirik bo‘lsinu devona salomat.

Obod o‘la, ey Komila, iqlimi tajammul,
Jamshidi zamon, xisravi Farg‘ona salomat.

* * *

Vasl uyin obod qildim buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.

Qildi choki piyrahan dog‘i dilimni oshkor,
Qolmadi ko‘nglumda zaxmi ishq pinhon oqibat.

Ahdu paymonlar qilib erdi vafo qilgum debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yalg‘on oqibat.

Orzu qildim tutarman deb visoli domanin,
Pora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma’zur tut,
Yor ko‘yida na bo‘ldi shayx San’on oqibat.

Baski qon bo‘ldi yurogim gavhari ashk o‘rniga,
Qatra-qatra ko‘zlarimdin tomdi marjon oqibat.

Ohkim, bo‘ldi yana subhi nishotim shomi g‘am,
Chehra pinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,
Poymoli xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat.

Komila bulbul kabi to nola insho ayladim,
Navbahor o‘tti, xazon o‘ldi guliston oqibat.

* * *

Hajridin maxmurmen, soqiy, labo-lab jom tut,
Men kabi har kim-ki bo'lsa rindi durd oshom tut.

Istasangkim, dargahingda posbon o'lgay mudom,
Berma vahshat hajr ila ko'nglum g'izolin rom tut.

Benavolarmiz falak xurshidi yanglig', soqiyo,
Jomi sarshori sabuhiy bizga har ayyom tut.

Bo'lsa gar maqsad ko'ngullar qushlarin sayd aytamak,
Dona qil xolingni, zulfung halqasidin dom tut.

Yor ko'yi itlariga nogah o'lsang hamnishin,
Oshnolardur, alarga izzatu ikrom tut.

Gar zamone dahr g'avg'osidin istarsen farog',
Sokini mayxona bo'l, bir go'shada orom tut.

Bo'lmagil Farhod-u Majnundek jahon afsonasi,
Ishq aro, ey Komila, oyini nang-u nom tut.

* * *

Sayr etarda naxliston, yor qaddini yod et,
Men qachon dedim senga orzui shamshod et.

Hajr shehnasi oxir o'lturar asiringni,
Bir qiyo boqib, jono, bandi g'amdin ozod et.

Bo'ldi yor savdoyi, oshiq ersang, ey ko'nglum,
Naqdi jon muhayyo qil, yor xotirin shod et.

Ey ko'ngul, fig'oningdin tiyradur falak qasri,
Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et.

Qon to'karga moyildur qoshlaringni shamshiri,
Elni qatli om etsang, ko'zlaringni jallod et.

Gulshan ichra, ey bulbul, subhidam navo tortib,
Gul yuzini yod aylab, nola birla faryod et.

Nogah ul jahon shohi kelsa, ey ko'ngul, borg'il,
Shah inonini ushlab, hajr ilgidin dod et.

Dahr kishtzorida bir sharoru yuz xirman,
Kuydururg'a olamni barqi ishq bunyod et.

Hajr mojarosig'a, Komila, tahammul qil,
Beqaror ko'nglungni sabr birla mo'tod et.

* * *

Ey sabo, rozi dilimni bexabar yorimga ayt,
Dardlig' ko'nglumning ahvolini dildorimga ayt.

Hajr dardidin yurakda qoldi dog' ustida dog',
Sharh etib bu mojaroni lola ruxsorimg'a ayt.

Furqat ichra tushti savdoyi Zulayxo boshima,
Qimmati Yusuf baho topti xaridorimg'a ayt.

Lutf etib so'rsa meni holimni ul nomehribon,
O'ldi hijroningda deb yori vafodorimg'a ayt.

Sendin ayru talxkom etdi debon zahri firoq,
Yoshurin dardimni ul la'li shakarborimg'a ayt.

Yuz salom aydim, na bo'lg'ay bir yo'li ul ham desa,
Bul salomimni o'shal oshuftai zorimg'a ayt.

Komila, sensiz tiriklikdin na rohat ko'rdi deb,
Ul humoyun toleyu farxunda atvorimg'a ayt.

* * *

Kelgil, ey yor, vafo rasmini tut,
Sham'i ruxsor bila kulbamni yorut.

Yor la'li labidin ayrilding,
Ey ko'ngul, emdi damo-dam qon yut.

Ko'zlarim yig'ladi zulfungni ko'rub,
Ki yog'in boisidur tiyra bulut.

Qil faromo'sh bu olam g'amini,
Boda ich, may bila ko'ngulni ovut.

Kishiga himmati mardona kerak,
Yo'qki, oroyish ila rishu burut.

Xuni dil birla jigar porasidin,
Bodadur la'li mufarrih yoqut.

Komila, da'viyi ishqingni qilib,
Qavli bu mahkamada topti subut.

* * *

Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,
Jahondin kech, xayoli vasli yor et.

Muhabbatsiz kishi odam emastur,
Gar odamsen, muhabbat ixtiyor et.

Uzoru qaddu raftoringni ko'rsat,
Chaman sarv-u gulini sharmisor et.

Labi maxmuridurmen jomi may tut,
Karam qil, soqiyo, daf'i xumor et.

"Anal-Haq" mojarosin aylading fosh,
Kel, ey Mansur, istiqboli dor et.

Durri ashk-u aqiqi xuni dilni,
Kelur yoring ayog'iga nisor et.

Kuyib, ey Komila, olam eliga,
Muhabbat shevasini oshkor et!

* * *

Oshiq o'ldung, ey ko'ngul, emdi rahi mayxona tut,
Mast o'lub, soqiy ayog'ini o'pub, paymona tut,

Eyki dersan oshno, begonadin ko'rmay zarar,
Olam ahlidin o'zungni bir yo'li begona tut.

Husni ishq aylar sening xokistaringni to'tiyo,
Shamdin kuymakni kasb et, mazhabi parvona tut.

Gar tilar bo'lsang havodis shohbozidin amon,
Chug'z yanglig', ey ko'ngul, bir go'shai vayrona tut.

Donishu fahm-u xirad, sabr-u so'kunu aql-u hush,
Barchani parvonai sham'i ruxi jonona tut.

Bo'lma gir-u dorig'a mag'rur gar oqil esang,
Davlati dunyoni uyqu farz qil, afsona tut.

Aylagil obod tavfiqu adolat mulkini,
Komila, Mavlo yo'lida himmati mardona tut.

* * *

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shahu, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.

Maddi ohim shu'lasi husnung dabiristonida
Misrai barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

Sarvinozim, sendin ayru naxli ohim o‘ldi xam,
Qomating hajrida sindi shohi shamshodim, eshit.

Har nechakim sabr tamirini bunyod ayladim,
Ashk selobida vayron o‘ldi obodim, eshit.

Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig‘,
Necha kunlar bo‘ldi, hargiz qilmading yodim, eshit.

Kelki, bir soat seni ko‘rmak uchun mushtoqmen,
Telba bo‘ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.

Komila, bodi sabodin senga irsol etgoni,
Qildi insho bu g‘azalni, tab’i noshodim, eshit.

* * *

Mening jununima Majnunni bermangiz nisbat,
Qilurmu xor-u xashak tobi shu’layi g‘ayrat.

Chekarda jon menga taqlid qilmasun Farhod,
Firoq tog‘ida behuda chekmasun kulfat.

Menga barobar emas Ko‘hkan bila Majnun,
Alarda bir kam edi, lek menda yuz hasrat.

Jahonda bo‘ylakim bo‘lmishmen ishq oyinasi,
Menga ziyoda bo‘lur yor husnidin hayrat.

G‘amimni zarrasini tog‘larga arz etsam,
Tahammul aylamagay tog‘ kelturub toqat.

Bu dardi g‘amki ani notavon ko‘ngul ko‘tarur,
Muhabbat ahliga yuzdin biri erur ofat.

Famimni sharhini yuz mingidin birini dedim.
Falak ani ko‘tarurda xam ayladi qomat.

Bu g‘amni tog‘ ko‘tarmas edi va lek menga
Berib tahammulni qo‘ydi jonima minnat.

Sipehr martabai ishqni baland ko‘rub,
Dediki, Komilani himmatiga yuz rahmat.

* * *

Farhod agar ursa menga lofi muhabbat,
Bir oh ila aylarman ani dog‘i xijolat.

Harchandki bemori g‘ami ishq edi Majnun,
Dardimni ko‘rub tashladi angushti nadomat.

Farhodda bo‘lsaydi mening g‘ayrati ishqim,
Bir oh ila aylar edi ul tog‘ni g‘orat.

Majnunda agar bo‘lsa edi sabr-u tahammul,
Qilmasmi edi men kabi shahr ichra iqomat.

Gar bo‘lsa Zulayxoda mening zarracha ishqim,
Qolmas edi Yusufni firoqida salomat.

Ishq ofatig‘a tog‘ tahammul qila olmas,
Men-menki qilurman bu g‘am-u dardga toqat.

Dardu alam-u g‘ussaki hajrida chekarman,
Bu mehnat-u g‘am kimdadur, ey ahli muhabbat.

Yuzdin biri Majnunda agar bo‘lsa g‘amimni,
Bir oh bila olamga solur sho‘ri qiyomat.

Har holda, ey Komila, shukr ayla Xudog‘a,
Kim berdi senga ishq-u muhabbat bila davlat.

* * *

Ramazon oyida har kimda farovon hojat,
Elgadur sham', menga diydai giryon hojat.

Basdurur kavkabi ashkimni charog'i kechalar,
Menga g'am shomi emas, sham'i shabiston hojat.

Ro'za afkorida xuni jigarimdur koni,
Benavolarga emish ne'mati alvon hojat.

Shoh haqida duo olmoq uchun kulbamga,
Shom vaqtida bo'lur har kecha mehmon hojat.

Dog' aro ko'nglum etar mashqi xayoli rangin,
Bog'bon, menga emas sayri guliston hojat.

Har faqireki qilur xoki harimingda maqom,
Yo'q anga saltanati Qaysaru Xoqon hojat.

Ro'zada Komila boz ayla saxovat eshikin,
Bo'lsa Haq rahmatidin ravzai rizvon hojat.

* * *

Jon ko'rmadi ro'zadin halovat,
Iftorda yorsiz na lazzat?!

Yor aylasa yori birla iftor,
Yo'q ro'zada mundin o'zga davlat.

El barcha visol bazmida shod,
To subh chekib surudi ishrat.

Har shom manga navolai g'am,
Iftor qilurga bo'ldi qismat.

Mohi ramazonki, fayzi cho'xdur,
Men xastag'a yorsiz na rohat.

Har shom ko‘zimni yoshi sham’im,
Xuni jigarim ba joyi sharbat.

Hijron ila ro‘za javr etolmas,
Gar bor esa, Komila salomat.

* * *

Kel, dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.

Bedardlarning jafolaridin,
Faryod chekib, fig‘on etib ket.

Dunyo chamanini bulbulisen,
Gul shoxida oshyon etib ket.

Ey ashk, ko‘zimni maktabidin,
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Olam chamaniki bevafodur,
Bir oh bila xazon etib ket.

Ushshoq maqomi bo‘stondur.
Azmi rahi bo‘ston etib ket.

Maqsad na edi jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,
Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Kel, ishq yo‘lida ko‘zlaringni,
Ey Komila, durfishon etib ket.

* * *

Har kimda agar bor esa osori muhabbat,
Aylar anga mahbublar izhori muhabbat.

Mayxona ishq ichra xush ul rindki, tunlar
Bir jur'a uchun bor esa bedori muhabbat.

Xushdur kishi dunyo g'amini qilsa faromo'sh,
Lojur'a chekib sog'ari sarshori muhabbat.

Tut g'ayrdin, ey xasta, ko'ngul dog'ini pinhon,
Gar so'rsa birov aylag'il inkori muhabbat.

Rohat tilasang ishq binosini panoh et,
Osuda erur soyayi devori muhabbat.

Bolini uza bordi iyodatg'a Masiho,
Xurshid edi charxda bemori muhabbat.

Gar ta'nai ag'yordin, ey dil, hazar etsang,
Olam eliga bo'lmag'il iqrori muhabbat.

Tasbihi riyoyi bila mag'rur edi zohid,
Tavfiq topib, bog'ladi zunnori muhabbat.

Ey Komila, zuhd ahlini mayxonada ko'rsang,
Dam urmaki, fosh o'lmasun asrori muhabbat.

* * *

Soqiyo, maxmurdurmen jom tut,
Bir nafas tarki g'ami ayyom tut.

Domi g'amdin istasang ozodlig',
Sog'ari may subhdin to shom tut.

Boda no'sh et, qilma beoromlig',
Aysh vahshidur, zamone rom tut.

Ey pari paykar ko‘zumni manzari
Xush nishimandur dami orom tut.

Emdiki oshiq bo‘lubsen, ey ko‘ngul,
Vasl istab tarki nang-u nom tut.

Gar ko‘ngul saydi senga maqsud esa,
Halqa-halqa sunbulungni dom tut.

Vasl jomi to sening ilgingdadur,
O‘zni yo Jamshid, yo Bahrom tut.

Sof may gar no’sh etarsen durdini,
Bazli jomi rindi durd oshom tut.

Vasl aro kom istabon, ey Komila,
Emdi o‘zni necha kun nokom tut.

* * *

Gulbuni nazokatsen sayri bog‘u maydon et,
Jilva qilmoq, istarsen, ko‘zlarimda javlon et.

Gul chamanda sharm aylab g‘uncha munfail bo‘lsun,
Pardani ko‘tar yuzdin, lablaringni xandon et.

Ey ko‘ngul , agar senga yor vaslidur maqsad,
Tark aylab olamni azmi ko‘yi jonon et.

Gar bizoat istarsen tarki sudu savdo qil,
Husn eliga oshiq bo‘l, dardi dog‘u somon et.

Yor yodi bu oqshom ko‘nglum ichra mehmondur.
Ey ko‘zum, dame anda yosh to‘kub charog‘on et.

Ey nigor, hajringda mushkul o‘ldi jon bermak,
Ko‘rsatib jamolingni o‘lmakimni oson et.

Dog‘i ishq asrorini no‘qta-no‘qta sharh ettim,
Komila, ani elga fosh qilma, pinhon et.

* * *

Meni etg'il dardlig' ko'nglumdin, ey gardun, xalos,
Yo ko'ngulni qil meni besabr-u somondin xalos.

Qul o'sha qo'ldirki jonin hojaga qilsa nisor,
Bevafodur ulki istar bo'lsa sultondin xalos.

Bevafodur husndin to qilmadim qat'i nazar,
Bo'lmadim tashvishi ko'zu qoshu mijgondin xalos.

Oshiq o'ldim, g'am giribonimdin oldi Komila,
Ichmadim to bir og'iz may, bo'lmadim ondin xalos.

* * *

Dameki lablaridin zohir etsa yor hadis,
Ulusni xotirini aylagay shikor hadis.

Labing hadisini jon lavhina savod ettim,
Ko'zum qarosi kabi bo'ldi mushkbor hadis.

Guhar o'zini sadaf ichra ayladi pinhon,
Chu zohir ayladi ul la'li obdor hadis.

Biri labingni hadisidek obdor emas,
Ko'ngulni sahfasig'a yozmisham hazor hadis.

Kalom chog'ida har so'zni zohir etti labing,
Sadaf gavharlarini qildi sharmsor hadis.

Takallum etti muloqot la'li nobing ila,
Fasohat ahli aro topti e'tibor hadis.

Labingdin ayru tushib, Komila kitobat ila,
Qaro libos kiyib qoldi so'gvor hadis.

* * *

Har qachonkim desa ul la'li shakarbor hadis,
Talx o'lur to'tig'a guftor ila bisyor hadis.

Gungu lol o'lg'usidur bulbul-u to'ti nogah,
Ul shakarlab nafase aylasa izhor hadis.

Bildilar chunki jahon ahli hadisingni sahih,
Tong emas o'lsa ulus og'zida takror hadis.

Ishq asrorini izhor qilib fosh etma,
Kim bu yanglig' demish ul voqifi asror hadis.

Labidin so'rma hadisiki erur tilg'a garon,
Yor nozuk labig'a bermasun ozor hadis.

Belini borligin qildi kamarband ayon,
Og'zi yo'q erdi aning, qildi padidor hadis.

Sharh etib yozmoq uchun la'li labingni sifatin,
Komila, ayladi chun gavhari shahvor hadis.

* * *

Jonimga jafolar bila jonona qilur bahs,
Bir lahza ko'zumni yoshi to'fona qilur bahs.

Ul zulfi dilovezni ishkolini ochmay,
Behuda nadin til uzotib shona qilur bahs.

Zohid, mani devonag'a ko'rguzma taarruz,
Majnunga qachon oqil-u farzona qilur bahs.

Kuymak erur oshiq bila ma'shuq tariqi,
Bu mahfil aro sham' ila parvona qilur bahs.

Kamdur to'lun oy bo'lsa jamolingga barobar,
Xurshida qulog'ingdagi durdona qilur bahs.

Bu marhalada qolmadi xalq ichra tafovut,
Bu turfaki oqil ila devona qilur bahs.

Otashmidur, ey Komila, bu madrasa ahli,
Har nechakim taslim etaram yona qilur bahs.

* * *

Kuyma deb aylamadi hech kishi parvonaga bahs,
Oqil ersang na qilursan mani devonaga bahs.

Shisha sarshori mayi nob erur so'rma sabab,
Labidin nash'a topar, aylama paymonag'a bahs.

Sho'xluq birla Xo'tan dashtida Lochin kiyigi
Bo'ldi rasvo, qilib ul nargisi mastonag'a bahs.

Sari zulfi girihin ochmoq emastur oson,
Besabab aylama, mashshota, bukun shonaga bahs.

Sel sahroda qilur shavq ila javlon, lekin
Chug'zni dushmanidur aylasa vayronaga bahs.

Dardlig' qissai ishqimni eshitti Farhod,
Telba Majnundek ani qilsa bu afsonag'a bahs.

Aylading jahd ila ta'miri muhabbat obod,
Kim qilur, Komila bu himmati mardonag'a bahs.

* * *

Bevafodur bu jahon sud-u ziyon barcha abas,
Kim g'ami ayshi bahor ila xazon barcha abas.

Bo'lma andishai savdosi bila sargardon,
Yo'qu bori kamidin vahm-u gumon barcha abas.

Topmasa yor janobig‘a sharaf birla qabul,
Ohu faryoding ila sho‘ru fig‘on barcha abas.

Bo‘lmasa oshiqqa gar yor visoli maqsud,
Orzuyu havas-u jon-u jahon barcha abas.

Fuqaro holiga gar boqmasa har shoh, anga
Hashmatu saltanatu rif’atu shon barcha abas.

Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa,
Yo‘q esa qoidai amnu amon barcha abas.

Komila bo‘lmasa gar ishq o‘tin ta’siri,
Alami zohir ila dog‘i nihon barcha abas.

* * *

Ko‘ngulni dog‘larig‘a firoqdur bois,
Ki ashk donalarin xirman etti ul horis.

Jamoling avji malohatni mohi toboni,
Ikki yuzung qoshida oftobdur solis.

Qadimdurki aning ilkida zavol o‘lmas,
Fanoga noyil bo‘lur har na kim erur hodis.

Kishiki yor vafosig‘a yod qilsa qasam,
Firoq davriga sabr etsa bo‘lmagay xonis.

Jahon guzargohidur bu raboti nilufariy,
Ki bo‘lma g‘aflat ila anda Komila mokis.

* * *

Qilmagil zinhor izhor ehtiyoj,
Kim, aziz elni qilur xor ehtiyoj.

Hech kim olamda forig‘bol emas,
Har kim o‘z miqdoricha bor ehtiyoj.

Ganji husnungni zakotin ber menga,
Sen g‘aniysan, menda bisyor ehtiyoj.

Ko‘zlarim aylar yuzingni orzu,
Kim, erur kuzguya diydor ehtiyoj.

Mustamand etti meni muhtojlik,
Qildi hojatmanding, ey yor, ehtiyoj.

Gar tilarsen obro‘ ahbob aro,
Aylama zinhor izhor ehtiyoj.

Qil ravo, albatta, oshiq hojatin,
Boqmagil arz etsa ag‘yor ehtiyoj.

Bir tarahhum zohir etsang netgusi,
Qildi husnunga meni zor ehtiyoj.

Yor vaslini tilarman, Komila,
Ayladi ko‘nglumni afgor ehtiyoj.

* * *

Ketti hushum ul parivash jilva og‘oz aylagach,
O‘rtadi jon pardasin mutrib navo soz aylagach.

Tong emas qilsa yuzi mashshotani bedastu poy,
Ayladi oyinani suv, chehra pardoz aylagach.

Lablari to‘kti tabassum shahdidin obi hayot,
Ko‘zlari yuz fitna barpo ayladi noz aylagach.

Noz birla bog‘boni sun’ bu gulzor aro,
Sabzu xurram qildi sarvingni sarafroz aylagach.

Fursati umri kiromi o‘tganin rasvo ko‘ngul,
Bildi g‘aflat uyqusidin ko‘zlarin boz aylagach.

Sayd etar bir damda olam ahlini murg‘i dilin,
Qoshlarin shohin etib, ko‘zlarni shahboz aylagach.

Vomiqu Farhod-u Majnundin muqaddam bildi yor,
Komila ishqini oshiqlig‘da mumtoz aylagach.

* * *

Ko‘zlarim mushtoqdur diydor uchun ruxsora och,
Pardani yuzdin ko‘zim qilg‘uncha bir nazzora och.

Pardani nozu hayo xomush alindin ko‘tar,
Ikki gul bargini bir-birdin gahi guftora och.

Besutun tog‘ida ko‘p jon chekmagil, ey Ko‘hkan,
Ko‘kragimdin jo‘yi shir o‘rniga o‘tlug‘ yora och.

Ey ko‘ngul, dudi fig‘oningdin kavokib tiyradur,
Oh ko‘p chekma, hijobni sobiti sayyora och.

Shavq komil bo‘lsa maxlas ko‘chasi masdud emas,
Ey sharar, bir jazba birla rohi sangi xora och.

Muncha pinhon dog‘kim, ey jon, falak qo‘ydi sanga,
Yor agar kelsa, giriboningni aylab pora och.

Komila, ohi dil-u sho‘ri junun barpoy qil,
Ushbu lashkar birla olam mulkini yakbora och.

* * *

Tiyra dilman shona zulfungni parishon aylagach,
Subhi ayshim shomi kamdur chehra pinhon aylagach.

Soldi ishq ahlig‘a rustoxez hijron ofati,
Ohni sarsar qilib, ashkimni to‘fon aylagach.

Bargi gul kelturmadi ul husni anvoriga tob,
Qildi gullarni xazon sayri guliston aylagach.

La'lidin dardimga darmon aylar erdi vasl aro,
Chora qilmas mubtaloyi dardi hijron aylagach.

Benavoman dayr aro soqiyni istig'nosidin,
Jomni yig'latdi miyno bag'rini qon aylagach.

Chobukikim, g'amza tig'i birla ushshoq ahlini,
Qatliom aylar, ko'zi maydonda javlon aylagach.

Komila gar vasli davronin g'animat bilmadi,
O'rtanur emdi xayoli shohi davron aylagach.

* * *

Ey ko'ngul , yor uchun jahondin kech,
Havasi bog'-u bo'stondin kech.

Anga o'zluk bila yetib bo'lmas,
Istasang vasli yor jondin kech.

Olam ahlida chun vafo yo'qtur,
Bir yo'li yaxshi-yu yomondin kech.

Bo'lg'il anqoi Kofi istig'no,
Ey humo, mushti ustuxondin kech.

Bo'ldung ey jon, asiri shahri fano
Kim dedi mulki jovidondin kech?

Kech deding yor-u oshnolardin,
Menga lekin dema falondin kech.

Komila sho'ri ashki daryodur,
Ushbu daryoyi bekarondin kech.

* * *

Vasli yor istasang jahondin kech,
Harna maqduring o'lsa ondin kech.

Tilasang vasl, o't jahon g'amidin,
Na jahon, balki jism-u jondin kech.

Bir nazar qomati xiromig'a boq,
Muddati umri jovidondin kech.

Bordur olam binosi vahm-u gumon,
Ey ko'ngul, vahm ila gumondin kech.

Bo'lmagil yaxshi-yu yomonga taraf,
Bexud o'l, yaxshi-yu yomondin kech.

Ko'yi tufrog'ida nishiman qil,
Sayri gulzoru bo'stondin kech.

Yorkim yer tubida pinhondur,
Komila, mahi osmondin kech.

* * *

May ichsang, ey ko'ngul, eldin nihon ich,
Labi yodi bila may roygon ich.

Agar g'amdin xalos o'lmoq tilarsen,
Surohiydek sharob-i arg'uvon ich.

Ko'ngul, shodob eding vasli mayidin,
Labidin ayru tushding, emdi qon ich.

Kirib mayxonag'a g'amdin amon top,
Damo-dam jom tut, may har zamon ich.

Mayi nob el iyoriga mahakdur,
O'zungni aylamakka imtihon ich.

Budur mazmuni mavji bodayi nob,
Ki sahbo pirni aylar javon, ich.

Senga, ey Komila, jomi muhabbat,
Chu sundi soqiyi shirin zabon ich.

* * *

Bo'yla kim nutqi ravon baxshing erur pok-u malih,
Tilga kelturma adab birla iboroti qabih.

Ishq da'vosini bemorliq aylar isbot,
Ulki bemor emas, yo'q ani da'vosi sahih.

Nogahon ko'rsa xiromingni bo'lur sharmanda,
Bog'bon ayladi sarvini qadingdin tarjih.

Haq janobida topar martabai Ismoil,
Ishq tig'i birla har kimsa agar bo'lsa zabih.

Ravnaqi shom erur xol-u xating uzra savod.
Baski ruxsor-u banogo'shing erur subhi sabih.

To'tiyi nutqim erur gulshani guftor ichra,
So'zda shakkar shikanu nutq-u takallumda fasih.

Nuktayi ishqni har besar-u po fahm etmas,
Dema ag'yorga asrori muhabbatdin sarih.

Rishtayi hoyil eding dayr bila savmaada,
Kim barahman dedi zunnor ani, zohid tasbih.

Partavi mehring ila Komilani kuydurdung,
Kim emas ko'kda quyosh vajhi jamolingcha vazih.

* * *

Ey jamoling sabohat ichra sabih,
Husn eli zumrasida sabzu malih.

Bo‘lma mag‘rur muddaiy so‘zina,
Ani qavli saqimdurur, na sahih.

Men kabi lofi ishq urib zohid,
Elga rasvolig‘ini qildi sarih.

Lablaringdur Masihu Xizr xating,
Sendin istar hayot Xizr-u Masih.

Kufru islom eliga zulfungdin
Iqdi zunnoru halqai tasbih.

Tarki ishq et, dedi menga zohid,
Demadi hech telba muncha qabih.

Komila vozihi maoniyi shavq,
Anga taslim etar sharifu vazih.

* * *

Bo‘ldi ul xurshid tal’at hajridin g‘amnok subh,
Har sahar mendek giribonini aylar chok subh.

Chekti oh-u qatra-qatra to‘kdi anjum ashkini,
Dudi savdodin falak ruxsorin etti pok subh.

Kavkab ermas har sahar tobon falak maydonida,
Kim qilur bir oy g‘amidin diydasin namnok subh.

Bo‘ldi rasvo aylagach dog‘i nihonin oshkor,
Xalqdin asrori mehrin qilmadi imsok subh.

Har sahar ermas falak maydonida gard-u g‘ubor,
Ko‘rdi bu Majnun g‘amidin boshi uzra xok subh.

Kom topmay vasl shomi bir-biridin ikki yor,
Ko'rguzub mehrin jahon ravshan qilur bebok subh.

Komila olam nashoti g'ussasiga arzimas,
Qildi bemavqe' yoqosin chok beidrok subh.

* * *

Manga la'lingdin ayru komi jon talx,
Erur andin sharobi arg'uvon talx.

Erur gul mavsumi bulbul nashoti,
Bo'lur ayshi aning fasli xazon talx.

Jahondin ketdi ul shohi jahonim,
Manga bo'ldi firoqida jahon talx.

Sevarman yorni, yo'qkim raqibim,
Nechukkim yaxshidur shirin, yamon talx.

Firoqing zahridek qotil emastur,
Halohil birla qildim imtihon talx.

Farah ko'z tutma hijron sharbatidin,
Erur zahri halohil begumon talx.

Manga yo'qtur halovat sendin ayru,
Ki bo'lmish ro'zgorim onchunon talx.

Agar tomsa ko'zumdin qatrai yosh,
Bo'lur daryodagi obi ravon talx.

Manga, ey Komila, la'lidin ayru,
Agar shakar yesam bo'lgay dahon talx.

* * *

Ul pari paykar hajridin jahonim bo'ldi talx,
Sharbati la'lidin ayru komi jonim bo'ldi talx.

Voykim, jomi visolidin farah topti raqib,
Ishratim, ey soqiy, shirin zabonim bo'ldi talx.

Komi jon vaslingda shirin erdi, men masti g'urur,
Emdi hijroningda, ey nomehribonim, bo'ldi talx.

Ne halovat ko'rgamen hajringda bu mayxonadin,
Nash'a zahr o'ldi, sharobi arg'uvonim bo'ldi talx.

Sebi g'abg'ab birla unnobi labing hijronida,
Mevai alvoni bog'u bo'stonim bo'ldi talx.

Sharbati la'lingdin ayru topmadim jon lazzatin,
Komima ishrat mayi, ey dilsitonim, bo'ldi talx.

Vasl davronida aysh-u ishratim jovid edi,
Komila hijronda ayshi jovidonim bo'ldi talx.

* * *

Firoqing otashidin oh-u ovax,
Ki toqat aylamas bu o'tqa do'zax.

Yurak zaxmida paydo bo'ldi yo'l-yo'l,
O'qung paykoni go'yo erdi rax-rax.

Shah aylar masnadi noz uzra orom,
Meni devonaga bas xoki go'lax.

Jahon, ey Komila, el maqtalidur,
Emastur joyi osoyish bu maslax.

* * *

Agar bo‘lsa kishini yori farrux,
Muborakdur yuzi, diydori farrux.

Qani ul yordek shirin shamoyil,
Labi shahd-u shakar, guftori farrux.

Mening yorim parilar shohi erdi,
Jamoli dilkash-u atvori farrux.

Niholi qomati sarvi xiromon,
Yuzi gul, la’li shakarbori farrux.

Erur mayxona fayzi maymanatlig‘,
Labo-lab sog‘ari sarshori farrux.

Menga zohid yuzidur nomuborak,
Va lekin jubbau dastori farrux.

Bo‘lubdur Komila mumtozi ma’ni,
Kalomi ravshanu ash’ori farrux.

* * *

Riyou hirsu tama’ savtidur taronayi shayx,
Eshitmakim, hama afsun erur fasonayi shayx.

Sanamlar ishqina toqat qilolmayin nochor.
Yoshundi savmaag‘a zuhd o‘lub bahonayi shayx.

Riyou zarq tariqida tashnakom o‘lur,
Sarobi bahri xayoloti begaronayi shayx.

Xomush etarman ani bir sharora oh bila,
Agarchi tez erur o‘t kabi zabonayi shayx.

Ko‘ngullar o‘ldi sovuq sayhasidin afsurda,
Erur chu bodi xazon ohi oshiqonayi shayx.

Berur g‘urur ila oroyishi fashu dastor,
Ki xudnamolig‘ erur zebi korxonai shayx.

Topilsa, Komila, bir shayxi orifi komil,
Boshim havosin etay nazri ostonai shayx.

* * *

Yor kerak oshiqa, menda sevar yor yo‘x,
Dard-u g‘amim beadad, so‘rgali g‘amxor yo‘x.

To abad obod ula shahri fano ko‘chasi,
Jannat erur oshiqa andaki ozor yo‘x.

Bo‘ldi xayoling bila ko‘nglum uyi dilkusho,
Kelki, bu vayronada soyai devor yo‘x.

Mahfili ayyom aro moyai aysh-u nishot,
Barcha muhayyo menga, hayfki dildor yo‘x.

G‘uncha-u gul teng emas la’ling ila og‘zinga,
Gulda shakar xanda-u g‘unchada guftor yo‘x.

O‘tsa xirom aylabon jilva bila chobukum,
Yetmas aning qaddig‘a sarvda raftor yo‘x.

Elga ne tong aylasa oh-u fig‘onim asar,
Menga bukun, Komila, yordin osor yo‘x.

* * *

Bog‘ sayr et, karami dovara box,
Gulni boshidagi toji zara box.

Xudi zarrin menga ohim sharori,
Sham’ farqi sarida mig‘fara box.

Qon to‘kar g‘amzasi, mijgonlari ham,
Ko‘zi qatlimga chekan xanjara box.

Hajr tig‘i bila bag‘rim yuz chok,
Ani har chokida yuz ming yara box.

Sham’ yanglig‘ kiya bo‘rki zarrin,
Dudi ohimdin inar qarqara, box.

Vahshat aylarmu kiyik Majnundin,
Menga ey ko‘zlari oh-u qara, box.

Komila, dahr elini sarxush bil,
Soqiyi davr alida sog‘ara box.

* * *

Inonma lofi muhabbatdin elga ursa zanax,
Ki bordur ishq ila zohid arosi yuz farsax.

Falak ajuzasidur turfa sho‘xi g‘addora,
Ki necha shayxdin oldi ko‘ngulni ayladi shax.

Harir pirohaning rishtasig‘a ne nuqson,
Yaramni tikkani andin inoyat et bir nax.

Nechuk tahammul etar musht paykari xokiy,
Ki toqat etmadi hijron azobiga do‘zax.

Haris me’dasi to‘lmas jahon xiroji bila,
Nakim yo‘luqti anga qildi doxili matbax.

Bu barcha ajz ila isboti notavonlig‘dur,
Ki mo‘r qildi So‘laymonga tuhfa poi malax.

Vubol, Komila, yor olida raqib yuzi,
Nechukki yuz uza no‘qsoni husn erur ozax.

* * *

Tushti ohimdin bu oxshom charx maydonig‘a dud,
Kim asar qildi falakni mehri tobonig‘a dud.

Bahri ashkimdin rutubat ketti to tahtas-saro,
Yetti ohimdin falak toqi namoyonig‘a dud.

Kecha ul gesu tamannosida chektim ohlar,
Tong emas andin tutashsa charx ayvonig‘a dud.

Sham’i ruxsorini atrofida pechutob urar,
Turfa o‘xshar yorning zulfi parishonig‘a dud.

Shamdek o‘rtab tanimni, ehtiyot et dudini,
Kim keraklikdur savodi xatti rayhonig‘a dud.

Yor ushshoqina sham’i jilva ravshan qilmasun,
Kim tushar andin raqibi ro‘ siyah jonig‘a dud.

Kuydi bag‘rim “oh” misraini insho aylagach,
Tushti andin Komila avroqi devonig‘a dud.

* * *

O‘tti ko‘ksumdin o‘qing, sarvi ravondin berdi yod,
Zaxmlarkim qoldi andin gulsitondin berdi yod.

Mehnat-i hijron aro nokomlig‘ chekkanlara,
Vasl aro o‘lmak hayoti jovidondin berdi yod.

Ogah etti elni ashkim sobit-u sayyorasi,
Dudi ohimdur falakda Kahkashondin berdi yod.

Aylagach barbod ayshim hosilin hijron yeli,
Oshnolarga sorig‘ rangim samondin berdi yod.

Voqif o‘ldim dahr bog‘ini guli ra’nosidin,
Kim bahori rang kelturgach xazondin berdi yod.

Yoridin ayrildi deb har kun manga davri falak,
Ko‘rguzub mehrini, ul nomehribondin berdi yod.

Komila qilg‘och muhabbat nash’asidin guftugo‘,
Lazzati she’ri Umar sohibqirondin berdi yod.

* * *

Ul sarvki bordur ani mavzun qadi ozod,
Mashshota uchun shona chekar zulfiga shamshod.

Mardumliq ila ayladi ul oy meni rasvo,
Nayrang ila xud telba qilur elni parizod.

Qoshi qilichi birla qilur qatl damo-dam, to
Ushshoqlarin ikki ko‘zi bo‘lvali jallod.

Ul g‘amza sanga javr-u jafo ilmin o‘qutti,
Afsuski, ta’limi vafo bermadi ustod.

Sen tarki vafo qildingu badmehrlig‘ etding,
Yoringni faromo‘sh qilib, aylamading yod.

Ohim sharari qilmadi ko‘nglini muloyim,
Harchand muloyim bo‘lur o‘t tobida fo‘lod.

Barpoy tutib qoidai mehr-u muhabbat,
Tark aylamading, Komila, davlat uyi obod.

* * *

Chun mendin uzdi mehrini ul yori mo‘tamad,
Begona bo‘ldi bir-biridin jon ila jasad.

Bo‘lsam firoq lashkaridin munhazim, ne tong,
Sabr-u sabot cherikidin yetmadi madad.

Men notavon-u xastani ul oy jamolidin
Mahrum qildi toleyi bargashta, baxti bad.

Yo‘q og‘zini so‘rog‘ida, ey jon, nishon tilab,
Tushtung adam tarikina gumdur senga balad.

Har kimki topsa ishq adabgohida qabul,
Qilmas ani takallumini hech kimsa rad.

Dardi firoq shiddatini bildi Komila,
Do‘zax azobidin g‘ami hijron ekan ashad.

* * *

Shukri bori kim ishim bo‘lmadi rad,
Ishq burhoni menga erdi sanad.

Kufru islom eliga sen ma’bud,
Ka’ba-u dayrdur ikki ma’bad.

G‘am hujum etsa rahi maykada tut,
Rindlar himmatidin ista madad.

Dayr piri qadah-u miynodin,
Fitna ya’juji uchun bog‘ladi sad.

Ishq darsini na bilsun zohid,
Emdi og‘oz qilibdur abjad.

Bog‘ sayrina xiromon o‘tti,
Sarv raftor-u buti mavzun qad.

Ayladi Komilaga arzi visol,
Yo‘qsa masdud edi rohi maqsad.

* * *

Jahonda ismi mahmudingdur Ahmad,
Erur vasfing Abulqosim Muhammad.

Zuhur etgach jamoling oftobi,
Munavvar bo'ldi bu togi zabarjad.

Tufaylidur vujudi ofarinish,
Erur maqsud aning zoti muabbad.

Qamar aqrabda ko'rguzdi nishona,
Yuzi davrida gesuyi mujaad.

Erursen xotam-i xatmi nubuvvat,
Jamoling oftobi avji sarmad.

Agarchandeki zohid zufunundur,
Erur ishq ichra go'yo tifli abjad.

Topolmay Komila ul shah janobin,
Junun zanjiriga bo'ldi muqayyad.

* * *

Furqat ichra qon yutub g'am birla chektim ohi sard,
Kim xazon avroqidek bo'ldi yuzum hajrida zard.

Yo'lida boshimni farshi rahguzori ayladim,
Bok emas jon-u tanim bo'lsa ayog' ostida gard.

Ko'rdi dardimni tabibu tishladi barmog'ini,
Aydikim: "Yo'qtur davosi, ishq dardidur bu dard".

Tolibi dunyo, giriftori kamandi hirs ula,
Poybast o'lmas taalluq domiga ozoda mard.

Bo'lma g'ofilkim senga qasd etti hijron lashkari,
Ey ko'ngul, tortib sinoni ohni qilgil nabard.

Notavon jismimda har yondin namoyon dog‘lar,
Kim bisoti ishq aro bu ustixondur ka’bi nard.

Gulshani vasli so‘rog‘ini topolmay Komila,
Bo‘ldi bu sargashta hijron dashtida vodiy navard.

* * *

Chun etar dard-u balo xaylimga hijrondin madad,
Ohkim yetmas hazin jonimga jonondin madad.

Bazli ishq ettim bo g‘ayr la’li jigar yoqutini,
Bo‘lmadi nayson chashmi gavharafshondin madad.

Har ko‘ngul g‘am tig‘idin majruh bo‘lmay qolmadi,
Tobqali ul g‘amzayi xunrez mijgondin madad.

Tez o‘lur ag‘yor ta’nidin jununim otashi,
O‘t tutoshkondek topib xori biyobondin madad.

Partavi ehson baroqmish zarralarga oftob,
Koshki yetsa bu ojiz qulg‘a sultondin madad.

Tong emas qilsa jafo iqlimini zer-u zabar,
Kim yetar din lashkari ul hazrati xondin madad.

Yetkurur imdod qullarga damo-dam Komila,
Zarraga yetgan kabi mehri duraxshondin madad.

* * *

Bording nazarimdin, ey parizod,
Men qulni dubora qilmading yod.

Hajr ichra firoq shiddatidin,
Yuz nola-u sad hazor faryod.

Qonlig‘ ko‘ngul ichra maddi ohim,
Andog‘ki, chamanda sarvi ozod.

Mijgon ila nargisingdin, ey sho‘x,
Kasb ayladi qon to‘karni jallod.

Men oh ila tog‘ni suv qildim,
Kund ayladi teshasini Farhod.

Faryodki, hajr tundbodi,
Ayshim chamanini berdi barbod.

Din Komiladin kamol topdi,
Iqbol rafiqu mulk obod.

* * *

Ajalni dastidin yuz dod-u faryod,
Ki umrum hosilini berdi barbod.

Muzayyan qilma tarhi istiqomat,
Jahoni bebaqodur sust bunyod.

Ko‘ngul qasri muhabbat dog‘i birla,
Muabbad to abad ma’mur-u obod.

Jahon makkora zoli bevafodur,
Vafo birla ko‘ngulni qilmadi shod.

Qani Farhod ila Majnun nishoni,
Qani Shirin-u Layli, aylag‘il yod.

Aloyiq barcha zanjiri ajaldur,
Qo‘yar andog‘ki domi hiyla sayyod.

Ko‘ngullar Komila ash’oridin xush,
Dedi Nohid o‘qub yuz ofarin bod.

* * *

Jahon bog‘ida, ey huri parizod.
Xijildur qomatingdin sarv-u shamshod.

Tag‘oful birla qon to‘kmak fanida,
Ko‘zing shogirdi sho‘x-u g‘amza ustod.

Xiromon kelgil, ey sarvi ravonim,
Kading naxlin bisyor ayladim yod.

Meni ul oy visolidin ayirding,
Alingdin, ey falak, yuz dod-u faryod.

Menga hajr ichra, ey gardun, jafo qil,
Ki bo‘ldim dard-u g‘am chekmakka mo‘tod.

Riyozat birla ko‘ngulga safo ber,
Bo‘lur oyina sayqal birla fo‘lod.

Tilar nolon ko‘ngul tandin farog‘at,
Bu bulbulni qafasdin ayla ozod.

Gar ersa Ka’ba ta’miri muroding,
Ko‘ngul vayronasini qilgil obod.

Falak, javri birla ul oy firoqi,
Menga, ey Komila bas muncha bedod.

* * *

Harchand erur ahli jahon joniga xursand,
Bordurm-u meningdek labi jononig‘a xursand.

Qumri ani qaddini ko‘rub munfail o‘ldi,
Harchand erur sarvi xiromonig‘a xursand.

To ko‘rdi aning mohi jamolini muayyan,
Xurshid emas chehrai toboniga xursand.

Ko‘nglumdagi ul sham’i shabiston havasidin,
Har lahza erur otashi pinhoniga xursand.

Xattini ko‘rub g‘unchasifat tangdil o‘lg‘ay,
Gulshanki erur sabzayi rayhonig‘a xursand.

Azbaski ko‘ngul yor g‘amidin tarab etmish,
Hijron tunidur nolai afg‘onig‘a xursand.

Majnunlig‘ erur hush libosin havas etmaz,
To Komiladur choki giriboniga xursand.

* * *

Agarchi nomai yor erur arg‘uvon kog‘az,
Yuzumga qarshu tushub bo‘ldi za’faron kog‘az.

Ko‘ngulni dardini ko‘k toqina raqam qildim.
Nechukki ohi qalam erdi osmon kog‘az.

Yuzung firoqini ko‘z yoshi birla sharh ettim,
Ajab emastur agar bo‘lsa guliston kog‘az.

Savod etarda g‘amim sharhini qalam kuydi,
Ki bo‘ldi ohim o‘tidin shararfishon kog‘az.

Tamom bo‘lmadi hijron fasonasi hargiz,
Agarchi bo‘ldi muharrir jahon-jahon kog‘az.

Chu ishq sirrini men aylayolmadim maxfiy,
Varaq yuzida nechuk aylasun nihon kog‘az.

Karam tariqida ul nomai inoyat erur,
Yuborsa o‘z quliga shohi nuktadon kog‘az.

Zi mashqi navxati man qit’ai biyor, ey yor,
Ba zaxmi dil biniham marhami az-on kog‘az.

Zi nomai Komila asrori dil buvad ravshan,
Ki shud miyoni manu do‘st tarjimon kog‘az.

* * *

Nash'ai sahbo dugul jomi visolingdek laziz,
Sharbati kavsar emas shirin zilolingdek laziz.

Qasri Firdavs ichra huro ilkida jomi tahur,
Barchasi ermas tamoshoi jamolingdek laziz.

Yetmadi to'ti senga taqlidi guftor aylayub,
Kim emastur so'zlari shirin maqolingdek laziz.

Sharbati obi hayot-u bodayi Kavsar emas,
Xandai la'li labi gulfomi olingdek laziz.

Menki ul sho'xi shakarlab hajrida ranjurman,
Zahri g'amdur menga, ey zanbur, bolingdek laziz.

Gul emas rangin jamoling bo'ston afro'zidek,
Donayi rayhon emas yuz uzra xolingdek laziz.

Yodi la'li mayparasti yor etarsen, Komila,
Nash'ai sahbo emas rangin xayolingdek laziz.

* * *

La'ling halovati birla jon topti iltizoz,
Qilding xirom, ruhi ravon topti iltizoz.

Ko'rmay yuzungni olam eli talxkom edi,
Ochting niqob ahli jahon topti iltizoz.

Og'zing hadisi qildi ko'ngullarni shodkom,
Ushshoqing oshkor-u nihon topti iltizoz.

Ey navjuvon, saodat ila pir bo'lg'osen,
Kim davlatingda piru javon topti iltizoz.

Yodingni ayladi ko'ngul topti inbisot,
Zikringni qildi komu zabon topti iltizoz.

Xomushluq halovati bisyordur bale,
So‘z qat’in etti tig‘-u zabon topti iltizoz.

Zulm aylarig‘a shod erur ul sho‘x, Komila,
Qildi ko‘zumni yoshini qon, topti iltizoz.

* * *

Ey takallum birla guftoring laziz,
Sharbati la’li shakarboring laziz.

Topti la’lingdin farah maxmurlar,
Sog‘ari labrezi sarshoring laziz.

Na balo, shirin shamoyil yorsen,
Tal’ating shirin-u diydoring laziz.

Zulm-u javringni menga qilkim, erur
Notavon jonimg‘a ozoring laziz.

Qilma, ey devona, unnob orzu,
Bordur andin la’li dildoring laziz.

Jonima yoding halovat yetko‘rur.
Ey xayoli mohi ruxsoring laziz.

Komila ul lali-lab vasfin deding,
Bo‘ldi sar to poy ash’oring laziz.

* * *

Xating savodi bila bo‘ldi bahravar kog‘az,
Ajab emastur egar bo‘lsa mo‘tabar kog‘az.

Yuzungni vasfini yozdim quyosh safhasiga,
Bu vajhdin o‘la manzuri har nazar kog‘az.

Borurda yor janobiga nomayi shavqim,
Payom qushlarig'a bo'ldi bol-u par kog'az.

Firoqnoma raqam ayladi so'rog'ingda,
Ki aldin-alga tushub bo'ldi darbadar kog'az.

Xating savodi quyosh lavhina munosibdur,
Ki loyiq ermas ani sabt etarg'a har kog'az.

Ko'ngulga hirzi amon erdi garchi nomai yor,
Vale firoq o'tiga bo'lmadi samar kog'az.

G'amimni, Komila, har kim eshitti, o'rtandi,
Tahammul aylamadi dardima magar kog'az.

* * *

Sharbati la'li labing qandi muqarrardek laziz,
Lablaring birla kaloming shahd-u shakkardek laziz.

Jon berurlar la'li nobing shavqida Xizr-u Masih,
Kim erur labtashnalar komiga kavsardek laziz.

Halqayi zulfung banogo'shingda ko'nglum domidur,
Donayi xoling yuz uzra mushki anbardek laziz.

Faqr eli sultonim, mehnat diyoridur yorim,
Gardi rohing boshim uzra toji afsardek laziz.

Masnading gar o'lsa tufrog'-u libosing eski shol,
Bu tajammuldur senga Xoqon-u Qaysardek laziz.

Shahdi nob-u sharbati unnob ila nuqli shakar,
Bo'lmamish maxmurlar komig'a sog'ardek laziz.

Komila vaslin tilab qildim bu olamdin guzar,
Davlati dunyo emas diydori dilbardek laziz.

* * *

Ey ko‘ngul, ishq ichra g‘ofil bo‘lma, yor aldin ketar,
Yorsiz aysh-u nashoti ro‘zgor aldin ketar.

Muddao osoyishi jon o‘lsa zinhor, ey ko‘ngul,
Ixtiyor etma muhabbat, ixtiyor aldin ketar.

Boda ich, ishrat surudi birla sozu aysh qil,
Ko‘z ochib yumg‘uncha ayyomi bahor aldin ketar.

Bevafolar mehrini tark ayla, ey shaydo ko‘ngul,
Yo‘qsa bu yo‘lda alingda harna vor aldin ketar.

Ishq to pinhon erur ilgingdadur naqdi visol,
Bu guharni elga qilsang oshkor aldin ketar.

Husn bog‘i olmasidur g‘abg‘abing, la’ling anor,
Olma sari mayl agar qilsang, anor aldin ketar.

Nargising bo‘lsa humori sayd etar ushshoqni,
Qilma masti jom istig‘no xummor aldin ketar.

Mo‘g‘tanamdur davlati diydor agar shukr etmasang,
Komila, domoni vasli shahriyor aldin ketar.

* * *

Ulki har soat ipakdin bandi pirohan to‘kar,
Shavqdin nabzi xayolim rishtai shevan to‘kar.

Gul yuzidur bog‘ aro g‘am kohidin nilufari,
Nordin ochilsa avval g‘unchai savsan to‘kar.

Ey pari, bu telba Majnuning ajab devonadur,
Gah yoqosin chok-chok aylar, gahi doman to‘kar.

G‘am siyohi tiri boronidin aylab e’tiroz,
Qulzumi ashkim suv uzra mavjdin javshan to‘kar.

Novaki ohimga bo‘lg‘aymu nishon deb charx uzra,
Barqi zarrin rishtasin anjum kabi ravshan to‘kar.

Kirsa ul sarvi ravon gulgun kiyib maydon aro,
Tugmalar gul g‘unchasidin jaybig‘a gulshan to‘kar.

Ulki olam xalqig‘a osoyish istar Komila,
Rishtayi mehrin ko‘ngulga do‘st to dushman to‘kar.

* * *

Yorki la’li nobidin tugmai pirahan to‘kar,
Ko‘z yoshim ishtiyoqidin mavjvar-u Adan to‘kar.

Chiqsa nashot bazmidin masti sharob noz o‘lub,
Go‘shan ro‘ymoliga nuqli shakar shikan to‘kar.

Chohi zaqan amiqdur obihayot lab-balab,
Yor bu chashma labiga sunbulidin rasan to‘kar.

Uqdai tori sunbuli soldi ko‘ngulga yuz tugun,
Uzdi visol rishtasin, emdi ani mihan to‘kar.

Sarv qadi xirom etib kirsa nashot bazmig‘a,
Egri kiyib kulohini g‘uncha terib, chaman to‘kar.

Maykadai visol aro mavji sharob rishtasin,
Jon qushini ayog‘ina soqiyi siymtan to‘kar.

Fikr-u xayol bazmida gavhar-u mavj demakim,
Ko‘z yoshi birla Komila silsilai suxan to‘kar.

* * *

Voykim, o‘z yoridin qat’i muhabbat qildi yor,
Bir yo‘li tarki vafo birla muruvvat qildi yor.

Benavolarni visoli bazmidin mahrum etib,
Do‘stlarni mubtaloyi dog‘i furqat qildi yor.

Chun pariy yanglig‘ nazardin bo‘ldi pinhon bilmadim,
Qaysi manzilda havoi istiqomat qildi yor.

Aylasam devonalik manzur tutkim, ey rafiq,
Aql-u xush-u sabr-u oromimni g‘orat qildi yor.

Bir yo‘li mehr-u vafo rasmin faromo‘sh ayladi,
Ishq eliga javr-u zulm etmakin odat qildi yor.

Tushda yorimni ko‘rub aydim: beri kel, aylanay,
Qoshi birla, sen beri kel, deb ishorat qildi yor.

Olam ahlidin mukaddar erdi yorim Komila,
Barchadin forig‘ bo‘lub rafi kudurat qildi yor.

* * *

Yor kamand zulfini qatlima ajdaho qilur,
Jonima jodu ko‘zlari fitnalarin balo qilur.

Zulfu xating firoqig‘a bo‘lgali mubtalo ko‘ngul,
Har kecha dudi ohdin charx yuzin qaro qilur.

G‘am yema, sayr qil ko‘ngul, bir kun o‘shal Masihdam,
Hajr-u firoq dardiga vasli bila davo qilur.

Sahv ila yor nargisin, dema Xo‘tan g‘izolidur,
Kimki sham’im zulfini mushk desa xato qilur.

Shira yo‘q ko‘ngul qushi avji sharaf humosidur,
Har kecha yuz nashot ila ko‘ying uza havo qilur.

Vah na Masihdur labi lutf ila elni tirguzur,
Bir ko‘zi birla yuz ko‘ngul hojatini ravo qilur.

Ul buti sho‘xi sangdil, yo‘qtur aning muruvvati,
G‘ayrga ko‘rsatib vafo, oshiqiga jafo qilur.

Rishtai jon tanobidur itlari bo‘ynida rasan,
Raxshi ayog‘ig‘a bag‘ir qoni bila xino qilur.

Yoriga mag‘firat tilab Komila shom to subh,
Sidq ila Haq janobig‘a qo‘l ko‘tarib duo qilur.

* * *

Qilma g‘urur, ey ko‘ngul, kimga jahon vafo qilur,
Kimniki sayd ayladi, g‘ussa bila fano qilur.

Mehr-u muhabbat ahliga charx muruvvat aylamas,
Javr ila ikki yorni bir-biridin judo qilur.

Bodai lolarang ichib, chehrasin arg‘uvon etib,
Oshiqi mustamandini rangini kahrabo qilur.

Gulshani vaslin orzu qilsa ko‘ngulni bulbuli,
Yor yuzini yod etib, nola chekib navo qilur.

Zoli falakni, ey ko‘ngul, makridin aylag‘il hazar,
Yo‘qsa seni firib ila domig‘a mubtalo qilur.

Emli Xudo rizosini Komila ixtiyor etib,
Elga adolat aylabon, tavbai rabbano qilur.

* * *

Ey toji saring mahi munavvar,
Xoki qadaming sipehri afsar.

Ey shakli shamoyiling dilafro‘z,
Hayron senga oftobi anvar.

Iqbol-u chokaring erurlar,
Doro bila Rustam-u Skandar.

Sendursen o‘shal shahi mukarram
Bechoranavoz-u bandaparvar.

Bo‘lsun bu jahonda jovidoni,
Bu davlatu johu qasr-u manzar.

Ey Komila, mahvi himmatingdur,
Sheruyav-u Kayqubod-u Sanjar.

* * *

O‘tti nashot fursati, kelmadi yordin xabar,
Bo‘ldi ko‘ngul so‘rog‘ida xasta-u zor-u darbadar.

Sarv chamanda bosh chekib gullar ochilsa tong emas,
Vah, necha sarvi gulbadan qildi bu bog‘din safar.

Ulki zamona bazmida ayladi sarbaland o‘zin,
Boshdin oyog‘i shamdek o‘rtadi qissa muxtasar.

Vasl bahori gul ochar mehr-u vafo riyozida,
Hajrida lola bargidek dog‘ ila qon o‘lub jigar.

Dashti junun nasimidek telba ko‘ngul xayol ila,
Topmadi sarbasar yurub yor so‘rog‘idin asar.

Dardi dilingni, ey ko‘ngul , so‘rg‘oli kelsa yor iti,
Qo‘y jigaringni olig‘a, xayri taomi mohazar.

Garchi firoq dardidin bo‘yla nizor ulmisham,
Komila holi zorima solmadi yor bir nazar.

* * *

Shohiki xizmatig‘a amiri zamon kelur,
Sheri jahon javobig‘a fili domon kelur.

O‘ltursa saltanat bila tamkin saririda,
Ta’zimi ostonasiga osmon kelur.

Joridur oni hukmi xosu avom aro,
Karam qilsa sarv chamandin ravon kelur.

Sayri chaman qilurda xayol etsa soyabon,
Nayson sahobi boshig'a guharfishon kelur.

Har kun aning adolatidin olg'oli saboq,
Mulki Adamdin olig'a No'shiravon kelur.

Karam qilsa lashkaridin bir qabilag'a,
Xoqon xazinasini olib roygon kelur.

Shukri Xudoki bo'ldi salotin saromadi,
Qaysar janobidin anga zarrin nishon kelur.

Badxohlar na qilgay anga e'tiroz etib,
Shamshiri xon barahna muxolif qayon kelur?!

Besh farz vaqti Komila xon ehtisobidin,
Har go'shadin qulog'a sadoyi azon kelur.

* * *

Garchi tag'ofil aylabon yor yuzin nihon etar,
Nozi ko'ngulni kuydurub, g'amzasi qasdi jon etar.

Gar yuzum o'ldi za'faron, so'rma sabab nadur debon,
Ohi samumi ofiyat gulshanini xazon etar.

Abri bahordek ko'zum gul yuzung ishtiyoqidin,
Dam-badam ashki olini yuz sariga ravon etar.

Eyki muhabbat ahli, siz shukr qiling visoliga,
Hajr yomon azobdur, dog'i yurakni qon etar.

G'ayra visol bazmida hamnafas o'lsa ul pariy,
Oshiqi xastadil aning hasratidin fig'on etar.

G‘am senga zo‘r aylasa may ichibon nishot qil,
Daf’i g‘am-u malolni bodayi arg‘uvon etar.

Komila, bodano‘sh qil, mast bo‘lub faromo‘sh qil,
Piri mug‘on muridini may bila imtihon etar.

* * *

Oshiqing o‘ldi g‘am-u dard ila yorim, kelako‘r,
Bog‘u ayshimga xazon yetti bahorim, kelako‘r.

Tobakay hajringga toqat qilib, orom tutay,
Qolmadi emdi mani sabr-u qarorim, kelako‘r.

Ayog‘ing tufrog‘ina bosh qo‘yubon har soat,
O‘rgo‘lay sendin ayo shahsuvorim, kelako‘r.

Kecha vaslingni ko‘ray, kunduzi diydoringni,
Sen erursen havasi layl-u nahorim, kelako‘r.

Mehr-u diydoring uchun ko‘z nigoron, jon mushtoq,
Zinhor, ey sanami lola uzorim, kelako‘r.

Jon-u dil, hush-u xirad barcha sening qurboning,
Xoki poyingga fidodur yo‘q-u borim kelako‘r.

Hajru g‘am xonasida dard-u firoqingni chekib,
Sensizin holim xarob o‘ldi nigorim, kelako‘r.

Komila yod qilur gulshani vaslingni mudom,
Rahm etib, hol so‘rub, zulmshiorim, kelako‘r.

* * *

Ey karomat qasridin ochqon jahona boblar,
Panjai husnung ko‘ngul mohisig‘a qulloblar.

Topmasam ta’siri zohid zuhdlar sarmosidin,
Menki gulxanlar kulidin kiymisham sinjoblar.

Baski oshubi junundin ko‘rdi ranj-u iztirob
Jon-u ko‘ngul ko‘z yoshi yanglig‘ erur simoblar.

Mavj urdi chun muborak jismiga betoblik,
Bora-bora bo‘ldi ko‘zlar yoshidin girdoblar.

Chun qizordi tab, mayi ul orazi gulfomdek,
Qatra-qatra suv bo‘lub to‘kti ko‘ngul xunoblar.

Chun tanig‘a qo‘ydi tab betoblig‘ davron aro,
Rishtayi jonimg‘a tushti ushbu tabdin toblar.

Baski ermasman dami forig‘ xayoli xaylidin,
Aylaram andishalar sultoniga odoblar.

G‘uncha korig‘a garav qo‘ymas emish bodi bahor,
Bog‘lag‘on ishlarg‘a lutfung etti fath alboblar.

Baski, ermas har kishi ko‘z javhariga qadrdon,
Komila so‘zdin ayon aylar durri seroblar.

* * *

Ko‘zlarim har chand aning hijronida giryon erur,
Lek ko‘nglum diydasi yodi bila hayron erur.

Ul guliston ichra kim yo‘qtur jamoli jilvagar,
G‘uncha yanglig‘ har qayon boqsam ko‘ngullar qon erur.

Men kabi zor-u hazin yo‘qtur vafo atvorida,
Garchi har yon cho‘x asiru zor-u sargardon erur.

Lolalardek bosh uzra gar afsar o‘lsa tong emas,
Baski ko‘nglum dog‘dori ul guli xandon erur.

Rahm qil, yo Rab, tush ichra ko‘rsat aning orazin,
Kim bukun toqat aning dog‘ida ne imkon erur.

Ne tarabdur dog‘imi, ne davri ishrat barqaror,
Ey falak, ul oyni davroni ajab davron erur.

O‘tti umri hasratu anduhi bepoyon ila,
Komila, har kim muhabbat xisravi Turon erur.

* * *

Har na kim shoyistadur tab’i suxandoningdadur,
Qaysiki zebanda xislatdur sening shoningdadur.

Bog‘ aro chiqting aning sarfi qudumin etkoni,
Mulklar naqdi xiroji gardi domoningdadur.

Lahza-lahza guliston etti ko‘ngullar g‘unchasin,
Shodmonliklarki har dam judi ehsoningdadur.

Kimsa ko‘rmas sen kabi shoyistayi johu jalol,
Shukrkim olam sening mahkumi farmoningdadur.

Hosil o‘lmas bir til ila vasfi zikrin aylamak,
Ul inoyatlarki dasti gavhar afshoningdadur.

To qiyomat boisi ovozai tahsin erur,
Yaxshi ishlarkim sening amri jahonboningdadur.

Paykaring oyinasiga tegmasun gardi malol,
Komila, ahboblar joni sening joningdadur.

* * *

Qanda topsam rangu iqbolim gulistoningdadur,
Qanda bo‘lsam gardu parvozim biyoboningdadur.

Gar g‘ubor o‘lsa tanam davri falak ahkomida,
Zarra yanglig‘ partavi xurshidi toboningdadur.

Gar jahonbin o'lsa sufti partavidin ko'zlarim,
To'tiyosi xoki dargohi falak shoningdadur.

Tegmasun gardi malol oinayi iqbolingga,
Chunki olam obro'si judu ehsoningdadur.

Gar humo foqidin or qilsam ayb emas,
Buki boshim soyai iqboli davroningdadur.

Ko'zga ilmas himmating Jamshidu Doro shavkati,
Komila topti saodat ulki farmoningdadur.

* * *

Har tabu tobeki ul sham'i shabistonimdadur,
Toblardurkim damo-dam rishtai jonimdadur.

Har g'uboru gardkim yetmish ani domoniga,
Ul g'uboru gard mavji chashmi giryonimdadur.

Har qayon xoshokkim yo'lida manzur etmisham,
Kuz fazosida buton jorubi mijgonimdadur.

Gar g'ubori xoki rohin aylasa bajo nasim,
Sabru betoqatligi tab'i parishonimdadur.

Tegmasun, yo Rab, nasimi sard ul shamshodakim,
Shu'lalar har lahza o'tlug dudi afg'onimdadur.

Topmasun tag'yir ul rashki chaman rangi debon,
Lola yanglig' dog'lar ko'nglumdagi konimdadur.

Rishtai jonim samumi vahm birla tebranur,
Gar sabodin junbush sarvi xiromonimdadur.

Jismu jon xokistar o'lg'ay, jumla ragni o'rtagay,
Bo'yla o'tkim ishqidin bu qalbi suzonimdadur.

Barcha el kirdoriga tahsin etib aylar duo,
Xo'blig'kim, Komila, Jamshidi davronimdadur.

* * *

Menga ul sarvqad payg'omin, ey bodi sabo, keltur,
G'ubori maqdamidin ko'zlarimga to'tiyo keltur.

Vafo qonunidin savt-u tarannum ayla, ey mutrib,
Ba yodi do'ston ushshoq bazmidin navo keltur.

Sabo sayrig'a gar tushsa guzoring nogah, ey hudhud,
So'laymon sori Bilqis paridin marhabo keltur.

Bo'lubtur ro'zgorim shomi dayjuridek tiyra,
Menga, ey mehri tobon, mujdai subhi sabo keltur.

Jununim qissasidin daftare insho qil, ey roviy,
Muhabbat ahliga afsonai mehr-u vafo keltur.

Erur toji murassa' boisi dardisar, ey Majnun,
Parishon mo'yi sardin soyai boli humo keltur.

Ko'ngul ko'zgusini, ey Komila, ishq ichra ravshan qil,
Muhabbat dog'idin oyinayi getinamo keltur.

* * *

Har g'am-u ranjki ul gulruxi xandonimadur,
Ashklar qoni bila diydayi giryonimadur.

Zaxmati kim yetar ul jon-u jahon xotirig'a,
Har jahon zaxmat-u bedodi mening jonimadur.

Na quyun shavqida, na hajrni amvojida bor,
Iztirobiki mening tab'i parishonimadur.

O'tar dardi gulistoni jamolin tilabon,
Bulbuli zor kabi nolai afg'onimadur.

Yusufum ketti Adam Misriga Ya'qub kabi,
Ashk selobi mening kulbayi ahzonimadur.

Ul quyosh yodi bila baski erur chok yoqam,
Subhning kulgusi bu choki giribonimadur.

Qaysi til birla aning, Komila, vasfini qilay,
Xo'blug'lar ki mening xisravi Turonimadur.

* * *

Fig'onkim, bu davroni nopoydor,
Ayon etmadi shevai e'tibor.

Ne sog'arki sun' ilgi chekti qazo,
Jafo toshidin ayladi sangsor.

Bu gulshanda yo'qtur nasimi vafo,
Na bulbul muqim-u, na gul poydor.

Qamu shohkim taxt-u davlat uza,
Falak atlasidin etib nangu or.

Nako' baxtlidin sarafroz o'lub,
Jahondorlikdin qilib iftixor.

Vale o'yla iqbolu anjom ila
Yer ostida xok o'ldi anjomkor.

Muhammadki xurshidi aflok edi,
Tufayli vujudi hama yo'q-u bor.

Buroqi etib yetti ko'kda xirom,
Olib arshi xok damidin kubor.

Vale oqibat ul shahi muhtaram,
Qaro yer aro tuzdi joyi qaror.

Amiri zamon hazrati shah Umar,
Jandor-u Kayxisravu shahriyor.

Ki Farg‘ona iqlimidin to Xito,
Anga tobeu chokar-u jonsipor.

Tumandin fuzun anga xayli chashm,
Hama barq raftor-u javshan g‘uzor.

Bino ayladi bir necha shahrlar,
Necha masjidu buq’ai nomdor.

Edi nasli obod-u ajdod anga,
Hama shohi sultonni oliy tabor.

Badr to badr shohi masnadnishin,
Jahonparvar-u xisravi tojdor.

Samandi salobat uza har qachon,
Ki dushman sori bo‘lmish erdi suvor.

Aning vaxmidin yetti iqlim eli
Bo‘lurdi hama bexud-u beqaror.

Aning bazmorolig‘in vasfini
Na qilsun xiradkim erur oshkor.

Qilan yaxshi xulqu suchuk so‘z ila,
Jahon ko‘nglini sayli ul shahriyor.

Aning daftari she’ri ranginidin,
Qizorib chaman safhasi sarshor.

Vafo qilmadi oqibat dahr anga,
Jahon o‘lmadi joygohi qaror.

Qazo jomi ayshi verdi shikast,
Vafo qilmadi umri nopoydor.

Tanikim edi sof oinadin,
Fano rangidin o‘ldi farshi g‘ubor.

Sho‘ri savdoyi junun tug‘yon etar har navbahor,
Yig‘lang, ey ishq-u muhabbat jomidin mastonalar.

Kimga izhor etgamen ko‘ksumni pinhon dog‘ini,
Oshnolar holidin ogoh emas begonalar.

Kelmadi ishqim hadisidek daftari dilfirib,
Yozdilar Farhod-u Majnundin necha afsonalar.

Kelsa nogah yor xoki poyig‘a aylay nisor,
Nechakim to‘ktum ko‘zumni yoshidin durdonalar.

Sarv ila gul davlatimdin sabza xurram bog‘ aro,
Noziperodur g‘ururi husn ila jononalar.

Ehtisobimdin masojid ahlida nuri safo,
Shomdin to subh ravshandur ibodat xonalar.

Shafqatim ta’yidi qildi benavolarni g‘aniy,
Himmatim osoridin obod erur vayronalar.

Komila mehr-u muhabbat mulkini sultoniman,
Davlatimdin bahravar Farg‘onadur farzonalar.

* * *

Ey zuhuri bazlingdin faqr elig‘a ehsonlar,
Durfishon labing solmish infiola naysonlar.

Chun guli sanuvbardin ko‘z uzub nazar kettim,
Oraz och xirom aylab, zohir et gulistonlar.

Rasmdurki kasb aylar nurni quyoshdin oy,
Tong emas senga muhtoj o‘lsa o‘zga sultonlar.

Kishvari mihan shohidur ko‘ngul sipohi g‘am,
Bir temur hisor o‘lmish tegrasida paykonlar.

Ko‘zlari xayoli to o‘qlu ko‘ksida o‘ynar,
Uylakim qilur javlon naysitonda hayronlar.

Bog‘bon yuz-u qaddin ko‘rsa begunoh etgay,
Sarv-u gul maqomiga qonlu ashk-u afg‘onlar.

Qon bo‘lub jigar ko‘zdin ketti itlari kelgach,
Ohkim bizoat yo‘q, keldi yaxshi mehmonlar.

Lablarini vasfidin nazmim o‘yla rangindur,
Qona botti la’lidin rashk ila badaxshonlar.

Komila, bu hajr ichra ista mavj ila sho‘rish,
Kim emish xabar anga durri vasli jononlar.

* * *

Shah kalomi ma’nidin sochdi duri g‘altonlar,
Anga tab’iyyat etdi xurdabin suxandonlar.

Yor zulfuni ko‘rdum, ko‘nglum o‘ldi savdoyi,
Kim kezar quyun yanglig‘ ko‘rmagan biyobonlar.

Ey mahi jafobunyod, barcha shevasi bedod,
Senga arz etib yuz dod, ko‘nglum aylar afg‘onlar.

Ko‘zlaring qilib afsun, ettilar meni majnun,
Chun quyun yurub tun-kun kezmisham biyobonlar.

Ey pari, yuzung ko‘rgach telba bo‘ldum andog‘kim,
Kettilar bari o‘zdin o‘qug‘on parixonlar.

Har taraf o‘tar bo‘lsang o‘ynatib samandingni,
Ko‘zga surma aylarlar gardi raxshing insonlar.

Bog‘ aro kezar chog‘i ko‘rgali jamolingni,
Har taraf gul-u nargis o‘ldi chashmi hayronlar.

Dard ila g‘aming kelgach mulki tan aro ko‘nglum,
Jon harimiga eltub aylar erdi mehmonlar.

Lozim erdi oshiqqa jon berib jafo chekmak,
Qilmadim bu savdoni menda qoldi armonlar.

Yordin jafo ko‘rdum boshladim vafo rohin,
Benavolara shoyad rahm qilsa jononlar.

Ko‘zlari xayolida ashklar hujumidin,
Hajr bazmida tuzdum Komila xumistonlar.

* * *

Aylading azmi safar, ey shahsuvorim, yaxshi bor,
Emdi yo‘q sensiz mening sabr-u qarorim, yaxshi bor.

Vaqti rihlat yetti, ohangi safar soz aylading,
Yorim erding vasl ayyomida, yorim, yaxshi bor.

Ravshan erdi mahfili imkon jamoling sham’idin,
Yaxshilar sultoni erding, shahsuvorim, yaxshi bor.

Muddati vaslingda forig‘bol edim ayyomdin,
Ko‘hi g‘am ostida qoldim, g‘amgusorim yaxshi bor.

Sen qilib azmi safar, men qolmisham hasrat bila,
Garchi hajringda xazon bo‘ldi bahorim, yaxshi bor.

Turfa mushkildur vido’ etmoq seningdek yor ila,
Ko‘kka yetti nolai beixtiyorim, yaxshi bor.

Za’farondek sarg‘ayib hajringda nolon qolmisham,
Sensan, ey xurshidi tal’at guluzorim, yaxshi bor.

Komila mushtoq erur zinhor kelgaysan yana,
Muntazirdur yo‘lga chashmi intizorim, yaxshi bor.

* * *

Yorga oshiqligim asrorin ettim oshkor,
Lek bilmasman aning ko'nglida ne andesha bor.

Menki Majnuning o'lam atfolni g'avg'osidin,
Shuhrating o'ldi-biyobonlarni qildim ixtiyor.

Kecha zohid qo'li birla maydin ettim ehtiroz,
Dayr sori subhidam beixtiyor eltur xumor.

Ishq to ko'ngulda pinhon erdi betashvish edim,
Sud qilmas emdikim olamda topti ishtihor.

Ayladi rasvo mani damsoz o'lub ag'yorg'a,
Ey ko'ngul, ovora bo'l, tarki muruvvat qildi yor.

Ul sumanbar, sarv qomat hajrida bo'lsa netong,
Ko'z yoshim har qatrasi bir tifli sho'xni so'ror.

Ko'zlariga qilmagil, ey g'amza, ta'limi nigoh,
Bermagil jallodni ilkina tig'i obdor.

Hajr tig'i birla bo'ldi pora-pora paykarim,
Yetmisham ko'yingda bekas xasta-u zor-u nizor.

Xush zamonlar Komila aysh-u noshotim bor edi,
Yorim erdi Hazrati Sayyid Umarxon shahriyor.

* * *

Ketti olam bazmidin ul sarvqaddi guluzor,
Sarv sindi, arg'uvon sarg'ardi-yu gul bo'ldi xor.

Ketti ul shirinliqo, men o'rtadim hajrida dog',
Jon aro dog'i muhabbat qoldi andin yodgor.

Qoldi ahzan kulbasida benavo oshiqlari,
Mustamand-u dardimand-u xastajon-u dilfigor.

Marqadi tufrog‘ini har kechakim tavof ayladim,
O‘tlug‘ ohim birla ravshan ayladim sham’i firor.

Qolmisham nokom ul oromijon hijronida,
Yuz alam birla ko‘ngul oshifta-yu jon beqaror.

Voykim ko‘p shohlarni benavo qildi ajal,
Ayladi tufrog‘ aro ozodalarni xoksor.

Soldi rustoxez olam ichra hijron sarsari,
Vasl sham’ini o‘chirdi, tiyra bo‘ldi ro‘zgor.

Kimga ayturman ko‘ngul asrorini hijron tuni,
G‘am farovondur, vale yo‘qtur jahonda g‘amgusor.

Har duokim Komila axbordin hosil qilur,
Ruhi pokingni nisori bod to ro‘zi shumor.

* * *

Voykim, tarki muruvvat qildi yor,
Yorlardin qat’i ulfat qildi yor.

Qon yutung, ey xasta dil ushshoqlar,
G‘ayr birla tarhi suhbat qildi yor.

Shishai maydek ko‘ngulni qon eting,
Boda ichmak birla odat qildi yor.

Menga tartibi muhabbat ayladi,
Kim bu gumrahni hidoyat qildi yor.

Tarqatib mehr-u muhabbat tuxmini,
Mazra’i dilni ziroat qildi yor.

Aylabon ihyo ko‘ngul vayronasin,
Dog‘lar qo‘ydi, amorat qildi yor.

Ishq aro o‘zdin sabukbor o‘lmisham,
Har nakim bor erdi g‘orat qildi yor.

Bo‘lmisham ovorai dashti junun,
To ko‘ngulda istiqomat qildi yor.

Do‘zax erdi hajr azobi, Komila,
Bizni ul o‘tdin shafoat qildi yor.

* * *

Rahm qilmas menga dildor hanuz,
Ko‘rmadi dardi dilim yor hanuz.

Umrlardurki so‘rog‘ingni qilib,
Topmadim yordin osor hanuz.

G‘ayr dardig‘a davo bo‘ldi labi,
Man firoqi bila bemor hanuz.

Necha kunlar yuziga mahv etardim,
Qolmisham surati devor hanuz.

Mani devonani mahjur qilib,
Yordur moyili ag‘yor hanuz.

Zohir o‘ldi labidin sabzayi xat,
Husn paymonasi sarshor hanuz.

Dahr bog‘ini saropo istab
Topmadim bir guli bexor hanuz.

Ketti ul mahliqo olamdin,
Komila hasratidin zor hanuz.

* * *

Ul shakar labkim erur jondin aziz,
Kimki yo‘q ondin aziz, ondin aziz.

Keldi ashraf barcha olam ahlidin,
Yo‘qturur dunyoda insondin aziz.

Tushti to Yusuf jamoli Misr aro
Diyda ravshan qildi Kan’ondin aziz.

Beadab kirma muhabbat dashtig‘a,
Erdi har mo‘re Sulaymondin aziz.

Mug‘tanam tutkim muhabbat dog‘ini,
Kim erur xurshidi tobondin aziz.

Podshohlarkim baland ovozadur,
Bo‘ldilar in’omu ehsondin aziz.

Xoni daryo dilki bordur qullari,
Har biri davlatda xoqondin aziz.

Jon berurman dilrabolar ishqida,
Kim erur jononalar jondin aziz.

Tong emas hajrida cheksam xorlik,
Komila, ketti bu davrondin aziz.

* * *

Sensiz, ey sarvi chaman, vola-u madhush hanuz,
Ko‘zlaring hajrida bodom siyahpo‘sh hanuz.

Munchakim bori malomatni ko‘tardi ko‘nglum,
Gavhari ashkim erur obila-u bardosh hanuz.

G‘uncha xandon-u chaman sabzau lekin sensiz,
Qoldi motamda shukufa kafanog‘ush hanuz.

Tushub ul sarv-u suman barq domidin ayru,
Bog'ning kunjida savsan tili xomush hanuz.

O'tti davronu vale la'li labing hasratidin,
Qona-qona qiluram xuni jigar no'shanuz.

Hajr vodisida bir mushti g'ubor o'ldi tanim,
Qulzumi ashkim etar hajr kibi jo'sh hanuz.

Paykari garchi firoqingda kuyib kul bo'ldi,
Qilmadi Komila yodingni faromo'sh hanuz.

* * *

Jon beruram har qachon ul sarvinoz,
Bo'lsa ko'zum manzarida jilvasoz.

Man'i muhabbat na qilursen menga,
Ramzi haqiqat erur ishqi majoz.

Ishqni afsonasi bo'lmas tamom,
Mehr-u vafo qissasi dur-u daroz.

Mehri nihon erdi dil-u jon aro,
Qildi ko'zum yoshlari ifshoi roz.

Husniga mag'ruru jamoliga mast,
Noz etar olida qilsam niyoz.

Kimki jahon bazmig'a qo'ydi qadam,
Sham' kabi topti saropo gudoz.

Ishq maqomida qabul istasang,
Komila, qil zuhd elidin ihtiroz.

* * *

Sarvi nozim sarv-u guldin to taqaddum qildi soz,
Foxta kul bo'ldi-yu bulbul tarannum qildi soz.

Orzu aylab labi jon parvaridin choshni,
G'uncha gul bazmida ohangi tabassum qildi soz.

Ul parir-u husniga hayron edi dam urmadi,
Har necha oinaga to'ti takallum qildi soz.

Aylag'on javr-u jafolardin pushaymon o'ldi yor,
Emdi ushshoqiga qonun tarahhum qildi soz.

Zahrliq til burla oshiqni halok aylar raqib,
Kim bu mizrob ila savti nesh kajdum qildi soz.

Extiroz aylangiz, ey ahli salomat, kim yana
Fitna talqinining ul oshubi mardum qildi soz.

Girdbodi domani sahroyi ishqam Komila,
Qulzumi ashkim bu vodiyda talotum qildi soz.

* * *

Menga yor nazzora qilmas hanuz,
Ko'ngul dardig'a chora qilmas hanuz.

Magar gul firoqida madhush edi,
Yaqosini yuz pora qilmas hanuz.

Ko'zum kavkabafshon ul har kecha,
Chiqib sayri sayyora qilmas hanuz.

Xating zohir o'lg'och tikon nishtari
Gul ag'zosini yora qilmas hanuz.

Ko'ngul sirri ishqingni pinhon tutub,
O'zin elga ovoza qilmas hanuz.

Ko‘ngulga firoqingni bedodini,
Sinuq shishaga xora qilmas hanuz.

Na deb Komila dudi ohi bila,
Falakning yuzin qora qilmas hanuz.

* * *

Tortaman hajr elidin dam-badam ozor hanuz,
Rahm qilmas menga ul sho‘xi sitamkor hanuz.

Ishq vodiysida harchand g‘ubor o‘ldi tanim,
Tarki bedod-u jafo aylamadi yor hanuz.

Qolmadi garchi firoq ichra vujudum asari,
Mehnati hajr chekar bu dili afqor hanuz.

Xati la’lingni huzurida ikki mast ko‘zung,
Ne uchun Xizr-u Masih olida bemor hanuz.

Man oshiqki jahon ichra topilmas erdim,
Ko‘hkandin topilur tog‘da osor hanuz.

Navbahor o‘tdi-yu, gul qilmadi ayshim chamani,
Loladek bag‘rim aro dog‘laring bor hanuz.

Eshitib Komila ash’orini hayron qoldi,
Ko‘rmagan erdi bu gavharni xaridor hanuz.

* * *

Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.

Har kishini bir munosib yori bor,
Men o‘shal ovoradurman yorsiz.

Ul parivash vaslidin bo‘ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz.

Yor uchun ag‘yor dardin tortamen,
Ko‘rmadim bir yorni ag‘yorsiz.

Tan buzuldi, emdi rohat qolmadi,
Soya paydo bo‘lmadi devorsiz.

Orazin ko‘r, bo‘lma zulfidin malul,
Bu jahonda ganj yo‘qtur morsiz.

Berma nisbat qaddig‘a, ey bog‘bon,
Sarvdur bu bog‘ aro raftorsiz.

Or qilmas ta’nai ag‘yordin,
Oshiqi sodiqni derlar orsiz.

Komila ahvolidin ogoh o‘lung,
Ey musohiblarki, qolmish yorsiz.

* * *

Ey mehri jamoli olam afro‘z,
Ayyomi visoling iydi navro‘z.

Husn ahlida sen kibi sanam yo‘q,
Mijgonlari jonsiton qaro ko‘z.

Qildi meni sunbulung xayoli,
Oshufta-yu tiyradil g‘amanduz.

Hijron tuni sham’ ravshan o‘lmaz,
Yo‘qsa meni kuymoqimga ne so‘z.

Bordur menga mujdai visoling,
Iydi tarabu nishoti navro‘z.

Qol bir tun safar aylading yo‘lingda,
Aflok murattab etti to‘qquz.

Dil chokina na iloj etardim,
Gar bo‘lmasa novaking jigardo‘z.

Derlar ani sohibi giyohast,
Begonani farq etsa to o‘z.

Ko‘z kavkabi kimki soda dildur,
Gulruxlaridin vafo tutar ko‘z.

Ey Komila, ketti oftobim,
Bo‘ldim ani hajridin siyahro‘z.

* * *

Bo‘ldi xandon chaman ul g‘unchadahonsiz afsus,
Chekti shamshod qad, ul sarviravonsiz afsus.

Qishning ofatidin afsurda bo‘lan bog‘i jahon,
Topti jon jismig‘a ul joni jahonsiz afsus.

Turra yanglig‘ meni ko‘nglumni parishon qildi,
Ochti sunbul sochin ul mo‘yi miyonsiz afsus.

Saf tutub sarv ila shamshod sinon ayladi fosh,
Kiprigi xanjar o‘lan, qoshi kamonsiz afsus.

Garchi olamda ayon ayladi ko‘b nom-u nishon,
Ketti oxir damida nomu nishonsiz afsus.

Joni olam edi altof ila ul shohi jahon,
Qoldi hijronida olam eli jonsiz afsus.

Komila oldi bukun lola-yu gul jomu kulah,
Kajkulah xisravi Jamshid makonsiz afsus.

* * *

Ey ko'ngul, dahrni asbobini ko'p qilma havas,
Ishq sarmoyasidin dog'i muhabbat senga bas.

Qilur ag'yor so'zi otashi ishqimni baland,
Barqni shu'lasiga bol taraqqidur xas.

La'li nobi uzra xoli xatidin bo'lma malul,
Ki shakar uzra bo'lur mo'r, asal uzra magas.

Bog'ni gullarini ayladi g'orat gulchin,
Qildi bulbul g'amidin chok yoqosin qafas.

Umr sarmoyasi miqrozi fano to'masidur,
Ikki xamyoza bila subh qilur qati nafas.

Umr o'tar, bo'lma ko'ngulni ishidin g'ofil,
Korvon azmi rahil etsa qilur nola jaras.

Komila go'shai hayratda erur masti mudom
Na g'ami muhtasib ul yerda, na parvoi asas.

* * *

Hazrati xon davlatini fildin qildim qiyos,
Kim erur bannoi davlat tog'dek mahkam asos.

Kasb etar shohi Buxoro hazrati xondin kamol,
Bu masaldur: "Oy etar xurshiddin nur iqtibos".

Bo'ylakim mavjud emas iqbol beimdodi xon
Inqiyod etti-yu hazrat xotirini tutti xos.

Baski toju tug'u na'rat tav'amonidur quyosh,
Har kim o'lmish raiyati boshiga bu raxshanda tos.

Aylamas vorastalar mayli qabou piyrahan,
Jismiga Majnunni o'z mo'yi sari basdur libos.

Tiyra tole' birla ashkim anjumidin kechalar,
Sa'du Nahs osorini ma'lum etti axtarshunos.

Komila bo'lmish muyassar din-u dunyo davlati,
Shohi davron davrida Tangriga yuz shukri sipos.

* * *

Vah, ne voqe'durki sulton bandani yod aylamas,
Ushbu qulni xotiri noshodini shod aylamas.

Qoldim oxir poymoli lashkari hijron bo'lub,
Na uchun vayrona ko'ngul mulkin obod aylamas.

Mazrazi dil necha o'rtansun havodis baqidin,
Ko'zda yoshim qatrai suv birla imdod aylamas.

Ishq piriga irodat qil gar istarsan kamol,
Murshididurkim fanodin o'zga irshod aylamas.

To xiromon o'ldi naxli qomati bog' aro,
Foxta hargiz xayoli sarv-u shamshod aylamas.

Ko'zlari qilg'on jafolardin ko'ngul ozurdadur,
Garchi kofirdur birovga muncha bedod aylamas.

Ayb emastur Komila qilsa fig'on ayyomdin,
Kimdur ulkim charxni bedodidin dod aylamas?!

* * *

Manga ishq ichra savdoyi junun bas,
Jahon iqbolidin baxti nigun bas.

Bu bazm ichra fig'onu nolishimdin,
Navou changu savti arg'unun bas.

Manga dayr ichra asbobi tajammul,
Surohi birla jomi lolagun bas.

Aning ko'yig'a har tun azm etarg'a,
Charog'i barqi ohim rahnamun bas.

Halok etmak uchun dushmanlariga,
G'am-u hasrat bila dardi darun bas.

Junun dashtini sargardonidurmen,
Rafiqim ushbu vodiyda quyun bas.

Muhabbat dog'ini izhor etarg'a,
Yurakda, Komila, bir qatra xun bas.

* * *

Yor manga g'ayri jafo aylamas,
Va'da qilib, anga vafo aylamas.

Shum raqibeki adovat qilur,
Kofir erur, yodi Xudo aylamas.

Mujibi hayronlig' erur jilvasi,
Oyinadin sharm-u hayo aylamas.

Zohid ishi makr ila tazvirdur,
Toati bero'yi riyo aylamas.

Ko'zlaridur sohir, o'shal qoshi yo,
Novaki mijgoni xato aylamas.

Qaysi chaman bulbulidur, kim aning,
Gulshani ishqida navo aylamas.

Komila ul yorni vaslin tilab,
Subhu maso tarki duo aylamas.

* * *

Tahammul haddidin oshti, emdi afg'on etmasam bo'lmas,
Ulusni xotiri jam'in parishon etmasam bo'lmas.

Giribon chok, bag'rim poradur, boshimda yuz savdo,
Bu holat birla azmi ko'yi jonon etmasam bo'lmas.

Muhabbat ko'yida nochordur oshiqqa hayronlig',
Tahayyur kul qilib oyina somon etmasam bo'lmas.

Ko'ngullar Ka'basin bir-bir ziyorat ayladim, emdi
Tavofi Makkau taxti Sulaymon etmasam bo'lmas.

G'araz iydi visolingdur ko'ngulga, ey hilol abro',
Yuzungni oyig'a jonimni qurbon etmasam bo'lmas.

Bu oqshom soldi zulmat olama hijron qaro shomi,
Qilib yodingni ashkimdin charog'on etmasam bo'lmas.

Meni oshiq debon tiyri malomat yog'di boshimg'a,
Ulusdin, Komila, dardimni pinhon etmasam bo'lmas.

* * *

Ul parivash ishqiga hech kim meningdek zor emas,
Zor ko'ptur anga lekin men kabi afgor emas.

Vasli behijronu ayshi bekudurat ko'rmadim,
Ore-ore bu chamanda hech gul bexor emas.

Fyncha ul gul og'zig'a behuda taqlid etmasun,
Garchi nozukdur va lekin qobili gufgor emas.

Oshiq o'ldung deb ko'ngulga muncha aylarsen itob,
Rahm qilkim bu gunohim mujibi ozor emas.

Aylading nayrang ila toroj ko'nglum kishvarin,
Dilrabolar cho'x vale sendek pari ayyor emas.

Yor uldurki senga g‘am kunlarida bo‘lsa yor,
Ulki mehnat kunlarida yor emastur, yor emas.

Komila yo‘qtur zamon abnosida hush-u xirad,
Barcha g‘aflat bodasidin mast erur, hushyor emas.

* * *

Menga ul sho‘xi jafopesha tarahhum qilmas,
Yig‘lasam sho‘ri fig‘on birla tabassum qilmas.

Necha kundurki aning vaslidin ayru ko‘nglum,
Moyili ishrat o‘lub, mayli tana’um qilmas.

G‘ofil uldurki aning vasliga mag‘rur o‘lubon,
Lahzayi hajr balosini tavahhum qilmas.

Oshiqi sodiq o‘shaldurki, chekib zulmu sitam,
Yorining javridin ag‘yora tazallum qilmas.

Bo‘lmasa la’li labing g‘amkadadur bazmi sharob,
Shisha qul-qul chekibon, sozi tarannum qilmas.

Bog‘ aro nargisu bodom ko‘zung hayroni,
G‘uncha xandon labing olida takallum qilmas.

Holima jilva chog‘i bo‘lmasa la’ling choxi,
Ko‘zlaring aylagan oshubni mardum qilmas.

Vaslni topmog‘i o‘zluk bila ne mumkindur,
Yetmagay anga agar kimsa o‘zin gum qilmas.

Komila, Qulzumi ashkimdur ajab sho‘rangiz,
Nuh to‘foni bu daryocha talotum qilmas.

* * *

Ko‘zumdin dam-badam oqqan qizil yosh,
Nihon ishqimni elga ayladi fosh.

Yuzung mehriga maftun o‘ldi zohid,
Quyosh nuriga tob aylarmu xuffosh.

Nadur olamni qadri dar haqiqat,
Falak xashxoshu anjum tuxmi xashxosh.

Adab elni baland iqbol aylar,
Tavozu’din erur ko‘z ustida qosh.

Taolillah janobing kibriyodur,
Sabo payki hariming bodi farrosh.

Ko‘zum durri yatimi saqlamas roz,
Nechakim pok gavhardur, erur yosh.

Bo‘lub xam ikki qoshing bir-biriga,
Qilurlar qatlima payvasta kengosh.

Boshimni noz tig‘i birla kesding,
Ki qoldi bir taraf tan, bir taraf bosh.

Bu ko‘zdin, Komila, ko‘p yosh to‘karsan,
Ki bergay Tangri bir yoshingga yuz yosh.

* * *

Sensiz ey ra’no, chamandin naxli hirmon chekti bosh.
Lola bag‘ri qon o‘lub, sunbul parishon chekti bosh.

O‘qlaring ozorini shukrin ado qilmoq uchun,
Til kabi bag‘rim yarosi ichra paykon chekti bosh.

Sabzayi xatlar birla gulruxsorlar tufrog‘idur,
Bu chamanda nechakim gul birla rayhon chekti bosh.

Tal'ati gulgun aro sarvi xiromonin ko'rub,
Ko'zda ashkim bahridin favvorai qon chekti bosh.

Dasht aro Majnun ayog'idin olurga intiqom,
Har tarafdin nishtari xori mug'ilon chekti bosh.

Shom vaqti topti mag'rub xokdonida zavol,
Subhi mashriq soridin gar mehri tobon chekti bosh.

Oh chekti Komila ul qaddi mavzun yodida,
Kim muhabbat bog'ida sarvi xiromon chekti bosh.

* * *

Menga sensiz ibtiloi dardi hijron o'ldi ish,
Kechalar to subhidam faryod-u afg'on o'ldi ish.

Bir qiyo boqti mening holimga ul nomehribon,
Mushkil erdi o'lmakim hajrida oson o'ldi ish.

Men tahammulpesha qildim, charx ko'rguzdi jafo,
Senga ham qatlim uchun zulmi farovon o'ldi ish.

To g'ubori xat namoyon o'ldi ul yuzdin senga,
Oshiqa qilg'on jafolardin pushaymon o'ldi ish.

Bo'ldi to oyina ul oy husniga piroyaband,
Shonag'a mashshotai zulfi parishon o'ldi ish.

Topmadi gardim nasimi domaningni, ey quyosh,
Subhdek emdi menga choki giribon o'ldi ish.

Haq nasib etmish menga davlat asosin Komila,
Bas aning shukronasiga xayri-ehson o'ldi ish.

* * *

Yo parisan, yo malak, ey sho‘xi mahvash,
Saropo paykaring mahbubi dilkash.

Anosirdin vujuding javhari pok,
Emastur bodi xoku obu otash.

Parishon sunbulung oshuftasiman,
Erur ko‘nglum xayolidin mushavvash.

Solur aks anda soqiyni jamoli,
Zihi jomi sharobi sofu beg‘ash.

Bo‘lubman soqiyo, g‘am sargaroni,
Qadah tut, may bila ko‘nglumni qil xash.

To‘karga begunoh ushshoq qonini,
Nigorim sekratur maydonda abrash.

Erur, ey Komila, bu yo‘l xatarnok,
Ki man mastu samandi umri sarkash.

* * *

Meni ro‘zi azal ul oyga gardun mubtalo qilmish,
Bukun yuz dog‘ ila oning visolidin judo qilmish.

Demak chun-u charo qismatga shayton mojarosidur,
Munosib bandadin taslim har ishqim Xudo qilmish.

Ko‘ngul dardini aytolmas edi ul yor olida,
Junun tug‘yon etib shavq ichra arzi muddao qilmish.

Ul oyning mohi ruxsorini safrosini daf’iga,
Falak savtin balig‘ aylab quyoshni qahrabo qilmish.

Skandar shavkatin ishq ichra toptim kim menga mehring,
Muhabbat dog‘ini oynai getinamo qilmish.

* * *

Bu kecha nolishim bila koshona qilur raqs,
Hushyoru bexud o'ldi devona qilur raqs.

Ul zulfi tobdor havosida dam-badam,
Mashshota ishtiyoqi bilan shona qilur raqs.

Oshiqni shavqi yorni beixtiyor etar,
Jon bermakim havosida jonona qilur raqs.

Sham'i ruhingni shavqida ko'ngul havo qilur,
Ravshan ko'rub chirog'ni parvona qilur raqs.

Zohidki no'sh qildi muhabbat sharobidin,
Piri mug'on janobida mastona qilur raqs.

Mayxonada labing mayidin nuqtayi dedim,
Jomu sabuvu shishau paymona qilur raqs.

Qildim ko'ngulni shavqini izhor Komila,
Jononalar qulog'ida durdona qilur raqs.

* * *

Bo'lma bir dam jahonda dardi hijrondin xalos.
Bo'lg'oy erdim koshki bu tinmagur jondin xalos.

Ishq aro ko'nglum qutulmaydur zanaxdon chohidin,
Bo'lmadi bir lahza bu mahbus zindondin xalos.

Sarv qomatlar sari mayl aylamas ko'nglum qushi,
Bo'lsa doim halqai zulfi parishondin xalos.

Dardlik ko'nglumdin, ey gardun, xalos etgil meni,
Yo ko'ngulni qil meni besabr-u somondin xalos.

Qul o'shal quldurki jonin xojaga qilsa nisor,
Bevafodur ulki istar bo'lsa sultondin xalos.

Bevafolar husnidin to qilmadim qat'i nazar,
Bo'lma dim tashvishi ko'zu qoshu mijgondin xalos.

Oshiq o'ldum g'am giribonimdin oldi, Komila,
Ichmadim to sog'ari may, bo'lmadim ondin xalos.

* * *

Chun hadim yo'q aylasam dardimni sultonimga arz,
Aylagil bu qul niyozin, ey begim, xonimga arz.

Ey sabo, chun gulshani ko'yidin o'tsang zinhor,
Ayla xam qadim, g'amin sarvi xiromonimg'a arz.

Ashk qoni birla chun oluda ko'rdung domanim,
Qon yoshim kayfiyatin qil pokdomonimga arz.

Zarra yanglig' volai hayronligimni, ey sabo,
Qilg'osen, albatta, ul xurshidi tobonimg'a arz.

Hajr zindoni azobi mushkil ermish, ey rafiq,
Anda jonim ibtilosin ayla jononimg'a arz.

Va'dasidin kuyganimni rostlig' haqqi uchun
O'rtanib, ey sham', qil ul ahdi yolgonimg'a arz.

Komila hijronda mahzun qoldi yetkur, ey nasim,
Hamnishinlarga duo, shohi suxandonimg'a arz.

* * *

Qildi o'z savdosini Majnunga bu devona arz,
Uyladurkim shavkatin sulton etar sultona arz.

Rozi dil pinhon tutarmen ko'rmasam to yorni,
Sham' yuz ko'rguzsa aylar kuymakni parvona arz.

O‘rtadim, kul bo‘ldi jismim har qachonkim keldi yor,
Shamdek boshdin ayog‘ o‘rtab qilurman yona arz.

G‘ofil erdi yor holimdin kecha mayxonada,
Ayladi shaydolig‘imni sog‘ari paymona arz.

Arz etar paymona la’liga jigar qon o‘ldug‘in,
Ko‘zda yoshimni qulog‘ig‘a qilur durdona arz.

Zulfi savdosiga chirmashkon ko‘ngul asrorini,
Ul salosil mo‘g‘a yuz til birla aylar shona arz.

Ey falak, bisyor bedod uzra bedod aylama,
Bas qil, ul bedodni yo‘qsa qilurman xona arz.

Soqiyo, bir jur’a may tutkim judolik dardidin,
Aylayin mahshar kuni Jabborga mastona arz.

Arz qilgumdur firoq javridin beixtiyor,
Gar eshitsa benavolardin shohi Farg‘ona arz.

Qatrayi shabnam kabi hajrida giryondur ko‘zum,
Ey nasimi subhdam, qil ul guli xandona arz.

Komila qilgum ko‘ngul dardini aytib nolalar,
Bo‘lsa mumkin aylamak ul shohi oliyshona arz.

* * *

Gar aylar ersang izzati shoningni ehtiyot,
Jononalardin aylama joningni ehtiyot.

To itlari arosiga hangoma tushmasun,
Ko‘yig‘a borsang ayla fig‘oningni ehtiyot.

Bir kun itiga bo‘lgusidur tu’ma aylag‘il,
Bag‘ringni porasi ila qoningni ehtiyot.

Durdin murassa' etma, kamar bo'lmasun garon,
Nozukdur ayla mo'yi miyoningni ehtiyot.

El yaxshi-yu yomoni bila bo'lmasun ishing,
Qilg'il o'zungni yaxshi-yu yomoningni ehtiyot.

Mulzam qilib birovni, yana to'kma qonini,
Majlisda ayla tig'i zaboningni ehtiyot.

To tan imoratini yiqib qilmasun xarob,
Qil, Komila, sirishki ravoningni ehtiyot.

* * *

To jamoling ayladi izhor xat,
Ayladi oyinani zangor xat.

Tushti ko'nglum xotiriga yuz xalal,
To labidin zohir etti yor xat.

Xor gul bargin fiqor etgan kibi,
Xasta ko'nglumg'a berur ozor xat.

Obi hayvondur labing, men tashnakom,
Xizrdek andin erur sarshor xat.

Yozgali mehr-u muhabbat sharhini,
Lavhi husnungga chekar pargor xat.

Qilmayin bedod oshiqlarg'a deb,
Zohir etti la'lidin dildor xat.

Xo'blig' davriga mag'rur o'lmakim,
Ko'rguzur ul chehradin osor xat.

Komila, gulzordur yorim yuzi,
Bo'ldi ul yuz gulshanida xor xat.

* * *

Magar bo‘lmish labingdin bahravar lafz,
Yeturdi jon mazoqina shakar lafz.

Shakar guftordur ul sho‘xi mahvash,
Emas monand aning lafzig‘a har lafz.

Yuzungdin husn daryosi labo-lab,
Sadafdur la’li xandoning guhar lafz.

Tabassum birla guftor etki, bo‘lmish
Labing xosiyatidin mo‘tabar lafz.

Takallum to labingdin tushti ayru,
Bo‘lubtur furqatida darbadar lafz.

Labi la’lingki pinhondur nazardin,
Nishon topmas birov andin magar lafz.

G‘amimni, Komila, yorimga derman,
Vale ul oyg‘a qilmaydur asar lafz.

* * *

Kecha bazm ichra navo qildi xushilhon hofiz,
Benavolar ko‘zini ayladi giryon hofiz.

G‘ayr nazzorasiga sharmu hayo mone’ edi,
Ayladi gul yuzini daf bila pinhon hofiz.

Muncha dilso‘z navo qilmas edi maxfil aro,
Mani holimni ko‘rub ayladi afg‘on hofiz.

Bir navosoz qilib ayladi jonlarni asir,
Barchani oraziga ayladi hayron hofiz.

Hasbi holimdin o‘qub bir g‘azali sho‘rangiz,
Ayladi sho‘ri qiyomatni namoyon hofiz.

Otashin yuzni qizortib mayi gulrang bila,
Qildi oshiqlarini bag'rini biryon hofiz.

Aylag'il maqdamiga gavhari ashkingni nisor,
Bo'ldi ahboblari bazmiga mehmon hofiz.

O'lturub bir nafas olimda navosoz eting,
Bo'lg'usi Komilani mushkili oson, hofiz.

* * *

Ey ko'zum, yig'laki yor etti vido',
Menga ul lolauzor etti vido'.

Qolmadi bog'i nishotidin asar,
Lolayu gul, xasu xor etti vido'.

G'uncha to ochti tabassumga labin,
Gul xazon o'ldi, bahor etti vido'.

Fursati umr erur barqu sharor,
Barq kul bo'ldi, sharor etti vido'.

Mehribon yori bila hajr kuni,
Oshiqi xastayi zor etti vido'.

Sensiz, ey ruhi ravon, bazm elidin,
Mastlig' birla xumor etti vido'.

Tong emas Komila faryod etsam,
Manga ul shohsuvor etti vido'.

* * *

Xo'yi birla ravshan aylali ruxsori yor sham',
Harchand emas quyosh qatida oshkor sham'.

Beixtiyor kecha ul oyning havosida,
Siymi sirishki beadad etti nisor sham'.

Bazm ichra ko‘rdi holi jamolingni behijob,
To‘kti sirishku yig‘ladi beixtiyor sham’.

Jono, tag‘oful etmaki hayrat maqomida,
Qoldi yuzungni ko‘rmak uchun intizor sham’.

Shamshiri shu’la dudi kamandin raso qilib,
Parvonalarni saydini aylar shikor sham’.

Ushshoqlar arosida sobit qadam o‘la
Dog‘ o‘rtamoqqa qildi o‘zin ustuvor sham’.

Ma’lum o‘lur sharori muhabbatda toqati,
Dog‘i dilimga Komila bo‘lsa duchor sham’.

* * *

Yorlig‘ aylamadi holima chandon tole’,
Bo‘lmadi sham’ mani zora parishon tole’.

Ko‘ngluma g‘uncha kabi uqda solib shomi firoq,
Sahari vasl aro bo‘lmadi xandon tole’.

Bo‘ldi xurshidi falak uzra xiromon afsus,
Bo‘lmadi orazi ul xisravi davron tole’.

Oftobi qadahin etmadi soqiy ravshan,
G‘am tuni aylamadi mohi duraxshon tole’.

Garchi jon chektim aning shomi firoqi g‘amida,
Jonima bo‘lmadi ruxsorai jonon tole’.

Baski bir lahza murodim ila uyrulmadi charx,
Holima baxt etar nolai afg‘on tole’.

Zulmati hajr tuni aylasa gar charx tamom,
Bor umidki yorutsa shabiston tole’.

Shohidi vasl etagin ilgima bermay bir dam,
Ko‘nglumi ayladi may sog‘aridek qon tole’.

Jam’ etar dog‘i dilin Komila, ayyomi firoq.
Bu umid ilaki bo‘lg‘ay anga xandon tole’.

* * *

Menki tun jonon ila qildim vido
Go‘iyokim jon ila qildim vido’.

Bo‘ldi bazmi ishratim motamsaro,
Hazrati sulton ila qildim vido’.

Xoksor-u notavon o‘lmay netay,
Xisravi davron ila qildim vido’.

Ro‘zgorim tiyradur g‘am shomida,
Ul mahi tobon ila qildim vido’.

Chun azimat vaqti yetti yorga,
Hasrat-u armon ila qildim vido’.

Ayladim oxir bu gulshandin safar,
Lola-u rayhon ila qildim vido’.

Komila, kuymay netay hijron kuni,
Ul shararjavlon ila qildim vido’.

* * *

Ul yuz nazzorasidin bo‘ldi safosi mone’,
Xurshidni ko‘rarg‘a bo‘lmish ziyosi mone’.

Vasl istasang guzar qil, dunyoyu oxiratdin,
Keldi bu muddaoga ul ikkalosi mone’.

Ruxsorini ko‘rarga tashvishi zuhfi hoyil,
Ul men sori boqorga sharmu hayosi mone’.

Pirohanimni qildim hajrida pora-pora,
Ko‘qsum xarosh etarg‘a dardi yaqosi mone’.

Ko‘p bo‘lma savlat oro zohid kabi ki oning,
Bo‘ldi rahi fanodin nash’u namosi mone’.

Zohidki muddaosi afsun ila fusundur,
Bo‘ldi visoli Haqdin o‘z muddaosi mone’.

Chekmas g‘ami aloyiq devona bo‘lsa uryon,
Majnunga ofiyatdin bo‘lmas bahosi mone’.

Ul sho‘xi zulmparvarkim yo‘q anga muruvvat,
Bordur vafo qilurga javr-u jafosi mone’.

Ey Komila, nigorim harchand bevafodur,
Men tarki ishq etarga mehri liqosi mone.

* * *

Ey nigini davlatingga naqshi nekukorlig‘,
Xatm ermish senga aql-u donishi bisyorlig‘.

Kimsakim xoksori ko‘yingda ma’vo aylamish,
Qaysaru Doro shukuhidin tilar bezorlig‘.

Har qachonkim esdi subhi iltifotingdin nasim,
Gar hama kishvar xarob o‘lsa qilur gulzorlig‘.

Qolmasun ilkim tilarman davlating domonidin,
Kim bu ermish g‘oyati iqbolu tole’vorlig‘.

To qiyomat xatm bo‘lsun senga hashmat masnadi,
Davlating etti ko‘ngullar qasrig‘a me’morlig‘.

Yaxshi ishdin mashriq-u mag‘ribg‘a ketti shuhrating,
Olloh-olloh muncha ermish yaxshi girudorlig‘.

Ko‘kka yetkurdi g‘uborimni karamdin Komila,
Bo‘yla ermish shohdin qulga ko‘ngul bardorlig‘.

* * *

Ulki ermish ani ruxsori guliston yanglig‘,
Ani savdosidadur xasta ko‘ngul qon yanglig‘.

Ko‘nglum aylar ko‘zi ollida shahodat takror,
Kofir ilkida o‘lan zor musulmon yanglig‘.

Qaddi raftorini andishasidur ko‘nglum aro,
Tog‘ni bag‘ridagi kabki xiromon yanglig‘.

Xotirim bo‘lmadi g‘am shomida bir dam sokin,
Dastu domonidagi gardi parishon yanglig‘.

Lolalar dog‘i dil-u diydai purxun birla,
Hajr dashtida mani besaru somon yanglig‘.

Aylamasman havasi mulki Skandarki, manga
Xoki dargohing erur taxti Sulaymon yanglig‘.

Komila Ahmadi Mursal havasin et tun-u kun,
Kim aning shar’i etar qatrani Ummon yanglig‘.

* * *

Xurram erdim vasl ayyomida hijron etti dog‘,
Xasta jonimni firoqi birla jonon etti dog‘.

Tushti o‘tlar jonima bir lolarux hijronida,
G‘unchadek bag‘rimni hasratlar bila qon etti dog‘.

Ruxsorini ko‘rarga tashvishi zuhfi hoyil,
Ul men sori boqorga sharmu hayosi mone’.

Pirohanimni qildim hajrida pora-pora,
Ko‘qsum xarosh etarg‘a dardi yaqosi mone’.

Ko‘p bo‘lma savlat oro zohid kabi ki oning,
Bo‘ldi rahi fanodin nash’u namosi mone’.

Zohidki muddaosi afsun ila fusundur,
Bo‘ldi visoli Haqdin o‘z muddaosi mone’.

Chekmas g‘ami aloyiq devona bo‘lsa uryon,
Majnunga ofiyatdin bo‘lmas bahosi mone’.

Ul sho‘xi zulmparvarkim yo‘q anga muruvvat,
Bordur vafo qilurga javr-u jafosi mone’.

Ey Komila, nigorim harchand bevafodur,
Men tarki ishq etarga mehri liqosi mone.

* * *

Ey nigini davlatingga naqshi nekukorlig‘,
Xatm ermish senga aql-u donishi bisyorlig‘.

Kimsakim xoksori ko‘yingda ma’vo aylamish,
Qaysaru Doro shukuhidin tilar bezorlig‘.

Har qachonkim esdi subhi iltifotingdin nasim,
Gar hama kishvar xarob o‘lsa qilur gulzorlig‘.

Qolmasun ilkim tilarman davlating domonidin,
Kim bu ermish g‘oyati iqbolu tole’vorlig‘.

To qiyomat xatm bo‘lsun senga hashmat masnadi,
Davlating etti ko‘ngullar qasrig‘a me’morlig‘.

Yaxshi ishdin mashriq-u mag‘ribg‘a ketti shuhrating,
Olloh-olloh muncha ermish yaxshi girudorlig‘.

Ko‘kka yetkurdi g‘uborimni karamdin Komila,
Bo‘yla ermish shohdin qulga ko‘ngul bardorlig‘.

* * *

Ulki ermish ani ruxsori guliston yanglig‘,
Ani savdosidadur xasta ko‘ngul qon yanglig‘.

Ko‘nglum aylar ko‘zi ollida shahodat takror,
Kofir ilkida o‘lan zor musulmon yanglig‘.

Qaddi raftorini andishasidur ko‘nglum aro,
Tog‘ni bag‘ridagi kabki xiromon yanglig‘.

Xotirim bo‘lmadi g‘am shomida bir dam sokin,
Dastu domonidagi gardi parishon yanglig‘.

Lolalar dog‘i dil-u diydai purxun birla,
Hajr dashtida mani besaru somon yanglig‘.

Aylamasman havasi mulki Skandarki, manga
Xoki dargohing erur taxti Sulaymon yanglig‘.

Komila Ahmadi Mursal havasin et tun-u kun,
Kim aning shar’i etar qatrani Ummon yanglig‘.

* * *

Xurram erdim vasl ayyomida hijron etti dog‘,
Xasta jonimni firoqi birla jonon etti dog‘.

Tushti o‘tlar jonima bir lolarux hijronida,
G‘unchadek bag‘rimni hasratlar bila qon etti dog‘.

Ishq aro men telbadin tovus rashk aylar bukun,
Bo'ylakim boshdin ayog'imni guliston etti dog'.

Dog'siz bir jins bu bozor ar maqbul emas,
Ey xush ulkim ishq savdosida somon etti dog'.

Ahd etib erdiki sendin g'ayrni yor etmayin,
O'zga yor aylab, meni ul ahdi yolg'on etti dog'.

Qoldi jismim dor aro hojat emastur pirahan,
Xalqdin uryonlig'im aybini pinhon etti dog'.

Kimdin aylarman shikoyat Komila oxir meni,
Otashi hijron ila sulton Umarxon qildi dog'.

* * *

Ul janobi dovari davrong'a bandalig',
Beklarga qulluq arziyu sultonga bandalig'.

Ul mazhari kamolga ixlos ila duo,
Ul ma'dani karomatu ehsong'a bandalig'.

Bu andalibi beparu bol-u shikastadin,
Yetkurgil, ey nasim, gulistong'a bandalig'.

Bu zarrai muhaqqari bedastu poydin,
Yetkurgil oftobi duraxshong'a bandalig'.

Dargohi qullarig'a niyozimni arz qil,
Sarvi sanubaru gulu rayhong'a bandalig'.

Isonafas murabbiy davronga arzihol,
Afsurda jism qolabidin jonga bandalig'.

Bul mo'ri xastadin degil, ey hudhudi Sabo,
Taxti adolat uzra Sulaymonga bandalig'.

Xon hazratimni ikki azizu mukarrami,
Valnam'i birla Muhammad Amin xonga bandalig'.

Ma'yusu mustamandu muqaqqar g'ulomdin,
Davlat sipehrida mahi tobong'a bandalig'.

Gulzordur amirni dargohi bok emas,
Bulbul agar desa bu gulistonga bandalig'.

Yetsun desang takallumi dil shahriyorg'a,
Qilmoq kerak suluki darbonga bandalig'.

Sendek jahonpanoh mahi komron turub,
Qilsa bo'lurmu Qaysaru xoqong'a bandalig'?

Har kimki ul eshikda erur istiqomati,
Ya'ni ulug'u kichik hama alvong'a bandalig'.

Ajzi niyoz birla bu miskin mudom etar,
Ul koni judu nodir davrona bandalig'.

Yo'l topsang ul janobga, ey yor, arz qil,
Bu tashnalab giyohdin ummonga bandalig'.

Yo'qtur hadim duoda desam Komila sari',
Farg'ona Xisravi shahi Turonga bandalig'.

* * *

Baski mahzun ko'nglumi bedodi hijron etti dog',
Lola ko'ksidek butun sayri biyobon etti dog'.

Mehnati hajru tani bemoru anduhi xayol,
Charx zor aylab yana gardun farovon etti dog'.

Har qayon qo'ydum qadam keldi nadomatlar menga,
Harna qildim kulfati tab'i pushaymon etti dog'.

Qomati andishasidin zordur mahzun ko‘ngul,
Qumri bag‘rin o‘ylakim sarvi xiromon etti dog‘.

Jona yettim baski furqat tunlari anduhdin,
Xasta jonimni havo‘yi ko‘yi jonon etti dog‘.

Toleyim nosozlig‘ etti jahon gulzorida,
Kim xayoli gulshanu sayri guliston etti dog‘.

Kimsa yo Rab, harzatozu vodiyi g‘am bo‘lmasun,
Xislati behudau gashti parishon etti dog‘.

Raxti otashkor yanglig‘ sinai afgorman,
Qatra-qatra ashki surxu chashmi giryon etti dog‘.

Hech mahzun bo‘lmasun shohi jahonidin judo,
Komila men xastani ul shohi xubon etti dog‘.

* * *

Gul yuzungni ko‘rdi xandon o‘ldi bog‘,
G‘uncha ochildi, guliston o‘ldi bog‘.

Qatrayi shabnam emas gul bargida,
Topmayin vaslingni giryon o‘ldi bog‘.

Gul bo‘lub barbodu sunbul shefta,
Sensiz, ey ra’no, parishon o‘ldi bog‘.

Sendin ayru bu chaman ruxsorida,
Rang emastur qip-qizil qon o‘ldi bog‘.

Gulshani ayshim mudom obod edi,
Emdi hijroningda vayron o‘ldi bog‘.

Ketti bu gulshandin ul sarvi ravon,
Hajridin yer birla yakson o‘ldi bog‘.

Qon sochar ashkim sahobi Komila,
Yig‘ladim dasht-u biyobon o‘ldi bog‘.

* * *

Musibat ichra kim bo'ldi parishonhol men yanglig'?
Kim o'ldi mehnatu kulfat aro pomol men yanglig'?

Aningdek motamiman shahsuvorim hasrati birlan,
Emas baxti qarolik ichra zulfu xol men yanglig'.

Ko'rub jismi, qaro aylab libosin, tinmayin yig'lab,
Tuganmas mehnatu g'am ichra yo'qtur nol men yanglig'.

Qolib sultoni oliyqadu Jamshid iqtidoridin,
Balo-u dard chekmog'liqg'a kimdur dol men yanglig'.

Ko'rub ahvolimi, ey hamnishinlar, rahm eting, kulmang,
Sarig' ruxsor uzrakim to'kdi ashki ol men yanglig'.

Rizo bazmida g'am soqiylarini ilgidin doim,
Fano jomini kim no'sh etti molomol men yanglig'.

Tushub ayru bu yanglig' shohi diljo'yidin Komila,
Kim o'ldi ranj-u mehnat ichra moh-u sol men yanglig'.

* * *

Qon to'kar maydon aro ul barqijavlon har taraf,
Mavj urar daryo kabi maydon aro qon har taraf.

Har qachonkim azmi maydon etsa ul chobuksuvor.
Butrashurlar dahshatidin ahli maydon har taraf.

Navbahor o'ldi yana shamshod qadlar chekti bosh,
Jilva aylar bog' aro sarvi xiromon har taraf.

Notavon ko'nglumni g'am dashtida derlar xorpusht,
Chunki behad sanchilibdur xori hijron har taraf.

Ruhparvardur dabistgoni nazokat bog' aro,
Ochilib gul daftari bulbul g'azalxon har taraf.

Qildim ul ko‘z olida dardi dilimni oshkor,
Chekti qatlimg‘a sinonlar xayli mijgon har taraf.

O‘tti parron o‘qlari ko‘ksumdin ogoh o‘lmadim,
Komila qoldi yurakda zaxmi paykon har taraf.

* * *

Muhabbat jomidin jon ichti furqat.
Chekarman na’ra har soat urub kaf.

Seni, ey nozanin, bazm ichra topmay,
Qilur faryod-u afg‘on nay bila daf.

Magar mijgonlaring qonim taloshur,
Qilur mahmiz bir-birga ikki saf.

Bukun zuhd ahlidin ozurdadurmen,
Kecha mayxonaga erdim mukallaf.

Tabiat zodasin asra ko‘ngulda,
Chiqarma tashqari bo‘lmay muzallaf.

Zihi davlat agar ul mahliqoni
Ko‘zum bo‘lsa jamoliga musharraf.

Bo‘lur nuri nazar andin ziyoda,
Yuzung Mus’haf, xating oyoti Mus’haf.

Pari husniga qilmasman nazzora,
Ki andin Komila yorimdur altaf.

* * *

Chekti mijgonlari to qatlima saf,
Qoshi yosig‘a ko‘ngul bo‘ldi hadaf.

Ul pari chehra ayog‘i izidin,
Lillahi hamdki ko‘zum topti sharaf.

Havasu hirs-u havo birla menga,
Naqdi avqoti sharif bo‘ldi talaf.

Karbalo dashtini ovorasiman.
Qil hidoyat menga, yo shohi Najaf.

Bazm aro navhai motam bo‘ldi.
Sensizin savti navoi nayu daf.

So‘z bila so‘zni tafovutlari bor,
Teng emas qadrda dur birla xazaf.

Dur tishing vasfini daryog‘a dedim,
Bahr ostida quloq soldi sadaf.

Yig‘ladim Komila faryod etib,
Boqmadi yor bu devona taraf.

* * *

Yordin ayru ko‘zumni intizor etti firoq,
Qolmadi sabr-u qarorim, beqaror etti firoq.

Xoki poyingni ko‘zumga totiyo qilmoq uchun,
Ixtiyorim bor edi, beixtiyor etti firoq.

Yorsiz devonamen ma’zur, ey ahli xirad,
Oqili davron edim Majnun shior etti firoq.

Vasl aro pinhon edi holi dilim ag‘yordin.
Xalq aro rasvolig‘imni oshkor etti firoq.

Aylabon javr-u sitam xoki tanim tufrog‘ini,
Poymoli hodisot aylab g‘ubor etti firoq.

Vasl gulzorida gul shohidek erdi izzatim,
Bo‘ldi ayyom xazoni hajr xor etti firoq.

Yig‘lamoq birla beray sayqal ko‘zum oyinasin,
Orzumandi jamoli shahriyor etti firoq.

Soqiyo, keltur qadahkim yorsiz maxmurmen,
Nash’ai iqbolni ranj-u xumor etti firoq.

Hajr shomida sipehr anjumlaridin qil qiyos,
Komila, dog‘i dilimni beshumor etti firoq.

* * *

G‘amda qoldim, ketti jonon, alfiroq,
O‘rtadi jonimni hijron, alfiroq.

Ketti shohim ko‘z yoshim selobidin,
Qasri ayshim bo‘ldi vayron, alfiroq.

Rahm eting, ey do‘stlarkim, yorsiz
Bo‘lmisham besabr-u somon, alfiroq.

O‘rtadi barqi vido’idin ko‘ngul,
Borgach ul xurshidi tobon, alfiroq.

Barqi hijron baski olamsoz edi,
Kuydi bag‘rim, o‘rtadi jon, alfiroq.

Qolmisham ul nozanin hijronida,
Dilfigoru diyda giryon, alfiroq.

Komila ul mahliqodin ayrilib,
Bo‘ldi ahvolim parishon, alfiroq.

* * *

Zihi jamolingga bu chashmi xunfishon mushtoq,
Yuzungga mardumi chashmu labingga jon mushtoq.

Jahon chirog‘i edi oftobi ruxsoring,
Jahonga bir yana kelkim, senga jahon mushtoq.

Bu kecha xilvatima, ey pari, xiromon kel,
Ki sen erursen ushal yor-u men hamon mushtoq.

Tag'oful etmaki ko'nglumdur orzumanding,
Labingga jon-u qading sarviga ravon mushtoq.

Ne yaxshisen nazar etmoq senga yomon ermas,
Yuzungni ko'rmak uchun yaxshi-yu yomon mushtoq.

Yuzung quyoshig'a zarroti kavn sargardon,
Jamoling oyig'a yer birla osmon mushtoq.

Taarruz aylasa, ey gul'uzor Komiladin,
Erur visolingga bu zor-u notavon mushtoq.

* * *

Ey naxli chaman qaddi niholinga tasadduq,
Bog'u olmasi, ruxsorai olinga tasadduq.

Qad birla xirominga fido sarv-u sanubar,
Rayhon-u binafsha xatu xolinga tasadduq.

Charx uzra hilol o'ldi yuzung oyig'a qurbon,
Xurshidi jahongard jamolinga tasadduq.

Yodingda jahon ayshi menga bo'ldi faromush,
Qildim hama olamni xayolinga tasadduq.

Davron chamani birla jahon bog'ini ayshi,
Ruxsorai Firdavs misolinga tasadduq.

Ey maykadai ishq gadoyi qilur erdi,
Chini siynai fag'fur safolinga tasadduq.

Sargashta soching sunbulidin nofai totor,
Oxun Xo'tan ikki g'izolinga tasadduq.

Ey Komila, ishq ichra ajab saltanating bor,
Yuz jon-u jahon jol-u jalolinga tasadduq.

* * *

To diydai hayron ula diydoringa mushtoq,
Jon bulbulidur gulshani ruxsoringa mushtoq.

Kelgil beri, ey sarvi ravon, diydai hayron,
Ul qomati mavzun ila raftoringa mushtoq.

To'ti shakaristonda qilib tarki halovat,
Guftoring ila la'li shakarboringa mushtoq.

Yuz chok soching hasratidin shona yuroki,
Mashshota erur turrai tarroringa mushtoq.

Sohilda chaman gulshani diydoringa tolib,
Daryoda sadaf gavhari guftoringa mushtoq.

Zohid labi maygununga sargarmi tamanno,
Mayxona eli nargisi xumoringa mushtoq.

Ushshoq maqomida jigarsuz navo qil,
Ahbobdur, ey Komila, ash'oringa mushtoq.

* * *

Ey ko'zum oyinasi, yo jamoliga boq,
Javhari jon orzu qil, ul xat-u xolig'a boq.

Savmaadin maykada fayzi farahbaxsh erur.
Jom safosini ko'r, boda ziloliga boq.

Ko'yi esa orzu sayri chaman aylagil,
Qaddig'a mushtoq esang', sarvi niholiga boq.

Telba ko'ngul xatidin mushki junun ayladi.
Yor yuzm shavqida toza xayolig'a boq.

Bo'ldi ko'ngul vahshisi sunbuli zulfig'a band.
Sherni sayd ayladi chashmi g'izolig'a boq.

Zulfini andeshasi dilg‘a desam tong emas,
Lom ila payvastadur zulfini dolig‘a boq.

Boshdin ayog‘i aning dilg‘a dalolat qilur,
Bovar agar bo‘lmasa lom ila dolig‘a boq.

Harnaki shaydo ko‘ngul shavqida qilur.
Ishqni mazmundur so‘zi maolig‘a boq.

Mamlakati husn aning davrida obod o‘la,
Husn elining shohilur johu jalolig‘a boq.

Zuhdu riyoyi bila noqis erursan hanuz,
Piri mug‘on xizmatin ayla, kamoliga boq.

Ter yuzung atrofida guldagi shabnam kabi
Komilaning vasfida durri maqolig‘a boq.

* * *

Yordin ayru meni bedilni zor etti falak,
Yoshurun dardi dilimni oshkor etti falak.

Ko‘zlarimni kavkabafshon ayladi anjum kabi,
Mahliqolarni yuzidin sharmsor etti falak.

Ketti ul xurshidi mahpaykar, ani hijronida
Intizor aylab ko‘zumni ashkbor etti falak.

Ixtiyorim bor edi har ishni qilsam ixtiyor,
Yordin aylab judo beixtiyor etti falak.

Erdi xoki paykarim anduh tog‘idin garon,
Poymoli xayli g‘am aylab g‘ubor etti falak.

G‘uncha gulshanda Azizi Misri istig‘no edi,
To nishot izhor etib gul bo‘ldi, xor etti falak.

Komila, ko‘z tutma gardundin muruvvat kim, base,
E’tibori dahrin bee’tibor etti falak.

* * *

Qadingni olida, ey sarvi cholok,
Sanuvbar mast erur andog‘ki xoshok.

Menam ul andalibi beparu bol,
Fig‘onimdin qafasning siynasi chok.

Ul oy mehriga shuhrat istar ersang,
Kerakdur subh yanglig‘ domani pok.

Qadam qo‘ydung muhabbat ko‘chasiga,
Qo‘lingda har na borin qilma imsok.

Shabi g‘am sensiz, ey shohi falakjoh,
Qilur ohim sharorin sayri aflok.

Falak taxti nishimangohi erdi,
Darig‘o bo‘ldung oxir to‘dai xok.

Bo‘lubtur Komila hijron g‘amidin,
Ko‘zum giryonu ko‘nglum zor-u g‘amnok.

* * *

Bu kecha ohim falak saqfini vayron etgudek,
Ko‘kla anjum gullarin har yon parishon etgudek.

Sendin ayru dard-u hasrat birla, ey oromi jon,
Seli ashkim ofiyat mulkini vayron etgudek.

Chora qil, vasling payomi birla, ey joni jahon,
Yo‘qsa hijroning meni besabr-u somon etgudek.

Yor vaslidin xabar yetkur manga, bodi sabo,
Dardi hijron ibtilosi g‘orati jon etgudek.

Bordingu jonimda osori halovat qolmadi,
Kelki bu hasrat giribonimni domon etgudek.

Bo‘lmasa ul sho‘xi shahrosho‘b bu mahfil aro,
Bodai ayshimni hijron og‘usi qon etgudek.

Ishq gulzorida gul vasli g‘animat necha kun,
Tinmayin, ey bulbuli devona, afg‘on etgudek.

Ko‘hkan, tush tog‘din, Majnun, biyobon tarkin et,
Kim bu kun ohim ko‘zum yoshini to‘fon etgudek.

Komila, ul yor savdosida tark aylab havas,
Ishq shohini ko‘ngul taxtida sulton etgudek.

* * *

Oshiq ersang ey ko‘ngul, oh-u fig‘on etmak kerak,
Yor la’lin yod etib, bag‘ringni qon etmak kerak.

Qilma jonon bulhavasni mahrami bazmi visol,
Oshiqi sodiqni avval imtihon etmak kerak.

Ey ko‘ngul, bebahra qolding shayxni irshodidin,
Emdi borib xizmati piri mug‘on etmak kerak.

Ey nasimi oh, ul sarvi sihi raftorig‘a,
Nomai shavqingni paydarpay ravon etmak kerak.

Ey sumanbar, furqatingdin ko‘nglum ichra har taraf,
Dog‘lar gul qildi sayri guliston etmak kerak.

Nuktai mavhumdur og‘zing anga yetmas xayol,
So‘zlabon ul nukta asrorin bayon etmak kerak.

Komila kuydum firoqida judolig‘ dardidin,
Hasbi holimga qalamni tarjimon etmak kerak.

* * *

Senga ishq maydonida javlon aylamak,
Menga odat jonni qurbon aylamak.

Go‘y etib boshimni bu maydon aro,
Maqsadim zulfungni chavgon aylamak.

Murg‘i dil saydi uchun odat senga,
Domi zulfungni parishon aylamak.

Qilmagil vayron ko‘ngullar mulkini,
Mushkul ishdur mulki vayron aylamak.

Bandalig‘ osorida oson emas,
Xizmati dargohi sulton aylamak.

Sel tug‘yon etsa to‘fonxez o‘lur.
Bo‘yladur ashkimga tug‘yon aylamak.

Bevafolig‘ shevasidindur ishing,
Bevafolar bag‘rini qon aylamak.

Mulki dunyokim baqosi yo‘q aning,
Hojat ermas kasru ayvon aylamak.

Komila emdi munosibdur menga,
Ishq aro da’voyi irfon aylamak.

* * *

G‘amza tig‘i birla ishq ahlini aylarsen halok,
Nola aylar har taraf yuz dilfitoru siyna chok.

Bo‘ldi to ag‘yor laling bodasidin komyob,
Bizni qildi mustamandu xastaholu dardnok.

Ko‘rgach ul sarvi ravon boshida dastori binafsha
Rashklin savsang‘a o‘t tushti, binafsha bo‘ldi xok.

Qildi la'li mayparasting hasrati bag'rimni qon,
Bog'ladi boshdin ayog'im obila andog'ki tok.

Chun ko'zum tushti yuzung xurshidig'a, ey mahjabin,
Sham' yanglig' ishq barqi o'rtadi jismimni pok.

Ta'na toshi birla majnuningni afgor etmakim.
Telbalar nomusig'a sangi malomatdin na bok.

Bo'ldi murg'i dil asiri domi zulfi Komila,
Qildi faryodim qafasdin siynasini chok-chok.

* * *

Ey musohiblar, mening dardimga bir darmon eting,
Yor payg'omini deb mushkullarim oson eting.

Qilmangiz qonlig' ko'ngul asrorini zohidga fosh,
Muhtasib fahm etmasun may shishasin pinhon eting.

Ey pari ruxsorlar, ishq ahliga ruxsor oching,
Jilva savdosi bila oyinani hayron eting.

Dam-badam javlon etib, ey sho'xlar, maydon aro,
Xasta ko'nglumni nishoni novaki mujgon eting.

Jilvagardur har taraf gulgun qabo mahbublar,
Ey muhabbat ahli, yor istab, yurakni qon eting.

Qilsangiz dildo'zi mijgon tirkashin, ey sho'xlar,
Chokdur ko'nglum aning qoshi yosig'a qurbon eting.

Bo'lg'usidur shomi g'am sham'i shabi hijroningiz,
Zinhor, ey benavolar, dog'i dili somon eting.

Qilmang, ey ahbob, ul ruxsordin qat'i nazar,
Lablari yoqutini, albatta, quti jon eting.

Komila shohim safar qildi jahondin do'stlar,
Sham' yanglig' yosh to'kub, motam tutub afg'on eting.

* * *

Bording ahbobga bir noma savod aylamading.
Bizni rasvoyi jahon etdingu yod aylamading.

Na ravokim, o‘lsa ushshoqlaring g‘ussa bila,
Bir boqib g‘amzadalar ko‘nglini shod aylamading.

Ey ko‘ngul, ishqni hayrat bila pinhon tuttung,
Xo‘b qildingki, junun birla fasod aylamading.

Uzmading yorni zulfidin umidingni, ko‘ngul,
Rishtayi joning edi qat’i murod aylamading.

Ey sanam, boda ichib, yuzni qizortib maydin,
Orazing molini xurshid nihod aylamading.

Mujda novaklarini g‘amza bila otqonda,
Men devonag‘a bir o‘qni kushod aylamading.

Senki bu davrda husn ahlig‘a sultondursen,
Ne uchun ishq eliga adl ila dod aylamading.

Komila, ayrilib ul shohi jahonparvardin,
Ofarin sengaki, faryod ila dod aylamading.

* * *

Menga, ey falak, qasdi jon aylading,
Firoq ilgida notavon aylading.

Surayyodur ohim o‘qiga nishon,
Qadrimni ul o‘qg‘a kamon aylading.

Vafo ko‘rmading charxdin, ey ko‘ngul,
Falakni base imtihon aylading.

Chekib tiyri mijgon qoshi yosini,
Yurak dog‘in anga nishon aylading.

Yoshurding labing donayi xolini,
Yuzumni bu g‘amdin somon aylading.

Visolini hijron etib, ey firoq,
Latofat bahorin xazon aylading.

Yurak dog‘in, ey Komila, g‘ayrdin,
Base xo‘b qilding nihon aylading.

* * *

Qadim sarv-u labim chun g‘uncha dermish la’li durboring,
Inonma, ul ikovda yo‘q sening guftoru raftoring.

Jahon bog‘ida hech kim ko‘rgan ermas yuz-u zulfungdek,
Gulu sunbul niqobi yo meningdek bulbuli zoring.

Senga ushshoq eli ko‘ngul berib jon ham kelgurmishlar,
Kasod etma muhabbat raxtini so‘rmay xaridoring.

Nigohing tiyri o‘tti jondinu tiyri mijang dildin,
Qurulmish xo‘blig‘ shahrida mundog‘ tez bozoring.

Na yolg‘uz xirmani Mansurni ul bod sovurdi,
Tutar tan tufrog‘in ul yelg‘a doyim dil oshkoring.

Tag‘oful toshi birla shishai tab’imni sindurding,
Erur in’omdin ortuq sening bu nav’ ozoring.

Yugurdi Komila faryod ila ko‘yingg‘a, ey dilbar,
Va lekin topmadi ul ko‘y aro bir zarra osoring.

* * *

Mulku jahonim, ey shahi davron, tasadduqung,
Mulku jahon na bo‘lg‘usidur, jon tasadduqung.

Yuz jonim o‘lsa lahzada qurboning aylaram,
Vaslim nisoring o‘lsinu hijron tasadduqung.

Giryon ko‘zumni yoshiga nazzora qilmading,
Gavharlar etti didai giryon tasadduqung.

Bir yo‘l yana qoshimga kulib kelki, aylanay,
Molu manolu ne’mati alvon tasadduqung.

Yetkursa gar nasim visoling payomini,
Qilmasmu o‘zini oshiqi hayron tasadduqung.

Gulzori husn sabzayi xatting bahoridur.
Fayzi bahoru sayri guliston tasadduqung.

Yodingda sarf bo‘ldi xazoyin javohiri,
Emdi bu joni besaru somon tasadduqung.

Qad birla qoshingni xiromi agar budur,
Shamshod birla sarvi xiromon tasadduqung.

Jon-u dilini senga fido qildi Komila,
Ey yor, kelki, bo‘ldi dil-u jon tasadduqung.

* * *

Ey sarvi ravon nadur xayoling,
Jon o‘rtadi va’dayi visoling.

Payvasta duoyi xayr etarmen,
Maqsudim erur sening kamoling.

Ul oyni yuziga bahs etarsen,
Yetmish magar, ey quyosh, zavoling.

Zuhd ahliga Salsabilu Kavsar.
Basdur menga rashhayi zuloling.

Chiqmasda hanuz xat-u savodi,
Mus’hafda muborak erdi foling.

Jamshidni jomidin ziyoda,
Ey rindi gado, sinuq safoling.

Ushshoqlaring g‘amingda o‘ldi,
Yo‘qtur seni zarraie maloling.

Ey xasta ko‘ngul, firoq ichida,
Dam urgali qolmadi majoling.

Ey Komila, lofi ishq urarsen,
Mashhuri xaloyiq o‘ldi holing.

* * *

Bir kun yana boshimni go‘y aylasa chavgoning,
Xoki tanim o‘lg‘aymu gardi rahi javloning.

Chun husn eli shohi ushshoqni qatlig‘a,
Farmon xati la’lingdurmen bandai farmoning.

Dardimni davosini so‘rmon hukamolardin,
Jon zaxmiga marhamdur ko‘ksumdagi paykoning.

O‘n to‘rt erdi yoshing bordur menga ravshanroq,
O‘n to‘rt kechalik oydin ruxsorai toboning.

Payvasta qilur qoshing qatlimg‘a ishoratlar,
Jallod ko‘zung turku xanjar anga mijgoning.

Ishq ichra qadam qo‘ydum, hasrat o‘tig‘a yondim,
Ey do‘stlar, albatta, kelmang bu taraf, yoning.

Ey Komila, sharh etting ul mo‘yi miyon vasfin,
Jon rishtasidin bo‘ldi sherozai devoning.

* * *

Chekti boshim uzra chun shamshiri mushkin qoshlaring,
Qildilar payvasta taslimimga tahsin qoshlaring.

Toqi abro‘ lavhida chini itob insho qilib,
Besabab qatlim uchun zohir qilur kin qoshlaring.

Mus'hafi ruxsoring uzra maddi bismillahdur,
Ayladi sharhini ishq ahliga talqin qoshlaring.

Xonaqahda do'ndurub zohid yuzin mehrobidin,
Kim musulmonlarg'a bo'ldi ofati din qoshlaring.

Safhai gardun aro qavsi quzah aksimudur,
Yo quyoshg'a ko'rguzur nayrangi mushkin qoshlaring.

Gah ishorat birla qatl aylar, gahi iymo bila,
Kim to'kar tufrog'a oshiqlarni qonin qoshlaring.

Ehtiyot et gullaringni gar emas gul o'g'risi,
Husn bog'ida na deb xam bo'ldi gulchin qoshlaring.

Rashkdin noxun kabi tufrog' aro kirdi hilol,
To sipehri husn uza ko'rguzdi tamkin qoshlaring.

Komila afg'onidin ogoh emas nargislaring,
Begunahlar qonig'a ko'b bo'ldi zomin qoshlaring.

* * *

Meningki hajr jafosi bila halok etting,
Firoq tig'i bila ko'kragimni chok etting.

Muruvvat aylamading, ey sipehri siflanavoz,
Meni sitamzadani g'ussa birla xok etting.

Raqib dardig'a qilding iloj vasling ila,
Bu g'ussa birla meni zor-u dardnok etting.

Menga musohib o'lub, ey junun, karam qilding,
Ki aql vasvasasidin ko'ngulni pok etting.

Azimat ayladi yor, ey sipehr, xushdilman,
Ki jon ragin ani na'laynig'a shirok etting.

Vujudi oshiq-u ma'shuq birdur, ey gardun,
Ul iki yorni bir-biridin alfkok etting.

G'amingda Komila bisyor notavondurman,
Muruvvat aylamayin g'am bila halok etting.

* * *

Sendin ayru, ey shahi farxundafol,
Xayli g'am boshimni qildi poymol.

Butmadi hargiz jahon gulzorida,
Qomating sarvi kabi zebo nihol.

To nazardin g'oyib o'ldung, ey pari,
Telba ko'nglum ichra qoldi yuz malol.

Har qachon oshufta bo'lsa xotirim,
Sunbuli zulfungni aylarman xayol.

Jonima shahdi halovat yetkurur,
Obi hayvoni labing Kavsar misol.

Oyina qarshu tushub diydoringa
Men kibi suv qildi oning infiol.

Soz etarman nolai beixtiyor,
Qilsa ko'nglum yodi ayyomi visol.

Mahv o'lur hayratda oy birla quyosh,
Yor no'gah aylasa arzi jamol.

So'z kalomiga yeturdum, Komila,
Yorim erdi xisravi sohib kamol.

* * *

Ko'zum yo'lingdadur, ey sarvi gul'uzorim, kel,
Ko'ngulda qolmadi sabr-u qaror, yorim, kel.

Meni asirga sensiz jahon emas hojat,
Jahon charog‘i, safobaxsh ro‘zgorim, kel.

Itob zohir etib tund borganingda dedim:
Ki bog‘i ayshim xazon o‘ldi, navbahorim, kel.

Meni gar o‘lturosen tig‘i noz ila o‘ltur,
Qo‘lingni qonima aylab hino, nigorim, kel.

Bu bazmdin kechakim mast bording, ey soqiy,
Ziyoda bo‘ldi mening mehnati xumorim, kel.

Qoshing qilichi-yu mujgon xadangi birla bukun,
Ko‘ngul diyorini fath ayla, shahsuvorim, kel.

Yuzungni hajrida toqat bila majolim yo‘q,
Alimda qolmadi bir zarra ixtiyorim, kel.

Bu yo‘llagan safaringdin hanuz kelmassan,
Oqardi yo‘lga boqib chashmi intizorim, kel.

Hanuz Komila ul oyga intizor ko‘zum,
Na bo‘ldikim demas, ey zor-u dilfigorim, kel.

* * *

Yordin ayrilding, ey mahzun ko‘ngul, ovora bo‘l,
Hajr dardiga topolmay choraye bechora bo‘l.

Bemahoba ishq maydonida javlon ayladim.
Qoshi yolar tig‘idin boshdin ayog‘im pora bo‘l.

Derman ul chobuksuvorim itlari qilsun gizo,
Pora-pora bag‘rimi har porasi yuz pora bo‘l.

Ishq oshubida hijron ibtilosi sa’bdur,
Bo‘ldum ul oydin judo, ey ko‘z yoshim, sayyora bo‘l.

Ey dili devona, oshiqlig‘ni qilding ixtiyor.
Dardi ishq oson emastur emdi sangi xora bo‘l.

Ol ila zoli falak qoningni to‘kdi oqibat,
Kim dedi, ey dil, senga maftuni ul makkora bo‘l.

Gar tilarsen bahra topmoq lazzati diydoridin,
Komila ko‘zgu kabi hayroni ul ruxsora bo‘l.

* * *

Jamoli yor istarsen gulistondin tamosho qil,
Meni giryon ko‘zumni abri naysondin tamosho qil.

Nechukki oy shuo’i ravshan o‘lmish mehr tobidin,
Jamoli partavin xurshidi tobondin tamosho qil.

Emas ko‘zgu dame kayfiyati diydordin g‘ofil,
Tajalli nash’asin chashmi hayrondin tamosho qil.

Muhabbat surmasidin ko‘zni ravshan ayla, ondin so‘ng
Hidoyat nurini ruxsori jonondin tamosho qil.

Junun savdosidin oshuftalig‘lar tushti boshimg‘a,
Meni holimni ul zulfi parishondin tamosho qil.

Qamishdek band-bandim oshyoni nola bo‘lmishdur.
Fig‘onim dastgohini nayistondin tamosho qil.

Ko‘ngul tashvishini zulfi parishonida ko‘rganda,
Jigar qon o‘ldug‘in ul la’li xandondin tamosho qil.

Bo‘lub Adhamsifat yak boragi olamni tark etmak,
Bu ishni hazrati sayyid Umarxondin tamosho qil.

Emas ehson jazosi g‘ayri ehson himmat ahliga,
Bu ma’ni Komila tafsiri Qur’ondin tamosho qil.

* * *

Qolib furqat diyori ichra jononimni sog‘indim,
Charog‘i ro‘zgorim munisi jonimni sog‘indim.

Gulistondur visoli mahfili, men andalib anda,
Guli ayshim xazon o‘ldi gulistonimni sog‘indim.

Ko‘rub ko‘nglumda yuz ozor, ey bedard, ta’n etma,
Muruvvat ko‘rguzub rahm etki, sultonimni sog‘indim.

Chamanda jilva qildi sarv ila gul, sabza bosh chekti,
Qadi sarv-u yuzi gul, xatti rayhonimni sog‘indim.

Havoyi ishq sargardoniman, oromu sabrim yo‘q,
Parishon zarradek xurshidi tobonimni sog‘indim.

Ko‘zumdin yosh to‘kub, giryon o‘lub qon yig‘lamay naylay,
Ki hangomi takallum la’li xandonimni sog‘indim.

Ko‘zum mardumlari Ya’qubdek hayrat xazonidur,
Azizi Misri davlat shohi Kan’onimni sog‘indim.

Menga davri falakdin bo‘lmadi bir lahza osoyish,
Parishon holman, sultoni davronimni sog‘indim.

Arabdin to Ajam mashhur edi ul shohlar shohi,
Ki, Eron oftobi mohi Turonimni sog‘indim.

Qizil qondur ko‘zum yoshi sabo yetkur salomimni,
Guli sadbarg yanglig‘ pok domonimni sog‘indim.

Tikarman Komila g‘am yo‘lida koza Zulayxodek,
Kim ul Yusufliqo Sulton Umarxonimni sog‘indim.

* * *

Muddatedurkim, jahon ahliga yo‘qtur ulfatim,
Balki o‘zlukdin malul etmish meni o‘z suhbatim.

Tiyradur ul oydin ayru hajr shomi xilvatim,
Nuqli g‘am bo‘lmish g‘izo, xuni jigardur sharbatim.

Muddao bir yor edi olamni gir-u doridin,
Yo‘qsa bu dunyoni g‘avg‘osiga yo‘qtur rag‘batim.

Ey sipehri bemuruvvat, mehr-u mohingni netay,
Ketti yer ostiga sultoni humoyun tal’atim.

Orzu qasrini bunyod ayladim mehnat bila,
Buzdi selobn havodis, bo‘ldi zoe’ mehnatim.

Ey musohiblar, tirikdur deb gumon etmang meni,
Jismdin joni azizim ketti, qolmish suratim.

Hajr dardi muhlik ermish o‘lsam, ey ahboblar,
Zinhor ul yorni ko‘yida aylangiz siz turbatim.

Yor hijronida yo‘qtur boru yo‘qumdin asar,
Na o‘lukman, na tirik, ma’lum emas mohiyatim.

Arsai mulki jahon harchand farmonimdadur,
Sensiz, ey oromijon, manzur emas bu davlatim.

Sharbati vasl istadim zahrobi g‘am bo‘ldi nasib,
Naylayin men ham azal kundin bu ersa qismatim.

Komila dunyoga hargiz e’tiqodim qolmadi,
Ketti iqlimi adamga shohi Doro shavkatim.

* * *

Gulu lola mavsumidur qani yori dilnavozim,
Nazarimdin o‘ldi g‘oyib sanami suxantirozim.

Hama saydi orzudur bu jahon shikorgohi,
Netayin qo‘lumdin uchti bu mahalda shahbozim.

Menga sham’i anjumandek na junun erur, na savdo,
Ki yorutti hajr shomin kecha so‘z ila gudozim.

Senga ko‘p edi muhabbat, kam edi bu g‘amda toqat,
Ki tamom bo‘ldi g‘orat talabingda ko‘p-u ozim.

Menga orzu visoling, menga muddao xayoling,
Nazarimdadur jamoling hama nozdur niyozim.

Madad etsa baxt shoyad, yana bir yuzungni ko‘rsam,
Qadamingni ko‘zga sursam, karam etsa Korsozim.

Kima aytayin g‘amimni, na iloj etay, na chora,
Senga yetmadi darig‘o, ko‘p edi ko‘ngulda rozim.

Kechalar namoz qilsam menga qibladur jamoling,
Yuzung o‘lmasa nazarda na ravodur ul namozim.

Dedim ishq jazbasidin senga, Komila, kalome,
Ki haqiqat iqtizodur hama nuktayi majozim.

* * *

Necha kun bo‘ldi ketibdur xam anisim g‘amkashim,
G‘am biyobonida dard ayturga yo‘qtur bir kishim.

Dudi ohim chiqsa gardunga sarapo chirmashur,
Toqatim toq o‘ldi Jayhundek oqib ko‘zdin yoshim.

Bu judolig‘ hajrida afg‘on chekib shom-u sahar,
Kelgil, ey hamxona, ortibdur seningchun nolishim.

Dahr ichra bormu mendek ayru gulruxsoridin,
Ey rafiqim, bu jihatdindur sening birla ishim.

Munisim, kelgilki, izhor aylayin dardi dilim,
Nukta yozmay necha kunlardin beri qotti boshim.

G'amda o'ldum, g'ussada kuydum, ilojim topmadim,
Emdi hasratlar bilan kechsun meni yozu qishim.

Ohkim, zulmi falakdin bo'ldi axgar Komila,
Sabru oromim ketib, o'rtab kuyar ichu toshim.

* * *

Ko'zum hayratfizodur azmi maydon aylasun shohim,
Ko'ngul maydonida bir lahza javlon aylasun shohim.

Samandi noz uza maydon aro javlon etib har yon,
Ko'ngullarni nishoni tiyri mijgon aylasun shohim.

Chekar qosh yosini qatlimga qurbonmen sadoqinga,
Yurak zaxmiga marham neshi paykon aylasun shohim.

Ko'zum qon yosh to'kub gullar ochildi toza dog'imdin,
Bukun bir dam kelib sayri guliston aylasun shohim.

Erur bu notavon joni hazin mushtoqi diydori,
Bu kun bazmi visoli ichra mehmon aylasun shohim.

Ko'ngul bog'ida ohim naxlidin tuzdim xiyobonlar,
Zamone anda gulgashti xiyobon aylasun shohim.

Shabistondur ko'zumni manzari ul oy firoqida,
Kelib ashkim nujumidin charog'on aylasun shohim.

Jahon gulzorida tarki tamosho ayladi, yo Rab,
Tamashoi riyozi bog'i Rizvon aylasun shohim.

Agarchandiki diydorin ko'zumdin ayladi pinhon,
Xayolini ko'ngulga munisi jon aylasun shohim.

Firoqi ibtilosi birla ko‘nglum dardmand o‘ldi,
Menga vaslin davoi dardi hijron aylasun shohim.

Kelib, ey Komila, kulbam sari fayzi qudumidin,
Ko‘ngul vayronasin taxti Sulaymon aylasun shohim.

* * *

Guzargohida tiktim ko‘z-a, parvo qilmadi shohim,
G‘ururi husnidin yodi Zulayxo qilmadi shohim.

Manga rom o‘ldi vahshiylar, vale nozu tag‘ofildin.
Jununim dastgohini tamosho qilmadi shohim.

Na bormondur kim ma’lum emas bir zarra osori,
Fano dashtida hargiz gard paydo qilmadi shohim.

Kelib holimni so‘rdi, xub qildi dilrabolikda,
Malomat ko‘yida oshiqni rasvo qilmadi shohim.

Qachon bodi sabo taklifi gulgashti chaman qildi,
Chekib qomat qiyomat oshkoro qilmadi shohim.

Raqiblar jonima qasd ettilar, bilmon gunohimni,
Manga imdod uchun hangoma barpo qilmadi shohim.

Firoqida necha g‘amnomalar tahrira kelturdum,
Aning mazmunida bir nuqta insho qilmadi shohim.

Ko‘ngul yuz pora bo‘ldi, Komila, sarg‘ardi ruxsorim,
Tamoshoi guli sadbargu ra’no qilmadi shohim.

* * *

Har qachonkim ul parivash vaslini yod aylaram,
Charx bunyodini bir oh ila barbod aylaram.

Garchi mahzunman o‘zum bir nozanin hijronida,
Benavo aftodalarni xotirin shod aylaram.

Tog‘ni bir oh ila homunda aylab ustuvor.
Ishq sahrosidagi Majnunni Farhod aylaram.

Necha turluk dog‘ ila ko‘ngulda oyin bog‘ladim,
Shohima mehr-u vafo mulkini obod aylaram.

Bo‘lmisham harchand hijroningda sabr aylab xomush,
Chun tusharsen yodima, yakbora faryod aylaram.

Qon yoshim tasvir etar har lahza ul gul suratin,
Ko‘zga kim mijgonlarimni kilki Behzod aylaram.

Qissayi Farhod-u Majnun qoldi, men ham ishq aro,
Komila, bir jongudoz afsona bunyod aylaram.

* * *

Bo‘lubman xalqdin begona, ul nomehribondin ham,
Erur jon vola ko‘nguldin, ko‘ngul ozurda jondin ham.

Samakdin to samo arz ettilar bori amonatni
Javobe bo‘lmadi ma’qul yerdin ham, osmondin ham.

Necha kundur nasimoso kezib gulzori olamni,
Nishon topmasman ul gulchehradin, sarvi ravondin ham.

Menga ul guldin ayru qilma taklifi tamoshokim,
Gulistondin xijilman, sayri bog‘-u bo‘stondin ham.

Seni deb dahrdin qat’i taalluq ayladi ko‘nglum,
Xalos etti o‘zini, olami vahmu gumondin ham.

Menga ahli xirad tashvishidin yo‘q erdi osoyish,
Junun imdod etib mundin qutuldim shukr, ondin ham.

Ishim yo‘qtur jahon ahlini yaxshi-yu yamonig‘a,
Muruvvat ko‘z tutib olamda yaxshi-yu yamondin ham.

Erur ishq-u muhabbat muddao ijodi olamdin,
G‘apaz bu jazbai tavfiqdur kavnu makondin ham.

Jahon sultoni erdi Komila yorimki, hajrida
Jahon ahliga istig‘no qilib, kechtim jahondin ham.

* * *

Menki qading sarvini yod ayladim,
Ohna sarko‘bi shamshod ayladim.

Oh chektim, nola to‘fon ayladi,
Charx bunyodini barbod ayladim.

Qondasen, ko‘rsat jamolingni menga,
Ey pari paykar, seni yod ayladim.

Ishq domig‘a giriftor aylabon,
Jonga bedod uzra bedod ayladim.

Itlaring xayli aro tun to sahar,
Nola qildim, oh-u faryod ayladim.

Urdi zulfung halqasi bo‘ynimda pech,
To xayoli domi sayyod ayladim.

Aylabon mavzun qadingni bandasi,
Sarvni bog‘ ichra ozod ayladim.

Nuna o‘xshatdim qoshing tasvirini,
Nargising bodomini sod ayladim.

Besutundur ishq tog‘i, Komila,
O‘zni jon chekmakda Farhod ayladim.

* * *

To bodasin labinga qilmish piyola taslim,
Qaddu yuzunga aylar gul birla lola taslim.

Bosh indurub yangi oy payvasta qoshlaringa,
Ikki qaro ko'zunga qilmish g'izola taslim.

Nogah sadaf eshitsa daryoda so'zlaringni
Gavharlarin qilur ul durri maqola taslim.

Qoshinga noz aylar husn ichra mohro'lar,
Xurshid aylagandek nurin hilola taslim.

Gar oftob ko'rsa husningni o'z shuo'in,
Beixtiyor aylar mohi jamola taslim.

Firdavsi noz ichra to'bi qading niholi,
Sarv aylasa ajab yo'q ushbu nihola taslim.

Og'zingki benishondur, vasfin xayol qildim,
Har nuqtani aylar ushbu xayola taslim.

Husnung tajallisida xurshid zarra yanglig',
Aylar qamar yuzunga monandi hola taslim.

Ey Komila, so'zumni gar ko'rsa abri nayson,
Gavharlarini aylar monandi jola taslim.

* * *

Zulfungi ko'rgach parishonholu besomoningam,
Qoshingni yoyina chun soldim nazar, qurboningam.

Shonadek choki dil ermas rangi ijodim mening,
Xonzodau xizmati zulfi abirafshoningam.

Baski hijron o'ti ko'nglum toshini suv ayladi,
Ko'zgu yanglig' aksi ruxsoring ila hayroningam.

Kimsa gar dushman erur holim ko'rub rahm aylamish,
Baski cho'x zor-u asiri hasrati hijroningam.

Mavj yanglig' suvga sol, yo sham' yanglig' o'tlara,
Ishq ichra har na bo'lsa bandai farmoningam.

Chekma ilgimdin itob aylab tarahhum domanin,
Rahm qilgilkim, g‘ubori go‘shai domoningam.

Sarnavishtim mavjdek keldi tapish birla shikast,
G‘arkai girdobi dard-u dog‘i bepoyoningam.

Naqshi poyingdin nazar qilg‘ilki bormen poymol,
Kokulung yanglig‘ tarahhum qilki, sargardoningam.

Shami ruxsoringdin ayru tiyra dildur Komila,
Dog‘ yanglig‘ dudmoni otashi hijroningam.

* * *

Nigori gulbadanimni tushumda ko‘rsam edi,
Labi shakarshikanimni tushumda ko‘rsam edi.

Ko‘z ochmayin g‘amida ro‘zgorim o‘tquchidur,
Ki yori siymtanimni tushumda ko‘rsam edi.

Chu davri rohatim o‘tti zihi saodat edi,
Murodi jon-u tanimni tushumda ko‘rsam edi.

G‘amida shona kabi chok-chokdur ko‘nglum,
Ki kokuli Xo‘tanimni tushumda ko‘rsam edi.

Yuzi gulu qadi shamshod, ko‘zlari nargis,
Bahoru yosumanimni tushumda ko‘rsam edi.

Jafoi hajr bila ko‘ksumi figor qilan,
Nigohi sehr fanimni tushumda ko‘rsam edi.

Labimga keldi aning vaslini tilab jonim,
Balo o‘ti fig‘onimni tushumda ko‘rsam edi.

Hamisha bulbuli tab’im fig‘onu zor etar,
Ki, orazi chamanimni tushumda ko‘rsam edi.

Firoq, Komila, ko‘nglumga dog‘lar qo‘ydi,
Amiri safshikanimni tushumda ko‘rsam edi.

* * *

To badandur jon maqomi umrxohi joningam,
To erur jonim badanda bandai farmoningam.

Xoki soringdin karam qil, chekmagil lutf etagin,
Bir g'uboringmanki mahvi go'shai domoningam.

Ey falak, jonimga bedod uzra bedod etmakim,
Bu yetarkim xasta holu zor-u sargardoningam.

Bo'ldi ko'nglum g'uncha yanglig' to tugunlar maxzani,
Zerdasti minnati ehsoni bepoyoningam.

Soqiyo, lutf et, darig etma inoyat sog'arin,
Kim bu kun maxmuri sahboi labi xandoningam.

Pora-pora bo'ldi jismim to jafolar tig'idin,
To erur tig'i zabon maddohi bu ehsoningam.

Noz uyqusida sendursen, vale men subhu shom,
Muntazirmen Komila ko'z yummayin hayroningam.

* * *

Subhlarkim hasrati ul shohi Turon aylaram,
Subh yanglig' mehridin choki giribon aylaram.

Shahsuvorim fikrikim, jon birla ko'nguldur menga,
Jismim ichra ko'ngul-u ko'ngul aro jon aylaram.

Ashki gulgunimki to'fon aylamish g'am shomida,
Xil'atim andin shafaq domonidin qon aylaram.

Dog'lar naqdinki ko'ngul maxzanida qo'ydi hajr,
Kimsadekkim ganj paydo qildi, pinhon aylaram.

Dini ishq inkorin etkanlarni aylay deb halok,
Ashk selidin bukun amvoji to'fon aylaram.

G‘unchai tab’imni qon ustiga qon etti malol,
Lutfungni fayzi nasimidin guliston aylaram.

Daftari nazmi duo deymu ani jam etmagil,
Boisi jam’iyati tab’i parishon aylaram.

Bandai farmon erurman har na kim farmon erur,
Odam ahlini fidoyi hukmu farmon aylaram.

Baski ermishman xavoxohi xavoyi davlating,
To erur boshim havoyi madhi sulton aylaram.

Shohlig‘ lutfi kamudur shohidi holim mening,
Komila bu vajh birla shukri ehson aylaram.

* * *

Menki furqat tunlari ul gul yuzin yod aylaram,
Bulbuledurman xazon faslida faryod aylaram.

Shomlarkim zo‘r etar ma’yuslik ul shohsiz,
Orzu jinsini bir oh ila barbod aylaram.

Bir kecha ko‘rdum tushumda ul jahonoro yuzin,
Dam-badam ul vajhdin g‘amgin ko‘ngul shod aylaram.

Surati yodida rangin fikrlardin har zamon,
Safhai fitrat aro tasviri Behzod aylaram.

O‘tqa soldi oh-u afg‘onim falaklar raxtini,
Har nechakim charx bedod etti bedod aylaram.

Xasta ko‘nglum ichra pinhon dog‘lardur, har zamon,
Kechalar tasbehdek yulduzni te’dod aylaram.

Menki jon birla rizo jo‘yandai farmoningam,
Komila, andin vafo mulkini obod aylaram.

* * *

Ko‘ngul jondinu jon qoldi ul joni jahondin ham,
Ko‘nguldin jona yettim, g‘am tunida balki jondin ham.

Tilarmen yuz biyobon qat’ini qilsam quyun yanglig‘,
Ki o‘tkayman visolin istabon kavnu makondin ham.

Duo birla payomi vasl yetkur, ey sabo, bir tun,
Aning ruhiga mendin, manga ul ruhi ravondin ham.

Agar hijron elin yori bo‘lmasa hosil,
Na hosil xonumondin, balki umri jovidondin ham.

Aning hijronida qon yig‘lamoqdin xush bo‘lur holim,
Ayirma, ey falak, bir lahza chashmi xunfishondin ham.

Harimi Ka’bai iqbolina yetsam budur maqsad,
Ki qilsam nola dog‘i hajr yori mehribondin ham.

Bo‘lubman, Komila, ul sarvi gulruxsordin ayru,
Ko‘ngul qondur havoi bog‘u sayri bo‘stondin ham.

* * *

Sensizin olam bahori sabzu xurram bo‘lmasun,
Qaysi olam, balki olam ichra odam bo‘lmasun.

Bulbula gulzorsiz ermas tamannoi navo,
Fursate chang-u navo bir lahza barham bo‘lmasun.

Davri lutf-u rayati iqbol sendin o‘zgaga,
Gardishi davron aro bo‘yla musallam bo‘lmasun.

Cendin oldi gardani taslim sarafrozlik,
O‘zgalarga gardani taslimimiz xam bo‘lmasun.

Komila, to sarvdur sarsabz bu gulzor aro,
Boshimizdin naxli qadding soyasi kam bo‘lmasun.

* * *

Ey mayi nobila ruxsorin guliston aylabon,
May kabi har dam ko‘ngullar g‘unchasin qon aylabon.

Chehrai gulfom birla may chirogin yondurub,
Turrai mushkin yozarda sunbuliston aylabon.

Bir tag‘ofildin qilon pomol sarkashlar boshin,
Yuz gadoni bir tarahhum birla sulton aylabon.

Bir tarafda xanjari mijgonidin qonlar to‘kub,
Bir tarafda bodani la’li labi jon aylabon.

Kechalar ruxsoridin izhor qilgon mohi badr,
Subhlar burqa’ ochib xurshidi tobon aylabon.

Zulfi mushkin birla qilgon nofai Chin oshkor,
Chashmi masti Komila jo‘shi xumiston aylabon.

* * *

Fig‘onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,
G‘amim cho‘x, ey ko‘ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.

G‘uborim ishq vodiysida barbod o‘ldi, andog‘kim,
Biyobonlarda Majnun to‘tiyo izlar g‘uborimdin.

Qizil qondur sirishkim, za’farondur chehrai zardim,
Meni kim ko‘rsa farq etmaz, xazon birla bahorimdin.

Buzuldi ro‘zgorim, xonai ayshim xarob o‘ldi,
Na rohat ko‘rg‘amen emdi buzulg‘on ro‘zgorimdin.

Biyobonlarni izlab topmadim yorim so‘rog‘ini,
Berurman jon, sabo nogah xabar keltursa yorimdin.

Diyorim ahli mendin yorsiz begona bo‘lmishlar,
Ki men ham yorsiz ozurdamen yor-u diyorimdin.

Gahi yirtib yaqo, gah qon yutub, gohi fig‘on ettim,
Nelar o‘tti bu axshom, Komila, joni figorimdin.

* * *

Ey labing joni kalomu jonfizo ruhi ravon,
Oshkorou nihondur surating jon uzra jon.

Kokuli shabrangdin qilding chamanlar oshkor,
Nargisi badmastdin qilding xumistonlar ayon.

Charx uzra sonma kavkablarki charog'on tunlari,
Dudi ohim shu'lasi uchqunlaridindur nishon.

Poralar bo'ldi xayoling nuridin jon pardasi,
Mohi tobon shu'lasidin o'ylakim bir Kahkashon.

Soqiyo, maxmurman charx etti nokomu zalil,
Aylag'il bir sog'ari may birla shohu komron.

Sen quyosh, men soyai pomol hasrat yo'lida,
Partavi altof ila bergil kuduratdin amon.

Bora-bora dudi ohim bo'ldi charx uzra sahob,
Toma-toma ko'z yoshim bo'ldi Muhiti begaron.

Novaki mijgonlariga noz-bozusi bila,
Qildi qurbon ko'nglimi ul xisravi abro' kamon.

Komila gar hajr aro zor o'lsa g'amdin tong emas,
Kim aning ko'ngli aro jondursen, ey jon-u jahon.

* * *

Sen bila olam munavvar mehri davrondurmusen?
Mulkdur sendin muzayyan shohi Turondurmusen?

Xatm o'lmish senga Tur rasmila olamdorlik,
Ey jahonoro muhiti gavharafshondurmusen?

Fayzi lutfung ila ochildi ko'ngullar g'unchasi,
Yo bahoristoni davlat, yo gulistondurmusen?

Shodmonlik sendin ermishdur jahon ahvoliga,
Muncha ham jam'iyati tab'i parishondurmusen?

Lutf-u xulqu donishu ehsonu aql-u saltanat?
Sendadur, majmuayi axloqi ehsondurmusen?

Ko'rmadim bir kimsakim, etmas damo-dam ofarin,
Senga tahsin bila ham tahsini davrondurmusen?

Tiyra xotirlarni ravshanhol aylarsen mudom,
Osmoni joh uza xurshidi tobondurmusen?

Xulqi exson birla olamni sarafroz aylading,
Olloh-olloh bu sifat davlatli sultondurmusen?

Komila ravshandur iqbolim charogi vasl aro,
Ko'zum ichra nur yo ko'nglim aro jondurmusen?

* * *

Oyildim ul quyoshni to araqafshon liqosidin,
Ko'zumga o't tushar xurshid ila anjum ziyosidin.

G'uborimdin nishon topmas quyun bir umr sayr aylab,
Ki man sargashtaman ul xisravi Turon havosidin.

Fig'onim sarv-u ohim sunbul o'ldi, g'uncha ko'nglum ham,
Chamanlar bo'ldi paydo hasratim nash'u namosidin.

Chu tarki jilva etti xisravi xurshid ruxsorim,
Ko'ngul ko'zgusi zangi hajr aro qolmish safosidin.

Falak, rahm ayla endi jon ila ko'nglumga jononsiz,
Ki ko'nglum jona keldi furqati zo'r ozmosidin.

Safar yo'lin nigori mehribonim cho'x uzoq o'ldi,
Topolmasman xalos o'lmak yo'lin hijron balosidin.

Meni holimga boqma, ey tabibi poktiynatkim,
Amon yo'qtur samumi hajr dardi bedavosidin.

Habibi orazin yodila chekti Komila unlar,
Havoi bulbulu gul qolmadi bargu navosidin.

* * *

Yordin qoldi chaman, sarsabzu xandon o'lmasun,
Gul'uzorimsiz jahon bog'i guliston o'lmasun.

Bo'lmasun gul ko'ksini ochib chamanda jilvagar,
Toki guldek hosilim choki giribon o'lmasun.

G'unchalar gulshan aro ochilmasun ul yorsiz,
G'uncha yanglig' to mening ko'nglum dagi qon o'lmasun.

Ochmasun zulfini sunbul bog' aro dildorsiz,
Toki sunbuldek mening holim parishon o'lmasun.

Tushmasun shabnam gul uzra guluzorimdin judo,
Toki shabnamdek ko'zum yoshi farovon o'lmasun.

Abri nayson lahza-lahza yog'masun gulzorga,
Abri naysondek ko'zum har lahza giryon o'lmasun.

Qilmasun bulbul chamanda nola-u faryodkim,
To ko'ngul bulbul kabi hajrida nolon o'lmasun.

Tushmasun ko'zum aning sarmanzilu ma'vosiga,
To ko'ngul qasri nadomat birla vayron o'lmasun.

Lola yanglig', Komila, ko'nglumga qo'ydi dog'lar,
Hech kim, yo Rab, asiri dog'i hijron o'lmasun.

* * *

Yirog‘ o‘lsam agar ul sarvi siymandom olidin,
Ko‘ngul siymob yanglig‘ suv o‘lur oning xayolidin.

Sabo, ey ishq ahini qosidi, o‘tsang agar nogah,
Nigorim ko‘yi sori voqif et bu xasta holidin.

Ko‘ngul sharhi g‘amin har xoma birlakim raqam aylar,
Qiyomat subhi bo‘lg‘uncha chekar bosh na nolidin.

Qoshi-yu og‘ziyu qaddi bila zulfin xayol aylab,
O‘lubman lol, uzlikdin ketib yorim jamolidin.

Chekar erdim firoqida necha kim ranj ila mehnat,
Firoqi biymida yuz oncha tortarman visolidin.

Nechuk asrori ishqin asrasun ul xastakim har dam,
Sarig‘ ruxsor ila zohir o‘lmish ashki olidin.

Magarkim, Komila, ko‘rguzdi ruxsori araqnokin,
Qizardi gul yuzi bog‘ ichra shabnam infiolidin.

* * *

Saharkim tushti o‘tlar jonima ul mehr siymodin,
Oshurdim oh-u afg‘on dudini najmi Surayyodin.

Maqome hosil ettim vodiyi ishq ichrakim, anga
Yetolmas sa’y ila Farhod-u Majnun ko‘hu sahrodin.

Tabibo, dardima shamshod bargidin davo qilkim,
Qamu bemorman ul sarv-u qaddi gulshanorodin.

Bahor ayyomi qon bo‘lg‘uncha ey shamshod bosh chekma,
Ki yettim jona sarv-u gul’uzorimsiz tamoshodin.

Basirat ahliga lofi nazar ursam ajab ermas,
Ko‘zum ko‘hli saodatga yetushti ul kafi podin.

Sochi andishasi har dam farahbaxshi dimog‘imdur,
Xo‘tanlar sayrin ettim ikki zulfi anbarosodin.

Tag‘ofil birla bedod etma cho‘x holimga, ey tole’,
Ki talx o‘lmish mazoqim komi ul la’li shakarxodin.

Fig‘onim o‘tlariki bosh chekar ul mohdin ayru,
Aning uchqunlarin yod aylag‘il najmi Surayyodin.

Tarab taklifi birla ko‘nglumni qon etma, ey soqiy,
Ne hosil Komila la’lidin ayru jomi sahbodin.

* * *

Dardi dil ettim raqam yorni hijronidin,
Nuqtasi ko‘z yoshidin, satri jigar qonidin.

Hajr-u firoq ilkida pirohanim poradur,
Qilmadi el tafriqa jaybini domonidin.

Bu dili devonakim mehring ila voladur.
Subh erur nusxai choki giribonidin.

Arz etako‘r, ey sabo, dardi dilim sharhini,
Yor xabardor emas oshiqi hayronidin.

Xasta ko‘ngul ohidin yor hazar aylamas,
Kuydi falak xirmani sho‘lai afg‘onidin.

To nazarimdin nihon bo‘ldi ul oromijon,
Nuridin ayrildi ko‘z, jism judo jonidin.

Vasl kuni ko‘zlarim mardumi gulchin edi.
Gah ruxi zebosidin, gah labi xandonidin.

Toliima nogahon qildi yomon ko‘z asar,
Qoldi firoq ichra jon, ayrila jononidin.

Xisravi farmonravo, safdaru kishvarkusho,
Gavhari qiymat baho ketti karam konidin.

Arsai mulki jahon garchai niginimdadur,
Bosh cheka bilmas ko'ngul ishqni farmonidin.

Rozi dilimni gar sabo yorga yetkurmasa,
Voqif emas ul sanam Komila hijronidin.

* * *

Yorning oshuftasi vahm aylamas o'z jonidin,
Jon firoqi sahldur, ayrilmasun jononidin.

Vah ne yanglig' do'stlig'dur men bilan hasratlara,
Qo'ymog'im yo'qtur zamone shohidi g'am yonidin.

Soqiyo, ko'p xasta xotirman jafo davronida,
Bir qadah may tutgil, ozod ayla g'am zindonidin.

Ey Xudo, rahm aylakim, oxir na qilgum charx aro,
Dam-badam zo'r aylabon anduhi bepoyonidin.

Qolmadi men ko'rmagan bedod davron ilgidin,
Dog'a verdi ko'nglumi anduhi bepoyonidin.

Istamang, ey do'stlar, mendin nishon-u nomkim,
Yelga vordi tuprog'im oh-u fig'on to'fonidin.

Emdi dog'i furqata, yo Rab, nechuk sabr etmisham,
Bilmamishdim, Komila, andishai hijronidin.

* * *

Lillahil hamdki az xosiyati davlati xon
Ofiyat topdi chechakdin Valna'mi Sulton.

Mamlakat vorisi shahzodai oliy guvhar,
Qurratul ayni jigarbandi amiri davron.

Shahriyoreki aning davlatidur, ro‘z afzun,
Bo‘ldi xosiyatidin mulk amon, narx arzon.

Hazrati xoni dilovar bila Sulton Mahmud,
Biri sarv-u biri shamshodi gulistoni jahon.

Haqtaoloni panohida masun bo‘lgoylar,
Olam ahliga bo‘lar davlatidin amnu amon.

Valna’mini kamoliga yeturgil, yo Rab,
Qildi olamni mahi talbati Firdavsnishon.

Qildi ul hodisani daf’i Xudoyi olam,
Shukr uchun bo‘ldi xaloyiq tili gavharafshon.

G‘ussa-yu g‘am bila dushmanlari ahvoli zabun,
Do‘stlar aysh ila xurramdilu shod-u xandon.

To jahon boricha bo‘lg‘ay bu ikovlon jovid,
Bo‘lmasun bir nafas olamda bularsiz davron.

Bu ikav davlatiga shukr qilur Komilakim,
Qoldi ko‘nglumda birov hasratidin yuz armon.

* * *

G‘am halok etti meni hajringda, ey jon, qaydasan?
Sensizin bemormen dardimga darmon, qaydasan?

Vasl aro sulton edim emdi judolig‘ dardidin,
Xasta mo‘ri notavondurman Sulaymon, qaydasan?

Muddate vasling gulistonida erdim andalib,
Navbahor o‘tti, xazon bo‘ldi guliston, qaydasan.

Hajr yag‘mosi ko‘ngul mulkinikim qildi xarob,
Sendin ayru o‘rtadi Fargona, sulton qaydasan?

Mehri ruxsoringdin ayru subhi ayshim besafo,
Tiyradur shomi g‘amim, ey mohi tobon, qaydasan?

Davr eli osudaxotir erdi sendin, voykim,
Topti davron inqilob, ey shohi davron, qaydasan?

Komila Farg'ona mulkida seni aylar so'rog,
Mulki Turon xisravi sayyid Umarxon qaydasan?

* * *

Uyquda bir tun visolingni ko'rar kun bormukin?
Subhi xurshidi jamolingni ko'rar kun bormukin?

Ko'zlarim mardumlari ko'p yig'lamoqdin suvdadur,
Mohi ruxsor uzra xolingni ko'rar kun bormukin?

Oftobi vasl jannat qasrida topmas zavol,
Oftobi bezavolingni ko'rar kun bormukin?

Bo'ylakim qildi ko'zumni yoshini qon ishtiyoq,
Ko'z ochib ruxsori olingni ko'rar kun bormukin?

Lablaringdin ayru ayshim talxdur davron aro,
Jon berib, shirin maqolingni ko'rar kun bormukin?

Mehri ruxsor uzra xolingdur saodat kavkabi,
Axtari farxunda folingni ko'rar kun bormukin?

La'li nobing hasratida tashna qoldim Komila,
Sharbati kavsar misolingni ko'rar kun bormukin?

* * *

Ey mayi nob ila ruxsorin guliston aylabon,
May kabi har dam ko'ngullar g'unchasin qon aylabon.

Chehrai gulfom birla gul charog'in yondurub,
Surmagun ko'zlarni ochib nargisiston aylabon.

Bir tag‘ofildin qilon pomol sarkashlar boshin,
Yuz gadoni bir tarahhum birla sulton aylabon.

Bir tarafda xanjari mijgonidin qonlar to‘kub,
Bir tarafdin bodani la’li labi jon aylabon.

Kechalar ruxsoridin izhor qilgon mohi badr,
Subhlar burqa’ ochib xurshidi tobon aylabon.

Zulfi mushkin birla qilgon nofai Chin oshkor,
Nargisi masti ila mahfilni xumiston aylabon.

Komila, ul yor savdosi ila ko‘z yummakim,
Rohati jon yodin etmaz yodi jonon aylabon.

* * *

Bulbuli dil g‘unchai gulzoring aylar orzu,
Tutiyi jon la’li shakkarboring aylar orzu.

Kim qilur umid qon yutmay labingni sharbatin,
O‘lmayin, kim nargisi bemoring aylar orzu.

Lol bo‘lmay, kim takallum ayladi ko‘rgach seni,
Xok bo‘lmay, kim seni raftoring aylar orzu.

Boqmagay Kavsar labida hurning ruxsorig‘a,
Kim labi la’li mahi ruxsoring aylar orzu.

To‘kmayin kim ashk topmas la’li serobing seni,
Yutmayin qon kim ruhi gulnoring aylar orzu.

Chehra o‘ldi za’faroniy ishtiyoqi bodadin,
Soqiyo, ko‘nglum mayi gulzoring aylar orzu.

Foxta shamshod izlar, gul visoli andalib,
Komila miskin qadu ruxsoring aylar orzu.

* * *

Qondur jigarim g‘ussa bilan yordin ayru,
Oshuftaman ul yor-u vafodordin ayru.

Yosh o‘rniga qonlar to‘kilur diydalarimdin,
To tushti ko‘zum, ul guli ruxsordin ayru.

Hayron ko‘zum, ey moh, jamolingni tilaydur,
Oyinani yo‘q matlabi diydordin ayru.

Bir go‘shada tanholik ila yoding egarman,
Yo‘q hamnafasim diydai xunbordin ayru.

Hajringda na rohat ko‘radurman, na halovat,
Yo‘qtur meni dilxastaga ozordin ayru.

Ey jon, menga hajringda jahon bo‘ldi qorong‘u,
Bo‘lg‘on kabi ko‘z gavhari shahvordin ayru.

Gar sarv ila tovus xirom etsa ko‘zumg‘a,
Manzur emas ul qomat-u raftordin ayru.

Ko‘ngli ani g‘am ilgida qolgaymu salomat,
Gar bo‘lsa kishi sen kabi g‘amxordin ayru.

So‘z gavharini ketti xaridori jahondin,
Bozori kasod o‘ldi xaridoridin ayru.

Mendin na ravo erdiki, yor etti judolig‘,
Gulni kishi ko‘rganmu ekin xordin ayru.

Faryodu fig‘on savtini sensiz eshiturman,
Koshonadin ayru, daru devordin ayru.

O‘t yoqti firoqing sharari elga va lekin,
Ey Komila, kuymas dili afgordin ayru.

* * *

Holimg‘a falak bo‘yla jafokor bo‘lurmu?
Har dam ishim ozor uza ozor bulurmu?

Davron elidin dod ila faryod etarman,
Bu g‘amzadaga muncha sitamkor bo‘lurmu?

Bechora ko‘ngul holig‘a rahm ayla, Ilohiy,
Bir jon ila yuz dog‘a giriftor bo‘lurmu?

O‘tti bu jahon gulshanidin necha guli xor,
Ul gul g‘amidin men kibi ham xor bo‘lurmu?

Bir lahza kelan gardishi ayyom g‘amidin,
Daf’i alami diydai xunbor bo‘lurmu?

Ko‘p siynai majruh erur dahr aro mendek,
Furqat o‘qidin xasta-yu afkor bo‘lurmu?

Ko‘p diydai xunrez erur lek ko‘zumdek,
Xuni dil ila sog‘ari sarshor bo‘lurmu?

Jonbaxsh labi davrida hijron sitamidin,
Bir xastaga yuz ranj ila ozor bo‘lurmu?

G‘am solguchilar Komilani ko‘ngliga ko‘pdur,
Olam hama bu ko‘zguya zangor bo‘lurmu?

* * *

G‘ayrning bazmidadur ul mohi tobon har kecha,
O‘rtanur holim ko‘rub sham’i shabiston har kecha.

Xalq agar har yilda bir qurbonlig aylar mohi iyd,
Men qilurmen necha jon ul oyg‘a qurbon har kecha.

Sen qilib ag‘yorni bazmini ravshan, rashkdin
Shamdek jonimdadur dog‘i namoyon har kecha.

Mujdai subhi visolingdin ko‘ngulni jam qil,
Kim erur zulfung kabi holim parishon har kecha.

Garchi uzding rishtai ulfat meni mahjurdin,
Shukrkim, yoding erur ko‘nglumda mehmon har kecha.

Kofiri berahmu sangin dil asiri bo‘lmisham,
Dinu dil gorat qilur ul nomusulmon har kecha.

Bazmi ishrat soz etib, sen may ichib, shodob o‘lub,
Men qilurmen nay kabi faryod-u afgon har kecha.

Voqif ermassen mening dardimdin, ey Isonafas,
Kim taloshurman labing hijronida jon har kecha.

Necha kun bo‘ldi labing sahbosidin ayru tushub,
Komila ko‘zdin to‘kar yosh o‘rniga qon har kecha.

* * *

Ko‘ngul bog‘landi to zanjiri gisui sumansog‘a,
Tarog‘dek soldi hasratlar alidin chok a’zog‘a.

Ajab ermas damo-dam zarra yanglig‘ beqaror o‘lsa,
O‘shal ko‘zkim tushar ul oftobi olamorog‘a.

Havoi sunbul savdosidin Farhod-u Majnundek,
Na g‘avg‘olarki soldi telba boshim ko‘hu sahrog‘a.

Ko‘zumni bo‘yla giryon bilmakim durdonai ashkin,
Base gavharki to‘kmish ishq naysoni bu daryog‘a.

Fig‘onim yetmagi ul osmoni husna mushkildur,
Ki yetmas gard parvoz ila domoni Surayyog‘a.

Ko‘ngulni bodai g‘am birla oxir talxkom etti,
Yetolmay Komila ul la’li mayguni shakarxog‘a.

* * *

Muhabbat kishvari obod erur iqbolu johimda,
Tong ermas bo'lsalar ishq-u junun ahli panohimda.

Quyoshlek mashriqu magribni pomol etti javlonim,
Emas mone' xaloyiq Ko'hi Qofi saddi rohimda.

Savod ul-vajhi fiddorayn ekan darvishi sohibdil,
Adamdur ikki olam soyayi baxti siyohimda.

Emastur hajr shomi charx uza har yon kavokiblar,
Erur bir necha uchqunlar sharori udi ohimda.

Shahi mulki junundurman, sipohim barcha vahshilar,
Vale yo'qtur xusumat kimsaga xayli sipohimda.

Muhabbat kishvarila dastgohimni tamosho qil,
Falakni gardani bog'liq kamandi dudi ohimda.

Iki giryon ko'zum mehringni da'vosida tonuqdur.
Na derman bo'lsa tardomonliya aybi bu guvohimda.

Ko'zum ko'rgach yuzungi telba ko'nglum bo'ldi savdoyi,
Soching sarmoyasidur rishtai tori nigohimda.

Junun shahrini besomonlari mahkumi farmonim,
Ki bordur xotami dog'i muhabbat dastgohimda.

Ko'zum yoshini charxi bemuruvvat xoka do'ndurdi,
Nechuk jurm o'ldi paydo ushbu tifli begunohimda.

Sabo lutf et, Umar sultonga yetkur, Komila arzin,
Ki to'yi nuri chashmidur rizo gar bo'lsa shohimda.

* * *

Zamona ahlidin g'am ketti, ayshi jovidon keldi,
Adamdin olami ijod aro xon ibni xon keldi.

Qadam to arsai olamga qo‘ydi ul durri yakto,
Muborakbod uchun baxt-u saodat tav’amon keldi.

Bashorat sizga, ey ahli jahonkim, mulki dunyoga,
Charog‘i mahfili oltinbeshik, bobirnishon keldi.

Zihi tifli humoyunfar, muborakro‘y, farrux ruh,
Jahon ahliga andin mujdai ruhi ravon keldi.

Asolat bahrida zohir bo‘lub, mavji karam andin,
Durri yakto tirozi domani oxirzamon keldi.

Safoi maqdamidin bo‘ldi xurram arsai olam,
Hayoti toza topdi mamlakat, go‘yoki jon keldi.

Zafar topti sipah shahzoda osori qudumidin,
Qilinglar yaxshilar shukrinki, davlati roygon keldi.

Saodatmandi fiddorayn erurkim lak janobidin,
Aning hifzi uchun xayli maloyik posbon keldi.

Xirad soloridin tarix milodin savol ettim,
Dedikim: “nuri chashmi ahkami sohibqiron keldi”.

Duoyi xayr eting, ey ahli davlat, Komila yanglig‘,
Damo-dam shukr eting, shahzodai mulki jahon keldi.

* * *

Hajr edi ishq ichra men ko‘rgan balolardin biri,
Dard vodiysida men chekkan jafolardin biri.

Rahm etib holimni so‘rmazlar, ko‘ring bedodlik,
Siymbarlardin biri, mavzun qabolardin biri.

Chekmayub g‘am chekti Shirin suvratin Farhod lek,
Ishq oyinida derlar behayolardin biri.

Qoshu ko‘zu zulfu xol ila madoro aylasang,
Aylamaz rasvo seni yuzi qarolardin biri.

Ahli tab’ har kim o‘lanmaz ahli dildin so‘rmakim,
Qush najodidin baland uchmish yuvolardin biri.

Istaram, yo Rab, baqoyi dàvlati sulton Umar,
Ayla maqbuli ijobat sen duolardin biri.

Ishq da’vosini qildim noraso jur’at bila,
Ey rasolar zumrasi men norasolardin biri.

Komila tinmay duo qilgin bu kun sultonni sen,
Podishohi asrdursen ul gadolardin biri.

* * *

Masih anfosidek jism ichra jon kirguzdi guftori,
Ko‘ngul bazmini ravshan etti har tun sham’i ruxsori.

Firoqing o‘ti dudi boshim uzra soldi yuz savdo,
Fig‘onimdin qiziydi jonim ichra hajr bozori.

Keling, ey hamnishinlar, bul meni holimga rahm aylang,
Yiqildi ko‘zlarimni yoshi birla jism devori.

Bo‘lub boshdin ayog‘ oyina yanglig‘ diydai hayrat,
Tushumda jilva etti har taraf tovus raftori.

Kaloming nash’asi bemorlar jismiga ruhafzo,
Labingni sharbati erdi buzug‘ ko‘ngulni me’mori.

Paridek o‘zni nedin aylading ko‘z shaxsidin pinhon,
Kishiga bo‘lmadi ma’lum og‘zing ramzu asrori.

Magar kelsa nasime yori gulpo‘shim riyozidin,
Ochilsa g‘uncha yanglig‘ uqdasi ko‘nglumni tummori.

Ne hojat nola chekmak, ko‘z yoshini aylamak to‘fon,
Firoqu mehnat ichra sabr etmakdur sazovori.

Magarkim ul pariro‘ husn nuri ayladi partav,
Ko‘zi oyinasidek, ey Komila, hayrat namudori.

* * *

Vah, ne voqe’ bo‘ldi borib shahsuvorim kelmadi,
Barcha kishilar safardin keldi, yorim kelmadi.

Subhi vaslidin munavvar erdi mohi tal’atim,
Shomi g‘am yuzlandi, sham’i ro‘zgorim kelmadi.

Men qachon yod etmadim vaslingnikim jon o‘rtanib,
Ko‘z yo‘lidin yuzga ashki shashqatorim kelmadi.

Naxli ummidim gul ochmay qoldi yuz afsuskim,
Bo‘ldi navro‘zi jahon-u navbahorim kelmadi.

Intizoridin oqarmish axli Kanon ko‘zlari,
Misru davlatdin azizi hamkorim kelmadi.

Bordi-yu olamni kuydurdi firoqi otashi,
Shahr o‘rtandi g‘amidin, shahriyorim kelmadi.

Emdi o‘z holimga yig‘larman damo-dam, Komila,
Ketti olamdin amiri nomdorim kelmadi.

* * *

Shomi furqat yorsiz men yutmagan qon qolmadi,
Rahm qilkim, emdi qon yutmoqqa imkon qolmadi.

Jong‘a yettim dam-badam xunobai hasrat yutub,
Vahki, jonon shavqidin jismim aro jon qolmadi.

Yona-yona qolmadi jon birla ko‘ngul dog‘siz,
Toma-toma ko‘zda ashki chashmi giryon qolmadi.

Zulfin istab rishtai jonimga tushti toblar,
Ketti toqat davri emdi tobi hijron qolmadi.

Xotirimdin ketmasun dildor dog‘i hasrati,
Ketsa-ketsun gar nishotu aysh-u somon qolmadi.

Bir nafas behush qilgil menga, soqiy, may tutub,
Kim xayol aylarg‘a emdi jonima jon qolmadi.

Qaddi mavzuni bila, gulgun yuzin yodi bila
Orzuyi to‘biyu yodi guliston qolmadi.

Soqiyo, tutqil g‘animat sog‘ari ishrat bu tun,
Kim necha davr o‘ttiyu bir necha davron qolmadi.

Komila, ko‘nglumni ravshan qildi yodi orazi,
Kim menga andishai xurshidi tobon qolmadi.

* * *

Zamone vasfingi yod etmog‘im ne ehtimol o‘lg‘ay,
Bu yo‘ldurkim vafo asxobina kasbi kamol o‘lg‘ay.

Qilursen shod cho‘x aqli xudodod ila olamni,
Ajabdurkim birovga muncha ham rangin xayol o‘lg‘ay.

Barobar aylamas o‘z rutbasin gardun quyoshiga,
Birovkim soya yanglig‘ dargahingda poymol o‘lg‘ay.

Bahori iltifoting fayzidin nash’u namo topgoch,
Xazon o‘lgon ko‘ngullar fitrati ra’no nihol o‘lg‘ay.

Chu xizmat yo‘lida domoni davlat tushti ilkimga,
Aning shukronasidin tinmogim amri mahol o‘lg‘ay.

O‘shalki bandai farmon erur, ey xisravi olam,
Yo‘lungda Komila bosh chekmog‘i ne ehtimol o‘lg‘ay.

* * *

Falak ilki g‘uborim sarsari hijrona topshurdi,
Vujudim raxtini ko‘zlar yoshi to‘fona topshurdi.

Tabibo, chekma zahmat holima hasrat davosichun,
Qazo hijron marizin dardi bedarmona topshurdi.

G‘amida o‘tti davre, dardi hijron bo‘lmadi oxir,
Ki hasrat jonimi anduhi bepoyona topshurdi.

G‘ami so‘zini boshlab etmadim somoni chun gardun,
Bu durlarni meningdek besaru somona topshurdi.

Ochilmaydur ko‘zum Yusuf uzorimdin judo bo‘lg‘och,
Ki davron boshimi bir kulbai ahzona topshurdi.

Nishon topmoq emas ovora ko‘nguldin muyassarkim,
Erur bir qatrai qon ko‘z yoshi to‘fona topshurdi.

Na qilsun lola yanglig‘ Komila bag‘rini dog‘ etmay,
Ki oni charx dog‘i shah Umar sultona topshurdi.

* * *

Fig‘onkim, yor ishqi sabri ko‘nglumdin judo qildi,
G‘am ilgi safhai ahvolima sabti jafo qildi.

Falakka yetkurub har kecha o‘tlug‘ oh-u afg‘oni,
Muhabbat andalibi ko‘nglumi otashnavo qildi.

O‘shal Layli malohat nozanini mohruxsorim,
Meni Majnun kabi sargashtayi dashti balo qildi.

Parishonlik yog‘ildi boshima dardi muhabbatdin,
Xayoli yor ishrat shomini ro‘zi jazo qildi.

Paripaykar qarindoshim xayoli mohruxsori,
Nishotu ayshdin begonau g‘am oshno qildi.

Na sabr-u hush qoldi, na qaror-u toqatim, yo Rab,
Ko‘ngul ichra havoi ishq bilmam na balo qildi.

Visolini topolmay, Komila, mushkil erur holim,
Ki bedodi muhabbat menga qattiq mojaro qildi.

* * *

Ko‘nglumi qon etti furqat ibtidosidin meni,
Jona yetkurdi sanam beintihosidin meni.

Vodiyi vahshat aro Majnunni istarman mudom,
To xalos etgay xaloyiq mojarosidin meni.

G‘am yemoqqa jon-u qon bo‘lmoqqa ko‘ngul qolmadi,
Ey ajal, sof aylag‘il gardun jafosidin meni.

Garchi, ey jon, ko‘p chuchuksan, lek achchig‘dur firoq,
Ketg‘ilu sof aylagil hijron balosidin meni.

Mastlikdur ulki g‘am ahlin panohidur mudom,
Solma, yo Rab, dayr piri xokiposidin meni.

Toza-toza dog‘u g‘am ustina g‘amdur yuz lison,
Charx bilmam netgay oxir ibtilosidin meni.

Ahli davron kulfatin tortorga yo‘qtur toqatim,
Ey Xudo, qutqor bu kishti noadosidin meni.

Komila der emdi ayshi besabotin istamon,
Dayr shohi qilsa gar fil gadosidin meni.

* * *

Go‘zal yorimg‘a, ey bodi sabo, yetkur salomimni,
Kim eltar sendin o‘zga yor ko‘yig‘a payomimni?!

Ko‘ngul dardini taqririga qil-u qol emas hojat,
Tafakkur birla ravshan ayla mazmuni kalomimni.

Ko‘ngul komini shirin istadim, jomi visolidin,
Fig‘onkim, charx hijron zahridin talx etti komimni.

Qorong‘u bo‘ldi olam dudi ohimning savodidin,
Ki farq etmaz munajjim, ro‘zi ravshan birla shomimni.

Vafo shahbozidurman, gar meni sayd etmak istarsen,
Muhabbat rishtasidin qilgosen, zinhor, domimni.

Falakdin gar shikoyat oshkor etsam tong ermaskim,
G‘ami hijrona tabdil ayladi ayshi mudomimni.

Karam qilding, sabo, ul yor ko‘yidin xabar berding,
Gulu rayhon isidin beniyoz etting mashomimni.

Muridi ishqi olamso‘zman ushshoq bazmida,
Navoi nolai naydek baland etti maqomimni.

Adam iqlimida shohim musofirdur, Xudovando,
Manga yetkur salomat shahriyori neknomimni.

Chamanda gul tamosho aylabon sarvi ravon ko‘rsam,
Qilurman yodi sultoni Skandar ehtishomimni.

Qarong‘udur ko‘zumga hajr shomi, tiyradur ayshim,
Falak tufrog‘a pinhon ayladi mohi tamomimni.

G‘araz himmatlarimdin yor vasli iqtizosidur.
Tilarman vaslini, yo Rab, ziyod et ehtimomimni.

Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokiman,
Xudoyo, rahmat ayla, barcha ajdodi izomimni.

Javobi shoh bayti Komila yl nodiri davron,
Tegib sangi ajal, sindurdi miyno birla jomimni.

* * *

Yozibman safhai husnung xayolida bu inshoni,
Xijolat ayladi oynai to'ti shakarxoni.

Dahonu la'li xatingdurmu yo, ey husn sultoni,
Yig'ibsan go'shai kavsarga Xizr ila Masihoni.

Menga xayli sipah, devonalar birla majoninlar,
Nechukkim toza dog'i jismima muhri Sulaymoni.

Ko'ngul qon bo'ldi, ogzing sirri hargiz bo'lmadi ravshan,
Qizil gul g'unchasidek kim ochar ushbu muammoni.

Nedin jon-u tanimg'a minnat ermas pobo'singdin,
Kim ermish shahnai shavqing ko'ngul mulki aro xoni.

Iki ko'z hajr kanonida chun Ya'qubi nobino,
Nedinkim husn Misri ichradursen Yusufi soni.

Shakar so'zluk, qaro ko'zluk g'izolim hajrida yig'lab,
Quyun yanglig' kezarman oh aylab dasht-u sahroni.

Sen, ey gardun, hazar et, kishvaringni aylagil mahkam,
Ko'zumni ashkidin xijlatg'a botti Nuh to'foni.

Yurak qon o'ldi, ohim tutuni ko'kka yondoshti,
Qachonkim tushda ko'rdum gul yuz ila sarvi boloni.

Vafo rangi muhabbat nakhatin ko'z tutmagil, ey dil,
Bu rangu bo'y ko'rguzmas kishiga dahr bo'stoni.

Xayoli yor ila, ey Komila, shavq uyida sabr et,
Jahonni ayladi oshufta bu holi parishoni.

* * *

Yuzung hajrida to‘fondur sirishkim, tutti dunyoni,
Ajab ermas aning bir qatrasi tark etsa daryoni.

Muhabbat ahliga hojat emastur dahr g‘avg‘osi,
Kel, ey sho‘ri junun, dur ayla boshimdin bu g‘avg‘oni.

Ko‘rolmay yorni bo‘lmish jununim el tamoshosi,
Agar ko‘rsam jamolin, anda ko‘rgaysan tamoshoni.

Yetolmay guluzorim vasliga ishq ichra rasvomen,
Madad qil, baxt ko‘yi sorig‘a boshqar bu rasvoni.

Ul oy hijronida ohim Banotun nashdek har yon,
Parishon etti Kayvon borgohida Surayyoni.

Oqorg‘on ko‘zlarimdin bo‘ldi ul Yusufliqo pinhon,
Erur ko‘nglum uyi — Ya’qubi Kan’on bayt ul-ehzoni.

Ko‘ngul bir oftob ishqida hayrondurki tong ermas,
Labi shavqi falakdin yerga indursa Masihoni.

Kishi ko‘rgan emastur ishq da’vosida osoyish,
Agar rohat tilarsan, zohido, tark et bu da’voni.

Yuzung o‘lsun qarokim, ey falak, zulm aylading behad,
Ayirding yoridin bu Komila majnuni shaydoni.

* * *

Muntazirdurman qachonkim kelsa jonon, aylanay,
Boshidin yuz yo‘l tasadduq aylabon jon, aylanay.

Boshidin aylanmadim deb ko‘ptur armonim mening,
Kelsa yorim, qolmasun ko‘ngulda armon, aylanay.

Lahzaye xoliy emas ko‘nglum xayoling xaylidin,
Ishtiyoqingdur ko‘ngul taxtida sulton, aylanay.

Mehri ruxsoringni sog‘indim qarorim qolmadi,
Zarradek boshingdin, ey xurshidi tobon, aylanay.

Aylaram iydi visolingni damo-dam orzu,
Ey yuzung bayram oyi, jon sanga qurbon, aylanay.

Girdbodi domani dashti junundur paykarim,
Justujo‘ aylab seni ko‘hu biyobon, aylanay.

Shomlar fikr-u xayol ichra seni aylab so‘rog‘,
Subhidam bodi sabo yanglig‘ guliston, aylanay.

Kel, xirom aylab qadam qo‘ygil ko‘zum gulzorig‘a,
Qaddu raftoringdin, ey sarvi xiromon, aylanay.

Mug‘tanam erdi visoling qaydasan, ey shahsuvor,
Sendin ayru Komila g‘am birla hayron, aylanay.

* * *

Ey sarvi noz qaddi niholingdin o‘rgulay,
Yoding baxayr fikr-u xayolingdin o‘rgulay.

Shomi firoqing etti meni tiyra ro‘zgor,
Ko‘rsat yuzungni mohi jamolingdin o‘rgulay,

Hijron menga musohib erur, vasling orzu,
Gohi firoq-u, goh visolingdin o‘rgulay.

Vaslingni domaniga qo‘lim yetmadi darig‘,
Ey shahriyor, jol-u jalolingdin o‘rgulay.

Payvasta qoshlaringni yuz uzra xayol etib,
Bir oftob-u ikki hilolingdin o‘rgulay.

Ko‘nglum qushini band qilur g‘am tuzog‘ina,
Gul xirmanida donayi xolingdin o‘rgulay.

Men telbaga ko‘zung kiyigi rom bo‘lmadi,
Vahshiysifat ramida g‘izolingdin o‘rgulay.

Topmas ko‘zumni mardumi husnung misolini,
Xoli siyoh ila ruxi olingdin o‘rgulay.

Mushkin xating bahorida siyminuzorsen,
Anbar sochar gul uzra saqolingdin o‘rgulay.

Keltursang, ey kabutar, agar yordin xabar,
Ko‘rganda nomasin paru bolingdin o‘rgulay.

Ey guluzor, Komilani holini so‘rab,
Guftora kel, javob-u savolingdin o‘rgulay.

* * *

Ko‘ngul dardi farovon o‘ldi, afg‘on aylamay naylay,
Siynama nola har tun barqi javlon aylamay naylay.

Falakka yetti ohim, tog‘ni g‘arq ayladi ashkim,
Chu ashki oh ila olamni to‘fon aylamay naylay.

Bu yanglig‘ kim menga tug‘yon etar payvasta giryonlig‘,
Ko‘zumni yoshini daryoyi ummon aylamay naylay.

Erurman tiyra ro‘z ul oydin ayru, dudi ohimni,
Hijobi orazi xurshidi tobon aylamay naylay.

Mening rasvolig‘imdin ishq iqlimida g‘avg‘odur,
Junun zo‘r etti oshiqlikda tug‘yon aylamay naylay.

Olurlar intiqom atfollar shahr ichra Majnundin,
Sanamlar javridin azmi biyobon aylamay naylay.

Tishing durdonasi yodimga tushgach abri naysondek,
Sirishkim jolasini guharafshon aylamay naylay.

Dedi ul nozanin jannatda ko‘rgaysan jamolimni,
Havoyi gulshani Firdavsi rizvon aylamay naylay.

Ko‘rubman Komila o‘z nuri chashmimdin saodatlar,
Aning shukronasiga xayri ehson aylamay naylay.

* * *

Bo‘ldi ul fursatki tarki suhbati olam tutay,
Qon to‘kub ko‘z mardumidin shevayi motam tutay.

Shoh Umar sulton jahondin ketti ul shavkat ila,
Emdi davron ahlidin chashmi muruvvat kam tutay.

Ketti bazmi vaslidin jomi maishat ichdugum,
Emdi daf’ etmaz g‘amimni garchi jomi Jam tutay.

O‘tti subhi vasl, keldi shomi anduhu firoq,
Marhabo, ey dog‘u hasrat, kelki bazmi g‘am tutay.

Bodasiz miynou jom oxir nishotafzo emas,
Emdi bodi g‘unchayi gul bu chamanda kam tutay.

Qon ulur ko‘ngul aning davrini yod etkach zamon,
Men nechuk tab’imni shod-u xotirim xurram tutay.

Furqatida yig‘lamoqdin qolmadi ko‘z ichra yosh,
Emdi xuni dil ila ko‘z safhasin purnam tutay.

Bazmi vaslin ko‘rmaganlar furqatidin dog‘dur,
Menki ko‘rdum davlatin o‘zni nechuk beg‘am tutay.

Topmog‘im o‘lmas muyassar ul guli xandon isi,
Gar hama sayri jahon-u arsayi olam tutay.

Ko‘nglumi hijron o‘ti aylar damo-dam zahmnok,
Qil madad, ey sabr-u toqatkim, anga marham tutay.

Yodgor ul shohdin qoldi menga durdonaye,
Emdi oni davlatin shukrini mustahkam tutay.

Komila ketti ilikdin shahriyorim domani,
Emdi avlodin duo etmak yo'lin mahkam tutay.

* * *

Jon olurda, ey sanam, qilg'on shitobinga o'lay,
Goh nozinga beray jon, gah itobinga o'lay.

Har kishi o'lsa yuzung mehrida la'ling tirguzur,
Chun masihing zinda aylar, oftobinga o'lay.

Tirguzur bemorlarni sharbati la'li labing,
Soqiyo, maxmurman zavqi sharobinga o'lay.

Jon bag'ishlarda labing nozinga jon aylay fido,
Qatlim aylar chog'da qilgon iztirobinga o'lay.

La'ling olida ko'ngul surgonda holingdin savol,
Noz-u istig'no bila bergan javobinga o'lay.

Tolpinib o'lgon kabi sayyodni domida qush,
Qo'yki, bir dam chirmashib bandi niqobinga o'lay.

Ostoning qiblai maqsudi xosu om erur,
Komila, boshimni farsh aylab janobinga o'lay.

MUXAMMASLAR

NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

So‘rog‘ingda biyobonlar kezib be pou sar yurdum,
Quyundek charx urub jismim g‘uborin ko‘kka sovurdum,
Sen azm aylab ketarg‘a, men bo‘lub bemor, qayg‘urdum,
Ko‘ngul jon birla bo‘ldi hamrahing, men dard ila turdum,
Senga jon birla ko‘nglumni, seni Tengriga topshurdum.

Vidoingni qilurda kuydi jonim xayrbodidin,
Falak saqfi qorardi dudi ohimni midodidin,
Jahon zulmat saroyi dudi ohim imtidodidin,
Nishondur tiyra bo‘lg‘on axtari baxtim savodidin,
Tuganlarkim firoqing o‘tidin g‘am shomi kuydurdum.

Qoshing yosi tamannosidadur payvasta qaddim xam,
Yurak zaxmig‘a marham istab etmasman taraddud ham,
Ko‘ngul novaklaringni zaxmidin rohat topar har dam,
Yog‘och birla boshoqkim tanda qoldi ul erur marham,
Junundinkim firoqing o‘qlarin jismimda sindurdum.

Giribon chok erurman subhi vasling intizoridin,
Qarong‘u bo‘ldi shomim dudi ohimni g‘uboridin,
Shararlig‘ sho‘lalar bosh chekti ko‘ksum xorxoridin,
Tutashti sham’dek har barmog‘im hijron sharoridin,
Ilik marham quyay deb chun bagir chokiga yetkurdum.

Ko‘rub ul butni zunnor olmagaysiz, ey musulmonlar,
Meningdek yuz baloga qolmagaysiz, ey musulmonlar,
Salomat kunjidin quzg‘olmagaysiz, ey musulmonlar,
Chu ul kofir chiqar ko‘z solmagaysiz, ey musulmonlar,
Ki men bechora ko‘nglumni boqib o‘tkuncha oldurdum.

Meni lol etti guftori labi xomushi go‘yosi,
Ushatti qand-u shakkar qimmatin la’li shakarxosi,

Na dilkash husn erur ko'rgan sari ortar tamannosi,
Yuzing ko'rgach boshimga tushti mushkin zulf savdosi,
Fig'onkim bir boqishda yuz balo boshimga kelturdum.

Seni topmoq base mushkil ko'rundi justmujo' birla,
Firoqing dardiga taskin tilarmen guftmugo' birla,
Gahi paymona birla shug'l etib, gohi sabo' birla,
Ko'ngul tinmasqa qolmish erdi har nav orzu birla,
Rizo ko'yig'a to qo'ydum qadam, ko'nglumni tindurdum.

Zarar qilma muhabbat ahliga ag'yorni ta'ni,
Erur badxohlarning guftigugo' barcha bema'ni,
Bu kun, ey Komila, boshdin qo'yub toji murassa'ni,
Makon gulxan kulin qildi Navoiy telbadek ya'ni,
Junun torojidin oxir qaro tufroqqa o'lturdum.

* * *

Kelgil, ey nola, sanga oh ila imdod qilay,
Ofiyat xirmanini bir yo'li barbod qilay,
Man etib nolani tarki raxi faryod qilay,
Tobakay hajr-u firoq ofatidin dod qilay,
Emdi o'zni necha kun sabr ila mo'tod qilay.

Manga gohe xabari mohi tamomimni desang,
Yorga dard-u, g'ami subh ila shomimni desang,
Ul parivashga duo birla salomimni desang,
Yor ko'yida basharteki payomimni desang,
Bu qafasdin seni, ey jon qushi, ozod qilay.

Adlu insofda Jamshid najodim sen eding,
Fikru andisha, xayolim birla yodim sen eding,
Rost aytay sababi rushd-u rashodim sen eding,

Ey dilorom, bu olamda murodim sen eding,
Aylab olamni faromo'sh, seni yod qilay.

Yana bir martaba g'am shomida mohimni ko'rub,
Hajr dardini desam pushti panohimni ko'rub,
Rahmi kelgaymu bu ahvoli tabohimni ko'rub,
Javrlarkim menga charx ayladi, shohimni ko'rub,
Bosh yalang aylab, inonini tutub dod qilay.

Soqiyo, ranji xumor o'rtadi, keltur manga may,
To'ldurub necha qadahni tuta ko'r paydarpay,
Hajr dardi bila hikmat yo'lini qildim tay,
Sabrdur dardi dilim chorasi, yo'qsa tokay,
Notavon jonima bedod uza bedod qilay?

Necha kunlarki manga bor edi lutf-u karaming,
Surmai chashmi jahonbin edi gardi qadaming,
Farzdur emdi menga tavfi dari muhtaraming,
Bog'lab ixlos ila ehromi harimi haraming,
Ashkdin rohilau xuni jigar zod qilay.

To jahon mulkini sultoni eding davlat ila,
Benavolarga karam aylar eding shafqat ila,
Xalq sendin hama xushnud edi bu odatila
Shod qilgay seni ruhingni Xudo rahmat ila,
Men ham ehson ila el xotirini shod qilay.

Mustamandeki duo birla seni yod etkay,
Rahmati birla Xudovandi jahon shod etkay,
Anbiyo ruhi sening joninga imdod etkay,
Oxirat mulkini to Haq senga obod etkay,
Mulk vayronalarin adl ila obod qilay.

Sarv-u gul pirahani sen kabi paydo ermas,
Sen kabi sarv ila gul dilkashu zebo ermas,
Bu chaman gullari manzuri tamosho ermas,

Ko‘zuma qaddu yuzingdek chamanoro ermas,
Necha andishai sarv-u gulu shamshod qilay.

Vasl bazmi aro jomi mayi sarshor qani?
Ol ila mendin ayirdi falaki sifla sani,
Poradur gul kabi egnimda junun pirahani,
Otashi dard-u firoq-u sharari hajr mani
O‘rtadi, qaysi birini senga bunyod qilay.

Yorsiz mushkil ekan mehnati hijron chekmak,
Vasl ummidi bila ranji farovon chekmak,
Nay kabi bo‘ldi ishim nola-u afg‘on chekmak,
Men menu ko‘hi g‘aming kullasida jon chekmak,
Necha Shirinni vafo tog‘ida Farhod qilay.

Sham’ sar to qadam o‘rtandi fano o‘rgandim,
Ko‘rubon qatrai shabnamni hayo o‘rgandim,
Gulu bulbul so‘zidin bargu navo o‘rgandim,
Ostoning itidin ramzi vafo o‘rgandim,
Emdi bir necha mahal xizmati ustod qilay.

Koshki uyquda bir ko‘rsam edi yorimni,
Yig‘lasam bilgay edi holi dili zorimni,
Dard ahli o‘qusun Komila guftorimni,
Yoziboń ko‘kda quyosh lavhina ash’orimni,
Nasxi mashqi qalami Moniyu Behzod qilay.

* * *

Emdi menga na hojat olamni mojarosi,
Kim yor vasli erdi ko‘ngulni muddaosi,
Hajrida pora-pora pirohanim yaqosi,
Bu dardi bedavoning bormu ekan davosi,
Marham iloji birla butmas ko‘ngul yarosi.

Ayrildi yor mendin bilmon yaqin yirog‘in,
Jonimga munis ettim asrab ko‘ngulda dog‘in,

Ohim sharori birla ravshan qilay charog‘in.
Dunyo yuzini istab topqay edim so‘rog‘in,
Gar bo‘lsa yuz marohil men birla yor arosi.

Dil xasta-u jigar qon, tan dardmand sensiz,
Faryod ila fig‘onim bo‘lmish baland sensiz,
Dunyoni aylamasman hargiz pisand sensiz,
Ranjurdur hamisha bu mustamand sensiz,
Ayshi tamom g‘amdur xunobi dil g‘izosi.

Vasling aro falakdin erdi rivojim afzun,
Sen aylab azmi rihlat men qolmisham jigarxun,
Faryod etib junundin andoqki sozi Majnun,
Tuzmish bu notavoning g‘am go‘shasida konun,
Hijron taronasidur ushshoq aro navosi.

Mendin ayirdi davron ul yori hamdamimni,
Qaydin toparman emdi shohi mukarramimni,
Havvo sifat jahonda izlarman Odamimni,
Yorimdin ayrilibman kimga deyin g‘amimni,
Dushvor ekan jahonda tanholik ibtilosi.

Yorimdin ikki gavhar qoldi ko‘ngul sururi,
Davlatni obro‘yi, iqbolni zuhuri,
Xushdur ko‘ngul alardin, jondur alar saburi,
Ikki xujasta farzand, ikki ko‘zumni nuri,
Bordur ko‘ngul sururi har qaysining liqosi.

Ul shahriyori davron qildi vidoi olam,
Kim qildi taxt-u tojin farzandiga musallam,
Oyini adl tuzdi insof birla ul ham,
Shukri Xudoyi olam, subhi maso damo-dam,
Kim shohdur mukarram sohibqiron balosi.

Bu pandni eshittim bir soliki subuldin,
Yer istasang guzar qil yakbora juzvu kuldin.

Ko‘zuma qaddu yuzingdek chamanoro ermas,
Necha andishai sarv-u gulu shamshod qilay.

Vasl bazmi aro jomi mayi sarshor qani?
Ol ila mendin ayirdi falaki sifla sani,
Poradur gul kabi egnimda junun pirahani,
Otashi dard-u firoq-u sharari hajr mani
O‘rtadi, qaysi birini senga bunyod qilay.

Yorsiz mushkil ekan mehnati hijron chekmak,
Vasl ummidi bila ranji farovon chekmak,
Nay kabi bo‘ldi ishim nola-u afg‘on chekmak,
Men menu ko‘hi g‘aming kullasida jon chekmak,
Necha Shirinni vafo tog‘ida Farhod qilay.

Sham’ sar to qadam o‘rtandi fano o‘rgandim,
Ko‘rubon qatrai shabnamni hayo o‘rgandim,
Gulu bulbul so‘zidin bargu navo o‘rgandim,
Ostoning itidin ramzi vafo o‘rgandim,
Emdi bir necha mahal xizmati ustod qilay.

Koshki uyquda bir ko‘rsam edi yorimni,
Yig‘lasam bilgay edi holi dili zorimni,
Dard ahli o‘qusun Komila guftorimni,
Yozibon ko‘kda quyosh lavhina ash’orimni,
Nasxi mashqi qalami Moniyu Behzod qilay.

* * *

Emdi menga na hojat olamni mojarosi,
Kim yor vasli erdi ko‘ngulni muddaosi,
Hajrida pora-pora pirohanim yaqosi,
Bu dardi bedavoning bormu ekan davosi,
Marham iloji birla butmas ko‘ngul yarosi.

Ayrildi yor mendin bilmon yaqin yirog‘in,
Jonimga munis ettim asrab ko‘ngulda dog‘in,

Ohim sharori birla ravshan qilay charog‘in.
Dunyo yuzini istab topqay edim so‘rog‘in,
Gar bo‘lsa yuz marohil men birla yor arosi.

Dil xasta-u jigar qon, tan dardmand sensiz,
Faryod ila fig‘onim bo‘lmish baland sensiz,
Dunyoni aylamasman hargiz pisand sensiz,
Ranjurdur hamisha bu mustamand sensiz,
Ayshi tamom g‘amdur xunobi dil g‘izosi.

Vasling aro falakdin erdi rivojim afzun,
Sen aylab azmi rihlat men qolmisham jigarxun,
Faryod etib junundin andoqki sozi Majnun,
Tuzmish bu notavoning g‘am go‘shasida konun,
Hijron taronasidur ushshoq aro navosi.

Mendin ayirdi davron ul yori hamdamimni,
Qaydin toparman emdi shohi mukarramimni,
Havvo sifat jahonda izlarman Odamimni,
Yorimdin ayrilibman kimga deyin g‘amimni,
Dushvor ekan jahonda tanholik ibtilosi.

Yorimdin ikki gavhar qoldi ko‘ngul sururi,
Davlatni obro‘yi, iqbolni zuhuri,
Xushdur ko‘ngul alardin, jondur alar saburi,
Ikki xujasta farzand, ikki ko‘zumni nuri,
Bordur ko‘ngul sururi har qaysining liqosi.

Ul shahriyori davron qildi vidoi olam,
Kim qildi taxt-u tojin farzandiga musallam,
Oyini adl tuzdi insof birla ul ham,
Shukri Xudoyi olam, subhi maso damo-dam,
Kim shohdur mukarram sohibqiron balosi.

Bu pandni eshittim bir soliki subuldin,
Yer istasang guzar qil yakbora juzvu kuldin.

Deb edi bag‘ringni hijron tig‘i birla tilmayin,
Ahd etib erdiki sendin bir nafas ayrilmayin,
To tirikdurman judolig‘ mojarosin qilmayin,
Yor ketti, Komila, hasratda qoldim bilmayin,
Ahdi yolg‘on dilbari ayyordin ayrilmisham.

* * *

Hamdu sano Xudog‘a, haqdur aning liqosi,
Mavjud bo‘ldi andin ikki jahon binosi,
Xush qodiriki, yo‘qtur mulkini intihosi,
Xalloqi xalqi olam kavnayn kibriyosi,
Foniy tamomi ashyo, boqiy aning baqosi.

Soqiyo, sharob keltur, maxmurman bag‘oyat,
Mutrib, tarona tuzkim, fursat erur g‘animat,
Jomi tarab labo-lab miri zamon salomat,
Bu damki soz bo‘ldi qonuni bazmi ishrat,
Aysh etki dilkushodur ushshoqning navosi.

Solori mulku davlat, miri baland axtar,
Sheri daleri maydon, Rustamdilu dilovar,
Xurshidi baxti tobon mohi ruxi munavvar,
Insofu adl birla Kisroni qildi chokar,
Himmat xazoyinida Hotam aning gadosi.

Berdi Xudoyi olam davlat bila saodat,
Davridadur viloyat monandi bog‘i jannat,
Xushnud erur xaloyiq obod har viloyat,
Iqbol-u davlatini Haqdin tilab raiyat,
Maqbul erur Xudog‘a bechoralar duosi.

Ey yaxshilarni shohi, Haq senga yor bo‘lg‘ay,
Davlat bo‘lub ziyoda, umring hazor bo‘lg‘ay,
Badxohlar hamisha olamda xor bo‘lg‘ay ,
Har kimki bo‘lsa dushman mardudi zor bo‘lg‘ay,
Adl aylabon karam qil, shuldur Xudo rizosi.

Ey xisravi zamona, davlat bila amon bo'l,
Iqbol masnadida Kayxisravi zamon bo'l,
Ishrat mayini no'sh et, aysh ila komron bo'l,
Boqma falak ishig'a, g'am chekma, shodmon bo'l,
Ayturga arzimaydur olamni mojarosi.

Bul bazmi davlat ichra, ey shoh, madhxonman,
Murg'i taronasanji bu bog'-u bo'stonman,
Ey Komila, karam qil, g'am birla notavonman,
Davri falak jafosin kimga qilay bayon man,
Ko'ngulda bir alam bor, yo'qtur aning davosi.

* * *

Saltanat bahrida paydo bo'ldi yakto gavhare,
Subhi davlatdin tulu' etti humoyun axtare,
Munfaildur mohruhidin oftobi xovar,
Sa'di akbardur xaridori jamoli mushtariy,
Kim erur oliy nasab shahzodalarni sarvar.

To qadam qo'ydi jahon mulkina ul xurshidfar,
Orazidin bo'ldi ravshan diydai ahli nazar,
Aylagil yo Rab, niholi qomatini borvar,
Saltanat ayvonini sham'idur ul oliyguhar,
Kim erur parvonasi xurshidi charxi chanbariy.

Tal'ati mohi ravon baxshi jamoli dilfirib,
Sarvi ozodi asolat masnadig'a berdi zeb,
Farqi Farqadsoyi topqay toji davlat anqarib,
Aylag'il jovid umrini anga yo Rab nasib,
Topti tug'ro yaxshi otidin saodat daftari.

Sarvi qaddiga munosib xil'ati ozodalig',
Dargahiga takya qilgon ko'rmagay aftodalig',
Shukrlillah toza bo'ldi mansabi shahzodalig',
Tong emas gar ahli olamdur tarab omodalig',
Kim aning diydoriga hayrondur insonu pari.

Mehmoni nav muborakbod oning maqdami,
Kim jamolidin munavvar bo'ldi chashmi olami,
Baxtu tole' chokaru iqbolu davlat hamdami,
Jaddi a'losi mo'qarram shohlarning akrami,
Mehri diydori sharaf burjini mohi anvari.

Bahri davlatdin bashorat sizga, ey ahli jahon,
Bir humoyun tifl Bobur naslidin bo'ldi ayon,
Navniholi bo'stoni Temuriy sohibqiron,
Umrdin bar topqay ul shahzodai oliynishon,
Jilvagar mohi jamolidin asolat javhari.

Tifl erur shahzoda sultoni muzaffar bo'lg'usi,
Shohi davron o'g'lidur olamga sarvar bo'lg'usi,
Lutfi Haqdin, davlati uzmo muyassar bo'lg'usi,
Xonadoni saltanat andin munavvar bo'lg'usi,
Soyai taxti falak xurshidi tobon afsari.

Yo Rab, ul baxt-u saodat gulbuni topqay kamol,
Aylagaysen oftobi toleyini bezavol,
Sarvi yakto bo'lgay, oz muddatda ul zebo nihol,
Domani iqbolig'a o'lturmagay gardi malol,
Haq taolo bergay anga davlati Skandari.

Subhidam hush ahliga payki sabo berdi xabar,
Bo'ldi paydo saltanat gulzoridin shirin samar,
Yo Rab, andin poydor o'lg'ay asosi karru far,
Fath-u nusrat birla har qaysi taraf qilsa safar,
Xizr ila Ilyos bo'lg'ay bahr-u barda rahbari.

Ul humoyun tiflni Haq zebi kishvar ayladi,
Lam'ai diydori ko'zlarni munavvar ayladi,
Shahnayi mehri ko'ngullarni musaxxar ayladi,
Xizr umrin obi hayvonni muqarrar ayladi,
Elni tirguzdi Masihoi labi jonparvari.

Keldi to olamga ul shahzodai oliy tabor,
Gulshanni madhida ilon birla bulbullar hazor,
Baxt yovar, toleyi farxunda, davlat poydor,
Garchi bo'lmabdur hanuz ul tifli go'dak naysuvor,
Shohlar farmonbari, sultonlar oning chokari.

Shodliqdin bo'ldi gulgun lolalar piyrohani,
Tahniyatdin bo'ldi savsanni libosi savsani,
Sarv-u gul bazmida purzar bo'ldi ra'no domani,
Aysh savtiga mubaddal bo'ldi bulbul shevasini,
Qo'ydi gul bosh uzra davronida toji ahmari.

Keldi chun dunyoga ul shahzodai oliy guhar,
Komila qildi duoyi xayr ila so'z muxtasar,
Ravshan o'ldi sham'i bazmi hazrati sulton Umar,
Do'stlar dilshodu dushman xotiri zer-u zabar,
Shohdur oyinai iqbolni ravshangari.

* * *

Necha kun bo'ldiki aql-u hushdin begonaman,
Shohi davron motamida bexud-u mastonaman,
Xalqi olam ichra bekaslik bila afsonaman,
Olam ahli shod, men hasrat o'tida yonaman,
Dahr aro mahrumi diydori shahri Farg'onaman.

Furqatida ahli motam, xasta jon-u dilfigor,
Mulki olamdin safar qildi amiri nomdor,
Saltanat iqlimida ham shoh edi ham shahriyor,
Erdi shahbozi xayolim bazmida anqoshikor,
Emdi ul sulton mozori sham'iga parvonaman.

Ey amiri nuktadon, tufrog'ing uzra dod etay,
Sendin ayrildim qayon boray, ne manzilga yetay,
Menga yoding bas erur, derman xayolingda ketay,
Ravzayi pokinga isori duo qilmay netay,
Xonazodi ostoni ushbu davlatxonaman.

Dardidin bemorman, xurram dil erdim sonida,
Dudi olim naxli motamdur rizosi borida,
Ayladi padrud olamni yigitlik chog'ida,
Kulbayi ahzon aro sulton Umarni dog'ida,
Sham'dek har kecha tong otquncha o'rtab yonaman.

Mohi iyd olamga soldi partavi anvorini,
Yod aylarman Umar sultonni gir-u dorini,
Ohkim ko'rmak muyassar bo'lmadi ruxsorini,
Arsai mahsharda ko'rgaymanmu deb diydorini,
Goh-goh tavf etib tuproqidan aylonaman.

Jovidon jannatda bo'lg'oy hazrati sulton Umar,
Bor edi Farg'ona mulkida amiri mo'tabar,
Shahriyori Jamnishon, sohibqironi dodgar,
Ayrilib ul podshahdin bo'lmayin deb darbadar,
O'z diyorimda muqimi go'shai vayronaman.

Xush zamonlarkim alarg'a ixtilotim bor edi,
Olida posi adabdin ehtiyotim bor edi,
Yaxshilar birla hamisha irtibotim bor edi,
Shahriyorim bazmida aysh-u nishotim bor edi,
Emdi g'am kunjida hasratlar bila o'rtonaman.

Mehribon shohimni topmay qolmisham giryon bo'lub,
Oqti bag'rim porasi ko'zlar yo'lidin qon bo'lub,
Xalqi olam xushdilu men benavo hayron bo'lub,
Hajr vodisida qoldim besar-u somon bo'lub,
Komila shohimdin ayru benavo devonaman.

* * *

Alfiroq, ahboblar, ey ahli davron, alfiroq,
Kim qilur azmi safar sulton Umarxon, alfiroq,
Qoldi hajridin ko'ngulda dog'i pinhon, alfiroq,
Qanda bordi bilmadim ul shahi davron, alfiroq,
O'tti davroni, ko'ngulda qoldi armon, alfiroq.

Emdi topmasman seni, ey shahriyorim qandasan?
Telmurub qoldim yo'lingda shahsuvorim, qandasan?
Gulshani ayshim xazon bo'ldi bahorim, qandasan?
Furqat ichra qolmadi sabr-u qarorim, qandasan?
Hasratingda kuydi bag'rim, o'rtadi jon, alfiroq.

Ey musohiblar, tamosho vaqti shohim kelmadi,
Mavsumi sayr o'ldi shohi kajkulohim kelmadi,
Shohlarni shohi, oliy joygohim kelmadi,
Dod etarman furqatidin dodxohim kelmadi,
Ko'zlarim yo'llarga boqib qoldi hayron, alfiroq.

Lutfi xulqingni bu kecha uyquda yod ayladim,
Ko'z ochib ollimda ko'rmay, qichqirib dod ayladim,
Goh g'amdin nola qildim, goh faryod ayladim,
Necha kunlarkim visolidin ko'ngul shod ayladim,
Emdi hajrida ko'zumni yoshidur qon, alfiroq.

Bo'lmisham shohi adolat dastgohimdin judo,
Dudi ohimdin falaklar yondi, mohimdin judo,
Benavoman dodras pushti panohimdin judo,
Mushkul ishlar tushti boshim uzra shohimdin judo,
Bo'lg'udek ermas bu mushkul manga oson, alfiroq.

Hazrati Sayyid Umarkim qadrdon erdi manga,
Bir faqiri notavon deb mehribon erdi manga,
Marhamatlig' so'zlari oromijon erdi manga,
Lutf-u xulqi har biri ruhi ravon erdi manga,
Ketti ul ruhi ravon faryod-u afgon, alfiroq.

Ro'zi motamdur bu kun, ey ahli suhbat, alvido,
Emdi tutmasman jahon ahliga ulfat, alvido,
Ketti shohim, jonda qoldi dog'i furqat, alvido,
Qolmadi hijronidin ko'ngulda toqat, alvido,
Dog'i furqat qildi dardimni farovon, alfiroq.

Ruhiga bo‘lgay Ilohi sadri jannat joygoh,
O‘tti olam mulkidin ul xisravi getipanoh,
Ma’dalat birla jahon ahliga erdi podshoh,
Ayrilib ul podshohdin bo‘ldi ahvolim taboh,
Dil figoru, siyna reshu, diyda giryon, alfiroq.

Erdi bu olamda doim xayr-u ehson odati,
Mustamandu benavolarga ko‘p erdi shafqati,
O‘tti fursat, qoldi ko‘ngullarda dog‘i hasrati,
Loladek bag‘rimga qo‘ydi dog‘ sulton furqati,
Chok-chok o‘ldi giribon to ba domon, alfiroq,

Qilmas erdi hech ishni Haq rizosidin bo‘lak,
Yo‘q erdi ko‘nglida uqbo muddaosidin bo‘lak,
Tilga kelturmas edi Tangri sanosidin bo‘lak,
To qiyomat Komila qilmas duosidin bo‘lak,
Mushfiq erdi manga ul farxunda sulton, alfiroq.

MUSADDAS

Muhabbat kunlari mohro‘i duraxshonimni sog‘indim,
Musibat tunlari sham’i shabistonimni sog‘indim,
Qarodur ro‘zgorim mehri tobonimni sog‘indim,
Sitamlar jona yetti baski jononimni sog‘indim,
Amiri kajkulah Jamshidi davronimni sog‘indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog‘indim.

Olurdim komi ishrat mahfili shirin mazoqidin,
Qilurdim sayri jamiyat bahori ittifoqidin,
Na hasratlarkim ko‘rdum aning anduhi firoqidin,
Na kulfatlarki o‘tti lahza-lahza ishtiyoqidin,
Amiri kajkulah Jamshidi davronimni sog‘indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog‘indim.

Chaman rangini ko'rsam, yod etarman gul'uzorimni,
Biyobon sayrida yod aylaram gardunshikorimni,
Suvora bo'lgoch aylarman xayol ul shahsuvorimni,
Olurda jon istarman amiri g'amgusorimni,
Amiri kajkulah Jamshidi davronimni sog'indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog'indim.

Chamanlar xurramu yo'qtur mening sarvi xiromonim,
Sariri saltanat paydou yo'qtur shohi Turonim,
Xaloyiq sarxushu paydo emas ul bazmi shohonim,
Jahon xandonu giryondur menga bu chashmi xunborim,
Amiri kajkulah Jamshidi davronimni sog'indim,
Zarofat bobida noyob sultonimni sog'indim.

MUSAMMANLAR

Faryodki ishq etti meni yorga maftun,
Jon volau tan xasta, yurak dog'u jigar xun,
Majnun kabi shavq ayladi sargashtai homun.
Ovorai dahr etti meni gardishi gardun,
Davron ne ajab qilsa ko'zim yoshini Jayxun,
Chun ayladi olamni bino Xoliqi bechun,
Munshiyn qadar menga qalam chekti digargun,
Paymonai ayshimni qazo ayladi vojgun.

Men hasrat ila qoldimu yorim safar etti,
Qatlimga g'ami dard-u baloni xabar etti,
Hijronda nasibim meni xuni jigar etti,
Furqat o'tining tobi ko'ngulga asar etti,
Alqissa firoq ichra meni darbadar etti,
Taqdiri azaldin meni be pou sar etti,
Munshiyi qadar menga qalam chekti digargun,
Paymonan ayshimni qazo ayladi vojgun.

Charx elni giriftori xami domi g‘am aylar,
Bisyor jafolar qilibon, rahm kam aylar,
Men g‘amzadani hamdami dard-u alam aylar,
Andog‘ki, ul oy ishqi bila muttaham aylar,
Tokay menga bedod ila jabr-u sitam aylar,
Oxir meni ovorai dashti adam aylar,
Munshiyi qadar menga qalam chekti digargun,
Paymonai ayshimni qazo ayladi vojgun.

Har lahzaki, ey yor, seni yod qilurmen,
Yoding bila jon xotirini shod qilurmen,
Jon murnini tan mulkidin ozod qilurmen,
Hajr ofatidin nolau faryod qilurmen.
O‘z jonima bedod uza bedod qilurmen,
Baxtimni zabun toleidin dod qilurmen,
Munshiyi qadar menga qalam chekti digargun,
Paymonai ayshimni qazo ayladi vojgun.

* * *

Ey gulshani g‘am, emdi bahor o‘ldi xazon bo‘l,
Ey diydalarim, yor yuziga nigoron bo‘l,
Ey xush-u xirad, ishqida rasvoyi jahon bo‘l,
Ey aql, junun dashtida benom-u nishon bo‘l,
Ey oh, ko‘ngul gulshanida sarvi ravon bo‘l,
Ey Komila, sen aysh-u tarab birla omon bo‘l,
Munshiyi qadar menga qalam chekti digargun,
Paymonai ayshimni qazo ayladi vojgun.

* * *

Meni, ey charxi kajraftor, yorimdin judo qilding,
Xazondur bog‘i ayshim, navbahorimdin judo qilding,
Ayirding mehribonimdin, nigorimdin judo qilding,
Charog‘i nurbaxshi ro‘zgorimdin judo qilding,
Nigori sarv qomat guluzorimdin judo qilding,

Tanim xoki rah o'ldi shahsuvorimdin judo qilding,
Qilurmen, ey sipehri bemuruvvat, dod dastingdin.

Asiri xokdur ul sarvi hurizod dastingdin.
Asiri dardmen ul munisi jonimdin ayrilgach,
Nishotim tiyradur, sham'i shabistonimdin ayrilgach,
Bo'lubmen zarradek xurshidi tobonimdin ayrilgach,
Nigundur qomatim sarvi xiromonimdin ayrilgach,
Ko'zum yo'llarida hayron qoldi sultonimdin ayrilgach,
Kuyar jon otashi hasratda jonimdin ayrilgach,
Qilurmen, ey sipehri bemuruvvat, dod dastingdin,
Asiri xokdur ul sarvi hurizod dastingdin.

Ajab ermas agar o'tsa falakdin oh-u faryodim,
Fig'on etmaymu ketti bu chamandin sarvi ozodim,
Ko'ngul ma'mur edi, ey charx, vayron o'ldi obodim,
Falak zulm ettiyu faryodrasqa yetmadi dodim,
Farah topmas jahoni bevafodin tab'i noshodim,
Bo'lub devona bilmasmen qayon ketti parizodim,
Qilurmen, ey sipehri bemuruvvat, dastindin,
Asiri xokdur ul sarvi hurizod dastingdin.

Necha kundur ul mohi nomehrubonim yo'q.
Jamii hamnishinlar bor-u ul oromi jonim yo'q,
Muhabbat dardi dog'idin bo'lak nomi nishonim yo'q.
Bahor o'ldi, gul ochildi, mening sarvi ravonim yo'q,
Jahon o'rtandi hajridin ul oshubi jahonim yo'q,
Firoqida g'am-u hasratdin ortuq dostonim yo'q.
Qilurmen, ey sipehri bemuruvvat, dod dastingdin dod,
Asiri xokdur ul sarvi hurizod dastingdin.

Falak jismimni tufrog' ayladi, jonimni tindurdi,
Ko'ngul shahbozini anduh domiga ilinturdi,
Tajammul oftobini falak tufroga indurdi,
Tegib sangi malomat shishai sabrimni sindurdi,
Quyosh chobuksuvorin to falak raxshiga mindurdi,

Muhabbat ahliga javr-u jafosini bilinturdi,
Qilurmen, ey sipehri bemuruvvat, dod dastingdin,
Asiri xokdur ul sarvi hurizod dastingdin.

Jahon bog'ida bulbuldek fig'onim sud qilmaydur,
Guli tasvir yanglig' g'unchai baxtim ochilmaydur,
Na derman Komila pinhon g'amimni yor bilmaydur,
Ko'ngul dardini sharh etmakka bir hamdam topilmaydur,
Ko'ngul bexuddur, g'am bodasidin to yiqilmaydur,
Falak berahmdur, faryod qilsam ko'zga ilmaydur,
Qilurmen, ey sipehri bemuruvvat, dod dastingdin,
Asiri xokdur ul sarvi hurizod dastingdin.

TARKIBBAND

Arzim senga, ey jahon amiri,
Jon birla ko'ngul g'aming asiri.
Sensiz bu ko'ngulni qildi majruh,
Shamshiri firoq-u hajr tiyri.
Har go'shada qullaring parishon,
Sen erding alarning dastgiri.
Faryodki, emdi benavomen,
Sendek kishi vaslidin judomen.

Qildim adam ixtiyor sensiz,
Olamda menga ne bor sensiz.
Ko'ngulga erur malolat afzo,
Sayri chamanu bahor sensiz.
Cen qandaki bo'lding furqat ichra,
Yuz joni aziz xor sensiz.
Gar bo'lmasa vasling, mukarram,
Manzur emas ko'zumg'a olam.

Ey yori shakar labu vafodor,
Erding bu jahonda menga g'amxor.

Sendin meni oqibat ayirdi,
Yuz makr bila sipehri g‘addor.
Bedorligimda ko‘rmog‘im yo‘q,
Kelgil bu kecha tushumga, ey yor.
Kelsang qadamingdin o‘rgulurman,
Lutf-u karamingdin o‘rgulurman.

Bo‘ldi iki yil judolig‘imga,
Ko‘z tegdi bu oshnolig‘imga,
Hijron alamida benavomen,
Rahm ayla bu benavoligimga.
Bir dam seni qilmadim faromo‘sh,
Rahmat meni bovafolig‘imga.
Ko‘nglumda hanuz ishtiyoqing,
Jon ichra talotumi firoqing.

Iqlimi Adamga ketti yorim.
Yuzlandi xazona navbahorim.
To xisravi mulki davlat erding,
Vasl ichra xush erdi ro‘zgorim.
Men sabr bila tahammul etdim,
Harchandki ketti shahsuvorim,
Emdi bu jahon mute’i xonbod.
Shahzodalar umri jovidon bod.

Kel, diydalarimda qil nishiman,
Bir lahza ko‘zumni ayla ravshan.
Gul furqatida nechukki bulbul,
Hajringda ishim fig‘onu shevan.
Oshuftau zor sendin ayru,
Ey toza bahori bog‘u gulshan.
To bor bu jahon menu so‘rog‘ing,
Jonda alaming, ko‘ngulda dog‘ing.

Bulbul sifat aylaram tarona,
Ul gul gazali erur bahona,

Azm ayladi kibriyo janobin,
Sultoni baland ostona.
Ko'ying sari aylaram damo-dam,
Ko'z yoshini nomasin ravona.
Bor erdi senga mute'u mahkum,
Xoqoni Xito, xalifai Rum.

Ey do'st, firoq ilgidin dod,
Qildi meni mustamandu noshod.
Albatta, farishta, yo parisen,
Bu shakl ila bo'lmas odamizod.
To Komila qoldi sendin ayru,
Payvasta qilur duo bila yod.
Yo Rab, senga Tangri rohat etsun,
Joningni riyozi jannat etsun.

TARJE'BAND

Xating ishtiyoqin savod ayladim.
Ko'zumni qarosin midod ayladim.
Meni baski devona qildi g'aming.
Junun ahliga ittihod ayladim.
Ko'rub tushda vaslingni beixtiyor,
Fig'on andog'ki dod ayladim.
Rafiqim jigar xasta afgorlar,
Alar birla ahdi vidod ayladim.
Seni jud-u ehsona targ'ib etib,
Xitobingni xayrul-javod ayladim.
Murodimni sendin toparmanmu deb,
Xaloyiqqa sa'yi murod ayladim.
Xayol ichra ko'rguz menga chehrakim.
Visolingni bisyor yod ayladim.
Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog',
Nelar tushti boshimga sendin yirog'.

Xush ul kun, seni birla damsoz edim,
Niyoz ichra sarmoyai noz edim.
Falakdin buyukroq edi rif'atim,
Ki vasling harimida mumtoz edim.
Muhayyo edi barcha saydi murod.
Ki sultonim ilgida shahboz edim.
Shabu ro'z yodingda erdi ko'ngul,
Xayoling ila mahrami roz edim.
Ayog'inga boshim qo'yib subhu shom,
Sarafrozlarga sarfaroz edim.
Visolingni bazmida shodob o'lub,
Navo ahli birla navosoz edim.
Gul erdi-yu yuzing men oni shavqida,
Sahar andaliba hamovoz edim.
Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog',
Nelar tushti boshimga sendin yirog'.

Qayon bording, ey sarvinozim mening,
Sanga yetmas arzi niyozim mening.
Visolinga mag'rur edim necha kun,
Niyoz o'ldi ul barcha nozim mening.
Fig'onkim topilganda saydi murod,
Havo ayladi shohbozim mening.
Firoq ilgida topmadim choraye,
Ki vasling edi chorasozim mening.
Jamolingdin ayru tushub kechalar,
Xayoling erur dilnavozim mening.
Senga e'tiqodim ko'pu sabrim oz,
Fidodur senga ko'p-u ozim mening.
Kuyub, o'rtanub sham', suv bo'ldi pok,
Asar qildi so'z-u gudozim mening.
Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog',
Nelar tushti boshimg'a sendin yirog'.

Senga qaysi g'amni bayon aylayin,
Necha oh tortib fig'on aylayin.

Makoning sening qaysi manzildadur,
Ko‘zum yoshidin xat ravon aylayin.
Xayolingni ko‘ngulda hozir qilib,
G‘amimni senga doston aylayin.
O‘shal ahdi yolg‘on jafopeshasen,
Seni tobakay imtihon aylayin.
Judolig‘ rumuzini izhorig‘a,
Qalamni tilin tarjumon aylayin.
Ko‘ngulni sururi jigar go‘shalar,
Bular shukrini hirzi jon aylayin.
Ko‘zum nurini ravshan et, ey Xudo,
Tamoshoyi amnu amon aylayin.
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog,‘
Nelar tushti boshimga sendin yirog‘.

Erurman gahi bexudu gohi lol,
O‘kqush noladin paykarim bo‘ldi nol.
Ko‘ngul mulkina o‘t solib ishtiyoq,
Boshimni qilib xayli g‘am poymol.
Bo‘lub arg‘uvoni yuzum za’faron,
Alif qomatim bo‘ldi hajr ichra dol.
Bu farzandlarkim beribdur Xudoy,
Nasib aylagay har biriga kamol.
Xususanki ko‘z nuri xon shahriyor,
Xudo aylagay davlatin bezavol.
Muhammad Aminxoni nodirga shukr,
Bo‘lur badri tobon bu navras hilol.
Shifo topdi Valna’mi Sulton baxayr,
Ki bor erdi ko‘ngulda andin malol.
Visolinglin, ey jon, topolmay so‘rog‘,
Nelar tushti boshimga sendin yirog‘.

Sen erding jahon ichra davlat bila,
Visolingda erdim saodat bila.
Qading sarvi Xuld ichra qildi xirom,
Ko‘ngul qoldi sho‘ri qiyomat bila.

Chun men hajr vodiysida qolmisham,
Firoq ilgida yuz nadomat bila,
Duolar tilab ruhi poking uchun,
Ishim bo'ldi xayr-u saxovat bila.
Saxovat ishim, xayrdur odatim.
Seni izlaram ushbu odat bila
Sipoh-u raiyyatni tahqiq etib,
Jahon ichra qoldim mashaqqat bila.
Meni saltanat masnadida ko'rub,
Gumon etma aysh-u farog'at bila.
Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog',
Nelar tushti boshimga sendin yirog'.

Darig'oki, joni javoning sening,
Manga jon kabi erdi joning sening.
Qayu margzor o'ldi javlongahing,
Qayu bo'stondur makoning sening.
Bo'lub yuz ming afsona sharhi firoq,
Tamom o'lmadi dostoning sening.
Qayon bording, ey mehri yo'q bevafo,
Men erdim o'shal mehriboning sening.
Duolar bila dam-badam yod etar,
Firoq ichra bu notavoning sening.
Ulus hojatin ravo ayladim,
Suyungaymu ruhi ravoning sening.
Jigargo'sha ko'z nuri farzandlar,
Ki bu barchasidur nishoning sening.
Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog',
Nelar tushti boshimga sendin yirog'.

Rizojo'man, ey dilsitonim, senga,
Na bo'ldiki, yetmas fig'onim senga.
Boshim poymolingdur, ey sarvinoz,
Fidodur bu oshufta jonim senga.
Firoqingda ashkim ravondur mudom,
Ki to vosil o'lgay ravonim senga.

Bevafodur oqibat kimga vafo aylar falak,
Hasrat-u dard-u alamga mubtalo aylar falak,
Yorning, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni bebargu navo aylar falak,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

Sabr qilsam ishq dardi beqaror aylar meni,
Kasbi hush etsam junun beixtiyor aylar meni,
Dam-badam faryodim eldin sharmisor aylar meni,
Hajr dog'i dardmandu dilfigor aylar meni.
O'ylakim javri falak zor-u nizor aylar meni,
Yorsiz hijron balosiga duchor aylar meni,
Charxi dun tokay firoq ilgida zor aylar meni,
Oqibat bu dard-u g'am Majnunshior aylar meni,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Yoridin ayru ko'nguldur tiyrau oshifta hol,
Oftobim necha kun bo'ldiki ko'rguzmas jamol,
Furqat ichra badri tobon za'fidin bo'ldi hilol,
G'am yuki oxir alifdek qomatimni qildi dol,
Ey xush ul soatki erdim mahrami bazmi visol,
Dardi hijron ibtilosin aylamas erdim xayol,
Ul zamon erdi bu nuqsonlar menga ayni kamol,
Bordi ul sarvi ravon, men qolmisham behushu lol,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Qaydasen yorim, so'rog'ingda ko'ngul ovoradur,
Kechalar to subh ashkim kavkabi sayyoradur,
Sarvi qaddinga ko'zum mushtoqi bir nazzoradur,
Pirazoli charxkim oshiqkushu makkoradur,
Javru zulmidin yurakda benihoyat yoradur,
Emdikim sabr aylamakdin jaybi toqat poradur,
Yig'lamay naylayki g'am jonimni o'rtab boradur,

Chora topmay dardiga bu notavon bechoradur,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Bir kelib holimni sultonim tamosho qilmadi,
Bedavo dardimga rahm aylab, mudavo qilmadi,
Ayrilib, andin ko'ngul tarki tamanno qilmadi,
Toshbag'irlik yor faryodimga parvo qilmadi,
Yusuf ishqida bu ishlarni Zulayxo qilmadi,
O'tti Vomiq dahrdin yodini Uzro qilmadi,
Motami Farhodni Shirin taqozo qilmadi,
Layli hijronida Majnun men kabi yoqilmadi,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Benavomen qandasen, ey shahriyori muhtaram,
Sharbati vaslingni topmay qon yutarman dam-badam,
Sarv yanglig' qomatimni bori mehnat qildi xam,
Menga sensiz dard uza dard-u alam uzra alam,
Sendin ayrilg'och g'izoli xush mendin qildi ram,
Dard-yoru g'ussa hamdam, g'am farovon, aysh kam,
Bilmagan bo'lsam visoling davlatini mug'tanam,
Hajr etak ushlab, giribonimni mahkam tutti g'am,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Nola qildim yorning vasli muyassar bo'lmadi,
Toleyim rahbarlig aylab, baxt yovar bo'lmadi,
Vasl sori davlatu iqbol rahbar bo'lmadi,
Ko'zlarim mehri jamolidin munavvar bo'lmadi,
Menga hamdam bir kun ul xurshid manzar bo'lmadi,
Bir nafas diydoridin jon bahraparvar bo'lmadi,
Kimdur ulkim keldi dunyoga mukaddar bo'lmadi,
Hajr dardidin parishonhol-u abtar bo'lmadi,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Menga ul kunkim vafog‘a ahd-u paymon ayladi,
Nushdorui labi dardimga darmon ayladi,
So‘ngra qilg‘on va’dalarni barcha yolg‘on ayladi,
Yo magar ul ahd-u paymondin pushaymon ayladi,
Vasl xonidin nasibim dog‘i hijron ayladi,
Loladek bag‘rimni dog‘i furqati qon ayladi.
Xotiri jam’imni bu hasrat parishon ayladi,
Men qolib g‘urbatda, shohim azmi javlon ayladi,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Sen qilib azmi safar men dard ila mahjurman,
Yod aylab lablaring sahbosini maxmurman,
Vasling istab ofiyat sarmanzilidin durman,
El gumon aylarki bu davlat bilan masrurman,
Aylamasman saltanatni yorsiz manzurman,
Mug‘tanam bilmay visolingni agar mag‘rurman,
Emdi ko‘zgu aksidek hayratda nomaqdurman,
Qilmangiz man’i fig‘onim, yordin mahjurman,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun.
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Ey mug‘anniy, nag‘masoz et Komila guftoridin,
Kim kelur bo‘yi vafo ushshoq aro ash’oridin,
Rishtayi jonimga payvand ayla sozing toridin,
Qilmasunmu nola, ayrildi vafolik yoridin,
Toshni suv qildi ta’siri fig‘on-u zoridin,
Hogahon bir oh agar cheksa dili afgoridin.
Charx bunyodini xokistar qilur osoridin,
Bo‘lmasun mahrum oshiq yorning diydoridin,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

MUNDARIJA

Qalb va dard mushtarakligi
(Ibrohim Haqqul, Zulayho Rahmonova) 3

UVAYSIY

G'azallar 10
Muxammaslar 125
Tarje'bandlar 148
Tarkibband 153
Chistonlar 155

NODIRA

Debocha 158
G'azallar.....166
Muxammaslar.....339
Musaddas 352
Musammanlar.....353
Tarkibband 356
Tarje'band 358
Firoqnoma 363

U 14 Uvaysiy. Nodira [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul, Zulayho Rahmonova. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 368 b.
ISBN 978-9943-8722-7-1

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

UVAYSIY
NODIRA
10-jild

Adabiy-badiiy nashr

Arab yozuvidan ko'chiruvchilar: *Aziz Qayumov, E'tibor Ibrohimova, Mahbuba Qodirova*
Mas'ul muharrir *Vahob Rahmonov*

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sharofat Xurramova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23,0. Nashriyot-hisob tabog'i 18,16.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 78-1/22 Buyurtma raqami № 22-292

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
BURDONADARI

UVAYSIY

NODIRA